

А. И. Солженицын

A. I. Soljenitsin



IVAN  
DENISOVICHNING  
BIR KUNI


Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan  
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart

Ilgarigi berilmalar miqdori \_\_\_\_\_

|  |  |
|--|--|
|  |  |
|--|--|

37

38







821  
877

5.0-

Rus adabiyoti durdonalari

# ALEKSANDR ISAYEVICH SOLJENITSIN



## IVAN DENISOVICHNING BIR KUNI

*Qissa va hikoyalar*

T 57

UO'K 821.161.1-32  
KBK 84(2Ros-Rus)  
S 77

Rus tilidan **Ibrohim G'AFUROV, Risolat HAYDAROVA**  
va **Saidjalol SAIDMURODOV** tarjimasini

**Soljenitsin, Aleksandr Isayevich.** 1.57

S 77 Ivan Denisovichning bir kuni. [Matn]: Qissa va hikoyalar / A.I. Soljenitsin. Rus tilidan I. G'afurov, R. Haydarova, S. Saidmurodov tarjimasini – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. – 200 b.


ISBN 978-9943-7606-3-9

Aleksandr Isayevich Soljenitsin asarlari nafaqat rus adabiyotida, balki jahon adabiyotining noyob durdonalari sifatida e'tirof etiladi. Adibga adabiyot bo'yicha nufuzli Nobel mukofoti topshirilgani ham bejiz emas. Muallifning qay bir asarini o'qimang, xoh hikoya, xoh qissa, xoh roman bo'ladimi, mutolaa jarayonida hayrat ummoniga sho'ng'iganingizni, uning qahramonlari bilan hamnafas bo'lganingizni bilmay qolasiz. Zotan, adibning asarlari qanchalik murakkab bo'lmasin, muallif go'zallikni – soddalik, samimiylik, insoniylikda ko'radi, inson erki va qadri, adolat, insonlararo munosabatlar, e'tiqod, ezgulikni tarannum etadi.

Mazkur kitobda ham muallifning eng sara asarlari jamlangan.

UO'K 821.161.1-32  
KBK 84(2Ros-Rus)

ISBN 978-9943-7606-3-9



© A. I. Soljenitsin, 2021  
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021



## MUZ BOSGAN ZINAPOYALARDAN KO'TARILGAN ADIB

Rus adabiyotida Aleksandr Soljenitsin Lev Tolstoyning izdoshi, uning xalq hayotining yirik epik sahnalarini yaratish, milliy xarakterni tadqiq etishdek an'analarini davom ettiruvchi sifatida e'tirof etilgan. Uning ijodida jamiyatdagi evrilishlarning inson hayotiga, taqdiriga ta'siri mavzusi hamisha yetakchilik qilib keladi.

Aleksandr Soljenitsin «rasmiy» sovet adabiyotiga 1950-yillardagi «muz erishi» deb atalgan zamonda kirib keldi. Bu shaxsga sig'inish siyosatining bor dahshatlari ochila boshlagan, qatag'on davri qurbonlari, aksariyati o'limidan keyin oqlanayotgan, ming-minglab begunoh kishilar turma va lagerlardan qaytayotgan, jamiyatda bir qadar ijobiy o'zgarishlar ro'y berayotgan bir davr edi. Aynan shular qatorida adabiy hayotda jonlanish boshlangandi. A. Soljenitsin o'sha davr adabiyotiga misli ko'rilmagan yangi nafasni olib kirdi. U 1950-yillarda adabiyotda urush mavzusida yozilayotgan, sovet askarlarining jasoratlarini kuylayotgan jo'shqin roman va qissalardan farqli o'laroq, urushning fojialarini, inson boshiga tushgan kulfatlarni haqqoniy ko'rsatgan, sovetlarning yolg'on siyosati qurbon qilgan odamlar haqida yozdi. Yozuvchi bu kulfatlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan, qalbi bilan his qilgan, ko'rgan-bilganlari haqida esa bo'yab-bejab yozishni istamagan edi. Buni anglash uchun esa uning hayot yo'liga razm solish kerak bo'ladi.

Yozuvchi 1918-yilning 11-dekabrida Kislovodskda tug'ilgan. Bir necha yildan keyin uning oilasi Rostov shahriga ko'chib kelgan. Bo'lg'usi adib Rostovdagi maktabda savod chiqargan, dastlabki she'r va esselarini o'quvchilik yillarida yozgan. Uning bolaligi ancha og'ir kechgan, otasidan erta ayrilgan, oilasi faqi-

rona hayot kechirgan, turmush qiyinchiliklarini juda erta anglab yetgan.

Maktabni oltin medal bilan tugatgach, Rostov universitetida matematika yo'nalishida ta'lim oladi. Talabalik yillari iste'dodli matematik sifatida e'tirof etiladi, universitetni ham a'lo baholar bilan bitiradi. Ammo adabiyotga bo'lgan mehri hamisha uning yuragida yashaydi, oxirgi kursda ta'lim olayotgan payti Moskva-dagi Falsafa, adabiyot va tarix institutiga sirdan o'qishga kiradi. Ammo boshlanib ketgan Ikkinchi jahon urushi sabab institutni bitirolmay qoladi.

Aleksandr Isayevichning salomatligi yaxshi bo'lmagan, lekin bari-bir u urushda qatnashadi. Kostroma harbiy bilim yurtida o'qiydi, kapitan unvoniga erishadi. Bir nechta jangovar orden va medallar bilan ham mukofotlanadi.

Lekin do'sti Adam Vitkevichga Stalin siyosatiga bo'lgan qarashlarini bayon qilib yozgan maktublari bo'lg'usi yozuvchining hayotini tubdan o'zgartirib yuboradi. Uning xatini o'qigan sensor sovet ofitseri Aleksandr Soljenitsin haqidagi ma'lumotlarni «kerakli joy»ga yetkazadi, bo'lg'usi yozuvchini sakkiz yilga lagerga hukm qilishadi. U bir nechta qamoqxonalarda, lagerlarda bo'lgan.

1952-yilda yozuvchining salomatligi yomonlasha boshlaydi, unga saraton kasalligi degan tashxis qo'yishadi. Uni davolashi uchun Toshkentga jo'natishadi. Bu yerda u uzoq davolanadi, oxiri shunday xulosaga keladiki, toki ijod qilar ekan, o'limning kelish muddatini kechiktiraveradi. Shunday bo'lib chiqdi ham. Yozuvchi uzoq umr ko'rdi.

1953-yilda u ozod qilinadi. 1956-yilda esa oqlanadi. Shunday keyin adib Ryazandagi o'rta maktabda fizika va astronomiya o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. Unga shuhrat keltirgan asarlari shu davrda yoziladi va nashr etiladi. Bular «Ivan Denisovichning bir kuni», «Matryonaning hovlisi», «Kochetkovka stansiyasidagi voqea», «Zaxar Kalita» nomli qissa va hikoyalari-dir.

Uning dastlabki katta asari «Ivan Denisovichning bir kuni» 1962-yilda e'lon qilinadi va shu yiliyoq adib SSSR Yozuvchilar uyushmasiga qabul qilinadi. Lekin uning ko'p asarlari yorug'likka chiqmaydi.



1970-yilda Soljenitsin nomzodi adabiyot bo'yicha Nobel mukofotiga nomzod qilib qo'yiladi. Yozuvchi yetmish besh nomzod ichidan «Rus adabiyotining o'zgarmas an'alariga amal qilgan ma'naviy kuch uchun» degan tavsif bilan mukofotga munosib deb topildi. Sovet gazetalarida esa unga qarshi ochiq xatlar ko'payib ketdi, uni «Vatan xoini» deb ham ataganlar bo'ldi. Sovet hukumati Soljenitsinga mamlakatdan chiqib ketishni buyurdi, ammo adib ketmadi.

Davlat xavfsizlik organlari uning arxivlarini tekshiradi, unga qarshi jinoiy ishlar ochiladi, adib joniga suiqasd ham uyushtiriladi. Boisi, yozuvchining har bir asari sovet tuzumining haqiqiy qiyofasini ochib tashlar, o'sha davr hukumatining fikricha, bu asarlar SSSRning nufuziga dog' solardi. Adibning bir qancha asarlari nashrga qabul qilinmaganligi uchun xorijda bosiladi, u yangi asarlariga material to'plash uchun ko'plab qatag'on manzillarini kezib chiqadi, arxivlardagi hujjatlarni o'rganadi, Nobel mukofoti sovrindori sifatida jamoatchilik oldida qilgan chiqishlari amaldorlarning «ramka»siga umuman sig'maydi. Oxiri adibni Yozuvchilar uyushmasi a'zolidan o'chirishadi.

1974-yilda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi Soljenitsinni «SSSR fuqaroligiga tegishli bo'lmagan va SSSRga zarar yetkazadigan xatti-harakatlarni muntazam ravishda amalga oshirgani uchun» sovet fuqaroligidan mahrum qilib, Germaniya Federativ Respublikasiga deportatsiya qilishga qaror qiladi. Uning asarlari barcha kutubxonalardan yig'ib olinadi va yo'q qilinadi.

Yozuvchi Shveysariyada, keyinroq AQSHda istiqomat qiladi. Uning asarlari ham xorijda chop etiladi.

Rossiyada esa A. Soljenitsinning asarlari 1980-yillarning oxiriga kelib yana chop etila boshlandi. Bu vaqtga kelib uning vatanida siyosiy sharoit o'zgargan, sovetlar tuzumi ich-ichidan darz ketib, yemirilib borayotgan edi. Adib bu vaqtda jahon miqyosida katta shuhrat qozongan edi.

Yozuvchi endi o'z vatanida ham rasman e'tirof etiladi. 1988–1993-yillarda Rossiyada uning kitoblari millionlab adadda bosiladi. Masalan, 1989-yilda «Noviy mir» jurnali «GULAG arxipelagi» asarini qisqartirib chop qildi, nashr 1,6 mln nusxada

tarqaldi. «Birinchi doirada» romani 1990–1994-yillarda Rossiya-ning oʻnta nashriyoti tomonidan nashr etildi, uning umumiy adadi 2,23 mln nusxaga yetdi, xuddi shu davrda «Saraton kasalliklari boʻlimi» romani toʻqqiz marta qayta nashr etildi. 1990-yilda eʼlon qilingan «Rossiyani qanday quramiz» manifesti 27 mln nusxada tarqaldi.

Fuqarolik yozuvchiga 1990-yilda SSSR prezidenti Mixail Gorbachyov farmoni bilan qaytarildi.

Shu asno adibning ilgari yozilib, xorijda bosilgan yoki qoʻlbola kitob holida tarqalgan qator asarlari Rossiyada chop etila boshlanadi. Masalan, qatagʻon mavzusi yanada rivojlantirilgan «Birinchi doirada» romani 1968-yilda Gʻarbda nashr etilgan, adibning vatanida esa faqat 1990-yildagina bosildi. Unda Moskva yaqinidagi Marfino posyolkasida joylashgan, mahbuslar jargonida «sharaga» («sharashka») deb atalgan, qatagʻon qilingan olim va mutaxassis-larga moʻljallangan lager mahbuslarining hayoti tasvirlanadi. Aytish kerakki, rus fani va texnikasining koʻplab koʻzga koʻringan vakillari – genetik olim N. Timofeyev-Ressovskiy, kimyogar S. Voznesenskiy, aviakonstruktorlar A. Tupolyov, N. Polikarpov, kosmonavtika asoschilari S. Korolyov, V. Glushko, Ostankino teleminorasi muallifi N. Nikitin ham mana shunday «sharaga»da boʻlishgan. «Sharaga»da matematik sifatida Soljenitsin ham birmuncha muddat yashab, ishlagan.

Yozuvchining «Saraton kasalliklari boʻlimi» romani esa 1963–1966-yillarda yozilgan boʻlib, uning 1953–1954-yillarda Toshkent onkologiya dispanserida davolangan paytlari tasvirlanadi. Bu asar qoʻlbola kitob holida tarqalgan boʻlib, birinchi marta 1991-yilda «Noviy mir» jurnalida chop etiladi.

A. Soljenitsin 1994-yilda rafiqasi Natalya Svetlova bilan Ros-siyaga qaytdi. Rus adabiyoti, tilshunosligi rivojiga qoʻshgan ulkan hissasi uchun Rossiya Fanlar akademiyasi akademigi etib saylandi, Mixail Lomonosov nomidagi katta oltin medalga sazovor boʻldi.

2000-yillarda yozuvchining asarlari bir necha jildlik majmualar koʻrinishida bosila boshlaydi. Adib 2008-yil 3-avgustda 90 yoshida Moskvada vafot etdi.

A. Soljenitsinning ijodiy tarjimayi holida o'ziga xos o'rin tutgan bir nechta asarlari borki, ularga to'xtalib o'tish joiz. Shularning birinchisi «Ivan Denisovichning bir kuni» qissasidir.

«Noviy mir» jurnalida A. Soljenitsinning «Ivan Denisovichning bir kuni» qissasining bosilishi adabiyotdagi «muz erish» davrining yorqin dalillaridan biri bo'ldi.

Yozuvchi 1950–1951-yillar qishida Qozog'istondagi Ekibaztuz lagerida bo'lganida «Ivan Denisovichning bir kuni» asarini yozish fikriga keladi. U lagerda kechgan yillarini mahbusning bir kunlik hayotiga jamlab berishga qaror qiladi. Asarning dastlabki nomi «ShCh-854. Bir mahbusning bir kuni» deb nomlangan. Boisi, A. Soljenitsinning lagerdagi raqami shunday bo'lgan. Asar 1959-yilda Ryazanda yozilgan. 1962-yilda «Noviy mir» jurnalida o'sha paytdagi davlat rahbari N. Xrushchovning yordami bilan bosiladi, keyinroq ikki marta alohida kitob holida chop etiladi.

Asar chop etilgach, Soljenitsin sobiq mahbuslardan juda ko'plab maktublar olgan. Mana shu materiallar unga keyinchalik «GULAG arxipelagi» asarining yozilishida xizmat qildi. «Ivan Denisovichning bir kuni» esa ushbu mashhur asarga berilgan turtki bo'ldi.

Asarning bosh qahramoni Ivan Denisovichning prototipi yo'q. Yozuvchining aytishicha, uning fe'l-atvori Ikkinchi jahon urushida Soljenitsin batareyasida xizmat qilgan oddiy askar Shuxovniki. Lekin askar Shuxov hech qachon qamoq va lagerlarda bo'lmagan. Bosh qahramon A. Soljenitsin lagerlarda ko'rgan ko'plab mahbuslarning umumlashma obrazi, yozuvchi bu obrazni yanada boyitish uchun o'zining lager hayotidan orttirgan ba'zi «tajriba»larini ham qo'shgan. Asarning qolgan qahramonlari esa o'z prototiplariga ega.

A. Soljenitsin «Ivan Denisovichning bir kuni» asarini hiko-ya deb atagan. Ammo jurnalda u qissa deya chop etiladi. Darhaqiqat, asarni ko'lami jihatidan qissa deyish, nazarimizda, to'g'ri-riroqdir.

Ivan Denisovich nafaqat lagerdagi mahbus, balki erki bo'lmagan, bor qayg'usi tirik qolishdan iborat bo'lgan sovet davri kishisining umumlashma obrazidir. Bu asar o'zining mavjudligi bilanoq sotsialistik realizm deb atalgan tamoyilni yo'qqa chiqardi.

Asarda ko'plab falsafiy va axloqiy muammolar ko'tarib chiqilgan. Bular inson erki va qadri, adolat, insonlararo munosabatlar, e'tiqod, yaxshilik va yomonlik haqidagi azaliy qarashlardir.

A. Soljenitsin rus adabiyoti uchun an'anaviy bo'lgan mavzu – kichkina odam muammosi haqida yozadi. Ivan Denisovich o'sha davrda yashagan millionlab kichkina odamlarning biri. Qatag'on lagerlarining maqsadi barcha odamlarni katta mexanizmining kichkina murvatlariga aylantirishdan iborat edi. Kim kichkina bo'lishni istamasa, u halok bo'ladi. Yozuvchi sovet tuzumini katta-kon lager sifatida ko'radi. A. Soljenitsin «Men birgina Stalinni emas, butun sovet tuzumini aybdor deb bilaman», degan. Asarni o'qigan kishi ham shunday deb o'ylaydi.

Soljenitsin Ivan Denisovichning o'y va xayollari orqali mahbuslar hayotini mayda-chuydalarigacha tasvirlar ekan, bu tasvirlar bosh qahramon va asar personajlarining fojiali hayoti bilan tanishish uchun bir vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ivan Denisovich urushda oddiy askar bo'lib qatnashgan dehqon. Lagerga ham oddiy bir sabab bilan tushgan. U halol jang qilgan, noshudlarcha boshqarilgan jangovar operatsiya oqibatida asirlikka tushib qolgan, lekin ikki kunga qolmay qochgan. Lekin uni lagerga tashlash uchun shuning o'zi yetarli bo'ldi. Shuxov aytmoqchi: «Men nega o'tiribman? Qirq birinchi yil urushga tayyor bo'lishmagani uchunmi, shungami? Mening ay-bim nima?» Qissadagi har bir personajning o'z fojiasi bor. Bu urushda ittifoqchilar kemasida aloqa ofitseri bo'lib xizmat qilgani uchun xoin degan tamg'a bosilgan kapitan Buynovskiy, otasi quloq qilingani uchun muvaffaqiyatli boshlanib kelayotgan harbiy xizmatiga qora chiziq tortib yuborilgan Tyurin, banderachilarga sut olib borgani uchun qamalgan o'spirin Gopchik, katta lavozimlarda xizmat qilgan, qamalganidan keyin yaqinlari undan yuz o'g'irgan Fetyukov...

Ivan Denisovich boshidan kechgan, asarda tasvirlangan bir kunini deyarli baxtli deb hisoblaydi. Tasavvur qiling-chi, mahbusning baxtsiz o'tgan kuni qanday bo'lishi mumkin?

A. Soljenitsin o'z qahramonini ataylab ziyolilar yoki nohaq jabr ko'rgan harbiy yoki kommunist qilib olmagan, yozuvchining niyati



tuzumning oddiy xalq boshiga solgan kulfatini ochib berish edi, nazarimda.

«Ivan Denisovichning bir kuni» nafaqat mavzusi, balki ramzlari, qahramonlari, tasviri, konsepti, hatto tasviriy ifoda vositalari bilan ham mavjud barcha qolip va qarashlarni buzib yuborgan, jonli rus tilining bor imkoniyatlarini ochib bergan asardir.

Uning yana bir ahamiyatli asari bo‘lmish «O‘ng panja» hikoyasi 1960-yilda yozilgan, unga yozuvchi o‘zi guvoh bo‘lgan voqeani asos qilib olgan. Adib hikoyani bir necha marta qayta ishlab, nihoyat, 1965-yilda uni nashrga topshiradi. Unga «Tasvir juda yaxshi, lekin umuman olganda, bu sizning yozganlaringiz ichidagi eng dahshatlisi» degan javobni oladi. Hikoyani bironta ham jurnal qabul qilmaydi. U o‘quvchilar orasida qo‘lbola kitob holida tarqaladi. Qo‘lbola kitoblardan biri xorijga chiqib ketadi va emigrantlar nashr etayotgan «Grani» jurnalida 1968-yilda bosiladi. Yozuvchining vatanida esa «O‘ng panja» 1990-yilga kelibgina chop etilgan.

1953-yilda yozuvchining o‘zi yozganidek, u Toshkentga o‘limini kutgani keladi. Adibning tarjimayi holidayi mana shu fakt «O‘ng panja» hikoyasiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

U Toshkentga qishda keladi. Voqealar «Xavotirsiz Toshkent bahori deraza ortida o‘tib ketib, yoz kelib, oyoqqa turib, shalviragancha sayr qilishga chiqqan» paytidan boshlanadi. Hikoya boshqa shaharlik og‘ir bemorni kasalxonaga joylashtirish bilan bog‘liq voqea asosiga quriladi. Ammo uning tagzaminini, g‘oyasi va konsepti juda keng.

Hikoyaning asosiy vaziyati, ya’ni insonning o‘limga yuzma-yuz kelishi rus adabiyotida nihoyatda ko‘p tasvirlangan. O‘lim inson yashab o‘tgan hayotga berilgan baho, odam ishongan g‘oyalar, maqsadlar qanchalik yashovchanligini tekshiruvchi imtihondir. «O‘ng panja» ramziy hikoyadir. Qahramonning o‘limi nafaqat uning hayoti, bosib o‘tgan yo‘li, axloqiy qadriyatlarini anglab yetish, balki davlat mafkurasiga, 1917-yilgi tuzum almashinuviga, sovet davri odamining dunyoqarashiga berilgan baho. Yozuvchi bu asarida rus mumtoz adabiyotining insonparvarlik an‘anasini davom ettiradi. Rus adabiyotining eng yaxshi asarlari g‘oyasiga hamohang tarzda A. Soljenitsin bu hikoyasida ham zo‘ravonlik va yolg‘onga murosasizlik,

inson qadrini ulug'lash, inson va jamiyat munosabatlari mavzusini ko'taradi. Qahramonning o'lik o'ng panjasi bu erksizlikning ramzi, haqiqat yo'qligiga ishora, demak, oliy maqsadi bo'lmagan nimaiki bor, bari o'limga mahkum. Aslida, hikoyaning bosh qahramoni hayotning o'zi.

Muallif hikoyani tirik va o'lik dunyoni qarama-qarshi qo'yish prinsipi asosiga quradi. Voqealarni hikoya qilayotgan yozuvchi – xastalikdan forig' bo'layotgan, hayotga qaytayotgan odam. O'ng panjasi ishlamaydigan sobiq chekist – o'lim ostonasida turgan og'ir kasal.

Hikoyada uchinchi odam – kasalxona xodimasining ishtirok etishi ham tasodifiy emas. U – inson fojiasiga befarq tuzumning ramzi.

«Faqirsiz qishloq turmas» hikoyasi «Matryonaning hovlisi» nomi bilan ham mashhur. Bu asar ham ba'zi jihatlari bilan yozuvchining tarjimai holida qayd etilgan voqealarni eslatadi.

A. Soljenitsin surgundan keyin Vladimir oblastidagi Milsevo qishlog'ida yashagan (hikoyada qishloq nomi Talново deb o'zgartirilgan) va Matryona Vasilyevna Zaxarova degan ayolning uyida ijarada turgan.

Adib bu asarida ham o'z uslubiga sodiq qoldi: bir qahramon qismati orqali mamlakat taqdirini tasvirladi.

Hikoya 1959-yilda yozilgan. Shoir Aleksandr Tvardovskiy yordami bilan 1963-yil boshida «Noviy mir» jurnalida «Matryonaning hovlisi» nomi bilan chop etilgan.

«Matryonaning hovlisi» degan sarlavha berilishining sababi, nazarimda, oddiy dehqon ayolning hovlisi butun mamlakat qadar kengayadi, axloqiylik g'oyasi esa umuminsoniy g'oya darajasigacha kengayib boradi. Demak, hikoyaning asosiy mazmuni alohida bir qishloqning hayoti emas, mamlakat hayotiga va xalqni boshqarayotgan hokimiyatga yangicha qarashga urinishdan iborat.

E'tibor bering, hikoyada ko'rsatilishicha, inson bolalikdan keksalikkacha tinmay mehnat qiladi, hayotida ko'rgan ko'p talofatlari-ga bardosh beradi, o'z manfaatlarini unutadi. Og'ir mehnat sabab salomatligidan ayriladi, lekin buning evaziga hech narsa olmaydi. Boisi, allaqanday qog'ozlar yetishmagani. Idoralarni esa inson taq-

diri emas, qog'ozlarning to'g'ri to'ldirilgani, kerakli odamning imzo va muhrlari kerakli joyga qo'yilgani qiziqtiradi. Matryona bu yerda noto'g'ri ishlayotgan tizimning jabrdiydasi bo'lib ko'rinadi.

Uning atrofidagi odamlar – qishloq aholisi ham o'z manfaati uchun qayg'uradi. Qaynog'asi Faddey Mironovich o'zingga tegishli uyning bir qismini meros tariqasida hoziroq berasan deya Matryonani holi joniga qo'ymaydi. Matryona rozi bo'lgach, qaynog'asining ochko'zligi sababli uyning xarilari ortilgan ikkita chana bitta traktorga tirkashadi, traktorning yukni tortishga kuchi yetmaydi-yu, chana poyezd tagida qolib, Matryona ham, Faddey Mironovichning o'g'li ham halok bo'ladi. Odamlarning ochko'zligi shu darajaga boradiki, dugonasi, singillari Matryonaning uyini talay boshlaydilar. Faddey Mironovich esa uyida o'g'lining tobuti turishiga qaramay, poyezd yo'lida qolib ketgan xarilarni tashishga kirishadi.


Na hamqishloqlari, na qarindoshlari Matryonani tushunishdan ojizdirlar. Chunki bu ayol o'z ma'naviyatiga ko'ra ulardan juda yuksakda.

«Matryonaning hovlisi» rus adabiyotshunosligida ko'plab bahslarga sabab bo'lgan asar. Uni monumental hikoya deya ta'riflashadi. Adib yaratgan oddiy dehqon ayol obrazi o'zida eng yuksak insoniy fazilatlarini jamlagan yuksak ma'naviyatli inson bo'lib gavdalangan.

Umuman olganda, A. Soljenitsinning asarlarini oddiy insonga qo'yilgan haykal, deya ta'riflash mumkin. Uning qahramonlari o'z qarashlari, itilishlari va ma'naviyati bilan tussiz olomondan ajralib turadi. Ularning betakror qiyofasi inson deya atalmish xilqatning siyratini to'ldiruvchi chizgilar bo'lib, rus adabiyotida yaratilgan xalq karakterini yanada yorqinlashtirib yuborgan.

Aleksandr Isayevich hayoti davomida yigirmadan ortiq mukofotlarga sazovor bo'lgan. Ular orasida Ikkinchi jahon urushining jangovar orden va medallari, Angliya, Fransiya, Italiya, Bolgariya, Serbiya, Rossiya adabiy mukofotlari bor. Eng ahamiyatlisi, albatta, Nobel mukofotidir.

Nobel mukofotini topshirish marosimidagi nutqida yozuvchi adabiyotning zulmga qarshi kurashi mavzusida so'zlar ekan, jumladan,



shunday deydi: «Bizdan adabiyot ochiq-oydin zo‘ravonlikning ayovsiz zug‘umlariga qarshi nima qila oladi, deb so‘rashadi. Shuni unutmaslik kerakki, zo‘ravonlikning bir o‘zi yasholmaydi va yashamaydi ham, u shubhasiz, yolg‘on bilan aralashib ketadi. ...Mardonavor oddiy odamning oddiy qadami yolg‘onda ishtirok etmaslik, yolg‘on xatti-harakatni qo‘llamaslikdir. Yozuvchi va san‘atkorlarning vazifasi murakkabroq. Ular yolg‘on ustidan g‘alaba qilishlari lozim. Yolg‘on bilan kurashda san‘at hamma vaqt g‘alaba qilgan va g‘alaba qiladi. Yolg‘on dunyodagi ko‘p narsalarga chidash beradi, lekin san‘at oldida ojiz. Yolg‘onni puflab salgina o‘chirsang bormi, zo‘ravonlik yang‘ochlanib qoladi va chirigan gavdasini tutib turolmay, qulaydi. Mana, nima uchun, do‘stlar, biz bu o‘tli soatlarda dunyoga madad bera olamiz, deb o‘ylayman».


**Risolat HAYDAROVA,**

*O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi*









Har kungidek, tonggi soat beshda shtab baragining yonida osig'liq relsga bolg'a bilan urib, uyg'otishdi. Uzuq-uzuq sado ikki enlik muzlagan oynalardan arang sirg'alib kirdi-da tezda o'chdi: kun sovuq, nazoratchi o'zini ortiqcha urintirishni istamasdi.

Sado tindi, deraza orti Shuxov hojatga turgan paytidagidek qopqora zulmat, faqat oynaga uchta – zonadagi ikkita va lager ichidagi bitta fanorning nuri tushardi.

Negadir barak eshigini ochgani kelishmayotgandi, navbatchilarning tuvak ag'dariladigan bochkalarni tashqariga chiqarish uchun tayoqqa ilayotganlari ham eshitilmayotgandi.

Shuxov turishga buyurishgan payti hamisha uyg'ongan bo'lardi, u zang bo'yicha o'rnidan turardi – darvoza oldiga chiqargunlarigacha bir yarim soat vaqt bor, bu umumiy tartibga kirmagan, o'zining vaqti edi, kim lager hayotini bilsa, bu fursatda durustgina tirikchilik qilib olishi mumkin: kimgadir eski astardan qo'lqop uchun g'ilof tikib berish; boy brigadir uyum atrofida yalangoyoq yurib, izlamasligi uchun uning qurigan piymasini shundoqqina narasi yoniga keltirish yoki kapyorka<sup>1</sup> bo'ylab yurgilab, biron bir yerda kimgadir dastyorlik qilib qo'yish – supurib berish yo nimanidir keltirib berish; yoxud stollar ustidan tovoqlarni bir uyum qilib yig'ib idish-tovoq yuvuvchiga eltib berish – bunda ham qorningni to'yg'azishadi, lekin bu yerda xizmatga tayyorlar ko'p, ularning keti uzilmaydi, muhimi – agar tovoqda biron nima qolgan bo'lsa, o'zingni tutolmaysan, tovoqni yalashga tushasan. Shuxov birinchi brigadiri Kuzyominning so'zlarini yodida mahkam ushlab qolgan, u lagerda suyagi qotganlardan edi, qirq uchinchi yilning o'zidayoq qamalanganiga o'n ikki yil bo'lgandi, bir kuni taqir sayxonda, gulxan atrofida yangi

---

<sup>1</sup> *Kapyorka* – harbiy qism, qurilish, shuningdek, lagerlarda mulk saqlanadigan ombor shunday deb ataladi (*izohlar tarjimonlarniki*).

brigadasiga – frontdan keltirilgan mahbuslarga shunday degandi:

– Bu yerda, yigitlar, tayganing o‘zi qonun. Lekin odamlar shu yerda ham yashayapti. Lagerda kimdir o‘ladi, kimdir tovoq yalaydi, kimdir sanitar qismdan umid qilsa, kimdir tutinganlari oldiga bitboqarlikka<sup>1</sup> qatnaydi.

Tutinganlar haqida u albatta, oshirib yubordi. Ular o‘zlarini ehtiyotlashadi. Faqat ularning ehtiyoti begonalarning qoni evaziga bo‘ladi.

Shuxov hamisha zang ovozi bilan turardi, ammo bugun turmadi. Kechqurunoq mazasi qocha boshlagan, tanasi bir zirqirasa, bir qaqsardi. Tunda ham isinolmadi. Uyqu aralash hali tamoman kasal bo‘lgandek, hali sal tuzuk bo‘lgandek tuyulib yotaverdi. Tong oti-shini hech istamadi.

Biroq tong o‘z navbati bilan yetib keldi.

Ha, bu yerda qanaqasiga isinarding – derazada muz qatqalog‘i to‘planib turibdi, barak bo‘ylab – barak ham kattakon! – shift bilan devor tutashgan joylar boshdan-oyoq oppoq to‘r. Qirov.

Shuxov turmadi. U vagonkaning<sup>2</sup> tepasida adyol va bushlatga boshi bilan burkanib yotardi, paxtalik kamzulning qayrilib qolgan bitta yengiga esa ikkala tovonini suqib olgandi. U atrofni ko‘ra olmasdi, lekin ovozlarga quloq solib barakda, jumladan, brigadasi yotgan burchakda nimalar bo‘layotganini bilardi. Mana, yo‘lakda og‘ir-og‘ir qadam tashlagancha navbatchilar sakkiz chelakli tuvaklardan birini olib o‘tishdi. Bu yengil, nogironlarning ishi hisoblanadi, lekin uni to‘kmasdan olib chiqib ko‘r-chi! Mana, 75-brigadada quritilgan piymalarni tapillatib polga tashlashdi. Mana, biznikida ham shunday bo‘ldi (bugun piymalarni quritish navbati bizniki edi). Brigadir va uning yordamchisi indamay piyma kiyishyapti, ularning vagonkasi g‘ijirlayapti. Brigadirning yordamchisi hozir non kesuvchilarning

---

<sup>1</sup> *Tutingan* – mahbuslar jargonida turma va lagerlardagi tezkor qism boshlig‘i, bitboqar – hukm qilinganlar orasidagi gap-so‘zlarni tezkor qismga yetkazib turuvchi mahbus.

<sup>2</sup> *Vagonka* – to‘rt kishiga mo‘ljallangan nara, ya‘ni ikki qavatli taxta so‘ri. Poyezd kupelari to‘rt kishiga mo‘ljallangani uchun shu turdagi naralarni vagonka deb atashgan.

oldiga jo' naydi, brigadir esa – shtab baragiga, naryadchilarning huzuriga.

Naryadchilarning oldiga har kuni borgandek bormaydi, – Shuxovning esiga tushdi: bugun taqdirlari hal bo'ladi – ularning 104-brigadalarini ustaxona qurilishidan olib yangi Obyekt – «Ijtimoiy shaharcha» qurilishiga tashlashmoqchi. O'sha shaharcha – tap-taqir dala, qor uyumiga ko'milib yotibdi, u yerda bir ish qilishdan avval chuqurlar kavlash, ustunlar o'rnatish, qochib ketmasin deya o'zlarini o'zlari tikanli sim bilan o'rashlari kerak bo'ladi. Shundan keyingina qurishadi.

U yerda, turgan gap, bir oygacha isinadigan joy bo'lmaydi – kovak ham yo'q. Gulxan ham yoqolmaysan – nimani yoqarding? Birgina najot – jon-jahding bilan ishlash.

Brigadir tashvishga tushgan, kelishgani ketyapti. Boshqa bironta brigadani, qaysidir sustkashni o'z o'rniga tiqmoqchi. Albatta, quruq qo'l bilan kelisholmaysan. Katta naryadchiga yarim kilo cho'chqa yog'i olib borishadi. Balki butun bir kilo.

Sinov qiynov emas, sanitar qismni ishga solib chap berishga, bir kunga ishdan ozod bo'lishga urinib ko'rsamikin? To'g'risi, a'zoyi badani uvishib ketyapti.

Keyin – bugun nazoratchilardan kim navbatchilik qilyapti?

Esladi – Biryarim Ivan, oriq, naynov, qorako'z serjant. Unga bir qarashda qo'rqib ketasan, keyin bilsa – hamma navbatchilardan royishlik ekan: na karserga tiqadi, na rejim boshlig'iga sudraydi. Shundoq ekan, yotsa bo'ladi, hozircha oshxonaga to'qqizinchi barak ketyapti.

Vagonka titrab, chayqalib ketdi. Biryo'la ikki kishi o'rnidan turdi: yuqorida – Shuxovning qo'shnisi baptist Alyoshka, pastda esa – sobiq ikkinchi rang kapitani Buynovskiy.

Navbatchi chollar ikkala tuvakni olib chiqisharkan, dog' suvga kim boradi, deya so'kishib qolishdi. Xuddi xotinlardek yelimqoshiq bo'lib so'kishishdi. 20-brigadadagi elektr payvandchi o'shqirdi:

– Ey, tirriqlar! – ularga piyma otdi. – Yarashlaring!

Piyma ustunga tapillab urildi. Jim bo'lishdi. Qo'shni brigadada boshi xumdek brigadir yordamchisi:



– Vasil Fyodorich! – dedi. – Oziq-ovqat stoli yana qaychiladi, aʼblah: toʻqqiz yuz toʻrtta edi, endi faqat uchta qoldi. Kimnikini kamaytiramiz?

U buni past ovozda gapirdi, lekin albatta butun brigada eshitib, pisib qoldi. Demak, kechqurun kimdir nonini kam oladi.

Shuxov esa toʻshagining bosilib ketgan qipigʻi ustida yotdi, yo-taverdi. Hech qursa, bir yoqlik boʻlsa edi – yo qaltiroq zabtiga ol-sin, yoki zirqirash bosilsin. Bu esa na u yoqlik, na bu yoqlik.

Baptist duolarini shivirlarkan, tashqaridan yeldek uchib Buy-novskiy qaytdi-da, biron kishiga qaramay, ichiqoralikka oʻxshash shodiyonalik bilan shangʻillab eʼlon qildi:

– Xoʻsh, qizil flotchilar, bardam boʻl! Naq oʻttiz daraja!

Shu bilan Shuxov bir qarorga keldi – sanitar qismga boradi.

Shu payt kimningdir qoʻli hukmonalik bilan uning ustidagi ad-yol bilan kamzulni tortib oldi. Shuxov yuzidan bushlatni olib, tana-sini xiyol koʻtardi. Pastda, boshi vagonkaning yuqori narasi bilan tengma-teng kelgan oriq Tatarin turardi.

Demak, navbatdan tashqari navbatchilik qilibdi-da, pisib kelibdi.

– Shch-sakkiz yuz ellik toʻrt! – deya oʻqidi Tatarin qora bush-latning orqasidagi oq yamoqqa qarab. – Uch kecha-kunduz kon-dey<sup>1</sup>, ishga chiqish bilan!

Uning oʻzgacha boʻgʻiq ovozi eshivilishi bilanoq chiroqlarining koʻpi yonmaydigan, ikki yuzta odam uxlaydigan, taxtakana bos-gan ellikta vagonkali yarim qorongʻi barak birdan harakatga keldi, oʻrnidan turmaganlarning bari shoshib kiyina boshladi.


– Nega endi, grajdanin boshliq? – ovoziga oʻzi his qilgandan ortiqroq taassuf ohangi berishga urindi Shuxov.

Ishga chiqish bilan degani – bu yarim hibs, issiq ovqat berisha-di, oʻylab oʻtirishga ham fursat yoʻq. Toʻla karser – bu ishga chi-qilmaydi, degani.

– Zang ovozini eshitib turmadingmi? Yur komendaturaga, – eri-nib izoh berdi Tatarin, chunki unga ham, Shuxovga ham, barchaga ham kondey nimaligi maʼlum edi.

Tatarinning gʻijimlanib ketgan koʻsa yuzi hissiz edi. U yana bir tartibbuzarni izlab ortiga oʻgirildi, lekin hamma – kim yarim qo-

<sup>1</sup> *Kondey* – mahbuslar jargonida karser, yaʼni hibsxonada shunday deb atalgan.



rong'ilikda, kim chiroq ostida, vagonkalarning birinchi qavatida ham, ikkinchi qavatida ham chap tizzasiga raqam yozilgan qora paxtalik shimlariga oyoqlarini tiqishar yoki kiyinib bo'lib, tugmalarini qadagancha eshikka – Tatarinni kutib turish uchun tashqariga shoshilishardi.

Agar Shuxovni boshqa bir arziqli sabab bilan karserga jo'natishganda unchalik alam qilmasdi. Shunisi xafa qilardiki, u hamisha birinchilardan bo'lib uyg'onardi. Lekin Tatarindan uzr so'rab bo'lmasdi, buni bilardi. Shunchaki ko'z ko'rarga uzr so'ray-so'ray, Shuxov tunda ham yechmagan paxtalik shimi tepasiga (uning chap tizzasida ham to'zigan, kirlangan laxtak tikilib, unga qora, tusi o'chgan bo'yoq bilan Shch-854 raqami chizilgan edi) paxtalik kamzulni ildi (unda bunaqa raqamdan ikkita edi – biri ko'krakda, biri – kurakda), poldagi uyum orasidan o'z piymasini tanlab oldi, telpagini kiydi-da (uning peshonasiga tikilgan laxtakka ham raqam yozilgandi), Tataringa ergashdi.

104-brigadadagilar Shuxovni qanday olib ketishganini ko'rishdi, lekin hech kim hech nima demadi: hojati yo'q, qolaversa, nima ham derding? Brigadir sal-pal oraga tushishi mumkin edi, lekin u yo'q edi. Shuxov ham hech kimga hech nima demadi, Tatarinning jig'iga tegmadi. Nonushtasini saqlab qo'yishadi, tushunishadi.

Shu tariqa, ikkovi tashqari chiqishdi.

Ayoz nafas qaytararlik zulmat bilan qorishiq. Olis burchakdagi minoralarda yongan ikkita katta proyektor nurlari butun zonani kesib o'tardi. Zona fanorlari, ichki fanorlar yonib turardi. Ular shunchalik ko'p tiqib tashlangan ediki, yulduzlarni ham to'sib qo'ygandi.

Mahbuslar piymalari bilan qorni g'archillatib bosganча o'z tashvishlari ortidan ildam yugurib o'tishardi – kim hojatga, kim kapyorkaga, boshqa birisi – jo'natmalar omboriga, boshqasi xususiy oshxonaga yorma topshirgani. Hammalari boshini yelkasi ichiga tortgan, bushlat tugmalarini solgan, hammalari ayozdan ko'ra kun bo'yi mana shu sovuqda ishlashini o'ylab sovqotardi.

Tatarin esa kirlangan moviy ilgakli eski shinelida g'oz yurib borar, sovuq unga umuman kor qilmagandek edi.

Ular lagerning toshdan qurilgan ichki turmasi – BURni<sup>1</sup> o‘rab olgan baland taxta devor yonidan, lager novvoyxonasini mahbuslardan himoyalovchi tikanli sim yonidan, yo‘g‘on sim ushlab turgan, qirov bosgan rels osilgan ustun yonidan, yanada pastroq haroratni ko‘rsatib qo‘ymasin deya shamoldan pana qilingan, qirov o‘rab olgan termometr osilib turgan boshqa bir ustun yonidan o‘tishdi. Shuxov sut rangiga kirgan quvurchaga umid bilan qarab qo‘ydi. Agar u qirq bir darajani ko‘rsatsa, ularni ishga haydamasliklari kerak edi. Lekin bugun harorat qirqqa ham yetolmagandi.

Shtab baragiga kirishlari bilanoq nazoratchilar bo‘lmasiga qayrilishdi. Shuxov yo‘ldayoq fahmlagan ish o‘sha yerda anglashildi, hech qanday karser yo‘q, shunchaki nazoratchilar bo‘lmasining poli yuvilmagan ekan. Tatarin Shuxovga seni kechirdim deb aytib, pol yuvishni buyurdi.

Nazoratchilar bo‘lmasining polini yuvish zonaga olib chiqilmaydigan maxsus mahbus – shtab baragining navbatchisiga bevosita yuklatilgan vazifa edi. Lekin ko‘pdan shtab baragiga o‘rnashib olgan u mahbus mayorning, rejim boshlig‘ining xonasiga, tutinganining huzuriga bemalol kira olar, ularga xizmat qilar, ba‘zan shunaqangi gaplarni eshitardiki, bularni hatto nazoratchilar ham bilishmasdi, shu bois birmuncha vaqtdan beri oddiy nazoratchilarning polini yuvish men uchun past ketish bo‘ladi, deb hisoblardi. Nazoratchilar uni bir marta, ikki marta chaqirishdi, nima gapligini tushungach, pollarini yuvadigan kishini kunda ishga chiqadiganlar orasidan topadigan bo‘lishdi.

Bo‘lmada pech lovullab yonardi. Yechinib, iflos gimnastyorkalarini ko‘z-ko‘zlab o‘tirgan ikki nazoratchi shashka o‘ynar, uchinchisi esa belbog‘li po‘stinini, piymasini yechmayoq xarrakda uxlab yotardi. Burchakda latta solingan chelak turardi.

Shuxov xursand bo‘lib ketdi, Tatarin kechirganiga javoban dedi:

– Rahmat, grajdanin boshliq! Endi hech qachon yotib olmayman.

Bu yerdagi qoida juda sodda edi: ishni tugatasan-u, ketasan. Endi, Shuxovga ish berishgach, zirqirash ham yo‘q bo‘lgandek tu-

---

<sup>1</sup> *Bur* – ruscha «barak usilennogo rejima» («kuchaytirilgan rejim baragi») so‘zlarining qisqartmasi.

yuldi. Chelakni olib, qo‘lqopsiz (shoshganidan ularni yostiq ostida qoldiribdi) quduqqa qarab yo‘l oldi.

PPCh<sup>1</sup>ga borgan brigadirarning bir nechtasi ustun yonida to‘plangan, ularning biri, yoshrog‘i, sobiq Sovet Ittifoqi Qahramoni ustunga chiqib, termometrni artardi.

Pastdagilar maslahat berishardi:

– Sen chetga pufla, simobi ko‘tarilib ketmasin.

– Puf-ey! – ko‘tarilarmish!.. Ta‘sir qilmaydi.

Ular orasida Shuxovning brigadiri – Tyurin yo‘q edi. Chelakni yerga qo‘yib, qo‘llarini yenglari ichiga tiqqancha Shuxov qiziqib kuzata boshladi.

Ustundagi bo‘g‘iq ovozdagi:

– Yigirma yetti yarim, e, o‘sha... – deya so‘kindi va ishonch hosil qilish uchun yana bir marta qarab olib, sakrab pastga tushdi.

– E, u noto‘g‘ri, doim adashadi, – dedi kimdir. – To‘g‘ri ko‘rsatadiganini osib o‘tirisharmidi?

Brigadirlar tarqalishdi. Shuxov quduqqa yugurdi. Quloqchilari tushirilgan bo‘lsa-da, ipi bog‘lanmaganidan ayoz qulog‘ini simillatib yubordi.

Quduqning yog‘och devorini qalin muz bosganidan chelak o‘rtadagi teshikdan arang sig‘di. Arqon esa nayzadek tik turaverdi.

Ayozdan qo‘llari bor-yo‘qligini ham sezmay qolgan Shuxov hovur ko‘tarilayotgan chelakni ko‘tarib nazoratchilar bo‘lmasiga qaytdi, qo‘lini quduq suviga tiqdi. Qo‘li ilidi.

Tatarin yo‘q edi, nazoratchilar to‘rt kishi bo‘lib olib, shashkani ham, uyquni ham tashlab yanvarda qanchadan bug‘doy berishadi, deya bahslashishardi (posyolkada oziq-ovqat topish qiyin edi, nazoratchilarga, kartochkalari allaqachon tugagan bo‘lsa-da, u-bu yegulikni posyolka ahlidan alohida, arzonlashtirib sotishardi).

– Ey, eshikni yop, gazanda! Sovuq uryapti! – gapidan chalg‘idi ulardan biri.

Ertalabdanoq piymani ho‘l qilish yaxshi emasdi. Almashtiray desa, hech vaqo yo‘q, barakka yugursang ham befoyda. Sakkiz yillik «o‘tirish» davomida Shuxov oyoq kiyim bilan bog‘liq har xil

---

<sup>1</sup> PPCh – (planovo-proizvodstvennaya chast) lagerdagi reja-ishlab chiqarish qismining qisqartirilgan shakli.



tartibga duch kelgan: shunday bo'lganki, qishni umuman piymasiz o'tkazgan, botinka ko'rmagan payti ham bo'lgan, kiygani faqat chip-ta kavush-u, ChTZ<sup>1</sup> (rezina poyafzal, avtomobil g'ildiraginingi). Endigina poyafzal ishi tartibga tushgandek bo'luvdi: oktyabrda Shuxov azamat, tumshug'i baquvvat, ikkita issiq paytava bilan sig'adigan kenggina botinka oluvdi (nega oldi desa – brigadir yordamchisi bilan kapyorkaga qatnagandi). Bir haftacha po'rim bo'lib yurdi, yangi poshnalarini rosa taqillatdi. Dekabrda esa piymalar yetib keldi – hayot soz, endi o'lmasa ham bo'ladi. Faqat allaqanday dayus buxgalteriyada boshliqqa shivirlabdiki, piymalarni olishsin-u, botinkalarni topshirishsin deb. Mahbusda biryo'la ikki juft oyoq kiyim bo'lishi tartibsizlikmish. Xullas, Shuxov tanlashga majbur bo'ldi: yoki qish bo'yi botinkada yurasan, yoki piymada, hatto bahorgi muz erir pallada ham piyma kiyasan, lekin botinkani berasan. Avaylagan edi-ya, solidol bilan yumshatgan edi, yangigina botinka, eh! – sakkiz yil ichida hech narsaga mana shu botinkachalik ichi achimagan edi. Hammanikini bitta uyumga tashlashdi, bahorda endi o'zingnikini olib bo'psan. Bu otlarni kolxozga haydash bilan baravar bo'ldi.

Hozir Shuxov ishning ko'zini bilib oldi: piymalarini chaqqongina yechib, burchakka qo'ydi, paytvasini uning ichiga soldi (qo-shiq polga jaranglab tushdi; hibsga qanchalik tez hozirlanmasin, qo-shig'ini unutmagan edi) va yalangoyoq, suvni lattaga saxiylik bilan shimdirib, nazoratchilarning piymalari tagiga otildi.

– Ey! Gazanda! Sekinroq-da! – shoshib qoldi biri oyoqlarini stulga ko'tarib olarkan.

– Gurnchmi? Guruch boshqa norma bo'yicha beriladi, sen guruchga solishtirma!

– Namuncha shilta qilmasang, tentak? Kim polni shunaqa yuvadi?

– Grajdanin boshliq! Boshqachasiga buni yuvib bo'lmaydi. Kir yeyilib ketibdi-da...

– Xotining pol yuvganini hech ko'rganmisan o'zi, ovsar?

---

<sup>1</sup> ChTZ – Chelyabinsk traktor zavodi. Zavodda ishlab chiqariladigan traktorlarning g'ildiragiga ishlatiladigan rezina juda chidamli bo'lganidan ular turma va lager mahbuslariga poyafzal tikishda ham ishlatilgan. Shu bois poyabzalni ChTZ deb atayverishgan.

Shuxov suvi sharillab oqayotgan lattasini ushlagancha qaddini rosladi. Soddadillik bilan, kemshik ogʻzini ochib iljaydi, tishlari qirq uchinchi yili lagerga kelayotib Ust-Ijmada orttirgan zangila sabab toʻkilib ketgandi. U shunaqangi azobda yetib kelgandiki, ichi qon aralash ketib shalvirab qolgan, kuchi qirqilgan oshqozoni hech narsani qabul qilishni istamagandi. Endi esa oʻsha paytdan faqat gapirganda tovushlarni yamlashgina esdalik boʻlib qoldi.

– Xotindan meni, grajdanin boshliq, qirq birinchi yilda chetlatishgan. Eslolmayman, qanaqa xotin edi u.

– Xotinlar shunaqa yuvishadiki... Hech ish qilishni bilishmaydi bu dayuslar, xohlashmaydi ham! Bularga berilayotgan non ham uvol. Najas bilan boqish kerak edi bularni.

– Buni har kuni yuvish qaysi eshakka kerak boʻlibdi? Zax ketmaydi baribir. Menga qara, ey, sakkiz yuz ellik toʻrtinchi! Sen nomi-gagina art, sal-pal hoʻl boʻlsin, keyin yoʻqol bu yerdan.

– Guruch! Sen soʻkni guruch bilan tenglashtirma!

Shuxov ishni chaqqonlik bilan uddaladi.

Ish – bamisoli tayoq, uning ikkita uchi bor: odamlar uchun bajsang – sifatiga qara, boshliqlar uchun boʻlsa – koʻz koʻrar qil. Yoʻqsa, allaqachon hamma oʻlib ketardi, maʼlum gap bu.

Shuxov pol taxtalarini quruq dogʻlarini qoldirmay artidi-da, suvi siqilmagan lattani pechka ortiga tashladi, boʻsagʻa yonida piymalarini oyoqlariga tortdi, suvni boshliqlar yuradigan yoʻlga sepib yubordida, hammom yonidan, klubning qop-qora sovuq binosi yonidan qi-yalama kesib, jadal oshxonaga joʻnadi.

Hali sanitar qismga ham ulgurish kerak edi, aʼzoyi badani tagʻin uvisha boshlagandi. Yana oshxona yonida nazoratchilar koʻziga koʻrinmaslik kerak edi: lager boshligʻining qatʻiy buyrugʻi bor – orqada qolganlarni tutib, karserga tashlash.

Bugun oshxona oldida ajoyib hodisani koʻrdi – toʻdalashib turish, navbat yoʻq edi. Kiraver.

Ichkarida hammomdagidek bugʻ koʻtarilgandi, bu eshikdan kirgan sovuq hovur va yovgʻon shoʻrvadan chiqayotgan bugʻ. Brigadalar stollar atrofida oʻtirishadi yoki joy boʻshashini kutib tor oraligʻda tiqilishib turishadi. Tor joydan oʻtayotib «qoch-qoch»laganacha har bir brigadaning ikkitadan, uchtdan ishchisi yogʻoch patnislar-

da sho'ruva bilan bo'tqa tashib kelib, stollardan bo'sh joy izlashadi. Shunda biri... Baribir eshitmadi, galvars, yag'rindor befahm, ol ulushingni, deya patnis bilan boplab turtdi. Ovqat chayqaldi-ya! Bo'sh qo'l bilan basharasiga sol, basharasiga!

To'ppa-to'g'ri! Yo'lda turma, mo'ralama, yalab olaman, dema.

O'sha yerda, stol ortida, qoshig'ini ovqatga solmay turib, yosh yigit cho'qinyapti. Demak, banderachi, yangi shekilli, eski banderachilar lagerda yashab, xochdan uzoqlashishgan.

Ruslar esa qaysi qo'l bilan cho'qinish kerakligini ham unutishgan.

Oshxona sovuq, ko'plar telpakda o'tirishib, lekin shoshmasdan ovqatlanishyapti, qora karam barglari tagidan ezilib pishgan mayda baliqni tutib olishib, suyaklarini stolga tuflab tashlashyapti. Ular stol ustida bir uyum bo'lib to'plansa, yangi brigada kelib o'tirish oldidan kimdir sidirib tashlaydi, keyin suyaklar polda qirsillab yotaveradi.

Suyakni to'ppa-to'g'ri polga tuflab tashlash odobdan emas, chog'i.

Barak o'rtasida ikki qator bo'lib ustunlarmi, tirgaklarmi, cho'zilgan, shulardan birining tagida Shuxovning brigadadoshi Fetyukov uning nonushtasini qo'riqlab o'tirardi. U oxirgi safda turuvchilardan biri, Shuxovdan pachoqroq edi. Zohiran butun brigada bir xil qora bushlatda, bir xilda yozilgan raqamlarda, botinan esa o'ta notekis, pog'onalashib ketgan. Masalan, Buynovskiyni tovoq qo'riqlashga o'tqizolmaysan, Shuxov esa hamma ishni ham olavermaydi, brigadada bundan pastroqlari ham bor.

Fetyukov Shuxovni ko'rdi, joy bo'shatarkan, xo'rsindi.

– Sovib qoldi bari. O'ringga yeb qo'ymoqchi edim, kondeyda bo'lsang kerak deb o'yladim.

Ulush kutib o'tirmadi, biladi, Shuxov unga qoldirmaydi, ikkala idishni ham tozalab suvab qo'ya qoladi. Shuxov piymasidan qoshiq chiqardi. Qoshig'i unga qadrli, egasi bilan birga butun shimolni kezib chiqqandi, Shuxovning o'zi alumin simni eritib, qumga qolip o'yib, quyib olgan, sirtida yozuvi ham bor: «Ust-Ijma, 1944».

Keyin Shuxov qirilgan boshidan telpagini oldi – qanchalik sovuq bo'lmasin, telpakda o'tirishni hazm qilolmasdi, turib qolgan suyuq ovqatini kavlashtirib, tovog'iga nima tushganini tezda tekshirib oldi.

O‘rtamiyona narsa tushibdi. Bakning og‘zidan quyishmabdi, oxiri ham emas. Fetyukov tovoqni qo‘riqlayotib, ichidagi kartoshkalarini terib olgani uchun ta‘zirini yeydi hali.

Bu shildir suvning birgina du‘rust joyi shu ediki, issiq bo‘lardi, lekin Shuxovga hozir juda sovug‘i tekkandi.

Ammo u shuni ham sekin, diqqat bilan yeya boshladi. Hozir tom yonsa ham shoshmaslik kerak. Uyquni hisoblamaganda, lager mahbusi faqat ertalab o‘n daqiqa – nonushta vaqtida, besh daqiqa – tushlikda va besh daqiqa – kechki ovqat mahali o‘zi uchun yashaydi.

Kun o‘zgarsa-da, sho‘rva o‘zgarmasdi, bu qishga qaysi sabzavotni g‘amlab olishganiga bog‘liq edi. O‘tgan yili faqat tuzlangan sabzi tayyorlashgan edi, shuning uchun sentabrdan iyungacha sho‘rva faqat sabzidan pishirildi. Bu yil esa qora karam. Lagerdagilar uchun eng to‘q davr – iyun: har qanday sabzavot tugaydi-da, o‘rniga yorma berishadi. Eng yomon davr – iyul: qichitqi o‘tni maydalab qozonga tashlashadi.

Mayda baliqning asosan suyaklari qoshiqqa ilinardi, go‘shiti ezilib, suvga aralashib ketganidan faqat boshi-yu, dumida eti qolardi. Baliq skeletining mo‘rt to‘rida na tangachasini, na etini qoldirmay, Shuxov borini tishlari orasida ezardi, skeletni so‘rib, keyin stolga tuflab tashlardi. Qanday baliq bo‘lmasin, borini yerdi: oyqulog‘imi, dumimi, o‘z o‘rnida qolgan bo‘lsa, ko‘zini ham yeb qo‘yardi, baliqning katta-katta ko‘zlari pishib, tovoqda alohida ajralib, suzib yursa, yemasdi. Buning uchun ustidan kulishardi.

Bugun Shuxov tejamkorlik qildi: barakka qaytib kirmadi, belgilangan payokni<sup>1</sup> olmadi, endi ovqatini nonsiz yerdi.

Nonni keyin alohida yeyish mumkin, to‘qroq yuradi.

Ikkinchi taomga mogar<sup>2</sup> bo‘tqa ekan. Sovib, yaxlit bo‘lak bo‘lib qotibdi, Shuxov uni bo‘laklab sindirib oldi. Mogar nafaqat sovuq, hatto issiq holida ham na ta‘m, na to‘qlik beradi: nuqul maysa, o‘t, faqat rangi sariq, so‘kka o‘xshaydi. Uni yormaning o‘rniga berishni o‘ylab topishibdi, buni xitoyliklardan o‘rganishdi, deyishadi. Qay-

<sup>1</sup> Ma‘lum vaqtga belgili miqdorda beriladigan oziq-ovqat.

<sup>2</sup> *Mogar* – Shimoliy Kavkaz va G‘arbiy Sibirda yetishtiriluvchi boshqoqli ekin. Xususiyatlariga ko‘ra, tariqqa yaqin turadi.



natilganda uch yuz grammga tortadi, mayli-da, bo'tqa deyolmaysan, lekin bo'tqa o'rmiga o'tadi.

Qoshig'ini yalab, yana avvalgi joyga, piyma ichiga tiqib, Shuxov telpagini kiydi va sanitar qismga jo'nadi.

Osmon hamon o'sha-o'sha, lager fanorlari yulduzlarini haydab solganidan qora edi. Hamon bir juft projektor keng oqim bo'lib butun zonani ikkiga kesardi. Xuddi shu lagerdek. Avvaliga ayricha boshlashgan edi – o'shanda qo'riqchilarda frontdan kelgan yorituvchi raketalar juda ko'p edi, sal qorong'i tushdi, zona ustidan raketalar sochaverishardi, oq, yashil, qizil... Baayni haqiqiy urush. Keyin raketalar otmaydigan bo'lishdi. Yoki qimmatga tushayotganmikin?

Tun o'sha-o'sha, uyg'ongan paytidagidek edi, lekin tajribali ko'z har xil mayda belgilarga qarab tez orada hammani ishga haydashlaridan darak berib zang chalinishini osongina bilib olishi mumkin edi. Cho'loqning yordamchisi (oshxona navbatchisi Cho'loq yordamchi olib, uni o'z yonidan boqib yurardi) nogiron, ya'ni zonadan tashqariga chiqmaydigan oltinchi barakni nonushtaga chaqirgani ketdi. Soqol qo'ygan qari rassom bo'yoq va mo'yqalam olgani madaniy-tarbiyaviy qismga qarab ketdi, u raqamlarni chizadi. Yana o'sha Tatarin katta-katta qadam tashlab, chiziqni kesib o'tib oshig'ich shtab baragiga qarab ketdi. Umuman, tashqarida odamlar kamayib qolishdi, demak, hamma ichkariga tiqilib olib, isinib, oxirgi shirin daqiqalarni kechiryapti.

Shuxov epcillik bilan barak burchagi ortiga burilib, Tatarindan yashirindi: ikkinchi marta qo'lga tushsang, tag'in<sup>4</sup> eshkak eshasan. Hech qachon g'aflatda qolma. Harakat qilish kerakki, hech bir nazoratchi seni yolg'iz ko'rmasin, faqat to'da ichida ko'rsin. Balki u ishga jo'natishga odam izlayotgandir, balki jahlini to'kishiga hech kim yo'qdir. Axir baraklarda buyruqni o'qib berishdi-ku, nazoratchilar oldiga yetmasdan besh qadam narida telpak yechilsin, nazoratchidan ikki qadam o'tgachgina kiyilsin. Ba'zi nazoratchi xuddi ko'rdek o'tib ketaveradi, unga baribir, boshqalari uchun esa bu lazzatning bir turi. Telpak uchun qanchalarni kondeyga tashlashdi, la'nati itlar. Yo'q, burchakdan narida tura qolamiz.

Tatarin o'tib ketdi, Shuxov sanitar qismga jo'nayman deb turgan payti esiga tushdi, axir bugun ertalab ishga jo'nar paytgacha yet-

tinchi barakdagi uzun bo‘yli latish unga ikki stakan qo‘lbola tamaki sotib olishni taklif qilgan edi, tashvish bilan xayolidan ko‘tarilibdi. Uzun bo‘yli latish kecha kechqurur jo‘natma olgan edi, balki ertaga bu tamaki qolmasligi mumkin, u holda yangi jo‘natmani yana bir oy kutasan. Tamakisi yaxshi uning, o‘tkirligi me‘yorida, xushbo‘y. Tusi qo‘ng‘irtakkina.

Shuxov ta‘bi kir bo‘lib depsinib qoldi, yettinchi barakka qayril-sinmikin? Ammo sanitar qismgacha juda oz qoldi-da. U sanitar qism eshigiga qarab mayda qadamlab yo‘rtib ketdi.

Qor oyoq ostida baralla g‘irchillardi.

Sanitar qismning yo‘lagi doimgidek ozoda, hatto polga qadam bosishga ham hayiqardi kishi. Devorlari oq emalli bo‘yoq bilan sir-langani. Mebellarigacha oppoq.

Lekin kabinetlarning hamma eshiklari yopiq edi. Vrachlar hali to‘shaklaridan turishmagandir. Navbatchi bo‘lib yosh yigit – feldsher Kolya Vdovushkin sarishta stolcha ortida ozoda oq xalatda o‘tirar va nimalarnidir yozardi.

Boshqa hech kim yo‘q edi.

Shuxov xuddi boshliq oldiga kelgandek telpagini yechdi, la-gerning nokerak joyga ko‘z yugurtirishdek odati bo‘yicha sezdi, Nikolay tekis qator qilib yozar, har bir qatorni qog‘oz chetidan joy tashlab ketma-ket yozarkan, har bir qatorni bosh harfda boshlardi. Shuxov albatta bu ish emas, chet mashg‘ulot ekanligini tushundi, ammo bu bilan uning ishi yo‘q edi.

– Haligi... Nikolay Semyonich... men anavinga o‘xshayman... kasalga... – go‘yo begona narsaga ko‘z olaytirgandek xijolatomuz dedi Shuxov.

Vdovushkin katta, sokin ko‘zlarini ko‘tarib qaradi. Egnida oq qalpoq, oq xalat, raqamlari ham ko‘rinmasdi.

– Nega munaqa kech kelasan? Nega kechqurun kelmading? Bilasan-ku, ertalab qabul yo‘q. Ozod qilinganlar ro‘yxati allaqachon PPChda.

Bularning barini Shuxov bilardi. Bilardiki, kechqurun ham ozod bo‘lish osonmas.

– Ha, axir, Kolya... Bu kechqurundan beri, kerak paytda og‘ri-maydi-da...

– Nima – bu? Nima bu – og‘riyotgan?

– O‘ylab qarasa, ba’zida hech qayerim og‘rimaydi. Lekin hamma yerim qaqshaydi.

Shuxov sanitar qismga yopishadiganlar xilidan emas edi, Vdovushkin buni bilardi. Lekin unga ertalab faqat ikki kishini ishdan ozod qilish huquqi berilgan – ikki kishini u ozod qilgan, stoldagi yashiltob oyna tagiga shu ikki kishi yozilib, chiziq tortib qo‘yilgan edi.

– Ertaroq harakat qilish kerak edi. Namuncha ishga chiqish oldidan? Ma!

Vdovushkin bankadan termometr chiqardi, termometrlar banka og‘ziga tutilgan doka o‘rtasidan kesib yasalgan teshikdan chiqib turrardi. Eritmani artib, Shuxovga uzatdi.

Shuxov devor yonidagi xarrakning chekkasiga, xarrak bilan birga ag‘darilib ketmaslik uchun omonat o‘tirdi. Noqulay joyni u hatto ataylab emas, beixtiyor, sanitar qism unga begona ekanligini, bu yerga kichik o‘tinch bilan kelganini ko‘rsatish uchun tanladi.

Vdovushkin esa yozishda davom etaverdi.

Sanitar qism zonaning eng chekka, olis burchagida bo‘lib, bu yerga hech qanday tovushlar yetib kelmasdi. Devorda soat chiqillashi ham eshitilmasdi, chunki mahbuslarda soat bo‘lishi ta‘qiqlangan, vaqtni ular uchun boshliqlar bilsa kifoya edi. Hatto sichqonlar qirtillatmas, hamma sichqonni shu maqsadda ushlab turilgan kasalxonada mushugi tutib tugatgandi.

Shuxovga shunaqa ozoda xonada, shunday sokinlikda, yorqin chiroq ostida butun bir besh daqiqa o‘tirish, yana hech narsa qilmay bekor o‘tirish g‘alati tuyulayotgandi. Hamma devorlarni ko‘zdan kechirib chiqdi – hech narsa topmadi. O‘z kamzolini ko‘zdan kechirdi – ko‘kragidagi raqam o‘chayozibdi, ushlab olmaslaridan yangilash kerak. Bo‘sh qo‘li bilan yuzidagi soqolini ushlab ko‘rdi – yaxshigina turtib chiqibdi, narigi hammom vaqtidan beri o‘sadi, o‘n kundan oshdi. Yana uch kundan keyin hammomga borishadi, o‘shanda qirib tashlashadi. Sartaroshxonada bekorga navbatda o‘tirishning nima keragi bor? Shuxovning o‘zini ko‘z-ko‘zlab ko‘rsatadigan odami yo‘q.

Keyin Vdovushkinning oppoq qalpog‘iga qarab Lovat daryosi qirg‘og‘idagi tibbiy qismni, jag‘idan jarohatlanib o‘sha yerga tush-

ganini esladi, Shuxov – aql bitmagan galvars! – o‘z ixtiyori bilan safga qaytgandi. Besh kuncha yotsa bo‘lardi o‘shanda.

Mana endi xomxayol qilib o‘tiribdi: ikki hafta, uch haftaga kasal bo‘lsa, o‘ladigan emas, jarrohga ham ishi tushmasa, lekin ishqilib kasalxonaga yotqizishsa, – ehtimol, uch haftacha yotsa, qimirlama-sa, yakkash sho‘rvaning suvi bilan boqishsa ham – mayli-da.

Ammo, deya esladi Shuxov, endi kasalxonada ham yotish yo‘q. Qaysidir etap<sup>1</sup> bilan yangi do‘xtir paydo bo‘ldi – Stepan Grigorich, shunaqangi ozg‘in, yana shang‘i, o‘zi ham tinmaydi, kasallarni ham tindirmaydi: oyoqda turaladigan hamma bemorlarni kasalxonadagi ishlarga – to‘siq o‘rnatishga, yo‘lkalarni tekislashga, gulzorlarga tuproq tashib kelishga, qishda esa qor kurashga haydab chiqarishni o‘ylab topdi. Aytadiki, mehnat kasallikka qarshi eng zo‘r davomish.

Mehnatdan otlar ham o‘ladi. Buni tushunish kerak. O‘zi tosh te-rib holdan toysa agar, balki tinch o‘tirarmidi.

...Vdovushkin esa hamon yozardi. U chindan ham «chap», lekin Shuxov anglab yetmaydigan ish bilan shug‘ullanardi. U kecha bit-kazgan yangi, uzun bir she‘rini oqqa ko‘chirar, bugun esa uni Stepan Grigorichga, o‘sha vrachga ko‘rsatishga va‘da bergandi.

Faqat lagerlardagina bo‘ladigandek, Stepan Grigorich Vdovush-kinga o‘zini feldsher deb ko‘rsatishni maslahat bergan, uni feld-sher qilib ishga qo‘ygan, endi Vdovushkin savodsiz ishchilar bi-lan beozor litvaliklar va estonlar, xullas, feldsher aslida feldsher bo‘lmasligi mumkinligi miyasiga kelmaydiganlarda sinab, tomirga ukol qilishni o‘rganardi. Aslida Kolya adabiyot fakultetining ik-kinchi kursida o‘qiyotib hibsga olingan talaba edi. Stepan Grigo-rich istardiki, yigitcha ozodlikda yoza olmagan narsalarini turmada yozsin.

... Ikki qavatli, oppoq muzdan shaffofligini yo‘qotgan oyna ora-lab elas-elas zang tovushi yangradi. Shuxov xo‘rsinib, o‘midan tur-di. Uning eti avvalgidek uvishar, lekin ishga chap berishning, ehti-mol, iloji yo‘q edi. Vdovushkin termometrga qo‘lini uzatdi, qaradi.

– Ko‘rdingmi, na u yoqlik, na bu yoqlik, o‘ttiz yetti-yu ikki. O‘ttiz sakkiz bo‘lganda hammaga ma‘lum-u ravshan edi. Seni ozod qilolmayman. Hohlasang, tavakkal qilib ko‘r, qol. Tekshirgandan ke-

<sup>1</sup> *Etap* – qo‘riqchilar bilan olib boriladigan mahbuslar guruhi.



yin do'xtir kasal deb topsa, ozod qiladi, sog' desa – bo'yin tovlagansan, demak, BURga. Yaxshisi, zonadan tashqariga borib kel.

Shuxov hech qanday javob bermadi, hatto boshini silkimadi, tepagini bostirib, chiqib ketdi.

Tanasi boshqa dard bilarmidi? Ayoz chaqar edi. Ayoz zaharli zulmat bilan Shuxovning vujudini og'ritib quchdi va yo'talishga majbur qildi. Sovuq yigirma yetti daraja, Shuxovda esa o'ttiz yetti daraja harorat edi. Endi kim kimni yengarkin?

Shuxov lo'killab barakka chopdi. Uzluksiz chizilgan chiziq bo'mbo'sh, lager ham butunisicha bo'sh turardi. Bu o'sha qisqa, hamma bo'shshagan, barchasi aniq bo'lgan, lekin o'zini bilmaganga solgan, ishga chiqilmaydi, degan xomxayolga moyil bo'lgan daqiqalar edi. Konvoy issiq kazarmalarda, uyqusiragan boshini miltiqlariga qo'yib o'tiribdi, – bunaqa qahratonda minorada qaqqayish saryog'midiki, ularga yoqsa? Bosh vaxtada o'tirgan qorovullar pechkaga ko'mir tashlashyapti. Nazoratchilar tintuv oldidan o'z bo'lmasida oxirgi sigaretlarini tutatib tugatishyapti. Mahbuslar esa butun juldurlarini kiyib olib, bor arqonlarni bellariga bog'lab, sovuqdan saqlanish uchun iyakdan to ko'zlarigacha lattalar bilan o'ranib naralarda adyollar ustida piymalari bilan yotishibdi, ko'zlari yumuq, qotib qolishgan. Toki brigadir «Ko'ta-a-ril!» deb qichqirmaguncha.

Butun barak bilan birga 104-brigada ham mudrab yotardi. Faqat brigadir yordamchisi Pavlo lablari qimirlab, qalamida nimanidir yozib hisoblar, yuqori narada baptist Alyoshka – Shuxovning qo'shnisi, ozodagina, yuz-ko'zlari yuvilgan, o'zining yozuv daftarini o'qir, unga Injilning yarmi ko'chirilgan edi.

Shuxov zing'illagancha kirgan bo'lsa-da, shovqinsiz kelib, brigadir yordamchisining vagonkasiga yaqinlashdi. Pavlo boshini ko'tardi.

– Qamashmadimi, Ivan Denisich? Tirikmisiz? (G'arbiy ukrainlarni hecham o'rgatisholmadi-da, ular lagerda ham ism-sharifni aytishadi, yana sizlashadi.)

Stoldan payokni olib, uzatdi. Payokda qora non ustiga bir siqim qand oppoq uyum qilib uyilgan edi.

Shuxov juda shoshardi, lekin xushmuomala javob qildi (brigadir yordamchisi ham boshliq, ko'p narsa hatto lager boshlig'idan

ham ko'ra unga bog'liq). Shoshganidan non ustidagi qandni lablari bilan oldi, tili bilan yalab, bir oyog'ini kronshteynga qo'yib, to'shagini tartibga solgani chiqdi, shu asno payokka bir qur ko'z yugurtirib, qo'lida chamalab ko'rdi: unda belgilangan besh yuz ellik gramm to'liqmikin? Shuxov turmalarda va lagerlarda bunaqa payoklarning ming bittadan ko'pini olgan, ularning birontasini ham tarozida tekshirib ko'rishga to'g'ri kelmagan, tortinchoq odam bo'lganidan shovqin solib, haq talashishga jur'at qilmagan, ammo har qanday mahbusga, ular qatori Shuxovga allaqachon ma'lum ediki, nonni halol kesayotib ham o'zingni ushlolmaysan. Har bir payokda kamomad bor – faqat qanday, katta emasmi? Mana, kuniga ikki marta qarab, ko'nglingni tinchitasan, balki bugun meni qattiq aldashmagandir? Balki menikida grammlarning deyarli hammasi joyidadir?

Yigirma grammcha yetmayapti, – dedi o'zicha Shuxov va payokni ikkiga bo'ldi. Bir qismini qo'yniga, kamzuli ichiga tiqdi, u yerda maxsus oq cho'ntak tikib qo'yilibdi (fabrikada mahbuslar uchun kamzullarni cho'ntaksiz tikishadi). Ikkinchi, nonushta payti tejab qolingani qismini shu yerda yeb olishni o'yladi, lekin shoshilib yeyilgan yegulik yegulik bo'lmaydi, uvol ketadi, to'ydirmaydi. Yarim payokni tumbasiga tiqmoqchi edi, yana aynidi: navbatchilar o'g'irlik uchun ikki marta kaltak yeganlarini esladi. Barak katta, eshiksiz hovlining o'zginasi.

Shu bois, nonni qo'lidan qo'ymay, Ivan Denisovich oyoqlarini piymalaridan chiqardi, shu asno paytava va qoshig'ini ham piymasi ichida qoldirib, yalangoyoq tepaga chiqdi, to'shagidagi teshikni kengaytirdi, yarimta payokni qipiq ichiga yashirdi. Boshidan telpagini yulib olib, ichidan nina-ipini chiqardi (bular ham telpak ichiga chuqur yashirilgan edi, tintuv payti telpakni ham paypaslashadi, bitta nazoratchining qo'lga nina kirib ketganda jahl ustida Shuxovning sal bo'lmasa boshini yoray degan). Chok, chok, chok – mana, payok yashirilgan teshikni ham yo'rmab qo'ydi. Har ishni Shuxov o'ta zo'riqib bajarardi – naryadchi hademay eshik tagida bo'kirib qoladi. Shuxovning barmoqlari chaqqon-chaqqon qimirlar, miyasi esa oldinga yugurgilab, u yog'iga nima bo'lishini taxminlar edi.

Baptist Injilni ichida, o‘zi uchun emas, go‘yo damini chiqarib o‘qirdi (balki ataylab Shuxov uchun o‘qirdi, axir ular – baptistlar komissarlarga o‘xshab tashviqot qilishni yaxshi ko‘rishadi):

– Faqat sizlardan kimdir qotil kabi, yoki o‘g‘ri kabi, yoki yovuz kabi, yoki begona mulkka ko‘z tikuvchi kabi azob tortmasin. Agar nasroniy esang uyalma, bu taxlit qismat uchun Xudoni sharaflama.

Alyoshka qoyilmaqom yigit-da, bu kitobchasini tirqishga shunaqangi tiqib qo‘yadiki, bironta tintuvda ham topisholmagan.

Xuddi shunday ildam harakatlar bilan Shuxov tutqichga bushlatini ildi, to‘shagi tagidan qo‘lqoplarini, bir juft churuk paytavasini, arqonini va ikki joyi qirqib qo‘yilgan lattasini chiqardi. To‘shagidagi qirindilarni sal-pal to‘g‘rilagan bo‘ldi (ular og‘ir, bosib solingan edi), adyolini to‘shagi atrofiga aylanasiga tiqib chiqdi, yotiqni o‘z o‘rniga qarab otdi-da, yalangoyoq holda pastga osilib tushib, oyog‘iga avval yangi, yaxshi paytavasini o‘radi, uning ustidan juldur paytava o‘radi.

Shu payt brigadir o‘rnidan turdi-da, bor ovozi bilan baqirib e‘lon qildi:

– Uyquni tugat, yuz to‘rtinchi! Tashqariga!

Birdaniga butun brigada, mudrayotganmidi, mudramayotganmidi, o‘rnidan turdi, esnadi-da, eshikka qarab ketdi. Brigadir o‘n to‘qqiz yildan beri o‘tiribdi, u ishga bir daqiqa ham oldin chiqarmaydi. «Tashqariga!» – dedimi, demak, chiqish vaqti yetib, o‘tayoqzan.

Brigadadagilar so‘zsiz, og‘ir qadam bosib, biri ortidan biri avval yo‘lakka, keyin dahlizga, undan usti yopiq zinapoyaga chiqib bori-sharkan, yigirmanchining brigadiri Tyuringa taqlidan «Tashqariga!» deb baqirdi – Shuxov bu orada ikki qavat paytavasi ustidan piymasini kiyishga, paxtalik kamzuli ustidan bushlatini ilib, belini arqon bilan tortib bog‘lashga ulgurdi (kimda charm kamar bo‘lsa, barini tortib olishgan, lagerda kamar taqish mumkin emas).

Shu tariqa Shuxov bariga ulgurib, dahlizda oxirgi brigadadoshlariga yetib oldi – ularning raqam yozilgan gardanlari eshikdan o‘tib zinapoyaga chiqdi. Kiyimlaridan nimaiki bo‘lsa, barini egniga ilganidan qo‘pollashgan brigadadoshlar birin-ketin qiyalamasiga tizilishib, bir-birlarini quvib yetishga urinmay, og‘ir qadamlar bilan belgilangan chiziqqa kelishar, oyoqlar ostidan faqat g‘archillagan to‘vush chiqardi, xolos.

Osmon kun chiqish tomondan yashillanib, yorishib kelayotgan bo'lsa-da, atrof hamon qorong'i. Sharqdan kuchsiz, achchiq shamol esardi.

Mana shu daqiqadan achchiqroq narsa yo'q – tongdan ishga jo'nash. Qorong'ida, ayozda, och qoringa, kun bo'yiga. Tiling aylanmaydi. Bir-biring bilan gaplashging kelmaydi.

Chiziq yonida kichik naryadchi zir yugurardi.

– Xo'sh, Tyurin, qancha kutaylik? Yana cho'zilyapsanmi?

Kichik naryadchidan Shuxov hayiqadi, Tyurin cho'chimaydi. Tyurin unga bir o'qrayadi-yu, lekin bekordan-bekor ayozga haydamaydi, jimgina qadam tashlab ketaveradi. Butun brigada uning ortidan qor uzra yurib boradi: gurs-gurs, g'achir-g'uchur...

Bir kilo cho'chqa yog'ini eltib bergan chog'i, chunki qo'shni brigadalarga qarab bilindiki, 104-brigada yana o'zining kolonnasiga keldi. Ijtimoiy shaharchaga qashshoqroq, ovsarroq birontasini haydashadi. Oh, bugun u yerda dahshatli qahraton bo'ladi: yigirma yetti daraja, yana shamol bilan, na berkinasan, na isinasan!

Brigadirga yog' ko'p kerak: PPChga beradi, o'z qursog'ini qondiradi. Brigadir jo'natma olmasa-da, yog'siz qolmagan. Brigadadan kim jo'natma olsa, unga hadya eltadi.

Yo'qsa, yashay olmaysan.

Katta naryadchi taxtachaga belgi qo'yadi:

– Tyurin, bugun senda bittasi kasal, chiqayotgani yigirma uch-tami?

– Yigirma uchta, – bosh silkiydi brigadir.

Kim yo'q? Panteleyev yo'q. Iye, kasalmi u?

Shu zahoti brigada bo'ylab shivir-shivir o'rimalaydi: Panteleyev, qanjiq<sup>1</sup>, yana zonada qolibdi. U hech qanaqangi kasal emas, uni olib qolishgan. Yana kimnidir chaqadi u.

Kunduzi uni qiyinchiliksiz chaqirishadi, istasang, uch soat ushlab tur, hech kim ko'rmaydi, eshitmaydi. Chunki sanitar qismga kasal deb rasmiylashtirib qo'yishadi.

Butun chiziq bushlatdan qorayib ketgan, brigadalar uning yonidan sekin oldinga – tintuvga siljishardi. Shuxov kamzulidagi ra-

---

<sup>1</sup> O'g'rilar qonunini buzib, nufuzini yo'qotgan o'g'rilar mahbuslar jargonida shunday deb ataladi.



qamni yangilab olmoqchi bo'lganini esladi, chiziqni kesib, narigi chekkaga qisilib o'tdi. U yerda rassomning oldida ikki-uchta mahbus navbatda turishardi. Shuxov ham kelib turdi. Raqam akalarimiz uchun zarardan boshqa narsa emas, unga qarab nazoratchi uzoqda-noq seni ko'radi, qo'riqchilar yozib oladi, lekin raqamni vaqtida yangilab olmasang yana yomon – senga kondey intizor turibdi-da: nega endi raqaming bilan ishing yo'q?

Lagerda uchta rassom bor, boshliqlar uchun bepul suratlar chizishadi, keyin yana chiziq oldiga raqam yozgani kelishadi. Bugun soqoli oppoq chol chiqqan. Telpakka mo'yqalami bilan raqam yozganda xuddi pop peshonangga miro<sup>1</sup> surtayotganga o'xshaydi.

Chizadi, chizadi-da, qo'lqopiga «kuh-kuh»lab qo'yadi. Qo'lqopi to'qima, yupqa, qo'li qotib qoladi, raqamlarni chizolmay qoladi.

Rassom Shuxovning kamzulidagi «Shch-854» raqamini yangidan chizib qo'ydi va Shuxov endi bushlatining ko'ksini yopmay (chunki tintuvgacha yaqin qolgandi), arqonini qo'liga ushlagancha brigadasini quvib yetdi. Shu zahoti brigadadoshi Sezar chekayotganini ko'rib qoldi, u trubka emas, sigaret chekardi, demak, undan olish mumkin. Lekin Shuxov to'g'ridan-to'g'ri so'ray qolmadi, Sezarning yonginasida to'xtab, yarim o'girildi-da, bir chekkaga qaradi.

U chetga go'yo beparvodek qaradi, ammo ko'rardiki, har bir tortishdan keyin (Sezar sigaretini ahyon-ahyonda, o'yga botib tortib qo'yardi) qizil cho'g' aylanasi sigareta bo'ylab yurib, uni kamaytirish asnosida mundshtukka yaqinlashib kelardi.

Shu onda Fetyukov, shoqol, yopishib oldi, Sezarning ro'parasiga turvoldi, endi uning og'ziga qarab turibdi, ko'zlari yonyapti.

Shuxovda bir chimdim ham tamaki qolmagan, u kechqurun topib qo'yishni xayoliga keltirmagandi, bugun kutishdan zo'riqib ketdi, unga hozir sigaretning mana shu qoldig'i irodasidan ham aziz ko'rinib ketayotgandi, u o'zini Fetyukovchalik yerga urmasdi, uning og'ziga termilib turmasdi.

Sezarning qonida hamma millat qorishgandi: u grekmi, juhudmi, lo'limi, tushunib bo'lmasdi. Hali yosh. Kino olardi. Lekin birinchisi-

---

<sup>1</sup> *Miro* – zaytun yog'i, oq sharob va qirqdan ortiq xushbo'y moddalar (mum, zanjabil tomiri, atirgul yaprog'i va sh.k.) aralashmasi. Pravoslav ruhoniysi ibodat payti shu aralashmani kishining peshonasiga surkab duo o'qiydi.

ni ham olib tugatmadi, qamashdi. Uning mo'ylovi qop-qora, tutash, quyuuq. Uni bu yerda qirib tashlashmaganining sababi – «ishi»dagi kartochkasida mo'ylovi bilan suratga tushgan.

– Sezar Markovich! – chidolmasdan, so'lakayi oqdi Fetyukovning. – B-i-i-ir marta tortgani bering!

Yuzi baxillikdan, istakdan ucha boshladi.

Sezar qora ko'zlari ustiga yarim tushirilgan qovoqlarini xiyol ochdi, Fetyukovga qaradi.

U chekayotgan payti xayolini bo'lmasliklari, qoldig'ini so'ramasliklari uchun ko'proq trubka chekadigan bo'lgandi. U tamakiga emas, bo'lingan xayoliga achinardi. U miyasida qudratli fikr uyg'otish va uning nimadir topishiga imkon berish uchun chekardi. Lekin sigaretiga o't tutashtirishi bilanoq bir nechta ko'zlarda: «Chekishga qoldir!» degan o'tinchni ko'rardi.

Sezar Shuxovga o'girilib, dedi:

– Ol, Ivan Denisich!

Va kalta qahrabo mundshtukda tutab turgan sigaret qoldig'ini boshmaldog'i bilan chiqardi.

Shuxov seskanib ketdi (u Sezarning o'zi unga berishini kutgandi), shoshib bir qo'li bilan sigaret qoldig'ini minnatdorona oldi, ikkinchi qo'lining kaftini esa u yerga tushib ketmasin deb pastda ochib turdi. U Sezar mundshtugini berishga irgangani uchun xafa bo'lmadi (kimning og'zi toza, kimniki sassiq), chiniqqan barmoqlari olovning o'zginasini ushlab tursa-da, kuymadi. Muhimi, u shoqol – Fetyukovning oldini to'sib qo'ydi, mana endi lablari olovdan kuyguncha tutun tortyapti. M-m-m-m! Tutun och badani bo'ylab tarqab, oyog'iga ham, boshiga ham ta'sir qildi.

Bu lazzat endigina taniga yoyilgan ediki, Ivan Denisovich shovshuvni eshitdi:

– Ichki ko'ylakni tortib olishyapti!..

Mahbusning butun hayoti shu: Shuxov o'rganib qolgan: bo'g'zingga otilmasliklari uchun hamisha hushyor bo'l.

Nega endi – ko'ylaklar? Ko'ylaklarni boshliqning o'zi tarqatmaganmide?! Yo'q, bunaqa emasdi...

Tintuvgacha oldinda ikkita brigada qolgandi, butun 104-brigada ko'rdi: shtab baragidan rejim boshlig'i leytenant Volkovoy kelib, na-

zoratchilarga bir nimalar deb baqirdi. Volkovoy yo‘qligi uchun qo‘l uchida tintayotgan nazoratchilar birdan g‘ayratga minishdi, yirtqichlardek otishdi, ularning starshinasi esa qichqirdi:

– Ko‘ylakla-a-ar yechilsi-i-in!

Volkovoydan nafaqat mahbuslar, nafaqat nazoratchilar, aytishlaricha, lager boshlig‘ining o‘zi ham qo‘rqardi.

Mana, Xudoning o‘zi muttahamga belgi qo‘yibdi, nom beribdi unga, kelib-kelib «bo‘ri» degan, Volkovoy ham bo‘ridaqa qaraydi odamga. Qop-qora, daroz, xo‘mraygan – ildam, yugurib yuradi. Barak ortidan sho‘ng‘ib chiqadi-da: «Bu yerda nega to‘plandilaring?» deydi. Bekinib qutulolmaysan. Avvallari tirsakkacha keladigan, o‘rma charm qamchi ko‘tarib yurardi. Aytishlaricha, BURda shu qamchi bilan savalagan ekan. Yoki kechki tekshiruv payti mahbuslar barak yonida to‘dalashib turishsa, u orqadan sezdirmay kelib, bo‘yinga qamchin bilan tarsillatarkan: «Nega safga turmading, gazanda?» Butun to‘da xuddi to‘lqindek undan nariga qochadi. Qamchi yegan bo‘ynini ushlaydi, qonini artadi, jim bo‘ladi: tag‘in BURga tiqmasin.

Endi nimagadir qamchi ko‘tarib yurmaydigan bo‘libdi.

Ayoz payti oddiy tintuv vaqtida kechqurun emas-u, tongda tartib ancha yumshoq edi: mahbus bushlatining oldini ochib, etaklarini chetga qayirardi. Shu tarzda besh kishi qator yurib kelishardi, ro‘parada esa beshta nazoratchi turardi. Ular mahbusning beli bog‘liq kamzulining yon tomonlarini paypaslashar, o‘ng tizzalaridagi ruxsat etilgan yagona cho‘ntakka urib ko‘rishardi, o‘zlarī qo‘lqopda turishardi, agar qo‘llariga tushunarsiz nimadir ilinsa, uni o‘sha zahoti tortib chiqarishmasdi-da, erinib so‘rashardi: «Bu nima?»

Ertalab mahbusdan nimani izlaysan? Pichoqmi? Axir ularni lagerdan olib chiqishmaydi, balki lagerga olib kirishadi. Ertalab mahbus qochib ketish uchun o‘zi bilan uch kilo yegulik olib chiqmayptimi, shuni tekshirish kerak. Bir vaqtlar shu nondan, tushlikka beriladigan ikki yuz grammlik burdadan qo‘rqishardi, shunaqa buyruq chiqarishuvdi: har bir brigada o‘ziga yog‘och jomadon yasin, brigadaning noni shu jomadonda olib yurilsin, brigadadagilardan hamma burdalar yig‘ib olinsin. Bu dushmanlar nimalardan naf ko‘rishni chamalashgan, tushunib bo‘lmaydi, bu ko‘proq odamlarni

qiynash uchun kerak, bu ortiqcha tashvish: payogingni tishlab qo‘y, belgilab qo‘y, keyin jomadonga sol, burdalar esa baribir bir-biriga o‘xshaydi, mening burdamni almashtirib qo‘yishmadimikin deb butun yo‘l bo‘yi o‘ylab, qiynalasan, keyin sheriklaring bilan janjallashasan, ba’zida mushtlashasan. Bir kuni ishlab chiqarish zonasidan uch kishi avtomashinada qochib ketdi, o‘zlari bilan mana shunaqa jomadonni olib ketishdi.

Boshliqchalar shundan keyin hushlarini yig‘ishdi, vaxtadagi hamma jomadonlarni chopib tashlashdi. Mana endi yana o‘zingnikini yoningda olib yur.

Ertalab yana shuni tekshirish kerak: lager kiyimining tagidan oddiy fuqaro kiyimi kiyishmaganmi? Axir fuqarolarning kiyimlari allaqachon belgilab, yig‘ib olingan, muddat tugamaguncha berishmaydi, deyishgan. Bu lagerda hali hech kimning muddati tugagan emas. Yana tekshirish kerakki, xat olib chiqmayotganmikin erkin yollanganlar orqali bervorgani? Lekin har bir kishidan xat izlasang – tushgacha surgalasan.

Volkovoy nimanidir izlashni buyurdi-yu, nazoratchilar ildam qo‘lqoplarini yechishdi, kamzullarning barini ochishni (u yerga har bir kishi barak taftini yashirgan edi), ko‘ylaklarning tugmalarini yechishni buyurishdi-da, paypaslay ketishdi – ustavda ma’n qilingan narsa kiyilmaganmikin? Mahbusga ikkita – ichki va ustki ko‘ylak kiyishga ruxsat etilgan, qolganini yechasan! – mahbuslar Volkovoyning buyrug‘ini qatordan qatorga shunday deya yetkazishdi. Oldingi brigadalarning o‘tib ketgani – baxti, ba’zilari darvoza ortida ketishyapti, bular esa bag‘rini ocharmish. Kimda ortiqcha kiyim bo‘lsa – shu yerda, ayozda yechib tashla!

Shu tarzda «ish» boshlashdi-yu, ishkal chiqdi: darvoza tozalanib qoldi, konvoy vaxtadan turib baqira ketdi: bo‘l! tez! Volkovoy yuz to‘rtinchi kelganda g‘azabini marhamatga alishtirdi: kimda ortiqcha nima bo‘lsa yozib olinsin, kechqurun o‘zlari kapyorkaga topshirishib, tushuntirish xati yozishsin, nega yashirishdi, qanday yashirishdi.

Shuxovning bor-budi lagerniki edi, ma, paypasla, – tagida yuragi-yu, qalbi bor. Sezarning paxmoq ko‘ylagini yozib olishdi, Buynovskiya esa chamasi, qandaydir nimchami, qorinbog‘mi bor ekan. Buynovskiy tomog‘ini yirtguday bo‘lib, o‘zining minonoset-



sida o'rganib qolgan-da, lagerga kelganiga uch oy ham bo'lmagan, qichqirdi:

– Odamlarni sovuqda yechintirishga haqlaring yo'q! Jinoyat kodeksining to'qqizinchi moddasini bilmaysizlar!..

Haqlari bor. Bilishadi. O'zing, ukaginam, hali bilmaysan.

– Siz sovet odamlari emassiz! – ularning joniga tegdi kapitan.

Volkovoy kodeksning moddasi deganga chidab turgan edi, endi esa qora chaqmoqdek sachrab tushdi:

– O'n sutka qat'iy rejim! – Keyin starshinaga sekingina: – Kechqurun rasmiylashtirasan, – dedi.

Ular ertalabdan karserga tashlashni yoqtirishmaydi: ishga chiquvchilar kamayadi. Yaxshisi kunduzi belini buksin-u, kechqurun BURga kelsin.

BUR ham shu yerda, chiziqning chap tomonida, tosh bino, ikki qanotli. Ikkinchi qanotini shu yil kuzda qurib bitkazishdi – bittasiga odam sig'may qolgan edi. O'n sakkiz kamerali turma, bir kishilik hibsonalari kattaroqlaridan to'siq bilan ajratib olingan. Butun lager yog'ochdan-u, faqat turma toshdan qurilgan.

Ayoz ko'ylak tagiga kirdi, endi uni haydab chiqarolmaysan. Mahbuslarning o'ranib-chirmanishlari bekor ketdi. Shuxovning yag'rini jonga tegar darajada zirqirayapti. Hozir kasalxona to'shagiga yotsang-u, uxlasang. Boshqa hech narsa kerakmas. Adyol qalinroq bo'lsa.

Mahbuslar darvoza oldida turishibdi, tugmalarini qadashyapti, bellarini bog'lashyapti, tashqarida esa konvoy:

– Bo'! Bo'!

Naryadchi ham orqangdan turtadi:

– Bo'! Bo'!

Birinchi darvoza. Zona oldi maydonchasi. Ikkinchi darvoza. Vaxtaning yonida, ikki tomonda to'siqlar.

– To'xta! – shovqin soladi vaxtyor. – Xuddi qo'yning podasi. Beshtadan tur!

Atrof yorisha boshladi. Vaxta ortida konvoyning gulxani yonib tugayozdi. Ular hamisha darvoza ochilishi arafasida gulxan yoqishadi – isinish uchun, yana yorug'da sanash oson bo'lsin uchun.

Vaxtyorlarning biri baralla, keskin sanaydi:

– Birinchi! Ikkinchi! Uchinchi!

Mahbuslar beshtalik bo‘lib ajralib, alohida zanjir bo‘lib keta boshlashdi, orqadan qarasa ham, oldindan qarasa ham bir xil: beshta bosh, beshta yag‘rin, o‘nta oyoq.

Ikkinchi vaxtyor nazorat qiladi, to‘siq yonida jim turadi, faqat tekshiradi: sanoq to‘g‘rimi? Yana leytenant qarab turibdi. Bu endi lagerning odami. Odam – oltindan qimmat. Sim to‘siq ortida bitta bosh yetmasa – u yerga o‘zingnikini qo‘shasan.

Yana brigada birga bo‘lib qo‘shilib ketdi. Endi konvoy serjanti sanaydi:

– Birinchi! Ikkinchi! Uchinchi!

Va beshtaliklar yana ajralib, alohida zanjir bo‘lib keta boshlaydi. Qorovullar boshlig‘ining yordamchisi narigi tomondan turib tekshiradi. Yana leytenant bor. Bu endi konvoydan.

Hecham adashib bo‘lmaydi. Ortiqcha odam deb yozvorsang – o‘z boshingni qo‘shasan.

Soqchilarning tiqilib ketgani! Kolonnani yarim aylana bo‘lib o‘rab olishdi, avtomatlarini siltalashdi, to‘ppa-to‘g‘ri basharangga to‘g‘rilab turishibdi. Sakbonlar kulrang itlarini ushlab turishibdi. Bitta it mahbuslar ustidan kulgandek tishlarini irjaytirgan. Soqchilarning hammasi pochapo‘stinda, faqat oltitasigina qalin po‘stin kiygan. Ularning po‘stinlari almashib kiyiladigan: kim minoraga chiqsa, o‘sha kiyadi.

Brigadalarni aralashtirib, konvoy soqchisi yana bir marta butun kolonnani beshtadan qilib sanab chiqdi.

– Kun chiqayotganda rosa kuchli ayoz bo‘ladi! – e‘lon qildi kapitan. – Chunki bu tungi sovuqning eng oxirgi nuqtasi.

Kapitan tushuntirishni rosa yoqtiradi. Yangimi, eskimi, oyga qarab, qaysi yilda, qaysi kunda uning yangilanishini senga hisoblab beradi.

Kapitan kishilar ko‘zi oldida cho‘kib, yonoqlari ichiga botib borardi, lekin tetik edi.

Zona ortida ayoz uzib oluvchi shamolga qo‘shilib Shuxovning hatto har narsaga chidamli yuzini ham jizillatib tishladi. Issiqlik elektr stansiyasi – IES yo‘lida ham shunday bo‘lishini, bora-bor-guncha basharasiga urishini anglab, Shuxov lattasini kiyib olish-

ga ahd qildi. Uning qarshi shamol esganda tutadigan lattachasida ko'plarnikiga o'xshab ikkita uzun yirtiq bor edi. Mahbuslar latta yordam beradi deb hisoblashardi. Shuxov yuzini ko'zigacha yopdi, yirtiqnlarni quloqlariga kiygazib, lattaning uchini ensasidan bog'ladi. Keyin ensasini telpaginging orqa qaytarmasi bilan berkitib, bushlatining yoqasini ko'tardi. Telpakning old qaytarmasini peshonasiga tushirdi. Shu tariqa faqat ko'zlarigina ochiq qoldi. Bushlatining belidan chilvir bilan tortib bog'ladi. Endi hammasi tuzuk, faqat qo'lqopi yupqa, qo'llari sovqotdi. U qo'llarini ishqaladi, bir-biriga urdi, bilar-diki, hozir ularni orqasiga olishi, butun yo'l bo'yi shu holda yurishi kerak.

Qorovullar boshlig'i jonga tegib ketgan kundalik mahbuslar «duosini» o'qidi:

– Diqqat, mahbuslar! Yo'l davomida kolonnaning qat'iy tartibiga rioya qilinsin! Orqada qolinmasin, oldinga ketilmasin, beshtalikdan beshtalikka o'tilmasin, gaplashilmasin, atrofqa qaralmasin, qo'llar faqat orqada ushlansin! O'ngga bir qadam, chapga bir qadam – qochish hisoblanadi, konvoy ogohlantirmasdan o't ochadi! Yetakchi, olg'a!

Oldingi ikkita soqchi yo'l bo'ylab keta boshladi, shekilli. Ol-dinda kolonna tebrandi, yelkalar chayqaldi, kolonnaning chap va o'ng tomonida, undan yigirma qadamcha narida ikkita soqchi bir-biridan o'n qadam uzoqlikda avtomatlarini shay ushlagancha yo'lga tushdi.

Qor bir haftadan beri yog'masdi, yo'l toptalib, tekislanib ket-gandi. Lagerni aylanib o'tishdi, shamol yuzga qiyalab ura boshladi. Kolonna qo'llarini orqaga qilib, boshlarini solintirib, xuddi dafn ma-rasimiga ketayotgandek yuraverdi. Senga faqat oldinda ketayotgan ikki-uch kishining oyog'i bilan tepkilab tashlangan yerning o'zing qadam bosayotgan bo'lagigina ko'rinadi. Ahyon-ahyonda bironta soqchi qichqirib qo'yadi: «Yuz-qirq sakkiz! Qo'llar orqaga!» «Be-besh yuz ikki! Yaqinroq yur!» Keyin ular ham kamroq qichqira boshlashadi: shamol savalaydi, qarashga xalal beradi. Ularga latta bilan betini o'rashga ruxsat etilmaydi. Ularga ham oson emas...

Kun iliqroq bo'lsa, kolonnada hamma gaplashib ketadi, ularga baqirasanmi, baqirmaysanmi... Bugun esa hamma bukchayib olgan,

har bir kishi oldinda ketayotganning yag'rini ortiga berkinadi, o'z xayollariga qarab ketadi.

Bandining xayoli ham erkin emas, o'sha-o'sha nuqtaga qaytaveradi, hammasini boshqatdan kavlayveradi: to'shagidagi payokni topib olishmasmikin? Sanitar qism ertaga ishdan ozod qilarmikin? Kapitanni qamasharmikin, qamashmasmikin? Sezar o'zining issiq ko'ylagini qanday qo'lga kiritganiykin? Yo kapyorkadagilarni moyladimi? Qanday qilib?

Nonsiz nonushta qilgani, sovigan ovqatni yegani uchun bugun Shuxov o'zini to'q emasdek sezdi. Qorni quldiramasligi, yegulik so'ramasligi uchun lager haqida o'ylashni bas qildi, tez orada uyiga xat yozishini o'ylay boshladi.

Kolonna mahbuslar qurgan yog'ochga ishlov berish korxonasidan, turar-joy majmuasidan (baraklarni mahbuslar qurishgan, ozodlikda yurganlar yashashadi), yangi klub yonidan (buni ham mahbuslar poydevoridan to devoridagi naqshigacha qo'ldan chiqarishgan, kinoni esa ozodlikda yurganlar ko'rishadi) o'tib, dashtga, shamolga ro'parama-ro'para, qizarib kelayotgan ufqqa qarab chiqib keldi. Olis-olislargacha, o'ngda ham, chapda ham yakkash oppoq qor yotar, butun dashtda bironta ham daraxt yo'q edi.

Yangi, ellik birinchi yil boshlandi, bu yilda Shuxov ikkita xat yozishga haqli edi. Oxirgi xatini iyulda jo'natib edi, javobni oktyabrda oldi. Ust Ijmada tartib boshqacha edi, istasang har oyda xat yozgin edi. Ha, xatda nimani ham yozarding? Shuxov endi bot-bot yozmasdi ham.

Shuxov uyidan qirq birinchi yilning yigirma uchinchi iyunida chiqib ketgan. Yakshanba kuni odamlar Polomnadan ibodatdan kelib: «Urush», deyishdi. Polomnada pochta xabar topibdi, Temgenyovoda urushgacha hech kimda radio yo'q edi. Hozir har bir kulbada radio shovqin soladi, deb yozishyapti, simli radio emish.

Hozir xat yozish – chuqur o'pqonga tosh otishdek gap. Nima tushsa, o'sha g'arq bo'ladi, javob bo'lmaydi. Qaysi brigadada ishlayotganingni yozolmaysan, brigadiring Andrey Prokofyevich Tyurin qanday odamligini yozolmaysan. Hozir uyingdagilardan ko'ra o'sha latish bilan, Kildigs bilan gaplashadigan gaping ko'proq.



Ular ham yiliga ikki marta xat yozishadi – ularning hayotini tushunolmaysan. Kolxoz raisi – yangi odam, rais har yili yangi bo‘ladi, ularni bir yildan ortiq ushlashmaydi. Kolxozni kattalashtirishdi, uni avval ham kattalashtirishgan, keyin yana maydalashgan. Xo‘sh, yana kim mehnat kunlarini bajarmasa, tomorqasini o‘n besh sotixgacha qisishdi, kimnikini naq uyigacha kesib tashlashdi. Yana xotini yozdiki, o‘sha mehnat kunlari uchun sudga berish, kim ularni bajarmasa, qamash to‘g‘risida qonun chiqibdi, lekin bu qonun negadir ishga tushmabdi.

Xotini yozishicha, o‘sha urushdan keyin kolxozga bironta ham tirik jon qo‘shilmabdi: yigitlarning hammasi, qizlarning hammasi, kim qanday iloj qilsa shunday, lekin yoppasiga yoki shaharga zavodga yoki torf koniga ketishyapti. Erkaklarning yarmi urushdan umuman qaytmadi, qaytganlari kolxozni tan olishmaydi, uyda o‘tirishadi, chetga ishlashadi. Kolxozdagi erkaklar: brigadir Zaxar Vasilich va duradgor Tixon, sakson to‘rt yoshda, yaqinda uylandi, bolalari ham bor. Kolxoz yukini o‘ttizinchi yillarda unga zo‘rlab kirg‘izilgan o‘sha xotinlar tortishyapti, ular yiqilsa kolxoz ham o‘ladi.

Mana shuni Shuxov hech tushunolmayapti: uyda yashashadi-yu, chetga ishlashadi. Shuxov yakka xo‘jalik hayotini ham, kolxozni ham ko‘rgan, lekin erkaklar o‘z qishlog‘ida ishlamasligini u hech miyasiga sig‘dirolmaydi. Bu korandalik, shekilli? Pichan o‘rimida ahvol qanday bo‘lyapti?

Korandalikni, deb javob yozdi xotini, allaqachon tashlashgan. Bir vaqtlar soz bo‘lgan duradgorlikka ham borishmaydi, tol savatlar ham to‘qishmaydi, endi bu hech kimga kerakmas. Bitta hunar bor, yangi, ko‘ngilni ochadigan – bu gilam bo‘yash. Kimdir urushdan trafaret olib keldi, o‘shandan beri kun-bakun munaqangi omilkorlar ko‘payib ketyapti: hech qayerda hisobda yo‘q, hech yerda ishlamaydi, bir oyda – pichan o‘rimi va terimda kolxozga yordam berishadi, buning uchun kolxoz o‘n bir oy davomida falonchi kolxozchi o‘z ishini qilgani qo‘yvorildi, zimmasida boqimandasi yo‘q deb qog‘oz yozib berib turadi. Keyin ular butun mamlakat bo‘ylab kezishadi, hatto samolyotlarga minishadi, chunki vaqtlarini avaylashadi, pullarni esa ko‘p ming qilib supurib olishadi, har yerda istalgan, bo‘yalib ketsa achinmaydigan eski choyshabga ellik so‘m evaziga gilam chi-

zib berishadi, o'sha gilamni bir soat ichida chizib tashlasa bo'larkan, undan ko'p vaqt ketmas ekan. Xotini judayam umidvor ekanki, agar Ivan qaytsa, u ham kolxozga oyoq bosmasa, u ham shunday bo'yovchi bo'lib olsa. Shunda ular qashshoqlikdan qutulib olishardi, hozir xotini yo'qchilik bilan olishib yotibdi, bolalarini texnikumga berishardi, chirigan eski kulba o'rniga yangisini qurishardi. Hamma bo'yovchilar o'zlariga yangi uylar qurishyapti, temiryo'lga yaqin uylar endi besh ming emas, yigirma besh ming so'mdan bo'lib ketdi.

Shuxov hali ko'p o'tiradi, qish-yoz va yana qish-yoz, ammo bu gilamlar uning xayolini to'zgitib tashladi. Bu ish ayni uning uchun ekan, agar huquqlaridan mahrum bo'lmasa yoki surgun qilinmasa. Shunda u xotinidan so'radi, agar umrimda rasm chizmagan bo'lsam, qanday qilib bo'yovchi bo'laman? Bular qanaqangi ajoyib gilam bo'ldi, ularda nimalar chizilgan? Xotini javob berdiki, ularni faqat axmoqqina chizolmaydi: trafaretni qo'yan-da, teshiklarini cho'tka bilan bo'yab chiqasan. Gilamlarning uchta xili bor: birinchi gilam «Uch otli arava» – chiroyli ot qo'shilgan arava gusarni olib ketyapti, ikkinchi gilam – «Bug'u», uchinchi – fors gilamiga o'xshaydi. Boshqa hech qanday rasm yo'q, lekin butun mamlakat bo'ylab odamlar shuning o'zigayam rahmat deyishib, qo'ldan yulguday bo'lib olishyapti. Chunki haqiqiy gilam ellik so'm emas, ming so'm turadi.

Shuxov loqaq bir marta bo'lca ham ko'rsa edi o'sha gilamlarni...

Lagerlar va turmalarda yuraverib Ivan Denisovich ertaga nima bo'ladi, bir yildan keyin-chi, oilasini qanday boqadi, bularni o'ylashni ham esdan chiqargan. Hamma narsa haqida uning o'rniga boshliqlar o'ylashadi – bu osonroq, shekilli. Ozodlikka chiqsang, qanday yashaysan?..

Erkin yollangan shofyor va ekskavatorchilarning hikoyalaridan Shuxov shuni tushundiki, odamlarga to'g'ri yo'lni to'sib qo'yishibdi, lekin odamlar dovdirab qolishmayapti, aylanib o'tishyapti, shu bilan tirik yurishibdi.

Aylanma yo'ldan Shuxov ham pisib o'tgan bo'lardi. Daromad, ko'rinib turibdi, yengil, cho'g'dekkina. Hamqishloqlaridan orqada qolish ham alam qiladi, shekilli. Lekin dildan aytsa, Ivan Denisovich o'sha gilamlarga uringisi yo'q. Bunga surbetlik kerak, sullohlik de-

ganday... militsiyaning panjasini yog‘lash... Shuxov qirq yildan beri yerni tepkilab yuribdi, tishlarining yarmi allaqachondan beri yo‘q, boshida taqiri bor-u, hech kimga hech qachon bermagan, hech kimdan olmagan, lagerda ham buni o‘rganolmagan.

Oson keladigan pullar – ularning vazni bilinmaydi, keyin mana, shularni ishlab topdim, degan sezgining o‘zi yo‘q.

Chollar to‘g‘ri aytishadi: haqini qizg‘ansang, o‘zidan ayrilasan. Shuxovning qo‘llari hali butun, uquvi bor, nahotki bu yerdan chiqsa halol ish topolmasa o‘ziga?

Hali uni bu yerdan chiqarisharmikin? Hech nimadan hech nima yo‘q biron o‘n yilni ilib qo‘yishmasmikin?

Shu asno kolonna yetib kelib, Obyekt oldidagi keng yoyilgan zona vaxtasi oldida to‘xtadi. Ulardan sal oldin zona burchagidan po‘stin kiygan ikki soqchi ajralib chiqdi-da, uzoqdagi minoralarga qarab maydon bo‘ylab odimlab ketishdi. Soqchilar hamma minoralarni egallab bo‘lmaguncha ichkariga kiritishmaydi. Yelkasiga avtomat osgan konvoy boshlig‘i vaxtaga qarab ketdi. Vaxta mo‘risidan tinmay tutun chiqib turar, erkin yollanma ishchi taxta yoki sementni olib chiqib ketishmasin, deb tun bo‘yi o‘sha yerda qo‘riqlab o‘tirardi.

Sim darvozani, butun qurilish zonasini, yonboshdagi olis sim to‘siqni kesib ulkan, qip-qizil quyosh xuddi zulmat oralab chiqqandek ko‘tarilib kelyapti. Shuxovning yonida turgan Alyoshka quyoshga qarab sevinyapti, labiga tabassum yugurdi. Yonoqlari ichiga botgan, faqat payok bilangina tirikchilik qiladi, hech qayerdan yegulik qidirmaydi, nimaga shunchalik xursand? Yakshanba kunlari nuqul boshqa baptistlar bilan shivir-shivir qiladi. Lager ular uchun g‘oz ustidan suv sirg‘alib tushgandek gap. Ularga baptist e‘tiqodi uchun yigirma besh yildan ilishgan, nahotki shu bilan ularni e‘tiqodidan bezdiramiz, deb o‘ylashsa?

Og‘ziga tutib kelgan latta yo‘lda nafasi tegib ho‘l bo‘lib ketdi, u yer-bu yeriga ayoz tegib, muz qatqaloq bosdi. Shuxov uni yuzidan tomog‘iga tushirdi-da, shamolga orqa o‘girdi. Ayozdan uning biron joyiga ko‘p-da aziyat yetmadi, faqat yupqa qo‘lqopda qo‘llari sovqotib, chap oyog‘ining barmoqlari qotdi: axir chap piymasi to‘zib ketgan-da, ikki marta qaytadan choklangan. Beli, yag‘rini to yelkasigacha tortishib, zirqillayapti, qanday ishlaydi?

Ortiga qaradi-yu, brigadirga yuzma-yuz keldi, u orqa beshlikda kelardi. Brigadirning yelkalari baquvvat, yuzlari keng. Qovog‘i soliq turibdi. U brigadasiga hazil-huzul bilan muruvvat ko‘rsatavermaydi, lekin boqishga kelganda – durust, katta payoklarga kelganda – jonkuyar. Ikkinchi muddat o‘tiribdi, GULag<sup>1</sup> o‘g‘li, lager odatini ipidan ignasigacha biladi.

Lager brigadiri – bu hayot-mamot: yaxshi brigadir senga ikkinchi hayot beradi, yomon brigadir egningga yog‘och bushlat<sup>2</sup> kiydirvovradi. Andrey Prokofyevichni Shuxov Ust-Ijmadan beri taniydi, faqat o‘sha yerda uning brigadasida bo‘lmagan. Ellik sakkizinchi modda bilan tushganlarning barini Ust-Ijmadan, umumiy lagerdan olib shu yerga, katorga lageriga tashlashganda Tyurin uni o‘z qo‘l ostiga oldi. Shuxovning lager boshlig‘i, PPCh, prorab, injenerlar bilan ishi yo‘q, har yerda uning brigadiri turib beradi, brigadirining ko‘ksi po‘latdan. Ammo qoshi sal qimirladimi, yoki barmog‘ini o‘qtaldimi – yugur, bajar. Lagerda istagan odamingni alda, faqat Andrey Prokofyevichni aldama. Shunda tirik yurasan.

Shuxov brigadirdan kechagi joyda ishlaymizmi, boshqa joyga o‘tamizmi deb so‘ramoqchi bo‘ldi – lekin uning yuksak xayollarini bo‘lishga qo‘rqadi kishi. Hozirgina Ijtimoiy shaharchani yelkalaridan soqit qilib tashladi, endi balki foiz topshirishni o‘ylyayapti chog‘i, keyingi besh kunlik yegulik shunga bog‘liq.

Brigadirning yuzi chechakdan qolgan yirik cho‘tirlarga to‘la. Shamolga ro‘para turibdi, yuzini burishtirmaydi ham, beti – eman po‘stining o‘zginasi! Kolonna qo‘llarini bir-biriga urgan, turgan joyida yer tepingan... Yovuz shamol! Oltita minoraning hammasida forma kiyganlar o‘tirishibdi, chog‘i, yana zonaga kiritishmayapti. Hushyor ekanligini ko‘rsatib qo‘ymoqchi.

O‘h! Qorovullar boshlig‘i vaxtadagi nazoratchi bilan birga chiqib keldi, darvozaning ikkala tomoniga turishib, darvozani ochishdi.

– Beshtadan tar-rqal! Bir-rinchi! Ik-kinchi!

---

<sup>1</sup> Gulag – ruscha «Glavnoye upravleniye lagerey» («Lagerlar bosh boshqar-masi») so‘zining qisqartirilgan shakli.

<sup>2</sup> Yog‘och bushlat – mahbuslar jargonida tobut shunday ataladi.



Mahbuslar sal bo'lmasa safdagi qadam bilan, xuddi harbiy ko'rik paytidagidek yurib ketishdi. Faqat zonaga o'tvolishsa bo'lgani, u yog'iga nima qilishni o'rgatmay qo'yaqol.

Vaxta orqasida sal o'tmay idora budkasi keladi, idora oldida prorab turibdi, brigadirlarni saf ichidan yoniga chaqirib olyapti, ularning o'zlari ham o'sha tomonga burilishyapti. Der ham, mahbuslardan chiqqan ishboshi ham o'sha yerga ketdi, durustgina iflos u, o'z inilari – mahbuslarni itdan battar tirqiratadi.

Soat sakkiz, sakkizdan beshta o'tdi (hozirgina energopoyezd guldiradi), boshliqlar mahbuslar vaqtni yo'qotmasin deb, issiqroq joylarga sochilib ketmasin deb qo'rqishyapti, axir mahbuslarning kuni uzun, butun mavsumga yetadi. Kim zonaga kirsam, egilib qaraydi: anavi yerda tarasha, bu yerda tarasha, qarabsizki, pechkasiga olov. Inlariga sho'ng'ib ketishadi.

Tyurin Pavelga, yordamchisiga men bilan idoraga borasan, deb buyurdi. Sezar ham o'sha yoqqa burildi. Sezar boy, oyiga ikki marta jo'natma oladi, kerakli odamlarga tiqib qo'ygan, idorada chmo<sup>1</sup> – norma belgilovchining yordamchisi bo'lib ishlaydi.

Qolgan yuz to'rtinchilar darhol chetga o'tishdi-da, juftakni rostlab qolishdi.

Bo'm-bo'sh zona uzra qizil, g'uborli quyosh ko'tarildi: qayerdadir yig'ma uylarning shchitlarini<sup>2</sup> qor bosgan, anavi yerda poydevor ustiga terila boshlanib, tashlab ketilgan toshlar qatori, o'sha yerda ekskavatorning singan dastasi, narida cho'michi yotibdi, anavi yerda keraksiz temir-tersak, ariqlar qazilgan, xandaqlar, o'ralar kavlangan, bostirma tagiga avtota'mirlash ustaxonalari kiritilgan, do'nglikda esa ikkinchi qavati boshlab qo'yilgan IES binosi.

Hamma berkinib oldi. Faqat minoralarda oltita soqchi turibdi, idora oldida odamlar g'ivirsigan.

Mana shu – bizning fursatimiz! Katta prorab hamma brigadalariga topshiriqni kechqurundan beraman, deb po'pisa qiladi, deyi-

---

<sup>1</sup> *Chmo'* – mahbuslar jargonida yengil-yelpi ishlarni bajarib yuradigan mahbuslar shunday deb ataladi.

<sup>2</sup> *Shchit* – binokorlikda devor, bino kabilarning alohida tayyorlangan yirik qismi.

Hamma – kim plitalarda, kim plita quyadigan qolipda, kim to‘g‘ridan-to‘g‘ri quruq yerda o‘tirardi. Ertalabdan gapirishga til aylanmaydi, har kim o‘z xayoliga taqalib olgan, jim. Fetyukov – shoqol, duch kelgan joydan sigaret qoldiqlarini terib kelib (ularni tufukdondan ham olaveradi, ijirg‘anmaydi), endi tizzasida ularni ochib, kuymagan tamakini bir parcha qog‘ozga to‘kib olyapti. Fetyukovning orqasida uchta bolasi qolgan, lekin «o‘tirishi» bilan hammasi undan voz kechgan, xotini boshqa erga tekkan, demak, hech yerdan yordam kutmaydi.

Buynovskiy Fetyukovga olayib qaradi, qaradi-da, o‘shqirdi:

– Nega har xil marazni yig‘ib yuribsan? Og‘zingdan zahm yuqtirasan! Tashla!

Kapitan buyruq berishga o‘rgangan, u hamma bilan shunaqa, buyruq bergandek gaplashadi.

Lekin Fetyukov Buynovskiyga hech bir narsada qaram emas – kapitanga ham tashqaridan jo‘natmalar kelmaydi. Yarmi tishsiz og‘zini ochib, istehzo bilan tirjaydi-da:

– Shoshmay tur, kapitan, – dedi. – Sakkiz yil o‘tirsang, sen ham teradigan bo‘lib qolasan.

– Nima-nima? – eshitmadi qulog‘i og‘ir Senka Klevshin. U Buynovskiy bugun tintuvda «kuyganini» gapirishyapti, deb o‘ylabdi. – Terslik qilmasin edi! – qayg‘urib bosh chayqadi u. – Baxayr bo‘lardi hammasi.

Senka Klevshin – yuvosh, bechora bir kishi. Bir qulog‘ining pachavasi chiqqan, qirq birinchi yildayoq.

Keyin asir tushgan, uch marta qochgan, tutib olishgan, Buxenvaldga tiqishgan. Buxenvaldda mo‘jiza bilan o‘limga chap bergan, endi tinchgina muddatini o‘tab yuribdi. Terslik qilsang, deydi u, tamom bo‘lasan.

To‘g‘ri, inqillagin-u, egil. Qaysarlik qilsang – sinasan.

Aleksey yuzini kaftiga botirib olib, jim o‘tiribdi. Duo o‘qiyapti.

Shuxov kaftini yalagudek qilib payogini yeb oldi, ammo non ustidagi yarim aylana qora qobig‘idan bir bo‘lakchasini qoldirdi. Chunki tovoqdagi bo‘tqaning tagini hech bir qoshiq bilan nonchalik tozalab ololmaysan. Non qobig‘ini qaytadan oq lattachaga o‘rab, tushlikka deb kamzulining ichki cho‘ntagiga soldi, ayoz-

dan himoyalani b tugmalarini qadadi, mana, endi u tayyor, ishga jo'nata verishsin. Yana biroz imillashsa yaxshiroq bo'lardi, lekin.

O'ttiz sakkizinchi brigada o'rnidan turdi, tarqaldi: kim beton qoradigan uskuna tomonga, kim suvga, kim armaturalarga qarab...

Lekin bularning brigadasiga na Tyurin, na yordamchisi Pavlo keldi. 104-brigada nari borsa yigirma daqiqa ham o'tirmagandi, ish kuni esa qishki, qisqa, soat oltigacha, ammo hammaga shu kutishning o'zi katta baxt bo'lib tuyulardi, go'yo kechqurunga ko'p vaqt qolmagandek.

– Eh, anchadan beri bo'ronlar bo'lmayapti-ya! – xo'rsindi yuzlari qizil miqti latish Kildigs. – Qish bo'yi bironta bo'ron yo'q! Shu ham qishmi?!

– Ha... bo'ronlar... bo'ronlar... – xo'rsindi brigada.

Bu yerlarda bo'ron tursa, ishga olib chiqish tugul, barakdan chiqargani ham qo'rqishadi: barakdan oshxonagacha arqon tortmasang, adashib qolasan. Mahbus qorda muzlab qotib qoladi – itlarga yem bo'lgani. Qochib qolsa-chi? Shunaqasi ham bo'lgan. Bo'ron payti qor mayda-mayda yog'adi, qor uyumiga yotsang, bo'ron ustingdan silliq lab yuboradi. Mana shunday uyum bo'ylab tortilgan simto'siqdan o'tib, ketib qolishgan. Rost, uzoqqa ketisholmagan.

Agar mulohaza qilib ko'rsang, bo'rondan hech bir foyda yo'q: mahbuslar qulf osilgan eshik ortida o'tirishadi, ko'mir vaqtida yetib kelmaydi, barakdagi issiq tarqab ketadi, lagerga un keltirisholmaydi, demak non yo'q, qarabsanki, oshxonada ham ishni uddalasholmagan. O'sha bo'ron qancha uvillamasin – uch kunmi, bir haftami, bu kunlarning hammasini dam olish kuni deb hisoblashadi-da, shuncha yakshanba ketma-ket ishga haydashadi.

Lekin baribir mahbuslar bo'ronni yaxshi ko'rishadi, kelsin, deb duo qilishadi. Shamol sal qattiqroq esa boshladimi, hamma osmonga qarab boshini ko'taradi: ohakjon-ey! Ohakjon!

Bu – qor degani.

Chunki qor yog'dirmay, borini u yerdan bu yerga uchiradigan yurma hech qachon haqiqiy bo'ronga aylanmaydi. Kimdir 38-brigadaning pechkasiga isingani tiqilibdi, uni o'sha yerdan tepgudek bo'lib haydashdi.

Shu payt zalga Tyurin kirdi. Qovog‘i soliq edi. Brigadadoshlar darrov tushunishdi: jadal nimanidir bajarish kerak.

– Xo‘-o‘sh, – atrofga alangladi Tyurin. – Hamma shu yerdami, yuz to‘rtinchi?

Va tekshirmasdan, qayta sanamasdan, chunki Tyurinning qo‘l ostidan hech kim hech qayoqqa ketolmasdi, jadal topshiriq bera boshladi. Ikkala estonlarni Klevshin va Gopchik bilan birga yaqin o‘rtadagi qorishma qoradigan katta yashikni olib IESga eltishni buyurdi. Shundan ma‘lum bo‘ldiki, brigada qurilib bitmagan va kuzda tashlab ketilgan IES binosida ishlaydi. Pavlo yana ikki kishini asbob olgani omborga jo‘natdi. To‘rt mahbusni IES atrofini, mashina zaliga kiraverishni, mashina zalining o‘zini, narvonlarni qordan tozalashga yubordi. Yana ikki kishiga o‘sha zaldagi pechkani yoqish uchun ko‘mir va taxta o‘marishni, keyin ularni yorishni topshirdi. Va bir kishiga u yoqqa chanada sement olib borishni, ikki mahbusga suv, ikkisiga qum tashishni, yana biriga esa o‘sha qumni qordan tozalab, lom bilan urib maydalashni buyurdi.

Shularning baridan keyin topshiriq olmagan Shuxov va Kil-digs – brigadaning eng oldi ustalarigina qolishdi. Ularni chaqirib olib, brigadir:

– Gap bunday, yigitlar! – dedi. Holbuki o‘zi ulardan katta emasdi, lekin uning odati shunday edi: «yigitlar». – Tushdan keyin ikkinchi qavatda, kuzda oltinchi brigada ishlab tashlab ketgan joyda shlakobloklardan devor urasizlar. Hozir mashina zolini issiq ushlaydigan qilish kerak. U yerda uchta katta deraza bor, birinchi navbatda ularni biron narsa bilan yopib tashlash kerak. Sizlarga yordamga tag‘in odam jo‘nataman, faqat nima bilan yopishni o‘ylanglar. Mashina zali bizga ham qorishma qoradigan, ham isinadigan joy bo‘ladi. Isitmasak, itdek muzlaymiz. Tushudinglarmi?

Balki yana nimadir degan bo‘lardi-yu, Gopchik – o‘n olti yoshlardagi, aft-angori xuddi cho‘chqa bolasidek nimpushti yigitcha yugurgilab keldi, qorishma qoradigan yashikni narigi brigada bermayotganmish, mushtlashib ketishayotganmish. Tyurin o‘sha yoqqa chopib ketdi.

Bunday ayozda ish kunini boshlash qanchalik og‘ir bo‘lmasin, bu bo‘sag‘a edi, muhimi, faqat shuni bosib o‘tish kerak edi.



Shuxov va Kildigs bir-birlariga qarashdi. Ular ko'p marta ikkovlashib ishlashgan, bir-birlarini mohir duradgor va g'isht teruvchi sifatida hurmat qilishardi. Yakkash qorda o'sha derazani yopadigan narsani topish oson emasdi. Lekin Kildigs:

– Vanya! – dedi. – Yig'ma uylar tomonda men bir joyni bilaman, kattakon qoraqog'oz ruloni yotibdi. O'zim uni berkitib qo'yanman. Boramizmi?

Kildigs latish bo'lsa-da, ruschani o'z ona tilidek bilardi, ularning yonida eski tartibchilar<sup>1</sup> qishlog'i bo'lib, bolaligidan rus tilini o'rgangan edi. Kildigs lagerlarga tushganiga endigina ikki yil bo'lgan, ammo hamma narsani tushunadi: tishlab tortmasang – tilab ololmaysan. Kildigsning ismi Yan, Shuxov ham uni Vanya deb chaqiradi.

Qoraqog'oz keltirgani borishga qaror qilishdi. Faqat Shuxov avval suvoq qiladigan belchasini keltirgani qurilayotgan avtota'mirlash korpusiga chopib borib keldi. Belcha – agar yengil, qo'lga kirishimli bo'lsa, g'isht teruvchi uchun katta narsa. Biroq har bir Obyektida shunday tartib bor: butun asboblarni ertalab olib, kechqurun topshirish. Ertaga qo'lingga qanaqa asbob tushadi – bu endi omading. Lekin Shuxov bir kuni asbob tarqatuvchini chalg'itib, eng yaxshi belchani o'ziniki qilib oldi. Endi har kuni kechqurun uni qaytadan yashiradi-da, ertalab, agar g'isht teradigan bo'lsa, oladi. Albat, bugun yuz to'rtinchini Ijtimoiy shaharchaga haydashsa, Shuxov yana belchasidan ayrilib qolardi. Hozir esa toshni ko'chirib tashlab, barmoqlarini tiqqan edi, mana, asbobini chiqarib oldi.

Shuxov va Kildigs avtota'mirlash korpusidan chiqib, yig'ma uylar tomonga ketishdi. Nafaslaridan quyuq hovur chiqardi. Quyosh ko'tarilgan, lekin tuman ichra qolgandek nurlari yo'q, quyoshning ikki yonida esa ustunlar shekilli, g'o'daygan edi.

---

<sup>1</sup> «Eski tartibchi», ya'ni «staroobryadchik» – ularni raskolnik deb ham atashgan. Bu 1650–1660-yillarda rus pravoslav cherkovida ibodat tartibi va amallari borasida amalga oshirilgan islohotlarga qarshi chiqqan diniy oqim va tashkilotlarning umumlashgan nomi. Islohotlar rus cherkovida bo'linishni yuzaga keltirgan, shu sabab eski tartib tarafdorlari 1905-yilgacha Rossiyada rasman «raskolnik» («bo'luvchi», «ajratuvchi») ma'nosida deb atalgan va cherkov hamda davlat tomonidan ta'qib etilgan. Sovet davrida eski tartibchilar barcha diniy mazhab, oqim va ta'limot vakillari singari qatag'on qilingan.

– Ustunlar emasmi? – boshini o'sha tomonga silkiib so'radi Shuxov Kildigsdan.

– Bizga ustunlar xalal bermaydi, – qo'l siltadi Kildigs va kulib yubordi. – Ishqilib, u ustundan bunisiga tikanli sim tortishmasin, sen shunga qara.

Kildigs hazilsiz gapirolmaydi. Shuning uchun butun brigada uni yaxshi ko'radi. Butun lagerdagi latishlar uni shunday hurmat qilishadiki! Rost, Kildigsning tirikchiligi durust, har oyda ikkitadan jo'natma oladi, xuddi lagerda yurmagandek yuzlari qizil. Hazil qiladi-da.

Ularning Obyektidagi zona katta – kesib o'tguncha charchaysan. Yo'lda 82-brigadadagi yigitlarga duch kelishdi, ularni yana o'ra o'yishga majbur qilishibdi. Katta bo'lmagan o'ralar kerak ekan: kengligi ellikka ellik, chuqurligi ellik, yer esa yozda ham toshga o'xshardi, hozir esa uni ayoz changallagan, qani, g'ajilab ko'r-chi. Yerni cho'kich bilan teshadilar, cho'kich sirpanib ketadi, faqat uchqun sachraydi, xolos, yer esa jinday ham yon bermaydi. Yigitlarning har biri o'z o'rasi tepasida turibdi, atrofga alanglashadi – isingani joy yo'q, nari ketishga ruxsat berishmaydi, yana cho'kichni changallaysan, zo'r berasan. Shunday qilib isinasan.

Shuxov ular orasida tanish vyatichni<sup>1</sup> ko'rib qolib, maslahat berdi:

– Menga qaranglar, yertesharlar, har bir o'ra ustini o'rab olov yoqinglar. Erigan bo'lardi o'sha yer.

– Ruxsat etishmadi, – xo'rsindi vyatich. – O'tin berishmayapti.

– Topish kerak.

Kildigs esa tupurib qo'ya qoldi.

– O'zing ayt, Vanya, agar boshliqlarning aqli bo'lsa, odamlarni shunaqa qahratonda cho'kich bilan yer kavlagani jo'natarmidi?

---

<sup>1</sup> *Vyatich (vyatichlar)* – Rossiyadagi Oka daryosining yuqori va o'rta havzasida yashab, ov qilish bilan shug'ullangan sharqiy slavyan qabila ittifoqi, qadim rus tilida so'zlashgan. Vyatichlar u yerga IX asr boshlarida kelib o'rnamagan, majusiylik diniga e'tiqod qilishgan. Faqat XV asrga kelibgina nasroniylikni qabul qila boshlashgan. Bu qabila egallagan hudud hozirgi Moskva, Bryansk, Kaluga, Lipetsk, Orlov, Smolensk, Tula va Voronej oblastlariga to'g'ri keladi.

Kildigs yana bir necha marta noaniq soʻzlar bilan soʻkindi-da, jim boʻldi, ayozda koʻp gapirolmaysan. Ikkovi yana yurib-yurib, qor ostiga koʻmilib yotgan yigʻma uylarning shchitlari yoniga yetib kelishdi.

Shuxov Kildigs bilan ishlashni yoqtiradi, bu latishning faqat bita yomon tomoni bor – chekmaydi, olayotgan joʻnatmalarida tamaki boʻlmaydi.

Chindan ham Kildigs sezgir: ikkovlashib bitta, keyin ikkita taxtani koʻtarishdi, tagiga yashirilgan bir rulon qoraqogʻoz koʻrindi.

Chiqarishdi. Endi qanday olib ketishadi? Minoradagilar sezib qolishadi – bu hech nima emas, soqchilarning tashvishi bitta: mahbuslar qochib ketmasin, ish zonasi ichida barcha shchitlarni tarasha qilib chopsang ham mayli. Lager nazoratchisi roʻparangdan chiqsa ham hech nima emas, uning oʻzi xoʻjaligimga bir nima topilsaydi, deb alanglab yuradi. Ishchilar esa bu yigʻma uylarga tupurib qoʻyishgan. Brigadirlar ham. Ular uchun faqat erkin yollanma prorab bilan mahbuslardan chiqqan ishboshi, daroz Shkuropatenko qaygʻuradi. Hech kim emas oʻsha Shkuropatenko, bor-yoʻgʻi mahbus, lekin ich-ichidan vertuxay<sup>1</sup>. Unga faqat yigʻma uylarni mahbuslardan qoʻriqlagani, u-bu narsasini tashib ketishlariga yoʻl qoʻymagani uchungina naryad yozib berishadi. Mana shu Shkuropatenko ularni ochiq maydonda tutib olishi mumkin.

– Toʻxta, Vanya, yotqizib koʻtarsak boʻlmaydi, – oʻyidagini aytdi Shuxov. – Kel, uni koʻtarib, quchoqlab olamiz-da, asta, tanamiz bilan berkitib ketamiz. Uzoqdan bilinmaydi.

Oʻylagani tuzuk Shuxovning. Rulonni koʻtarish noqulay, demak, koʻtarishmaydi-yu, uchinchi odamni oʻrtalariga olganday ikki tomondan qisib ketaverishadi. Chetdan qarasang, ikki kishi yelkama-yelka turib ketayotganga oʻxshaydi.

– Keyin prorab buni deraza oʻrnida koʻrib qolsa, baribir bilib qoladi-yu, – dedi Shuxov.

– Bizga nima? – hayron boʻldi Kildigs. – IESga kelganimizda shunday edi, deymiz-qoʻyamiz-da. Yirtib olisharmidi?

Bu ham toʻgʻri.

---

<sup>1</sup> *Vertuxay* – oʻgʻrilar jargonida nazoratchi, militsioner, DAN xodimi shunday deb ataladi.

Yupqa qo‘lqoplarda barmoqlari qotib qoldi, bo‘ysunmayapti. Chap piymasi esa chidab beryapti. Piymalar – muhim masala. Qo‘llari ishda yozilib ketadi.

Qor dashti bo‘ylab yurib asbob omboridan IESga cho‘zilgan chana iziga chiqishdi. Sementni oldinroq olib ketishdi, shekilli.

IES do‘nglikda turibdi, uning orqasi – zonaning tashqarisi. IESda ko‘pdan hech kim bo‘lmagan, unga eltadigan yo‘llarning bari qorga tekislab yo‘rgaklab tashlangan. Chana tilgan qor, yangigina tushgan so‘qmoq, chuqur izlar yanada aniqroq ko‘rindi – biznikilar o‘tishibdi. IES atrofini va mashina keladigan yo‘lni yog‘och kuraklar bilan tozalashyapti.

IESda ko‘targich ishlayotgan bo‘lsa yaxshiydi-ya. Lekin uning motori kuyib ketgan, o‘shandan beri tuzatishmagan, chog‘i. Bu hamma yukni ikkinchi qavatga yelkangda tashi, degani. Qorishmani ham. Shlakoblokni ham.

IES ikki oy quruq skelet kabi, qor bosib, tashlandiq bo‘lib turdi. Mana, yuz to‘rtinchi keldi. Uning jonini nima ushlab turibdi? Bo‘m-bo‘sh qorinlar brezent belbog‘lar bilan bog‘langan, ayoz qarsillaydi, na isinadigan joy, na olov bor, hatto uchqun yo‘q. Baribir yuz to‘rtinchi keldi – yana hayot boshlanyapti.

Mashina zaliga kiraverishda qorishma qoradigan yashik sinib tushdi. Shalog‘i chiqqan yashik edi, uni butun keltirishlariga Shuxovning ko‘zi yetmagandi. Brigadir yo‘liga so‘kinib qo‘ydi, lekin ko‘rib turibdi, hech kimda ayb yo‘q. Shu payt Kildigs bilan Shuxov o‘rtalariga bir rulon qoraqog‘ozni olib kirib kelishdi. Brigadir xursand bo‘lib ketdi, shu zahoti ishni qayta taqsimlab chiqdi: Shuxov tezroq olov yoqish uchun pech-kaga quvur ulaydi. Kildigs yashikni tuzatadi, ikkala eston unga qarashadi, Senka Klevshin bolta olib, qoraqog‘ozni qoqish uchun uzun-uzun taxtachalar chopadi, qoraqog‘oz derazadan ikki barobar ensiz-da. Taxtachalarni qayerdan oladi? Isinadigan joy yasash uchun prorab taxta yozib bermaydi. Brigadir atrofga alangladi, ortidan hamma alangladi, birgina yo‘li bor: ikkinchi qavatga chiqadigan zinaga yasalgan tutqichdan bir juft taxtani ko‘chirib olish. Yursang – mudrama, shunda yiqilib qolmay-san. Nima qilaylik axir?



— Mahbusga o‘n yil lagerda qaddini bukish nega zarur bo‘libdi, deb o‘ylaysan, chog‘i. Hohlamayman, tamom-vassalom, deb qo‘ysa bo‘lmaydimi? Kunni amallab kech qil, tun esa bizniki.

— Yo‘q, bunaqasi ketmaydi. Shuning uchun ham brigada o‘ylab topilgan. Erkinlikdagi brigada emas bu, Ivan Ivanichga alohida maosh, Pyotr Petrovichga alohida maosh beriladigan brigadamas bu. Lagerdagi brigada shunaqangi qurilmaki, bunda boshliqlar mahbuslarni, mahbuslar bir-birini qistaydi. Bu yerda shunaqa: yoki hammaga qo‘shimcha payok, yoki hammang o‘lib ket. Sen ishlayapsan, gazanda, sening kasringga men och o‘tiraymi? Yo‘q, tirish, ishla, it!

Yoki hozirgiday payt tig‘iz kelib qoladi, yana o‘tirolmaysan. Xohlaysanmi, xohlamaysanmi, chop, sakra, qimirla. Agar ikki soatdan keyin issiq joy yasab olmasak, hammamiz shu yerda harom qotamiz.

Pavlo asboblar olib keldi, yana bir nechta quvurlar, faqat tekshirib chiqish kerak ularni. Tunuka ishiga yaraydigan asbob yo‘q ekan, lekin chilangar bolg‘asi bilan bolta bor. Amallarmiz.

Shuxov qo‘lqoplarini bir-biriga uradi, quvurlarni ulaydi, uloqlarini qoqadi.

Yana qo‘llarini bir-biriga uradi, yana qoqadi (belchasini yaqin o‘rtaga yashirib qo‘ydi. Brigadadagilar o‘ziniki bo‘lsa ham almash-tirib qo‘yishlari mumkin. Hatto Kildigs ham).

Bor xayollari miyasidan supurilib ketgandek bo‘ldi. Hozir Shuxov eslamasdi, qayg‘urmasdi, faqat tutun chiqib ketmasligi uchun quvurlarning tirsaklarini qanday ulash va uchini tashqariga chiqarishni o‘ylardi. Gopchikni sim topib kelish uchun jo‘natdi, quvurni chiqishdagi deraza yonidan osib qo‘yish kerak edi.

Burchakda g‘ishtin dudburonli pastak pech bor edi. Ustida temir plita, u qiziydi, qumni o‘sha joyda muzdan tushirib, quritib olishardi. O‘sha pechga olov yoqishibdi, kapitan bilan Fetyukov unga zambilda qum tashib kelishyapti. Zambil tashish uchun aql kerak emas. Shuning uchun bu ishga brigadir sobiq boshliqlarni qo‘yadi. Fetyukov qaysidir idorada katta boshliq bo‘lgan, shekilli. Mashinada yurgan.

Fetyukov birinchi kunlar kapitanga hatto dumini ko‘tarib qo‘ydi, baqirib ko‘rdi. Lekin kapitan uning jag‘iga bir marta o‘xshatib tushirdi, shu bilan chiqishib olishdi.

Qum tashlangan pechga yigitlar isingani yaqinlashishgan ediki, brigadir ogohlantirdi:

– Eh, hozir kimningdir peshonasini qizdiraman! Jihozlang oldin!

Kaltaklangan itga qamchinni ko'rsating, xolos. Ayoq qahrli, lekin brigadir undan qahrliroq. Yigitlar yana ishlari orqasidan tarqalishdi.

Brigadir esa Pavloga sekin shivirladi, Shuxov eshitib qoldi:

– Sen shu yerda qol, qattiqroq ushla. Men hozir foizlarni yopgani ketaman.

Ishning o'zidan ham ko'ra foizlarga ko'p narsa bog'liq. Aqlli brigadir ishdan ko'ra foizlarga kattaroq ahamiyat beradi. Foiz bilan tirikmiz. Nima bajarilmadi – bajarildi deb isbotla; arzon haq to'lanadiganini qimmatrog'iga aylantir. Buning uchun brigadirda katta aql bo'lishi kerak. Yana me'yor belgilaydiganlar bilan kelishuvi. Me'yor belgilayotganlarga ham bir nima berish kerak.

O'ylab ko'rsa, bu foizlar kimga kerak? Lagerga. Lager shu orqali qurilishdan ortiqcha minglab pullarni oladi, o'zining leytenantlariga mukofot yozadi. Anavi Volkovoyga uning qamchini uchun mukofot. Senga esa kechqurun qo'shimcha ikki yuz gramm non tegadi. Ikki yuz gramm hayot-mamotingni hal qiladi. Ikki yuz grammlarga Belomorkanal qurilgan.

Ikki chelak suv keltirishdi, uning yuzasi esa yo'lda yaxlab qolibdi. Pavlo suvni tashib kelishning hojati yo'q, deya qaror qildi. Qaytaga shu yerdagi qorni eritib qo'ya qolamiz. Chelaklarni pechga qo'yishdi.

Gopchik yangi alumin sim ko'tarib keldi, elektrklar tortib kelayotgan simlardan.

Hisob beryapti:

– Ivan Denisich! Qoshiqbop sim ekan. Menga ham qoshiq quyishni o'rgatasizmi?

Bu Gopchikni, masxarabozni Ivan Denisich yaxshi ko'radi (o'z o'g'li go'dakligida o'lgan, uyda ikkita ulg'aygan qizlari bor). Gopchikni o'rmonga banderachilarga sut tashigani uchun qamashgan. Katta odamlarniki bilan bir xil muddat berishdi. U muloyim buzoqning o'zginasi, hammaga erkalanadi. Ayyorligi ham bor: olgan jo'natmalarini bir o'zi zeydi, ba'zida tunlari ham kavshanib chiqadi. Axir hammani ham to'ydirolmaysan-ku.

Simdan qoshiqqa yetarli qilib uzib olishib, burchakka berkitib qo'yishdi. Shuxov ikkita taxtadan narvonga o'xshash bir nima yasab, quvurni osish uchun Gopchikni uning ustiga chiqardi. Gopchik olmaxonday yengil, pog'onalarga tirmashib, mix qoqdi, simni ilintirib, quvur ostidan o'tkazib qo'ydi. Shuxov erinmasdan quvurning dud chiqaradigan uchini yana bitta, tepaga chiqadigan bo'g'inli qilib yasadi. Bugun shamol yo'q, ertaga bo'ladi, demak, tutun ichkariga urmasin. Tushunish kerak, bu pechka axir o'zi uchun-ku.

Senka Klevshin uzun taxtachalarni yorishga ulgurdi. Gopchikni, epchilni mix qoqishga majbur qilishdi.

Tarmashyapti-yu, zumrasha, tepadan turib qichqiradi.

Quyosh yanada balandladi, zulmatni quvib yubordi, ustunlar g'oyib bo'ldi, ichkari alvon rangda tovlana ketdi. Shu payt o'g'irlangan o'tinlarni tiqib, pechni ham yoqib yuborishdi. Biram yorishdiki!

– Yanvar quyoshi sigirning biqinini isitibdi! – e'lon qildi Shuxov.

Kildigs qorishma yashigini tuzatib tugatdi, boltasi bilan yana birikki urib qo'yib, qichqirdi:

– Menga qara, Pavlo, bu ishim uchun brigadir yuz so'm to'lasin, kamini olmayman!

Pavlo kuldi:

– Yuz gramm olasan.

– Prokuror qo'shib beradi! – qichqirdi Gopchik tepadan turib.

– Teginmang, teginmang! – qichqirdi Shuxov. (Qoraqog'ozni noto'g'ri kesa boshlashgan edi.) Qanday kesishni ko'rsatib berdi.

Temir pechkaga olomon yopirilib keldi, Pavlo ularni haydab soldi. Kildigsga yordamchi berib, tepaga tashish uchun qorishmaga tog'oralar yasashni buyurdi. Qum tashib kelishga yana ikki kishini qo'shib berdi. Havoz va shlakoblok teriladigan joyni qordan tozalashga tepaga ham odamlar jo'natdi. Bir mahbusga qizigan qumni plitadan tushirib, qorishma qoradigan yashikka tashlashni topshirdi.

Tashqarida motor zo'riqdi – shlakoblok olib kela boshlashdi, mashina o'tishga urinyapti. Pavlo qo'llarini silkitib shlakoblokni qargaga tushirishni ko'rsatgani yugurib chiqib ketdi.

Qoraqog'ozning birinchi tasmaqini qoqishdi, keyin ikkinchisini. Qoraqog'oz qanaqa himoya bo'lsin? Qog'oz – o'z oti bilan qog'oz.

– Mayli, o‘tiraylik, isinaylik, – ikkala g‘isht teruvchiga dedi Pavlo. – Siz ham, Senka, tushdan keyin qilarsiz ishingizni. O‘tiring!

Pech yoniga o‘tirishdi. Baribir-tushlikkacha devor urishni boshlashmaydi, qorishma tayyorlashning ham mavridi emas, yaxlab qoladi.

Ko‘mir oz-ozdan qizib, endi barqaror taft berardi. Faqat pech yonidagina issiqni sezasan, butun zal bo‘ylab avvalgidek sovuq kezadi.

Qo‘lqoplarini yechishdi, to‘rtovlon qo‘llarini pech yoniga tutishdi.

Oyoqlaringni poyafzali bilan olov yaqiniga qo‘yma, buni tushunish kerak. Agar botinka bo‘lsa, charmi chatnab ketadi, piyma bo‘lsa, namiqadi, bug‘ ko‘tariladi, lekin oyog‘ing zig‘ircha bo‘lsin isimaydi. Agar olovga yaqinroq tutsang, kuydirasan. Bahorgacha teshik piymada yurasan, boshqasini kutma.

– Shuxovga nima? – deya gijgijlaydi Kildigs. – Shuxovning, og‘aynilar, bir oyog‘i uyida deyaveringlar.

– Anavi, yalang oyog‘i, – gap tashladi kimdir.

Kulishdi. (Shuxov yamalgan chap piymasini yechib, paytavasini isitayotgan edi.)

– Shuxovning muddati tugayapti.

Kildigsga yigirma besh yil berishgan. Ilgari shunday baxtli davr bor edi: hammaga baravar o‘n yil berishardi. Qirq to‘qqizinchi yildan boshqacha davr boshlandi – hammaga yigirma besh yildan, qaramasdan.

O‘n yilni-ku, harom o‘lmay o‘tkazish mumkin, yigirma yilni o‘tkazib ko‘r-chi?!

Hamma uni qo‘li bilan ko‘rsatayotgani Shuxovga yoqadi, mana, muddati tugayapti, deyishgani, lekin uning o‘zi bunga ko‘p-da ishonmaydi. Mana, urush payti muddati tugaganlarning hammasini alohida farmoyish kelguncha, qirq oltinchi yilgacha ushlab turishdi-ku. Asosiy muddati uch yil bo‘lganlar ham besh yil ortiqcha o‘tirishdi. Qonun – ag‘darma narsa. O‘n yiling tugadimi, mana senga yana bitta muddat, deyishadi. Yoki surgun bo‘lasan.

Ba‘zi payt o‘ylaysan-u, yuraging shuvullab ketadi. Muddating, axir, tugayapti, g‘altak yozilib bityapti-ku...

E, xudoyim! O‘z oyog‘im bilan – ozodlikkami, a?



Faqat buni ovoz chiqarib aytish lagerning kekxa mahbusiga yarashmaydi. Shuning uchun Shuxov Kildigsga:

– O‘zingning yigirma besh yilingni sanama, – deydi. – Yigirma besh yil o‘tirishmi, yo‘qmi, bu hali havoyi gap. Men esa to‘liq sakkiz yil o‘tirdim, mana shunisi aniq.

Yuzingni yerga ishqab turishganda, shunday yashayotganingda o‘ylashga fursating ham bo‘lmaydi: qanday qilib o‘tirdim? Qanday chiqaman?

Unga ochilgan ishda yozilishicha, Shuxov vatanga xiyonat qilgani uchun qamalgan. Ko‘rsatmalar ham bergan: ha, u vataniga xiyonat qilish maqsadida asir tushgan, asirlikdan nemis razvedkasining topshirig‘ini bajarish uchun qaytgan. Topshiriq qanaqa ekanligini Shuxovning o‘zi ham, tergovchi ham o‘ylab topolmagan. Shundoq yozib qo‘yaverishgan – topshiriq.

Kontrrazvedkada Shuxovni ko‘p kaltaklashdi. Shuxovning hisob-kitobi oddiy edi: qo‘l qo‘ymasang – yog‘och bushlat kiyasan, qo‘l qo‘ysang – sal bo‘lsa ham yashaysan. Imzo chekdi.

Aslida bunday bo‘lgan: qirq ikkinchi yilning fevralida Shimoli-g‘arbiy frontda ularning armiyasini qurshab olishdi, samolyotlardan yegulik ham tashlashmadi, asli samolyotlar ham yo‘q edi. Shunchalikka borishdiki, harom o‘lgan otlarning tuyoqlarini maydalab, suvga bo‘ktirib yeyishdi. Otishga ham hech vaqo yo‘q edi. Ularni o‘rmonda oz-ozdan nemislar tutib olaverishdi. Mana shunday guruhlardan birida Shuxov asirlikda ikki kun o‘tirdi-yu, o‘sha joydayoq, o‘rmonda besh kishi bo‘lib qochishdi. O‘rmonlarda, botqoqlarda berkinib yurib, mo‘jiza bilan o‘zimiznikilarga duch kelishdi. Faqat ulardan ikki kishini o‘zimizning avtomatchi o‘sha joyning o‘zidayoq tinchitdi, uchinchisi olgan jarohatlaridan o‘ldi, ikki kishi yetib kelishdi. Aqlliroq bo‘lganlarida aytishardiki, o‘rmonlarda daydib yurdik deb, ularga hech narsa qilmasdi. Ular bo‘lishsa, rostini aytishdi, shu, nemislar asirligidan qochdik. Asirlikdan, denglar? Ha, onalaringni senlarni! Fashist agentlari! Va panjara ortiga. Besh kishi bo‘lishgandami, balki ko‘rsatmalarini solishtirisharmidi, ishonisharmidi, ikkovlariga esa – hech qanaqasiga ishonch yo‘q! Qochdik deymiz, deb kelishvolishgan, gazandalar.

Senka Klevshin o'zining garangligi ortidan asirlikdan qochish haqida gap borayotganini elas-elas eshitdi-yu, past ovozda dedi:

– Men asirlikdan uch marta qochdim. Uch martasida ham tutib olishdi.

Senka, sabr-chidamning o'zginasi, ko'proq sukut saqlaydi: odamlarning gapini eshitmaydi, suhbatga ham aralashmaydi.

Shu bois u haqida kam narsa bilishadi, faqat uning Buxenvaldda o'tirgani, o'sha yerdagi yashirin tashkilot a'zosi bo'lgani, isyon uchun zonaga qurol tashiganini, nemislar uning qo'llarini orqasiga bog'lab osishgani-yu, tayoq bilan kaltaklaganlarini bilishardi.

– Sen, Vanya, sakkiz yil o'tirgansan, qaysi lagerlarda? – gap qaytaradi unga Kildigs. – Sen maishiy jinoyatchilar bilan o'tirgansan, u yerda xotinlar bilan yashagansizlar. Raqamlaring bo'lmagan. Katorga lagerida sakkiz yil o'tirib ko'r-chi! Hali hech kim u yerda shuncha o'tirolmagan.

– Xotinlar bilanmish!.. O'tinlar bilan, xotinlar bilan emas... Xodalar bilan, demak.

Shuxov pechdagi olovga tikilib qoldi, o'zining shimolda o'tgan yetti yili xotiriga keldi. Uch yil g'ola tashiydigan uskunada yashikka mo'ljallangan g'olalarni, shpal yasaladigan yog'ochlarni dumalatganini esladi. Yana daraxt kesiladigan o'rmonda mana shunday olovi lipillab yongan gulxanni. Kunduzi emas, tunda daraxt kesganlarini. Boshliq shunaqa qonun o'rnatgan edi: kunduzgi vazifani bajarolmagan brigada ishini tunda davom ettiradi.

Lagerga tun yarmidan oqqanda arang yetib kelishadi, ertalab esa yana o'rmonga.

– Yo'-o'q, og'aynilar... bu yer xotirjamroq, shekilli, – tovushlarni yamlagancha dedi u. – Bu yerda miqdor – qonun. Bajardingmi, bajarmadingmi, zonaga jo'naysan. Ishonch masalasi bunda yuz grammga baland. Bu yerda yashasa bo'ladi. Maxsus – mayli, u maxsus bo'la qolsin, senga raqamlar xalal beryaptimi? Ularning, raqamlarning og'irligi yo'q.

– Sekinroq! – «sh-sh-sh»lab gapirdi Fetyukov (vaqt tanaffusga yaqinlashgan, hamma pechga yaqinlashayotgan edi). – Odamlarni to'shagida so'yib ketishyapti! Sekinroq!..

– Odamlarnimas, bitboqarlarni! – Pavlo barmog‘ini go‘yo Fet-yukovga po‘pisa qilgandek ko‘tarib qo‘ydi.

Chindan ham, lagerda qandaydir yangi ishlar bo‘lyapti. Ikkita taniqli bitboqarni vagonkaning o‘zida, uyqudan turilayotgan paytda so‘yib ketishdi. Keyin beayb ishchi mahbusni – joyini adashtirib qo‘yishgan, chog‘i. Yana bitta bitboqarning o‘zi BURga, boshliqlarning oldiga qochib ketdi, uni o‘sha yerda, tosh turmaga yashirib qo‘yishdi. G‘alati... Bunaqasi maishiy lagerda yo‘q edi. Ha, shu yerda ham bo‘lgan emasdi...

Birdan energopoyezd gudogi chalindi. U birdaniga bor kuchi bilan yangramadi, yo‘q, avval bo‘g‘iqroq, xuddi tomog‘ini qirayotgandek guvrandi, keyin...

Yarim kun – yo‘q! Tushki tanaffus!

Eh, o‘tkazvorishibdi-ku! Allaqachon oshxonaga, navbat olgani borish kerak edi. Obyektida o‘n bitta brigada bor, oshxonaga esa ikkitadan ortig‘i sig‘maydi.

Brigadir hali ham yo‘q. Pavlo hammaga ildam ko‘z yugurtirib chiqdi-da, bir qarorga keldi:

– Shuxov va Gopchik, men bilan yuring! Kildigs! Gopchikni yoningizga yugurtiraman – butun brigadani olib borasiz!

Ishchilar uchovining pech yonidagi joyini darrov egallashib, pechni o‘rab olishib, xuddi xotin kishini quchgandek quchoqlashga oshiqishdi.

– Tunashni bas qil! – qichqirishdi yigitlar. – Tutat!

Va bir-birlariga qarashdi – kim tutatarkin. Tutatadigan odam esa yo‘q, yoki tamakisi yo‘q, yoki qisib olib o‘tiribdr, ko‘rsatgisi yo‘q.

Tashqariga Pavlo bilan birga chiqishdi. Gopchik esa orqalaridan quyonday yugurgiladi.

– Havo ilibdi, – darhol sezdi Shuxov. – O‘n sakkiz daraja, undan ortiqmas. Tersak yaxshi bo‘ladi.

Shlakobloklarga o‘girilib qarashdi, yigitlar anchasini havozaga otib chiqarishibdi, ba‘zilarini bostirmaga, ikkinchi qavatga.

Shuxov ko‘zlarini qisib quyoshni ham tekshirib ko‘rdi, kapitan aytgan dekret to‘g‘rimikin?

Ochiq joyda, yel bemalol o‘ynab yuradigan yerlarda esa shamol baribir vaqti-vaqti bilan esib, chimchilab qo‘yyapti. Unutmang, esingizda bo‘lsin, hozir yanvar, deyapti.

Sanoat oshxonasi – pech atrofini nari-beri bir-biriga mixlab o‘ralgan yupqa taxtalar-u, tirqishlarni yopish uchun ustidan zanglagan tunuka qoplangan kichkina chayla. Chaylaning ichini to‘siq ikkiga – o‘choqboshiga va yemakxonaga bo‘lgan. O‘choqboshida ham, yemakxonada ham oyoqosti bir xilda quruq yer edi. Yerga qanday iz solgan bo‘lishsa, xuddi shunday, do‘ngalak va chuqurchalar holida qolgan. O‘choqboshi esa – kvadrat pech va unga loy bilan yopishtirilgan qozon.

Oshxonada ikki kishi – oshpaz va saninstruktor ishlashadi. Ertalab, lagerdan chiqayotganda oshpaz lagerning katta oshxonasidan yorma oladi. Har mahbusga, ehtimol, ellik grammdan, brigadaga – bir kilo, butun Obyektga esa bir puddan sal kamroq yorma to‘g‘ri keladi. Oshpazning o‘zi yorma solingan qopni uch kilometr joyga ko‘tarib bormaydi, quyruqqa<sup>1</sup> ko‘tartiradi. Belini sindirgandan ko‘ra o‘sha quyruqqa ishchilar hisobidan ortiqcha porsiya bo‘tqa bergani afzal. Suv, o‘tin keltirish, pechkaga o‘t qalash – bularni ham oshpaz qilmaydi, buni qo‘li qadoqlar-u quvvati adoqlar bajara-di, ularga ham – qo‘shimcha ovqat, begona tovoqqa ichi achirmidi.

Yana qoida borki, shu yerdan chiqmay ovqatlansinlar, tovoqlarni ham lagerdan olib keladi, axir (Obyektga qoldirolmaysan, tunda erkin yollanmalar o‘marib ketadi), shu uchun ellikta keltiradi, ko‘p emas, shu yerdayoq yuvib, tezroq uzatvoradi (tovoq tashiganlarga ham – qo‘shimcha ovqat). Tovoqlarni oshxonadan opchiqib ketishmasin deb yana bitta quyruqni eshikka qo‘yishadi – tovoqni chiqarvormasin. Lekin qancha qo‘riqlama, baribir olib ketishadi, ko‘ndirishadimi, ko‘zini shamg‘alat qilishadimi. Tag‘in butun, butun Obyekt bo‘yicha yig‘uvchini jo‘natish kerak: iflos tovoqlarni yig‘ib, oshxonaga olib kelsin. Unga ham qo‘shimcha ovqat. Bunga ham ovqat.

Oshpazning o‘zi nima ham qilardi: yorma bilan tuzni qozonga soladi, yog‘ni taqsimlaydi – qozonga va o‘ziga (yaxshi yog‘ ishchilarga yetib kelmaydi, yomonning bari – qozonga. Shu uchun mahbuslar ombordan yomon yog‘ jo‘natishlarini ko‘proq yoqtirishadi). Yana – bo‘tqani pishguncha aralastiradi. Saninstruktor shuni ham

---

<sup>1</sup> *Quyruq* – mahbuslar jargonida jinoyatchilarning yugurdagi bo‘lganlar shunday deb ataladi.



qilmaydi: o'tirib, tomosha qiladi. Bo'tqa pishsa, shu zahoti saninstruktorga: bo'kkaningcha ye. O'zi ham qorniga siqqanicha yeydi. Bu orada navbatchi brigadir keladi, ular kuniga almashadi, ta'mini ko'rgani, bu bo'tqa bilan mahbuslarni boqsa bo'ladimi, go'yo shuni tekshirgani keladi. Navbatchi brigadiga ham – ikki kishilik porsiya.

Shu asno gudok chalinadi. Navbati bilan brigadalar keladi, oshpaz tuynukka tovoqlarni uzatadi, tovoqlarning tubi suyuq bo'tqa bilan qoplangan, ichida sening yormang qancha – so'rolmaysan, o'lcholmaysan, agar og'zingni ochsang og'zingga faqat yuzta turp tushadi.

Yalang'och dasht uzra shamol hushtak chaladi – yozda garm-selli, qishda ayozli. Bu dashtda ilgaritdan hech narsa o'smagan, to'rtala tikanli sim orasida-ku, inchunin. Non faqat non kesiladigan taxtaning ustida o'sadi, suli esa oziq-ovqat omboridagi shamolda tebranib turadi. Bu yerda ishlab belangi bo'lasanmi, qorning bilan yotvolasanmi, yerdan yegulik undirolmaysan, boshliqqinang senga yozib berganidan ortiq yemishni ololmaysan. Oshpazlar orqasidan, quyruqlar orqasidan, chmo'lar orqasidan shuni ham olmaysan. Bu yerda ham o'g'irlashadi, zonada ham o'g'irlashadi, undan avval – omborda ham o'g'irlashadi. O'g'irlyotganlarning birontasi ham cho'kich urib ishlamaydi. Sen esa ishla, nima bersalar, shuni ol. Va tuynukdan nari ket.

Kim kimga kuchi yetsa, shuni g'ajilaydi.

Pavlo, Shuxov va Gopchik oshxonaga kirishdi, u yerda hamma bir-biriga qapishib turibdi, yelkalar ortidan na shaloq stollar, na xarraklar ko'rinadi. Kim o'tirib, kim turib yeyapti. Yarim kun pech oldida isinib olmay, ayozda o'ra qazigan 82-brigada gudok chalinishi bilanoq birinchi o'rnlarni zabt etgan edi. Endi ovqatini yeb ham ketmas, ketadigan joyining o'zi yo'q edi. Boshqalar ularga qarab so'kinishar, brigada esa unga emas, devorga gapirishayotgandek o'tiraverardi, har holda sovuqdan ko'ra shu yer tuzuk.

Pavlo va Shuxov tirsaklari bilan turtinishib o'tib olishdi. Vaqtida kelishibdi, bitta brigada ovqat olyapti, navbatda atigi bitta, ularda ham brigadir yordamchisi tuynuk oldida turibdi. Qolganlar, demak, bizning ortimizdan bo'ladi.

– Tovoq! Tovoq! – oshpaz tuynukdan turib qichqiradi, unga esa shu yerdan turib idish tiqishtirishadi, Shuxov ham idishlarni yig‘ishtirib, tiqishtiradi – ortiqcha bo‘tqa olish uchunmas, tezroq navbatlari yetishi uchun.

O‘sha yerda, to‘siq ortida quyruqlar tovoq yuvishyapti – bu endi bo‘tqa olish uchun.

Pavloning oldida turgan brigadir yordamchisi ovqat ola boshladi, Pavlo ortidagi boshlar osha qichqirdi:

– Gopchik!

– Men! – ovoz keldi eshik tomondan. Ovozi ingichkagina uning, xuddi uloqnikiday.

– Chaqir brigadani!

U yugurib ketadi.

Muhimi, bugungi bo‘tqa yaxshi, eng yaxshi bo‘tqa, ya‘ni suli yormasi. Uni ko‘p-da pishiraverishmaydi. Ko‘proq kuniga ikki mahal mogar yoki umoch tayyorlashadi. Suli bo‘tqasida ayniqsa, don orasidagi qaynatma to‘yimli, ham qadrlı.

Shuxov yoshligida qanchalab sulini otlarga yedirgan – hech qachon shu sulining bir siqimginasi uchun dili shunchalik qiynaladi, deb o‘ylamagandi!

– Tovoq! Tovoq! – qichqirishadi tuynukdan.

104-brigadaning ham navbati yetadi. Oldinda turgan brigadir yordamchisining tovog‘iga ikki porsiyalik «brigadir» bo‘tqasini solishadi.

Bu ham qo‘li qadoqlar hisobidan, bunga ham birov e‘tiroz qilmaydi. Har bir brigadirga shunaqa berishadi, xohlasa o‘zi yesin, xohlasa birovga bersin. Tyurin Pavloga beradi.

Shuxovning zimmasida hozir boshqacha vazifa turibdi: u stol orqasiga suqilib kirdi, ikkita tirik murdani<sup>1</sup> haydavordi, bitta ishchini yaxshilikcha iltimos qilib o‘rnidan turg‘izdi, stolning bir qismini tozaladi, u yerga o‘n ikkita tovoqni zich terib sig‘dirsa, ustma-ust qilib oltitasini qo‘ysa, ustiga yana ikkitasini joylasa bo‘lardı. Endi Pavlodan tovoqlarnı qabul qilib olib, ketma-ket sanab boradi va begona qo‘l tovoqni olib ketib qolmasin, deb ko‘z-quloq bo‘ladi. Tag‘in

---

<sup>1</sup> *Tirik murda* – mahbuslar jargonida quvvati ketib, ishlolmay qolganlar shunday deb ataladi.

birov tirsagi bilan turtvormasin, tovoqni ag‘darvormasin. Yana shu yerda, yonginasida xarrakka o‘tirishyapti, turishyapti, yeyishyapti. Ko‘z qirini uzmaslik kerak: o‘zining tovog‘idan yeyaptimi? Yoki bizning tovoqqa qo‘l cho‘zdimi?

– Ikki! To‘rtta! Oltita! – sanaydi oshpaz tuynuk ortidan. U qo‘lga bir yo‘la ikkitadan tovoq uzatadi.

Shunisi qulay, bittadan sanasa adashib ketishi mumkin.

– Ikki, to‘rt, olti, – past ovozda takrorlaydi Pavlo tuynukka qarab. Va biryo‘la ikkita tovoqni Shuxovga uzatadi, Shuxov esa stolga qo‘yadi. Shuxov ovoz chiqarib sanamaydi, lekin ulardan o‘tkirroq sanaydi.

– Sakkiz, o‘n.

Nega endi Gopchik brigadani boshlab kelmayapti?

– O‘n ikki, o‘n to‘rt... – sanoq davom etadi. Oshxonada tovoq tugadi. Pavloning boshi va yelkasi osha Shuxov ko‘rdiki, oshpazning ikkala qo‘li ikkita tovoqni tuynukka qo‘ydi-yu, xuddi o‘ylanib qolganday to‘xtadi. U o‘girilib, idish yuvayotganlarni so‘kayapti, shekilli. Buning ustiga tuynukka tag‘in bir uyum bo‘shagan tovoqlarni tiqishtirishdi. U oldingi tovoqlardan qo‘lini olib, bo‘shagan tovoqlarni orqaga uzata boshladi.

Shuxov stol ustidagi bir uyum tovoqlarini tashlab, xarrak ustidan hatlab o‘tdi-da, ikkala tovoqni o‘ziga tortdi va oshpaz uchun emas, Pavlo uchun past ovozda takrorladi:

– O‘n to‘rt.

– To‘xta! Qayoqqa tortyapsan? – bo‘kirib yubordi oshpaz.

– Bizniki, bizniki, – deya tasdiqladi Pavlo.

– Senlarniki bo‘lsa, senlarniki, lekin hisobdan adashtirma!

– O‘n to‘rtta, – yelkasini qisdi Pavlo. U tovoqlarga qiya qarashni o‘ylamaydi ham, u brigadir yordamchisi, obro‘sini saqlashi kerak, u esa sanoqni Shuxov ortidan qaytardi, unga to‘nkavorish ham mumkin.

– Men «o‘n to‘rt» deganman! – g‘azabga minadi oshpaz.

– Xo‘sh, gapirsang nima! O‘zing bermading, qo‘lim bilan oldim! – shovqin soldi Shuxov. – Bor sana, ishonmaysanmi? Mana, hammasi stolda turibdi!

Shuxov oshpazga qichqirarkan, yoniga yorib kirgan ikkala estonni ko‘rib, ikkita tovoqni yo‘l-yo‘lakay ularning qo‘llariga titqizdi.

Yana stol yoniga qaytishga, tovoqlarni sanashga, hammasi joyidami, qarashga ulgurdi, qo'shnilari o'marishni udda qilisholmagandi, holbuki, bemalol olib ketishlari mumkin edi.

Tuynukda oshpazning qip-qizil basharasi ko'rindi.

– Tovoqlar qani? – qat'iy so'radi u.

– Mana, marhamat! – qichqirdi Shuxov. – Nariroq suril, qadrdon, to'sma! – deb kimnidir itarib yubordi. – Mana ikkitasi! – u ikkinchi qavatdagi ikkita tovoqni teparoq ko'tardi. – Mana to'rttadan uchta qator, tep-tekis, sana.

– Brigada kelmadimi? – ishonqiramay qaradi oshpaz tuynuk ochgan torgina bo'shliqdan, tuynuk yemakxonadagilar qozonda qancha ovqat qolganini ko'rish uchun mo'ralamasinlar, deya tor qilib ochilgan edi.

– Yo'q, brigada hali kelgani yo'q, – boshini chayqadi Pavlo.

– Brigada bo'lmasa, tezak yeb tovoqni olib o'tiribsanlarmi? – oshpazning qahri keldi.

– Ana, ana brigada! – baqirdi Shuxov. Shu asno eshik oldida Buynovskiyning xuddi kapitan ko'prikchasi ustida turgandek o'shqirgani eshitildi:

– Muncha to'dalanding? Yedingmi, chiq! Boshqalarni kirit!

Oshpaz yana biroz qaynadi, qaddini tikladi, keyin tuynukda yana uning qo'llari ko'rindi.

– O'n olti, o'n sakkiz...

Nihoyat, oxirgi, ikki baravar qilib quyilgan porsiyani uzatdi:

– Yigirma uch. Tamom! Keyingisi!

Brigadadoshlar oldinga tiqilishib o'ta boshlashdi, Pavlo ularga tovoqlarni uzatdi, kimga o'tirganlarning boshi uzra, kimga ikkinchi stolga.

Har bir xarrakka yozda beshtadan kishi siqqan bo'lardi, ammo hozir hamma qalin kiyinganidan to'rt kishi zo'rg'a-zo'rg'a sig'ishdi, shunda ham qoshiqlarini qimirlatish oson bo'lmadi.

O'marilgan ikkita porsiyadan hech qursa bittasi o'ziniki bo'lishidan umid qilib Shuxov qo'lidagi halolini ildam yeyishga kirishdi. Buning uchun o'ng tizzasini qornigacha ko'tarib, piymasi qo'njidan «Ust-Ijma, 1944» deb yozilgan qoshig'ini oldi, telpagini yechib, chap qo'ltig'iga qistirdi, qoshig'ini bo'tqaning chetlariga tekkizdi.



Mana shu daqiqani boricha yegulikka qaratib, tovoq tubidagi yupqa qatlamni sidirib, avaylab og'izga solish, keyin til bilan ezish kerak. Lekin Pavlo uning yeb bo'lganini ko'rishi, unga ikkinchi tovoqdagi bo'tqani taklif qilishi uchun shoshilishga to'g'ri keldi. Bu orada estonlar bilan birga kelgan Fetyukov ikki tovoq bo'tqani o'marishganini payqab, Pavloning ro'parasiga turib oldi-da, brigadaning egasi chiqmagan to'rtta tovog'iga qarab-qarab, tik turgancha yeyaverdi. U shu qilig'i bilan Pavloga bildirmoqchi ediki, unga ham butun bo'lmasa-da, hech qursa yarimta porsiyani berish lozim.

Qoramag'iz, navqiron Pavlo esa o'zining ikki kishilik porsiyasini xotirjam yer, yonida kim turganini ko'ryaptimi, ikkita porsiya ortiqcha ekanini eslayaptimi, uning yuzidan buni bilib bo'lmasdi.

Shuxov bo'tqasini yeb tugatdi. Oshqozonini biryo'la ikkita tovoq bo'tqaga ishontirib qo'ygani uchun hamisha suli yormasi yeganida bo'lganidek bitta tovoqqa to'ymadi. Shuxov ichki cho'ntagiga qo'l suqdi, oppoq lattadan yaxlashga ulgurmagan nonning yarim aylana ustki qobig'idan olib qolgan kichkina bo'lakchasini chiqarib, uning yordamida tovoq tubidagi bo'tqa qoldig'ini va idish chetidagi qatqalog'ini ehtiyotkorona sidirib ola boshladi. Sidirib olgach, non qobig'idagi bo'tqani tili uchi bilan yalab olar, keyin uni yana tovoqqa surtardi. Nihoyat, tovoq yuvilgandek tozalanib qoldi, faqat sal xiralashdi, xolos. Idishini tovoq yig'ib yurganlarga yelkasi osha berib yubordi-da, boshyalang holicha bir daqiqa o'tirib qoldi.

Tovoqlarni Shuxov o'margan bo'lsa-da, ularning xo'jayini brigadir yordamchisidir.

Pavlo tovog'ini bo'shatguncha kishini yana biroz intizor qiladi, lekin u idishini yalamadi, faqat qoshig'ini yalab, berkitdi-da, cho'qinib qo'ydi. Shundagina go'yo ularni Shuxovga berayotganday to'rtta tovoqdan ikkitasini yengilgina turtib qo'ydi, chunki o'rnidan siljitish uchun joy torlik qilardi.

– Ivan Denisovich, birini siz oling, birini Sezarga oboring.

Shuxov tovoqning bittasini idoraga – Sezarga olib borish kerakligini eslardi (Sezar na bu yerda, na lagerda o'zini yerga urib oshxonaga bormasdi), ha, esida edi, lekin Pavlo biryo'la ikkita tovoqqa qo'l tekkizganda yuragi muzlab qolayozdi: Pavlo ikkala ortiqcha

tovoqni unga bermayaptimi? Va shu zahoti yuragi yana o'z yo'liga uraverdi.

Shu zahoti o'zining haqli o'ljasi-ustiga egilib, muhokama yuritgan ko'yi, yangi kirgan brigadalar yelkasiga turtayotganini sezmay yeya boshladi. U faqat ikkinchi tovoqni Fetyukovga berishmasa edi, deya xavotir ola boshladi. Fetyukov shoqollik qilishga hamisha usta, ammo o'marishga yuragi dov bermaydi.

...Ularning yaqinida kapitan Buynovskiyy o'tirardi. U allaqachon o'z bo'tqasini yeb bitirgan, brigadada ortiqcha porsiya borligini bilmas, brigadir yordamchisi oldida nechta tovoq qolganini ko'rish uchun atrofga qaramasdi ham. U faqat isinib, bo'shshib qolgan, o'rnidan turib, yana tashqariga – ayoqga chiqishga yoki isimagan sovuq Obyektga borishga kuchi yo'q edi. U ham hozir bu yerda joy egallab o'tirar, kirib kelayotgan brigadalarga xalal berayotgandi, besh daqiqa avval esa o'zi temirdek jaranglagan ovozda boshqalarni haydagandi. U lagerga yaqinda kelgan, umumiy ishlarga<sup>1</sup> yaqindagina tashlangan edi. Hozirgi daqiqalarga o'xshash fursatlar uning uchun juda muhim, uni hukmfarmo, ovozi gulduragan dengiz ofitseridan ehtiyotkor, kamharakat, o'ziga atalgan yigirma besh yillik muddatni o'tashga sabr topa oladigan mahbusga aylantiradigan daqiqalar edi, lekin uning o'zi buni bilmasdi.

...Buynovskiyyga qichqirishar, joyni bo'shat deya yelkasiga turtishardi. Pavlo:

– Kapitan! Ey, kapitan? – deb chaqirdi.

Buynovskiyy uyqudan uyg'ongandek seskandi, atrofiga qaradi. Pavlo xohlaysanmi, yo'qmi, deya so'rab o'tirmay, unga ikkinchi tovoqni uzatdi.

Buynovskiyyning qoshlari ko'tarildi, ko'zlari bo'tqaga xuddi umrida ko'rmagan mo'jizaga boqqandek boqardi.

– Oling, oling, – yupatdi uni Pavlo va oxirgi tovoqni brigadirga eltib berish uchun olib, chiqib ketdi.

...Yevropa atrofini ham, Buyuk shimol yo'lini ham kezib chiqqan kapitanning yorilib ketgan lablariga aybdorona tabassum yoyildi. U

---

<sup>1</sup> Umumiy ishlar deganda jismoniy mehnat qo'llaniladigan ishlar anglashiladi. Bunda mexanizatsiya deyarli bo'lmaydi, mehnat qonunchiligida ko'zda tutilgan me'yorlarga amal qilinmaydi.

baxtiyor qiyofada suyuq, yog'siz, nuqul suv va sulidan iborat bo'tqa yarim-yorti quyilgan tovoq ustiga egildi.

...Fetyukov Shuxovga, kapitanga g'azab bilan qaradi-yu, chiqib ketdi.

Shuxovning nazarida tovoqni kapitanga berib to'g'ri ish qilishdi. Vaqti kelib, kapitan ham yashashni o'rganadi, hozircha esa buni eplolmayapti.

Endi Shuxovda ojiz umid tug'ildi – Sezar ham unga o'z bo'tqasini bermasmikin? Ammo bermasa kerak, chunki mana ikki haftadan beri jo'natma olmayapti.

Ikkinchi tovoqning tubini, chetini ham xuddi shunday sidirib, har sidirgandan keyin non qobig'ini so'rib olib, oxirida Shuxov shu qo-biqning o'zini ham yedi. Keyin Sezarning sovigan bo'tqasini olib, jo'nadi.

– Idoraga! – deya itarib yubordi eshik tagida turib olib, uni tovog'i bilan tashqariga chiqarmagan quyruqni.

Idora – vaxta yonidagi yog'och kulba edi. Mo'risidan hozir ham ertalabdagidek tutun chiqib turardi. U yerdagi pechkani navbatchi yoqardi, u shuning qatorida u-bu topshiriqlarni yetkazuvchi yugurdak ham bo'lib, unga vaqtbay haq yozishardi. Idora uchun tarasha va yog'ochni esa ayashmasdi.

Shuxov dahliz eshigini g'ijirlatib ochdi, ketidan yana bitta, los bilan qoplangan eshikni ochdi-yu, pag'a-pag'a sovuq hovurni ortidan ergashtirib ichkariga kirdi va shu zahoti, «Ey, to'mtoq, yop eshikni!» deb qichqirmasinlar, deya eshik tutqichini shoshib tortdi.

Unga idora ichi hammomdagidek issiq bo'lib ko'rindi. Muzi erib oqayotgan oyna ortida quyosh IES tepasidagidek qahr bilan emas, shodumonlik bilan charaqlardi. Sezar og'zidagi trubkadan chiqayotgan tutun oynadan sizib kirgan nur ichra xuddi cherkovdagi ladan-dek kengaya-kengaya tarqalardi. Pechka esa ich-ichidan qip-qizarib yonardi, shunaqangi qizdirib yuborishibdi, kaltafahmlar. Quvurlari ham qizarib ketgan.

Bunaqa issiqda birpas o'tirsangmi, darhol uxlab qolasan.

Idoradagi xonalar ikkita. Ikkinchisi – prorab xonasining eshigi durust yopilgan, u yerdan prorabning ovozi guldurab eshitiladi:

– Ish haqi fondi bo'yicha ham, qurilish materiallari bo'yicha ham keragidan ortiq xarajatimiz bor. Qimmat taxtalarni mahbuslaringiz o'tin qilib kesib, yoqib yuboryapti, yig'ma shchitlarni-ku, aytmasa ham bo'ladi. Sizlar esa hech nimani ko'rmayapsizlar. Kuni-kecha kuchli shamolda ombor yonida sementni tushirib, o'n metrgacha zambilda tashishdi, ombor yonidagi butun maydon to'piqqacha sementga botdi, ishchilar qop-qora bo'lib emas, kulrangga bo'yalib jo'nashdi. Shuncha talafot!

Demak, prorab majlis qilyapti. Ishboshilar bilan, shekilli.

Kiraverishda, burchakda navbatchi mudrab o'tiribdi. Undan narida Shkuropatenko, B-219, qiyshiq tayoq, ko'zining oqini chiqarib derazaga tikilib olibdi, hozir ham mening yig'ma uylarimni o'marib ketishmayaptimi, deb qarab o'tiribdi. Qoraqog'oz «uxlab» ketdi-yu, amaki!

Ikkala buxgalter, ikkovi ham mahbuslardan, pechkada non qizar-tirishyapti. Kuymasini uchun simdan to'r yasab, o'rnatib qo'yishibdi.

Sezar o'z stoli yonida yoyilib o'tirgancha trubka tutatyapti. Shuxovga orqa o'girganidan uni ko'rmadi.

Ro'parasida X-123, yigirma yilga kesilgan, katorgaga hukm qilingan chayir chol. Bo'tqa yeyapti.

– Yo'q, otaxon, – yumshoqqina gapiradi Sezar. – Xolislik tan olishni talab qiladiki, Eyzenshteyn – daho. «Ioann Grozniy» – bu daho asar emasmi? Niqob taqqan oprichniklarning<sup>1</sup> raqsi-chi! Cherkovdagi sahna-chi!

– Qing'ayish, xolos! – qoshiqni og'zi oldida tutib turib, jahlini to'kadi X-123. – San'at shunaqa ko'pki, bu endi san'at emas. Yeyiladigan non o'rniga qalampir va ko'knori! Qolaversa, eng jirkanch g'oya – yakka hukmdorlikni oqlash. Rus ziyolilarining uchala avlodi xotirasini tahqirlash! (U bo'tqani hissiz og'ziga tiqadi, ovqat unga ta'm bermaydi.)

– U holda qanday talqinni o'tkazgan bo'lishardi?..

– Oh, o'tkazgan bo'lishardi, deng?! Unda uni daho demang! Xushomadgo'y deng itning buyurtmasini bajargan. Daholar talqinni mustabidning didiga moslamaydilar!

---

<sup>1</sup> *Oprichnik* – soqchi, rus shohi Ivan Grozniy 1565-yilgi siyosiy islohotlari doirasida tashkil qilgan shaxsiy gvardiyasi saflarida xizmat qiluvchi kishi.



– Ihm, ihm, – yo‘taldi Shuxov ma‘rifatli suhbatni uzishga iymanib. Axir bu yerda turaverishning unga ham keragi yo‘q edi.

Sezar o‘girildi, qo‘lini bo‘tqaga uzatdi, Shuxovga qaramadi ham, go‘yo bo‘tqa o‘zidan-o‘zi, havodan uchib kelganday, yana gapini ma‘qullayverdi:

– Menga qarang, san‘at – bu nima emas, qanday degani.

X-123 uning so‘zini ilib oldi-da, kaftining qirrasida stolga ura ketdi:

– Yo‘q, agar u menda ezgulik hislarini uyg‘otmasa, sizning «qanday»ingizni jin ursin!

Shuxov bo‘tqani bergach, odob yuzasidan qancha turish kerak bo‘lsa, shuncha turdi. U Sezar tamaki bilan mehmon qilar deb kutgan edi. Ammo Sezar uni umuman esidan chiqargan, shu yerda, orqasida turganini unutgan edi.

Shuxov o‘girilib, asta chiqib ketdi.

Yomonmas, ko‘chadagi ayoz juda kuchlimas. Bugun devorni amallab ura bo‘ladi.

Shuxov so‘qmoq bo‘ylab ketarkan, qorda po‘lat qo‘llar bo‘lagini, uning yaxlit sinig‘ini ko‘rib qoldi. Bu parcha uning qay bir hojatiga yarab qolishi aniq emasdi, biroq ehtiyojini avvaldan bilolmaysan. Yerdan olib, shimi cho‘ntagiga tiqdi. IESda berkitib qo‘yadi. Ehtiyotli boydan durustroq.

IESga kelib, u avvalo yashirib qo‘ygan belchasini topdi-da, uni arqon belbog‘ining ortiga qistirdi. Keyin qorishma tayyorlanayotgan joyga sho‘ng‘idi.

Quyoshdan keyin u yer juda qorong‘i, ko‘chadagidek iliq emasdek ko‘rindi. Sal zaxroqdek.

Hamma Shuxov qurgan dumaloq pechka, qum o‘zidan bug‘ tarafta isiyotgan pech atrofiga to‘dalangan. Kimga joy yetmagan bo‘lsa, qorishma yashigi qirrasida o‘tiribdi. Brigadir pechkaning yonginasida o‘tiribdi, bo‘tqani yeb tugatyapti. Bo‘tqani Pavlo pechkaga qo‘yib isitib bergan.

Yigitlar orasida shovur-shuvur. Xursand bo‘lib turishibdi. Ivan Denisichga sekin shipshitishdi: brigadir foizlarni yaxshi yopibdi. Dimog‘i chog‘ bo‘lib kelibdi.

U ishni qayerdan topgan, qanaqasini topgan – bu uning, brigadirning aqli yetadigan narsa. Mana, bugun yarim kun nima qilishdi? Hech nima. Pechka o'rnatishganiga haq to'lashmaydi, isinadigan xona jihozlashganiga ham haq to'lashmaydi: bularni o'zlari uchun qilishdi, ishlab chiqarish uchun emas. Naryadda esa nimadir yozish kerak. Balki yana Sezar o'ylanib turib, brigadirning naryadlariga nimanidir yozib qo'yadi, brigadir unga hurmat bilan qaraydi, bekorga bunday qilmasdi u.

«Yaxshi yopdi» – demak, besh kun yaxshi payok olishadi. Besh, anig'i, faqat to'rt: besh kundan birini boshliqlar xalta qilishadi, butun lagerni tengma-teng, yaxshilarni ham, yomonlarni ham baravar kafolatli payokka<sup>1</sup> tiqishadi. Bir qarashda bu hech kimga alam qilmaydi, axir hammaga teng beriladi-da, ammo aslida bizning qornimizdan tejashadi. Mayli, mahbusning oshqozoni hammasiga chidaydi, bugun bir amallarmiz, balki ertaga to'yib yermiz. Kafolatli payok kuni butun lager shunday orzu bilan uxlashga yotadi.

O'ylab qarasa, besh kun ishlaymiz, to'rt kun yeymiz.

Brigada shovqin solmaydi. Kimda bo'lsa, tinchgina tutun so'radi. Qorong'ilikda to'planishib olovga boqishadi. Xuddi katta oiladek. Brigada – oilaning o'zginasi. Brigadirning pechka yonida ikki-uch kishiga aytayotgan hikoyasiga quloq solishadi. U hech qachon so'zlarini bekorga yerga tashlamaydi, agar hikoya aytishga boshlasa, demak, ko'ngli iliq.

U – Andrey Prokofich ham telpakda o'tirib ovqat yeyishni o'rganolmagan. Telpaksiz boshi juda qartaygan ko'rinadi. Sochi hammanikiga o'xshab kalta qirqilgan, pechkadagi olovda uning kulrangga moyil sochlari orasida qancha oqlar sochilib ketgani ko'rinadi.

– ...Men batalyon komandiri oldida ham qaltirardim, u esa polk komandiri! «Qizil askar Tyurin buyrug'ingizga ko'ra...» Baroq qoshlari tagidan qadalib turibdi: «Isming nima, otangniki-chi?» Aytdim. «Tug'ilgan yiling?» Aytdim. Men o'shanda, o'ttizinchi yil-

---

<sup>1</sup> Kafolatli payok qamoq va lagerlarda ish bo'lmagan paytda beriladi, miqdori hamma uchun bir xil bo'ladi. Ba'zida buni karantin payogi deb ham atashadi. Chunki odatda u mahbuslar jazoni o'tash muassasasiga keltirilgan dastlabki kunlarda karantinda o'tirgan paytida berilgan.

da yigirma ikki yoshda edim, g‘o‘r edim. «Xo‘sh, xizmatlar qalay, Tyurin?» – «Mehnatkash xalqqa xizmat qilaman!» Birdan qaynab ketmasinmi, ikkala qo‘li bilan stolga – tap! «Mehnatkash xalqqa xizmat qilasanmi, o‘zing kimsan, ablah?!» Xuddi ichimga qatron quygandek bo‘ldi-ya!.. Lekin o‘zimni tutib turibman. «O‘qchi pulemyotchi, birinchi raqam. Jangovar va siyosiy tayyorgarlik a‘lochi...» – «Qana-qa birinchi raqam, gazanda? Otang – quloq! Mana, Kamendan qog‘oz keldi! Otang – quloq, sen yashiringansan, ikki yildan beri qidirisharkan seni!» Bo‘zarib ketdim men, jim turibman. Izimni topishmasin deb uyga bir yil xat yozmagandim. Ular tirikmi, hech narsani bilmasdim, uydagilar meni bilmasdi. «Vijdoning bormi, ishchi-dehqon hukumatini aldaysanmi?» – deb bo‘kiradi, to‘rtala shpali titraydi. Kaltaklaydi, deb o‘ylovdim. Yo‘q, urmadi. Buyruqqa qo‘l qo‘ydi – olti soat ichida deb... haydashdi... Tashqarida – noyabr. Qishki formamni yechvolishdi, yozgi, eski, uchta muddat kiyilgan kaltadum shinelni berishdi. Men xom, ... edim, bilmasdimki, topshirmasam ham, jo‘na hammang, desam ham bo‘lardi... Qo‘limga battol bir qog‘ozni tutqazishdi: «...saflaridan quloqning o‘g‘li sifatida bo‘shatilgan». Bunaqa qog‘oz bilan ishga olsa ham rahmat. Poyezdda to‘rt kun yo‘l yurishim kerak, temiryo‘lga qog‘oz yozib berishmadi, loaqal bir kunlik yegulik berishmadi. Oxirgi marta tushlik berishib, harbiy shaharchadan chiqarib yuborishdi.

...Xullas, o‘ttiz sakkizinchi yili Kotlas etap zonasida sobiq vzvod komandirimni ko‘rib qoldim, o‘n yilga kesishibdi uni. Undan eshitdim: o‘ttiz yettinchi yilda o‘sha polk komandiriniyam, komissarniyam – ikkovini otib tashlashibdi. Proletarmidi ular yoki quloqmi. Vijdoni bormidi yoki yo‘qmidi... Cho‘qinib oldim-da: «Har holda bor ekansan osmonda, Yaratgan. Uzoq chidaysan-u, og‘ritib urasan», dedim.

Ikki tovoq bo‘tqadan keyin Shuxovning o‘lgudek chekkisi keldi. Yettinchi barakdagi latishdan ikki stakan tamaki sotib olgach, qarzini uzishni xayol qilib, Shuxov baliqchi estonga sekingina dedi:

– Menga qara, Eyno, ertagacha bitta chekishlik ber. Men aldamayman-ku.

Eyno Shuxovning ko‘zlariga tikka boqdi, keyin shoshilmay ko‘zlarini tutingan inisiga qadadi.

Ularning bor-budlari o'rtada teng taqsim, yakka o'zi bir zarra ham tamakini sarflamaydi. Bir-birlariga nimalardir deb po'ng'illashdi, Eyno pushti bog'ich bilan bezatilgan xaltachasini chiqardi. Xaltachadan fabrikada kesilgan tamakidan bir chimdim olib, Shuxovning kaftiga soldi, chamalab, yana birnechta tizimcha qo'shdi. Ayni bir marta o'rashga yetadigan, undan ortiq emas.

Shuxovda gazeta parchasi bor. Yirtib, tamaki o'radi, cho'g'lantirdi, cho'g'ning biri brigadirning oyoqlari orasidan yumalab o'tdi. Bi-ir tortdiki! Bi-ir tortdi! Butun tanasi bo'ylab mavj tarqaldi, hatto oyog'i va boshiga kayf urgandek bo'ldi.

Endigina chekkan ediki, butun xona bo'ylab unga kimningdir yashilrang ko'zlari yonib qaradi: Fetyukov.

Rahm qilish mumkin edi unga, shoqolga, lekin u bugun chekib ketarga oldi-da, Shuxov ko'rdi. Yaxshisi Senka Klevshinga qoldiradi. U brigadir nimalar deyotganini ham eshitmaydi, o'tiribdi olov oldida g'amga botib, boshini yonga solintirib.

Pech brigadirning cho'tir yuzini yoritadi. Shafqatsiz tarzda, xuddi begona kishi haqida gapirayotgandek hikoya qiladi:

– Bor mayda-chuydamni eski-tuski sotuvchiga chorak bahosida berib yubordim. Qo'yinlariga berkitib pullashadigan nondan ikki buxanka sotib oldim, kartochkalar o'sha paytdayoq bor edi. Tovar poyezdida yetib olishni o'ylovdim, lekin unga ham qattiq qonunlar chiqqan: tovar poyezdlariga qarab otishadi... Kim eslasa, biladi: chiptalarni pulga ham topib bo'lmasdi, pulsizni qo'ya tur. Hamma vokzal oldi maydonlariga dehqonlarning po'stinlari to'shalgan. Keta olmay, o'sha yerning o'zida ochlikdan o'lib ketishardi. Chiptalarni kimga berishlari ma'lum – GPU<sup>1</sup>, armiya, xizmat safaridagilarga. Perronga ham o'tib bo'lmaydi: eshikda militsiya, stansiyaning ikki tomonida yo'l bo'ylab qo'riqchilar izg'iydi. Sovuq quyosh botib boryapti, ko'lmaqlar yaxlayapti, qayerda tunayman?..

Silliq tosh devordan oshib, buxanka nonlarim bilan perrondagi hojatxonaga tushdim. O'sha yerda turdim, yo'q, hech kim quvmadi. Xuddi yo'lovchi askardek chiqib keldim. Yo'lda poyezd turibdi: Vladivostok – Moskva. Dog' suv oldida tiqilinch, koteloklari

---

<sup>1</sup> GPU – «glavnoye politicheskoye upravleniye» so'zining qisqartmasi. Bu tashkilot sovet armiyasi va harbiy-dengiz flotida faoliyat yuritgan.



bilan bir-birlarining boshiga solgan. Ko‘k kofta kiygan qiz ikki litrli choynakni ko‘tarib girillab yuribdi, qaynoq suvning yoniga borishga qo‘rqadi.

Oyoqchalari nozikkina, kuydirishlari yoki bosib tashlashlari tayin. «Ma, dedim unga, buxankalarimni ushla, hozir dog‘ suv olib beraman!» Suv olgunimcha poyezd yurib ketdi. Qiz nonlarimni ushlab turibdi-yu, ularni nima qilishni bilmay yig‘layapti, choynakni tashlab ketsa ham xursand. «Yugur, deb baqirdim, yugur, orqangdan boraman!» U oldinda yugurdi, men orqasidan. Yetvoldim, bir qo‘lim bilan vagonga chiqaryapman, poyezd tezlashyapti. Men ham zinaga chiqvoldim. Konduktor qo‘llarimga urmadi, ko‘ksimdan itarmadi: vagon-da boshqa jangchilar ham ketayotgan edi, o‘shalar bilan adashtirdi.

Shuxov Senkaning biqiniga turti: ma, qolganini chek, faqirgina. O‘zining yog‘och mundstuki bilan berdi, mayli, so‘ra qolsin, nima qilardi. Senka qiziq-da, artistga o‘xshaydi: bir qo‘lini ko‘ksiga bosib, boshini silkiydi. Hay, garangga nima ham derding!.. Brigadir hikoya qilardi:

– Yopiq kupeda oltita qiz ketayotgan ekan, leningradlik talabalar, amaliyotdan. Stolchalarida saryog‘-maryog‘, ilgakchalarda plashchalarini tebranib ketyapti, jomadonchalarida g‘ilofchalar. Hayot yonidan suzib o‘tishyapti, semaforlarda yashil chiroqlar... Gaplashdik, hazillashdik, birga-birga choy ichdik. Bir payt so‘rashyaptiki, qaysi vagondansiz deb. Bir xo‘rsindim-u, borini to‘kdim: shunaqangi vagon-danmanki, qizlar, u yerda sizlar yashaysizlar, men esa o‘laman...

Qorishma tayyorlash xonasida sukunat. Pechka yonyapti.

– Oh deyishdi, voh deyishdi, maslahatlashishdi... Oxiri meni uchinchi tokchaga chiqarib, plashlari bilan berkitishdi. O‘sha paytda konduktorlar gepeuchilar bilan birga yurishardi. Gap chipta emas, jon ustida borardi. Meni Novosibirskkacha berkitib olib borishdi... Keyin, o‘sha qizlardan biriga qilgan yaxshiligi uchun Pechorada javob qaytardim: u o‘ttiz beshinchi yili Kirov oqimiga<sup>1</sup> tushibdi, umumiy ishlarga yetib qolibdi, men uni tikuvchilikka joylab qo‘ydim.

---

<sup>1</sup> 1934-yil 1-dekabrda Leningrad (hozirgi Peterburg) shahrida yirik davlat va partiya arbobi S.M.Kirovga suiqasd qilingach, shu shahar va uning atrofiga istiqomat qilayotgan minglab odamlar surgun qilingan, qamoqqa tashlangan. Bu voqealar tarixga «Kirov oqimi» nomi bilan kirgan.

– Balki, qorishmaga kirisharmiz? – shivirlab so‘raydi Pavlo brigadirdan. Brigadir eshitmaydi.

– Uyga kechasi polizlar ichidan pisib keldim. Otamni haydab ketishibdi, onam ukalarim bilan etapni kutib o‘tiribdi. Meni haydaldi, degan telegramma kelibdi, qishloq kengashidan meni tutganini izlab kelishibdi. Titrab-qaltiraymiz, chiroqni o‘chirib, devor tagiga o‘tirib olganmiz, chunki faollar qishloqda izg‘ib, derazalarga mo‘ralab yurishardi. O‘sha tundayoq men kenja ukamni olib issiq o‘lkalarga – Frunzega ketdim. Na o‘zimni, na uni boqqani hech vaqo yo‘q. Frunzeda asfaltga qo‘yib qozon qaynatishyapti, atrofida shpana o‘tiribdi. Oldilariga borib o‘tirdim.

«Menga qaranglar, ishtonsiz janoblar! Ukamni shogirdlikka olinglar, unga qanaqa yashashni o‘rgatinglar!» dedim. Olishdi... O‘zim ham o‘shalarga qo‘shilsam bo‘larkan, keyin afsus qildim...

– Ukangizni qaytib uchratmadingizmi? – so‘radi kapitan.

Tyurin esnadi.

– Yo‘q, qaytib ko‘rmadim. – Yana esnadi. – Qani, g‘am chekmanglar, yigitlar! – dedi. – IESda ham o‘rnashamiz hali. Kim qorishma qilsa, boshlanglar, gudokni kutmanglar.

Mana, brigada shunaqa bo‘ladi. Boshliq ish soatida ham ishchini qo‘zg‘atolmaydi, brigadir esa tanaffusda ishla dedimi, demak, ishlashadi. Axir bekorga majbur qilmaydi u.

Gudok bo‘yicha qorishma qilinsa, shlakoblok teruvchilar tek turadimi? Shuxov xo‘rsinib, o‘rnidan turdi.

– Borib, muzni sindiray.

Muz uchun boltacha bilan supurgini, devor urish uchun tosh yo‘nuvchi bolg‘ani, reykani, tizimchani, shoqulni oldi.

Beti qizil Kildigs Shuxovga qarab yuz burishtirdi, namuncha brigadirdan oldin sakraysan? Axir Kildigs brigadani nima bilan boqishni o‘ylamaydi-yu, unga – kalga ikki yuz gramm non tegmasa ham hech bokisi yo‘q, olayotgan jo‘natmalari bilan ham kuni o‘tadi.

Baribir o‘rnidan turadi, tushunadi. Brigadani kuttirib qo‘yish mumkinmas.

– Shoshma, Vanya, men ham boraman! – deb chaqiradi.

Albatta, albatta, beti semiz. O‘zing uchun ishlasang, boya o‘rningdan turarding. (Shuxov yana shuning uchun shoshdiki, sho-

qulni Kildigsdan avval qo'lga kiritmoqchiydi, shoqul ombordan bit-tagina olingan, xolos.)

11 Pavlo brigadirdan so'radi:

12 – Uch kishi teradimi? Yana bir kishini qo'shmaymizmi? Yoki qorishma yetmaydimi?

13 Brigadir qovog'ini soldi, o'ylanib qoldi.

14 – Men o'zim to'rtinchi bo'laman, Pavlo. Sen esa bu yerda – qorishmada turasan! Yashik katta, bunga olti kishini qo'y, keyin bunday qil: bir chekkasidan tayyor qorishma olinadi, ikkinchi yarmida yangisi qoriladi. Bir pasga ham tanaffus bo'lmasin!

– Eh! – Pavlo sakrab turdi, yosh yigit, qoni qaynoq, hali lagerlarda abjag'i chiqmagan, ukraincha cho'zma-yu, hammomtog'oradan boshqasini ko'rmagan. – Agar o'zingiz tersangiz, men qorishma qoraman! Ko'ramiz, kim chaqqon! Belkurakning kattasi qani?

Mana shuni brigada deydi! Pavlo o'rmon ortidan o'q otgan, tunda rayonlarga hujum qilgan – shu yerda belini bukarmidi! Brigadir uchun esa – boshqa gap!

Shuxov Kildigs bilan yuqoriga chiqisharkan, eshitishdiki, orqalaridan, pillapoyani g'ichirlatib Senka chiqyapti. Fahmlabdi, garang.

Ikkinchi qavatda devor endigina urila boshlangan: chor atrofda uch qator, ahyon-ahyonda sal teparoq qilib shlakoblok terilgan. Bu eng unumli ish – tizzadan ko'krakkacha, havozasiz.

Ilgari qanday havoza, chorpoyalar turgan bo'lsa, hammasini mahbuslar yo'q qilishgan, yo boshqa binolarga opketishgan, yoki yoqvorishgan – begona brigadaga tegmasin deyishgan. Endi xo'jalik bizniki, ertagayoq chorpoya yasash kerak, yo'qsa, to'xtab qolamiz.

IES tepasidan olislargacha ko'rinadi: atrof – butun zona qoraga ko'milgan, bo'm-bo'sh taqir (hamma berkinib, gudokkacha isinib o'tiribdi), minoralar qop-qora, ustunlar uchi tikanli simga mos – o'tkir. Tikanli simning o'zi quyosh tushayotgan joyda ko'rinadi, teskari tarafda esa yo'q. Quyosh charaqlab yonadi, ko'zingni ocholmaysan.

Yaqinroqda energopoyezd ko'rinadi. Toza tutun chiqaryapti, osmon dudga to'ldi! Og'ir nafas oldi. Har safar gudok oldidan shuna-

qa xasta xirillash chiqaradi. Mana, gudok. Ko'p ham ortiq ishlash-mabdi.

– Ey, stakanovchi!<sup>1</sup> Shoqolni tezroq bo'shat! – Kildigs shoshiradi.

– O'zingning devoringga bir qara, qancha muz bor! Yaxni kechgacha tushirib ulgurasanmi o'zi? Belchani bekor tepaga olib chiqding, chog'i, – kinoya qiladi unga sari Shuxov.

Devorga tushgacha taqsimlanganiga qarab turishmoqchi ediki, pastdan brigadir qichqirdi:

– Ey, yigitlar! Yashikdagi qorishma yaxlab qolmasin tag'in, ikkita bo'lib turamiz. Shuxov! Devoringga – yoningga Klevshinni ol, men Kildigs bilan ishlayman. Ungacha Gopchik mening o'rnimga Kildigsning yonida devorni tozalaydi.

Shuxov bilan Kildigs bir-birlariga qarashdi. To'g'ri. Shunisi unumliroq. Boltani qo'llariga olishdi.

Shu bilan Shuxov quyosh yarqiratayotgan qorli olis manzarani ham, mahbuslarning isinadigan joylaridan chiqib zona bo'ylab kim ertalab qazishni boshlab tugatmagan o'rasini qazigani, kim armaturani mahkamlagani, kim to'sin ko'targani ustaxonalarga tarqalayotganini ham ko'rmadi. Shuxov faqat o'z devorini – chapdagi, devor beldan yuqoriga zinapoyaga o'xshab ko'tarilgan tugunchakdan o'ngdagi – o'zi uradigan devor Kildigsniki bilan tutashadigan burchakkacha bo'lgan joyni ko'rardi, xolos. U Senkaga yaxni qayerdan ko'chirishni ko'rsatdi, o'zi muzni boltaning hali muhrasi, hali tig'i bilan jo'shib maydalay ketdi, yaxni shunday urdiki, parchalari atrofga sachrab, betiga tegdi, bu ishni abjirlik bilan, o'ylab o'tirmay bajardi. O'yi va ko'zi esa muz ostidagi devorni, IESning ikkita shlakoblok kengligidagi tashqi devorini chamalardi. Bu joyda devorni unga noma'lum g'isht teruvchi tergan, bu ishni tushunmagan yoki qo'l uchida qilgan, endi Shuxov devorga ko'nikar, u bilan birlashardi. Mana bu yer – chuqur, uni bitta qator bilan tekislab bo'lmaydi, uchta qator bilan, yana har safar qalinroq qorishma tashlab tuzatish-

---

<sup>1</sup> *Stakanovchi* – «staxanovchi» so'zining buzib talaffuz qilingani. Ilg'or shaxt-yor A.G.Staxanov (1906–1977) 1935-yilda bitta smenada 102 tonna ko'mir qazib, kunlik me'yorni 14 baravarga oshirib bajaradi. Uning bu ishi butun mamlakatda «staxanovchilik» deya atalgan harakatga asos soladi.



ga to'g'ri keladi. Manavi yerda devor qorindor bo'lib chiqibdi – bu ikkita qator bilan to'g'rılanadi. U devorni ko'rinmas belgi bilan ikkiga bo'ldi – chapdagi zinasifat tugunchakdan qayergacha o'zi, qayerdan Senka o'ng tomonga – Kildigsgacha teradi. Anavi joyda, burchakda, deya chamaladi u, Kildigs o'zini tutolmaydi, Senka uchun ozgina terib beradi, shu bilan unga yengil bo'ladi. Ular burchakni chuqilashguncha Shuxov bu yerda ikkovlari orqada qolmasliklari uchun yarim devordan oshirib urib qo'yadi. Qayerga qancha shlakoblok qo'yib ketishlarini o'zicha belgiladi. Shlakoblok tashiyotganlar tepaga chiqishlari bilanoq Alyoshkaga yopishdi:

– Menga opke! Manavi yerga taxla! Manavi yoqqa ham.

Senka yaxni sindirib tugatayozdi, Shuxov po'lat simdan yasalgan supurgini olib ikkala qo'li bilan changalladi-da, u yoqqa-bu yoqqa siltalab devorni qirtishlay, shlakobloklarning yuqori qatorini, ayniqsa, choklarini top-toza bo'lmasa ham, yengilgina qor dog'i qol-guncha tozalay ketdi.

Tepaga brigadir ham chiqdi, Shuxov supurgi bilan andarmon bo'lguncha burchakka reyka qoqdi. Shuxov va Kildigsning burchagida esa reyka allaqachon bor edi.

– Hey! – qichqiradi Pavlo pastdan. – Tepada tirik jon bormi? Qorishmani qabul qilinglar!

Shuxovni birdan ter bosdi: tizimcha tortilmagan-ku hali! Nafasi tiqildi. Shunday qiladi: tizimchani bir qatorgamas, ikki qatorga-yammas, biryo'la, zaxirasi bilan uchta qatorga tortadi, Senkaga oson bo'lishi uchun uning tashqari qatoridan bir qismini o'ziga oladi, ichki qatordan ozginasini unga qoldiradi.

Tashqi qirg'oq bo'ylab tizimcha tortarkan, Senkaga so'z bilan ham, imo bilan ham qayerga terish kerakligini tushuntirdi.

Tushundi, kar. Lablarini tishlab, ko'zini brigadirning devori tomonga qaratib, bosh silkidi – xo'sh, cho'g' tashlaymizmi? Ortda qolmaymiz! Kuladi.

Zina bo'ylab qorishma keltira boshlashdi. Qorishmani to'rtta juft tashiydi. Brigadir qorishma yashiklarini g'isht teruvchilarning yaqiniga qo'ymaslikka qaror qildi – axir qorishma idishdan-idishga solinsa faqat yaxlaydi. Zambilni to'g'ridan to'g'ri oldilariga qo'yishdi – ikkala g'isht teruvchi devorga olib, ustiga uraversin. Bu

vaqtda qorishma tashuvchilar yuqorida bekorga sovqotib turmasinlar uchun ularga shlakobloklar otib berib turishadi. Zambillari bo'sh shi bilan pastdan beto'xtov ikkinchi zambil yetib keladi, bular esa pastga ravona bo'ladi. U yerda zambilni pechka yonida muzlagan qorishmadan tozalashadi, o'zlari ham ulgurancha isinishadi.

Bir yo'la ikkita zambil keltirishdi – Kildigsning devoriga ham, Shuxovnikiga ham. Qorishma sovuqda bug'lanadi, tutun chiqaradi, lekin unda taft oz. Uni belcha bilan devor ustiga shaloplatib, ang-raydingmi, qotib qoladi. Ana unda uni bolg'aning cho'kichli tarafi bilan urasan, chunki belcha bilan tushirib bo'psan. Shlakoblokni sal noto'g'ri qo'ydingmi, u ham qiyshaygancha qotadi. Endi o'sha shlakoblokni faqat boltaning muhrasi bilan urib, qorishmani qirasan.

Ammo Shuxov adashmaydi. Shlakobloklarning hammasi ham bir xil emas. Qay birining cheti uchgan, o'rtasi cho'kkan yoki ko'tarilgan, Shuxov buni darrov ko'radi, bu shlakoblok qaysi tomoni bilan yotishni istaydi, buni ham ko'radi, yana devordagi qaysi joy shu shlakoblokni kutayotganini ham ko'radi.

Shuxov bug'lanib turgan qorishmani belchasi bilan oladi-da, kerak joyga tashlaydi, pastki chok qayerdan o'tganini ham eslab qoladi (so'ng o'sha chokning ustiga keyingi qatordagi shlakoblokning o'rtasini tushirish kerak). Qorishmadan bitta shlakoblokka qancha kerak bo'lsa, aniq o'shanchasini oladi. Va shlakobloklar uyumidan bittasini oladi (lekin ehtiyotkorlik bilan oladi, qo'lqopini yirtib yubormasin, shlakoblok og'ritib shiladi). Qorishmani yana bir marta belcha bilan tekislaydi-da, o'sha joyga – tap! Shlakoblok! Va shu zahoti, shu zahoti uni silliqalaydi, sal u yog'lik-bu yog'lik bo'lsa, belchaning qirrasini bilan urib qo'yadi: chunki tashqi devor shoqul bo'yicha ketsin, g'isht uzunasiga ham yoni bilan yotsin, ko'ndalangiga ham yoni bilan yotsin. Mana, yopishdi, muzladi ham.

Endi, agar uning yon tomonlaridan qorishma ezilib chiqsa, belchaning qirrasini bilan qorishmani tezroq olib tashlash, devordan uzib tashlash (yozda u keyingi g'isht tagiga kiradi, hozir buni o'ylama ham) va tag'in pastki choklarga qarash kerak, ba'zan shunaqa bo'ladi, u yerga butun blok emas, maydalangani tushgan bo'ladi, yana qorishma tashlash, chap yon tomonga ko'proq tashlash kerak bo'ladi, shlakoblokni shunchaki qo'yish emas, o'ngga va chapga

sirg'altirish kerak bo'ladi, u o'sha ortiqcha qorishmani o'zining tagiga va chap yonidagi shlakoblok bilan o'zining orasiga siqib oladi. Shoqulga ko'z tashlaydi. Yonlamasiga ko'z tashlaydi. Yopishdi. Keyingisi!

Ish yurishdi. Ikki qatorni mana shunday teramiz, eski nuqsonlarni to'g'rilaymiz, keyin ish umuman silliq ketadi. Hozir esa – ziyarakroq qara!

Tashqi qator Senkaga qarab chopib ketdi, chopib ketdi. Senka ham burchakda brigadir bilan ikki yonga ayrilishdi, u ham shu tomonga kelyapti.

Shuxov tashuvchilarga ko'z qisib qo'ydi – qorishma, qorishmani qo'l ostiga suringlar, tez! Mana shunaqa ketdi ish – burun artishga ham fursat yo'q.

Senka bilan ikkovi shu tarzda uchrashdi va bitta zambildan qorishma ola boshlashdi – tugatishdi.

– Qorishma! – baqiradi Shuxov devor osha.

– Ber-yapmiz! – Pavlo qichqiradi.

Zambilni keltirishdi. Ichidagi bor suyuqlikni sidirib olishdi, qolgani chetlariga yopishib qolibdi – o'zlaring tirnab olinglar! Yag'iring chiqadi – tepaga-pastga o'zlaring tashiysan. Jo'na! Keyingisi!

Shuxov va boshqa g'isht teruvchilar sovuqni sezmay qo'yishdi. Jadal, odamni o'ziga tortib ketadigan ishdan yag'rinlaridan dastlabki issiq – bushlat tagi, kamzul tagi, ustki va ichki ko'ylak tagini ho'l qiladigan issiq yugurib o'tdi. Ammo ular bir lahzaga bo'lsin to'xtashmadi, g'isht terishni yana va yana olg'a siljitaverishdi. Bir soatlardan keyin ularning tanasi bo'ylab ikkinchi issiq yugurdi, bundan badanlaridagi ter qurib qoldi. Ayoq ularning oyoqlariga tegmadi, bu juda muhim edi, qolganlari hech nima, tortqilovchi yengil shamol ham – hech narsa ularning xayolini ishlaridan chalg'itolmadi. Faqat Klevshin oyog'ini oyog'iga urib depsinardi: boyaqish qirq oltinchi o'lchamdagi poyafzal kiyardi, piymasi esa har xil poydan tanlab berilgan, unga torroq edi.

Brigadir vaqti-vaqti bilan «Qorishma!» deb baqirib qo'yadi. Shuxov ham qolishmaydi: «Qorishma-a-a!» Kim ishni mahkam ushlasa, o'sha qo'shnilariga ham brigadirdek bo'lib qoladi. Shuxov narigi

juftlikdan orqada qolmaslikka intiladi, u hozir tug'ishgan ukasini ham zambil bilan zinalar bo'ylab yugurtirgan bo'lardi.

Buynovskiy avvaliga, tushlikdan keyin Fetyukov bilan birga qorishma tashidi. Zina bo'ylab ham, tikkasiga ham qoqilib, oldiniga yukni uncha tortolmadi, Shuxov uni yengilgina qistovga olib turdi:

– Kapitan, tezroq! Kapitan, shlakoblok!

Faqat har zambil ko'targani sari kapitan epchilroq bo'la bordi, Fetyukov esa tanbalroq: kelyapti-yu, qanjiqning emchagi, yengilroq bo'lsin deb, zambilni qiyshaytirib, qorishmani shaloplatib qo'yyapti.

Shuxov bir marta uning yag'riniga turtib qo'ydi:

– O, gazandaning qoni! Direktor bo'lgan payting ishchilaringdan talab qilgandirsan, a?

– Brigadir! – qichqiradi kapitan. – Meni odambashara bir kishi bilan qo'y! Manavi s... bilan tashimayman men!

Brigadir tashuvchilarni almashtirdi: endi Fetyukov pastdan havozaga qarab shlakoblok otadi, uni shunday joylashtirdiki, nechta shlakoblok otgani alohida sanaladigan bo'ldi. Baptist Alyoshka esa kapitan bilan zambil ko'tardi. Alyoshka – yuvosh, unga faqat hukmini o'tkazishni istamagan odamgina buyruq bermaydi.

– Avral, salaga!<sup>1</sup> – deya unga uqtiradi kapitan. – Ko'rdingmi, terib tashlashyapti!

Alyoshka murosasozlik bilan iljayadi:

– Tezroq tashish kerak bo'lsa, keling, tezroq bo'lsin. Nima desangiz, shu.

Pastga tushib ketishadi. Royishli bo'lib, brigada devor uryapti.

Pastda brigadir kimgadir baqiryapti. Ma'lum bo'ldiki, shlakoblok ortilgan yana bitta mashina kelibdi.

Bir qarasang, yarim yilda birorta ham kelmadi, bir qarasang, qatorlashib keladi. Shlakoblok keltirishyapti, demak, hozir ishlaymiz. Birinchi kun. Keyin to'xtab qolishadi, yetib ololmaysan.

Pastda brigadir yana so'kindi. Yuk ko'targich haqida nima-dir dedi. Shuxovning bilgisi kelyapti, lekin vaqti yo'q, devorni to'g'rilayapti. Tashuvchilar kelib, aytib berishdi: yuk ko'targichning motorini tuzatgani montyor kelibdi, u bilan birga elektr ishlari

---

<sup>1</sup> *Avral* – kemanding butun jamoasi yopirilib bajaradigan ish. Salaga – mayda baliqcha. Dengizchilar yosh, tajribasiz matrosni shunday deb atashadi.



bo'yicha prorab – erkin yollangan kishi ham bormish. Montyor titkilayotganmish, prorab qarab turganmish.

Bu – shunaqa qoida: biri ishlaydi, biri qarab turadi.

Yuk ko'targichni hozir tuzatishsa, unda shlakobloklarni ham, qorishmani ham tashisa bo'lardi.

Shuxov uchinchi qatorni boshlagan ediki (Kildigs ham uchinchi qatorni boshlagan), zina bo'ylab yana bitta nazoratchi, yana bitta boshliq – qurilish ishboshisi Der chiqa boshladi. U – moskvalik. Aytishadiki, qaysidir komissarlikda ishlaganmish.

Shuxov Kildigsga yaqin turardi, unga Dorni ko'rsatdi.

– A-a! – qo'l siltadi Kildigs. – Mening boshliqlar bilan umuman ishim yo'q. Agar u zinadan yiqilib tushsa, meni shunda chaqirasan.

Hozir g'isht teruvchilarning orqasiga turib oladi-da, qarab tu-raveradi. Mana shunaqa kuzatuvchilarga Shuxov hamma narsadan ko'ra ko'proq toqat qilolmaydi. Muhandislik da'vo qiladi, cho'chqa bashara! Bir safar qanday g'isht terishni ko'rsatib bergan, Shuxov rosa xaxolagan. Bizningcha, sen avval o'z qo'ling bilan bitta uy qurib ko'r, shunda muhandis bo'lasan.

Temgenyovoda tosh uy nimaligini bilishmasdi, kulbalar yog'ochdan qurilardi. Maktab ham yog'ochdan, uni qurgani qo'riqxonadan olti sarjin daraxt tanasini olib kelishgan. Lagerda esa g'isht teruvchi kerak bo'ldi, mana, marhamat, Shuxov – g'isht teruvchi. Kimning qo'llari ikkita ishni eplasa, u o'ntasini ham udda qilaveradi.

Yo'q, yiqilmadi Der, faqat bir marta qo'qildi. Tepaga salkam yugurib chiqdi.

– Tyu-urin! – baqirdi u ko'zlari qinidan chiqib. – Tyu-rin!

Unga ergashib zinadan Pavlo yugurib chiqdi, qo'lida belkurak.

Derning bushlati lagerniki, lekin yangigina, ozodagina. Telpagi juda yaxshi, charmdan. Lekin unda ham hammanikiga o'xshagan raqam bor: B-731.

– Xo'sh? – Tyurin uning oldiga belchasi bilan chiqib keldi. Brigadirning telpagi qiyshayib, bir ko'zini yopib qo'ygan.

Ko'z ko'rmagan nimadir bo'lyapti. Bilmay qolsa, bo'lmaydi, lekin zambilda qorishma qotib qoladi. Shuxov shlakoblok teryapti-yu, quloq solyapti.

– Bu nimasi?! – Der tupuk sachratib o‘shqiryapti. – Bundan karserning hidi kelmayapti. Bu jinoyat ishi, Tyurin! Uchinchi muddatni olasan!

Shundagina gap nimadaligi Shuxovga yetib bordi. Kildigsga qaradi, u ham tushundi.

Qora qog‘oz! Deraza o‘rnida qora qog‘ozni ko‘rib qolgan ekan.

Shuxov o‘zi uchun umuman qo‘rqmasdi, brigadir uni sotmaydi. Brigadiri uchun cho‘chiydi. Biz uchun brigadir – ota, ular uchun esa – piyoda. Bunaqa ishlar uchun shimolda brigadirga, albatta, ikkinchi muddatni yopishtirishardi.

Uh, brigadirning yuzi shunaqangi qiyshaydiki! Belchani oyoq ostiga bi-i-ir tashladi! Derga qarab yurdi. Der orqasiga o‘girildi – Pavlo qulochkashlab urishga shaylanib belkuragini ko‘taryapti.

Belkurakni! Belkurakni u bekorga ko‘tarib kelmagan...

Senka kar bo‘lsa ham tushundi: u ham qo‘llarini ikki yoniga tirab yaqinlashdi. U bahaybat, devning o‘zi. Der ko‘zlarini pipiratib qoldi, dovdiradi, beshinchi burchak qani, deb alangladi.

Brigadir Derga egilib, juda past ovozda gapirdi, lekin tovushi tepaga ham aniq eshitildi:

– Davrlaring o‘tdi, marazlar, muddat yopishtiradigan! A-gar bir so‘z desang, qonxo‘r, shu sening oxirgi kuning bo‘ladi, eslab qol!

Brigadirning a‘zoyi badani titrardi. Qaltirardiki, hech to‘xtay olmasdi.

Uzunchoq yuz Pavlo Dorni ko‘zi bilan tilib yuborayotgandi, ha, tilib tashlayotgandi.

– Qo‘ysanglar-chi, yigitlar! – Der bo‘zarib ketdi, zinadan nari-roq surildi.

Brigadir boshqa hech nima demadi, telpagini to‘g‘riladi, sopi egik belchasini yerdan oldi, urayotgan devoriga qarab ketdi.

Pavlo belkuragini ko‘tarib sekin pastga tusha boshladi. Se-eki-in..

Ha-a... Mana, so‘yilganlarning qoni... Uchtasini so‘yib ketishdi, lagerni esa tanib bo‘lmay qoldi.

Der qolishga ham qo‘rqadi, ketishga ham. Kildigsnings ortiga berkinib oldi, turibdi.

■ Kildigs esa ishini qilyapti – dorixonada dorilarni mana shunaqa taxlashadi: shaxsan do‘xtir turibdi, shu uchun hech shoshmaydi. Derga orqa o‘girib olgan, go‘yo uni ko‘rmagan ham.

— Der brigadirga qarab pisib keldi. Bor kibri shu ekan uning.

– Prorabga nima deyman, Tyurin?

Brigadir ishini qilaverdi, boshini o‘girmadi ham:

– Aytingki, o‘zi shunaqa ekan. Kelishganida osig‘liq ekan.

Der yana biroz turdi. Ko‘rdiki, hozir uni o‘ldirishmaydi. Sekin u yoq-bu yoqqa yurdi, qo‘llarini cho‘ntaklariga tiqdi.

– E, Shch – sakkiz yuz ellik to‘rt, – to‘ng‘illadi u. – Nega qorishmani yupqa solyapsan?

Kingadir kuchini ko‘rsatish kerak-da. Shuxovning ishida nuqson ko‘rmaysan, choklaridan ayb topolmaysan, topilgani – qorishmani yupqa solgani.

– Aytishga izn eting, – tovushlarni yamlay-yamlay, lekin istehzo bilan javob berdi u. – Agar hozir qalin qatlam yotqizilsa, bahorda butun IESdan chakka o‘tib ketadi.

– Sen g‘isht teruvchisan, ishboshiga quloq sol, – qovog‘ini osiltirdi Der va betini shishirdi, uning shunday odati bor.

Xo‘p, u yer-bu yerida yupqa bo‘lsa bordir, qalin yotqizsa ham bo‘lardi, lekin bu qishda g‘isht terganda emas, odamga o‘xshab ishlaganda. Odamlarni ham ayash kerak-da. Mahsuldorlik ham kerak. Nimani uqtirasan, agar kishi tushunmasa!

Der zinadan asta tusha boshladi.

– Siz menga ko‘targichni sozlab bering! – dedi brigadir devordan turib. – Nima, biz eshakmizmi? Ikkinchi qavatga shlakoblokni qo‘lda tashib!

– Senga tashiganingga pul yozishadi, – javob berdi Der zinadan tushayotib muloyim tarzda.

– «Zambilg‘altakda»mi? Qani, g‘altakni olib, trapdan g‘ildiratib chiqing-chi. «Zambilda» deb yozing!

– Menga nima, ayarmidim? «Zambilda» deb yozganni buxgalteriya o‘tkazmaydi.

– Buxgalteriya! Menda butun brigada to‘rtta g‘isht teruvchiga xizmat qilyapti. Men qanchayam haq olardim?

Brigadir qichqiradi-yu, o‘zi to‘xtamay shlakoblok teradi.

- Qorishma-a! – deya baqiradi pastga.
- Qorishma-a! – unga ergashadi Shuxov.

Uchinchi qatorda hammasini tekislashdi, to‘rtinchi qatorda esa orqaga qaytiladi. Tizimchani bir qator tepadan tortish kerak, ha, shundoq ham bo‘laveradi, bir qatorni tizimchasiz terish mumkin.

Der dala bo‘ylab bo‘ynini qisib keta boshladi. Idoraga, isingani. O‘zini o‘ng‘aysiz sezyapti, chog‘i. O‘ylash kerak edi Tyuringa o‘xshagan bo‘riga tikka yurishdan oldin. Bunday brigadirlar bilan murosa qilgani ma‘qul edi, tashvishi bo‘lmas edi, undan belini bukishni talab qilishmayapti, payogi zo‘r, alohida kabinada yashaydi, yana nima kerak? Aqlini ko‘z-ko‘z qilyapti, xolos.

Pastdan kelishdi, elektr montajchilarning prorabi ketibdi, montyor ham ketibdi, ko‘targichni tuzatib bo‘lmas emish. Demak, eshakdek ishla!

Shuxov qanchalab ishlab chiqarishni ko‘rgan, texnika deganlari yoki o‘zi sinadi, yoki uni mahbuslar sindiradi. G‘o‘la tashiydigan uskunani sindirishardi: zanjiriga katta qoziq tiqishardi-da, yurgizvorishardi. Biroz dam olish uchun. Axir balanni<sup>1</sup> balanga tekis taxlashni buyurishardi-da, qaddingni rostlayolmasding.

– Shlakoblok! Shlakoblok! – baqiradi brigadir, qahrga mindi u. Hammalarini o‘xshatib, o‘xshatib so‘ka ketdi, shlakoblok otayotganni ham, keltirayotganni ham.

– Pavlo so‘rayapti, qorishmani nima qilaylik? – shovqin solishdi pastdagilar.

- Qancha qoraylik?
- Yarim yashik qorilgani bor!
- Demak, yana bir yashik!

Oh, qaynadi-ya! Beshinchi qatorni tera ketishdi. Enkayvolib birinchi qatorni terishgan edi, hozir ko‘krakka keldi, qara! Agar ularni qistamasa, na deraza, na eshik bitmaganiday, ulangan ikkita taqir devor-u, bir dunyo shlakoblok qoladi. Tizimchani qayta tortish kerak edi-ya, endi kech.

– Sakson ikkinchi asboblarni topshirgani ketdi, – xabar qildi Gopchik. Brigadir unga ko‘zlari yonib qaradi.

- O‘z ishingni bil, zumrasha! G‘isht opke!

<sup>1</sup> *Balan* – daraxtning shox-shabbdan tozalangan tanasi.



Shuxov atrofga qaradi. Ha, quyosh botay deyapti. Qizarib botyapti, tuman ham oqargan, chog‘i. Rosa qizishib ketishdi-da, bundan ortig‘i bo‘lmaydi. Endi beshinchi qatorni boshlashdi, beshinchi bilan tugatishadi. Tekislashadi.

Tashuvchilar otdak hovur chiqarishyapti. Kapitan hatto bo‘zarib ketdi. Axir u qirqdan oshmagan, qirq atrofida, xolos.

Ayoz darajasini oshirib boryapti. Qo‘llari ishda, barmoqlari esa yupqa qo‘lqopda zirqillayapti. Chap piymasiga ham sovuq kiryapti. Shuxov tinmay ularni yerga uradi: tap-tap, tap-tap.

Endi devorga egilishning hojati bo‘lmay qoldi, shlakoblok olish uchun esa – har biriga belingni buk, yana har bir qoshiq qorishma uchun ham.

– Yigitlar! Yigitlar! – bezovtalanadi Shuxov. – Sizlar shlakoblokni devorga qo‘yinglar! Devorgacha ko‘taringlar!

Kapitan jon deb bajarardi-yu, kuchi yo‘q. O‘rganmagan u. Alyoshka esa:

– Yaxshi, Ivan Denisich, – dedi. – Qayerga qo‘yay, ko‘rsating.

Nimani iltimos qilma, yo‘q demaydi bu Alyoshka. Dunyoda hamma shunday bo‘lganda edi, Shuxov ham shunaqa bo‘lardi. Agar odam iltimos qilsa, nega endi yordam bermasin? Ularning shu ishi to‘g‘ri.

Butun zonaga, hatto IESgacha aniq eshitildi: relsni urib zang chashiyapti. Tamom! Qorishmani changalladi. Eh, rosa urinishibdi!..

– Qorishma ber! Ber qorishmani! – qichqiradi brigadir.

U yerda yangi qorilgan bir yashigi bor! Endi terish kerak, iloji yo‘q, agar yashikni bo‘shatmasa, ertaga o‘sha yashikni sindirib, cho‘chqalarga tashlaysan, chunki qorishma toshga aylanadi, uni cho‘kich bilan ham o‘yib ololmaysan.

– Qani, bo‘sh kelmanglar og‘aynilar! – dalda beradi Shuxov.

Kildigs achchiqlandi. U shoshilishni yoqtirmaydi. Ularda, Latviyada, aytilishicha, hamma shoshilmay ishlarkan-u, baribir hamma boy ekan. Lekin u ham qistab ishlayapti, qayoqqa ham borardi!

Pastdan zambilni ko‘tarishib Pavlo yugurib chiqdi, qo‘lida belcha. U ham shlakoblok tera boshladi. Besh kishi bo‘lishdi.

Endi faqat birikkan joylarni yopib ketishga ulgursang bas! Shuxov qaysi shlakoblokni o‘sha yerga qo‘yishni ko‘zi bilan chamalaydi, Alyoshkaga bolg‘a tutqizadi:

– Ma, chopib ber menga, chop!

Jadal ish yaxshi bo'lmaydi. Hozir hamma tezlik ortidan quvgan paytda Shuxov shoshilmaydi, devorga qaraydi. Senkani chapga itarib tashlaydi, o'zi esa o'ngga, bosh burchakka yuguradi. Agar hozir devorni kirgizvorsa yoki burchakni qiyshaytirvorsa – bu tamom degani, ertaga yarim kunlik ish orttiradi.

– To'xta! – Pavloni shlakoblokdan nari itarib, o'zi to'g'rilaydi. O'sha yerdan – burchakdan qarasa, Senkada bukik joy paydo bo'lyapti. Senkaga tomon otildi, ikkita shlakoblok bilan to'g'riladi.

Kapitan zambilni xuddi yuvosh axtadek ko'tarib keldi.

– Yana, – deya qichqiradi. – Ikki zambil!

Holdan toyib yiqilay deyapti kapitan, lekin yukni tortyapti. Kolxozga kirguncha Shuxovning mana shunaqa axtasi bor edi. Shuxov uni avaylardi, begona qo'lga o'tgandan keyin tez orada harom o'ldi. Keyin terisini shilib olishdi.

Quyosh gardishining yuqorisi ufq ortiga cho'kdi. Endi Gopchik aytmasa ham ko'rinib turardi: hamma brigada asboblarini topshirib bo'lib, vaxtaga tomon yopirilib ketyapti. (Hech kim zangdan keyinoq chiqmaydi, sovuqqa qotadigan ahmoq yo'q. Hamma isinadigan joylarida o'tiradi. Lekin shunday fursat keladiki, brigadirlar kelishgandek, hamma brigadalar baravar sochilib chiqishadi. Agar kelishmasalar, bu mahbuslar shunaqangi o'jarki, bir-birlaridan ortiq o'tiraverib, qo'yib bersa, yarim tungacha issiq joylaridan chiqmaydi.)

Xotiri faromush bo'libdi brigadirning, ko'rib turibdi, kech qoldi. Asbob qabul qiluvchi, ehtimol, o'n barobariga oshirib so'kayotgandir uni.

– Eh, – deya qichqiradi. – Tezakni ko'z qiymasinmi! Tashuvchilar! Pastga chopinglar, katta yashikni qirtishlanglar, nima ni topsanglar hov anavi o'raga tashlab, ustini qor bilan yopinglar, ko'rinmasin! Pavlo ikki kishini olib, asboblarni yig'-da, topshirgani yugur. Men Gopchikdan yana uchta belchani berdirvoraman, manavi oxirgi bir juft zambilni tugatib qo'yamiz.

Ishga otilishdi. Shuxovdan bolg'ani olishdi, tizimchani yechvo-lishdi. Tashuvchilar, otib beruvchilar – hammalari pastga, qorishma tayyorlanadigan xonaga chopib tushib ketishdi, bu yerda endi ularning qilar ishi yo'q. Tepada uchta g'isht teruvchi qoldi – Kildigs,

Klevshin va Shuxov. Brigadir u yoq-bu yoqqa o'tib, qancha g'isht terilganini ko'ryapti. Mamnun.

— Yaxshi terdik, a? Yarim kunda. Ko'targich-mo'targichlarsiz.

Shuxov ko'rsaki, Kildigsning idishida ozgina qorishma qolibdi. Shuxov bezovtalanib qoldi, belchalar uchun brigadirni so'kishmasa edi.

— Menga qaranglar, yigitlar, — dedi Shuxov. — Belchalarni Gopchikka beringlar, meniki hisobda yo'q, topshirilmaydi, men ularnikini tugatib qo'yaman.

Brigadir kuladi:

— Qanday qilib seni ozodlikka chiqaramiz, a? Sen bo'lmasang turma yig'laydi-ku!

Shuxov ham kuladi. G'isht teradi.

Kildigs belchalarni olib ketadi. Senka Shuxovga shlakobloklarni uzatib turadi, Kildigsning qorishmasini idishi bilan o'zlari tomonga tortib olishdi.

Gopchik dala bo'ylab yugurib asbob omboriga, Pavloga yetib olgani ketdi. 104-brigada dalani kesib, brigadirsiz yo'lga tushdi. Brigadir — kuch, lekin konvoy — yanada kuchli. Kechikkanlarni yozib oladi va — kondeyga.

Vaxta yonida haybatli qorong'ilik cho'kdi. Hamma to'plandi. Konvoy ham chiqqanga o'xshaydi — sanashyapti. (Chiqayotganda ikki marta sanashadi: bir marta yopiq darvoza oldida, darvozani ochish mumkinligiga ishonch hosil qilish uchun; ikkinchi marta ochiq darvozadan chiqarayotganda. Agar nimadir boshqacha ko'rinsa, darvoza ortida ham sanashadi.)

— Qorishmani peshonasiga otsang haqing ketadi! — qo'l siltaydi brigadir. — Devorning naryog'iga surkavor uni!

— Bor, brigadir! Bor, sen u yerda ko'proq keraksan! — (Shuxov uni Andrey Prokofyevich deb chaqirardi, lekin hozir o'z ishi orqasidan u brigadir bilan tenglashib qoldi. «Mana, men tenglashdim», deb o'ylagani yo'q, shunchaki, shunday ekanligini his qildi.) Zinadan qadamlarini keng tashlab tushayotgan brigadir ortidan hazillashdi: — Bu nima ablahlikki, ish kuni shuncha qisqa, a? Endigina ishga berilsang — bo'ldi, yig'ishtir!

Garang bilan ikkovi qolishdi. Bu bilan ko'p gaplasholmaysan, ha, gaplashishning ham keragi yo'q, u hammadan aqlli, so'zsiz tushunadi.

«Shalop» – qorishma! «Shalop» – shlakoblok! Bosishdi. Tekshirishdi. Qorishma. Shlakoblok. Qorishma. Shlakoblok...

Aslida brigadir buyurgan – qorishmani ayama, devor ortiga chapla – va yugur. Lekin Shuxov shunaqa, ahmoqona yaralgan, umuman bu odatini yo‘q qilib bo‘lmaydi uning: har bir buyumni, mehnatni ayaydi u, bekorga nobud bo‘lmasin, deydi.

Qorishma! Shlakoblok! Qorishma! Shlakoblok!

– Tugatdik, onasini buni... – qichqiradi Senka. – Ayda!<sup>1</sup>

Zambilni ko‘tarib zina bo‘ylab uchib tushadi.

Shuxov esa, hozir anavi yerda konvoy uni itlarga talatsa ham, baribir, maydoncha bo‘ylab orqaga yugurib o‘tib, razm soldi. Tuzuk. Endi devordan nariga o‘tib, chapga, o‘ngga nazar soldi. Eh, ko‘zi – vaterpas<sup>2</sup>! Tep-tekis! Qo‘li hali qarimagan.

Zinalardan yugurib ketdi. Senka qorishma qoradigan joydan chiqib, do‘nglik osha chopib ketdi.

– Qani! Tez! – dedi o‘girilib.

– Yugur, hozir boraman! – Shuxov qo‘lini silkiydi. O‘zi esa qorishma xonasiga sho‘ng‘iydi. Belchani shundayicha tashlab ketib bo‘lmaydi. Balki ertaga Shuxov ishga chiqmas, balki brigadani Ijtimoiy shaharchaga haydashar, balki bu yerga yana yarim yil kelolmas, belchasi yo‘qolib ketadimi? Berkitishmi, demak berkitish-da!

Qorishma tayyorlash xonasida hamma pechlar o‘chgan. Qorong‘i. Qo‘rqinchli. Qorong‘iligi qo‘rqinchli emas, hamma ketgani, vaxtada sanaganda bir kishining yo‘qligi, konvoy kaltaklashi qo‘rqinchli.

Baribir atrofga zirillab ko‘z yugurtirdi, burchakda katta toshni ko‘rdi, uni ag‘dardi. Tagiga belchasini qo‘yib, toshni bostirdi. Durust!

Endi tezroq Senkaga yetib olish kerak. U yuz qadamcha nariga chopib borib, to‘xtab turibdi. Klevshin hech qachon kishini tashlab ketmaydi. Javob berishmi, birga javob beramiz.

Tengma-teng yugurib ketishdi – pastak va bo‘yodor. Senka Shuxovdan bir yarim boshga katta, boshi ham shunaqangi kattakon yaralgan.

<sup>1</sup> Ayda – ketdik.

<sup>2</sup> Vaterpas – qurilish va duradgorlik ishlarida foydalaniladigan asbob, uning yordamida qiyalik burchaklarini o‘lchashadi va sathning tekisligini tekshirishadi.



➤ Bekorchilar bor-da – stadionda o‘z ixtiyori bilan kimo‘zarga yugurishadi. O‘sha jin urgurlarni ish kunidan keyin, gardani tiklanmay turib, ho‘l qo‘lqoplarda, abjag‘i chiqqan piymalarda, ustiga-ustak, sovuqda mana shunaqa qilib yugurtirsang!

“Quturgan itdek xirillab qolishdi, faqat tomoqlaridan g‘alati tovush chiqadi: «Xix-xix! Xix-xix!»

Axir brigadir bor-ku vaxtada, tushuntirar.

Mana, to‘planib turgan olomonga qarab chopib kelishyapti. Dahshat. Yuzlab halqum baravariga so‘kishib ketdi: ularning onasiga, otasiga, og‘ziga, burniga, qovurg‘asiga... Besh yuz kishi senga g‘azab sochsa, qo‘rqinchli bo‘lmasinmi?

Lekin muhimi – konvoy qalay?

Yo‘q, konvoy tinch. Brigadir ham shu yerda, oxirgi qatorda. Tushuntiribdi, demak, aybni zimmasiga olibdi.

Yigitlar esa bo‘kirishadi, yigitlar so‘kinishadi! Shunaqa baqirishdiki, hatto Senka ko‘p gaplarni eshitdi, nafasini rostlab, baland qaddini tiklab, yuksakdan turib shunday qahrga oldiki! Butun umr jim yurib, mana, shunda-a-ay o‘kirdi! Mushtlarini ko‘tardi, xuddi hozir mushtlashib ketadiganday. Jim bo‘lishdi. Bir-ikkitasi kuldi.

– Ey, yuz to‘rtinchi! Kar emas ekan-da u? – deb qichqirishdi. – Biz tekshirdik.

Hamma kuldi. Hatto konvoy ham.

– Beshtadan tarqal!

Darvozani ochishmayapti. O‘zlari o‘zlariga ishonishmaydi. Oloomni darvozadan nariga itarishdi. (Hamma xuddi ovsardek darvozaga yopishib olgan, xuddi shunday qilsa, ish tezlashadigandek.)

– B-beshtadan tarqal! Birinchi! Ikkinchi! Uchinchi!..

Har beshtalikni aytishganda, u bir necha metr oldinga o‘tadi.

Ungacha Shuxov nafasini rostladi, o‘girildi, yo‘ajab, oy qipqizarib, xo‘mrayibdi, osmonga to‘la ko‘tarilibdi. Yana sal kemtiklasha boshlabdi. Kecha shunaqa paytda ancha balandda turgan edi.

Shuxov ish silliq ko‘chganidan xursand, kapitanning biqiniga turtib, savol yog‘dirib tashladi:

– Menga qara, kapitan, sizlarning faningizda qanaqa – eski oy keyin qayga ketadi?

– Qayoqqa? Nodonlik! Ko‘rinmaydi, qo‘yadi!

Shuxov bosh chayqaydi, kuladi.

– Agar ko‘rinmasa, uning borligini qaydan bilasan?

– Seningcha, har oyda oymomo yangi bo‘lar ekanmi? – hayratga tushadi kapitan.

– Nimasi g‘alati? Odamlar har kuni tug‘ilishadi-yu, oy har to‘rt haftada bir marta tug‘ilmas ekanmi?

– Tuf! – tuflyadi kapitan. – Hali bir marta ham bunaqa nodon matrosni ko‘rmaganman. Oyning eskisi qayoqqa ketadi, xo‘sh?

– Mana, men ham sendan so‘rayapman, qayerga ketadi? – Shuxov tishlarini ko‘rsatib kuldi.

– Xo‘sh? Qayoqqa?

Shuxov xo‘rsinib, tovushlarni biroz yamlab, bilganini to‘kdi:

– Bizda shunday deyishardi: eski oyni Xudo maydalab, yulduzga aylantirib yuboradi.

– Yovvoyilar! – kapitan kuladi. – Hech qachon eshitmaganman. Nima, sen Xudoga ishonasanmi, Shuxov?

– Bo‘lmasam-chi? – hayron bo‘ldi Shuxov. – Bir guldirasin, ishonmay bo‘psan!

– Nega endi Xudo shunaqa qiladi?

– Nimani?

– Oyni yulduzlarga maydalashi – nega?

– Nimasini tushunmaysan! – Shuxov yelkasini qisdi. – Yulduzlar vaqt o‘tib uchadi-yu, o‘rnini to‘ldirish kerak.

– O‘giril, onangni... – o‘shqiradi konvoy. – Safga tur!

Hisob ularga yetib kelibdi. Beshinchi yuztalikning o‘n ikkinchi beshtaligi, orqada esa ikki kishi – Buynovskiy va Shuxov.

Soqchi tinmaydi, sanoq taxtachasiga qarab uqtiradi. Yetmayapti! Yana ularda sanoqqa yetmayapti. Hech qursa, sanashni bilmaydimi, itlar!

To‘rt yuz oltmish ikkita sanashibdi, uqtirishlaricha, to‘rt yuz oltmish uch bo‘lishi kerak ekan. Yana hammani darvozadan nariga haydashdi (mahbuslar darvozaga qapishib olishgan edi) – va tag‘in boshlashdi:

– B-beshmadan tarqal! Birinchi! Ikkinchi!

Ularning bu qayta sanashlari shu bilan kishini xafa qiladiki, davlatga qarashli emas, o‘zingning vaqting ketyapti. Hali dasht bo‘ylab

lagergacha sudralishing, lager oldida tintuvga navbat kutishing kerak! Hamma Obyektlar yugurgilab ketishyapti, tintuvga ertaroq borish, demak, lagerga ertaroq kirvolish uchun bir-birlaridan o'zishga urinishyapti. Qaysi Obyekt lagerga birinchi bo'lib kirsam, o'sha bugun boyvachchalik qiladi: oshxonamni kutib turibdi, jo'natmalarni ham birinchi bo'lib oladi, buyum saqlash kamerasida ham, xususiy oshxonada ham, xat olgani yoki yozgan xatini senzura topshirgani, sanitar qismda, sartaroshxonada, hammomda – hamma yoqda o'sha birinchi.

Ha, shunaqa ham bo'lib turadi, axir konvoy ham tezroq bizni topshirmoqchi, lagerga, o'z makoniga qaytmoqchi. Askar ham yayray olmaydi, ish ko'p, vaqt oz. Mana, ularning hisobi to'g'ri kelmayapti.

Oxirgi beshtaliklarni qayta o'tkaza boshlashganda Shuxov chamaladiki, oxirgi qatorda uch kishi turadi. E yo'q, yana ikkita.

Hisobchilar taxtachalarini ko'tarib qorovullar boshlig'ining yoniga ketishdi. Tushuntirishyapti. Boshliq qichqirdi:

– Yuz to'rtinchining brigadiri!

Tyurin yarim qadam oldinga chiqdi:

– Men.

– IESda odamlaringdan hech kim qolmadimi? O'ylab ko'r.

– Yo'q.

– O'ylab ko'r, kallangni uzib olaman!

– Yo'q, to'g'risini aytyapman.

O'zi esa Pavloga qarab qo'yyapti – u yerda, qorishma xonasida birov uxlab qolmadimi?

– Br-rigadalarga tarqal! – baqiradi qorovullar boshlig'i.

Beshtalik qatorda hamma duch kelgan kishi bilan birga turgandi. Endi hamma turtinib qoldi, g'ovur-g'uvur ko'tardi. Brigadirlar qichqirishyapti: «yetmish oltinchi – mening yonimga!» Narigi yerda: «O'n uchinchi! Bu yoqqa!» Anavi yerda: «O'ttiz ikkinchi!»

Bir yuz to'rtinchi hammadan orqada turgandi, orqada to'plandi. Shuxov ko'rdiki, butun brigadaning qo'li bo'm-bo'sh, ovsarlar shunchalik ishlashibdiki, tarasha ham to'plashmabdi. Faqat ikki kishidagina kichkina bog'lam bor.

Har kuni shu o'yin bo'ladi: ish tugashi oldidan ishchilar tarasha, tayoqcha, siniq taxtacha to'plashadi, latta tasmacha yoki chi-

rik arqon bilan bog'lab olib ketishadi. Birinchi tekshirishni vaxta yonida prorab yoki ishboshilardan kimdir o'tkazadi. Agar turgan bo'lsa, hoziroq borini tashlashni buyuradi (millionlarni o'zlari qururidan ko'kka chiqarvorishib, o'rnini tarasha bilan to'ldirmoqchi bo'lishadi). Lekin ishlarning o'z hisobi bor: agar har bir brigadadan ozgina o'tin keltirilsa ham barak issiqroq bo'ladi. Yo'qsa navbatchilarga har bir pechka uchun besh kilodan ko'mir gardini berishadi, undan issiqlik kutib bo'lmaydi. Shuning uchun tayoqni sindirib, kaltaroq qilishib, bushlat tagiga tiqishadi. Prorabning oldidan shunday qilib o'tib ketishadi.

Bu yerda, Obyektida ham konvoy o'tinni tashlashni buyurmaydi: axir ularga ham o'tin kerak, lekin tashib kelish mumkinmas. Birinchidan – mundir yo'l qo'ymaydi, ikkinchidan – qo'li band: mahbusga otishga mo'ljallangan avtomati bor. Lagerga kelishlari bilan konvoy buyuradi: «Manavi qatordan manavi qatorgacha turganlar o'tinni manavi yerga tashlasin». Lekin insof bilan olishadi: lager nazoratchilariga ham qoldirish kerak, mahbuslarning o'ziga ham qolishi kerak, yo'qsa, o'tin keltirmay qo'yishadi.

Oxiri shunday bo'lib chiqadi: har bir mahbus har kuni o'tin tashiydi. Qachon yetkazib kelasan, qachon olib qo'yishadi, bilmaysan.

Shuxov ko'zlari bilan yerlarni titkilab, oyoq ostida biron joyda tarasha yo'qmikin deb qarayotgan mahal brigadir hammani sanab, boshliqqa hisob berdi:

– Yuz to'rtinchi – hamma bor.

Sezar ham shunda, idora xodimlari orasidan chiqib, qo'shildi. Trubkasida qip-qizil cho'g' miltillaydi, qora mo'ylovini qirov bosgan.

– Xo'sh, kapitan, ishlar qalay? – so'raydi u.

Kiyimi issiq sovqotganni tushunmaydi. Bekorchi savol bu – ishlar qalay degani.

– Qalay bo'lardi? – yelka qisdi kapitan.

Axir ishladi rosa, belini arang ko'tarib turibdi. Sen chekishga berishni o'ylaysanmi?

Sezar chekkani beradi. U brigadada faqat kapitan bilan yaqin, dilini ochadigan boshqa kishisi yo'q.

– O'ttiz ikkinchida bir kishi yo'q! O'ttiz ikkinchida! – shovqin soladi hamma.



O'ttiz ikkinchining brigadiri yordamchisi yana bir yigit bilan av-tota'mirlash ustaxonasi tomonga yo'qolganni izlagani ketishdi. Olomon ichida esa kim, nima, degan savollar. Shuxovga ham yetib keldi: pastak qora moldavan yo'q ekan. Kim edi bu moldavan? Rumin josusi, haqiqiy josus bo'lgan moldavan emasmi u?

Josuslar har bir brigadada beshtadan bor, lekin ular «yasalgan», yolg'ondakam josuslar. Jinoiy ishlarda josuslar ham, shunchaki asirlar ham uchraydi. Shuxov xuddi shunday josuslardan.

Moldavan esa haqiqiyasi.

Qorovullar boshlig'i ro'yxatga qaradi-yu, qop-qorayib ketdi. Axir josus qochgan bo'lsa, qorovullar boshlig'ini nima kutadi?

Olomonning, Shuxovning g'azabi qaynaydi. Bu qanaqangi palid, gazanda, o'laksa, haromi, pastkash bo'ldi? Osmon qop-qora, yorug'lik faqat oydan tushib turibdi, yulduzlar yo'q, ayoz tungi kuchini to'plab boryapti-yu, u – kuchukvachcha yo'q! Nima, ishga to'yamingmi, maraz? Belgilab qo'yilgan kun – tong otishdan – kun botishgacha – o'n bir soat vaqt yetmadimi? Prokuror qo'shib berar, shoshmay tur!

Kimdir shu qadar ko'p, zang tovushini sezmay ishlashi mumkinligi Shuxovga g'alati ko'rindi.

Shuxov yaqindagina o'zi mana shunday ishlaganini, vaxtaga juda erta to'planishayotganidan afsus qilganini umuman unutgan edi. Hozir u hamma bilan birga sovqotib turar, hamma bilan birga qattollashar, bu moldavan yana yarim soat ularni ushlab tursami, agar konvoy uni olomon qo'liga topshirsa, bo'ri buzoqni burdalagandek burdalab tashlardi!

Mana, ayoz jondan o'ta boshladi! Hech kim tek turmayapti, yoki depsinyapti yo ikki qadam oldinga, ikki qadam orqaga yuryapti.

Odamlar moldavan qochishi mumkinmi, deya mulohaza qilishyapti. Agar kunduzi qochgan bo'lsa – boshqa gap, agar ko'milib olib, minoradan qo'riqchilarni tushirishlarini kutayotgan bo'lsa, chuchvarani xom sanabdi. Agar u emaklab chiqib ketgan tikanli sim tagida izi qolmagan bo'lsa, zonada uch kungacha topisholmasa, qo'riqchilar uch kungacha minorada o'tiradi. Kerak bo'lsa, bir hafta o'tiradi. Ularning qoidasi shunday, keksa mahbuslar yaxshi bilishadi. Umuman, kim qochsa, soqchilarning hayoti tugadi, deyaver, ular-

ni uyqusiz, yeguliksiz yugurtirishadi. Ba'zida shunchalik g'azabga minishadiki, qochoqni tiriklayin ushlaymaydi. Otib tashlashadi.

Sezar kapitanga uqtiradi:

- Masalan, pensne kema arqonida osilib qoladi, eslaysizmi?
- Ha... – Kapitan tamaki chekadi.
- Yoki aravacha zinalardan g'ildirab, g'ildirab tushadi.
- Ha... Lekin dengiz hayotini o'yinchoq qilib qo'ygan.
- Bilasizmi, biz zamonaviy suratga olish texnikasiga berilib ketganmiz...

– Ofitserlarning hammasi bitta qolmay maraz-a...  
– Tarixan shunaqa bo'lgan-da!  
– Axir ularni kim jangga boshlagan?.. Keyin qurtlar go'shtda xuddi chugalchanga o'xshab o'rmaydi. Nahotki shunaqasi bo'lgan?  
– Lekin mayda vositalar bilan kino ko'rsatib bo'lmaydi-da!  
– Menimcha, bu go'shtni hozir qo'lansa balig'imizning o'rniga lagerimizga olib kelishgandami, tozalamasdanoq qozonga tashlashgandami, biz uni...

– E-e-e! – shovqin solishdi mahbuslar. – U-u-uh!

Ko'rishdiki, avtota'mirlash ustaxonasidan uch kishi yugurib chiqdi, demak, biri – moldavan.

– E-e-e! – uvulladi darvoza yonidagi olomon. Ular yaqinlashganda esa baravar qichqira ketishdi:

– O'la-a-at! Ishbuzuqi! Qasang'i! Iflos it! Yirgamchik! Palid!!

Shuxov ham baqirdi:

– O'la-at!

Hazil gapmi axir, besh yuz kishining yarim soatdan ortiq vaqtini oldi! Boshini yelkasiga qisib, sichqonga o'xshab yugurgilab kelyapti.

– To'xta! – o'shqirdi soqchi. Va yozdi: – Ke – to'rt yuz oltmish. Qayerdayding?

O'zi unga yaqinlashib, miltiq qo'ndog'ini o'gira boshladi. Olo-mon orasidan hamon qichqirishardi:

– Ablah! Qusuq! Palid!

Boshqalar esa serjant miltiq qo'ndog'ini o'gira boshlaganini ko'rib tinchib qolishdi. Moldavan ham jim, boshi egik, konvoydan nariga tisarilyapti. O'ttiz ikkinchining brigadir yordamchisi oldinga chiqdi:

– U, o‘laksa, havozalarga chiqib, mendan berkingan ekan, o‘sha yerda isinib yotib, uxlab qolibdi.

Gardaniga boplab musht tushirdi! Yag‘riniga ham! Shu bilan konvoydan nariga itarib yubordi. Moldavan chayqalib ketdi, shu payt xuddi shu 32-brigadadan madyar chiqib, uning ketiga o‘xshatib tepdi, o‘xshatib tepdi! Madyarlar umuman ruminlarni yoqtirmaydilar.

Bu senga josuslik qilish emas. Josuslikni axmoq ham eplaydi. Josusning hayoti shodiyona, sarishta. Katorga lagerida o‘n yil umumiy ishlarga chidab ko‘rgin-chi!

Konvoy miltig‘ini tushirdi. Qorovullar boshlig‘i bo‘kirdi:

– Dar-rvozadan nari tur! B-beshtadan tarqal!

Voy itlar-ey, yana sanashadi-ya! Endi sanashga nima hojat, shun-doq ham tushunarli-ku! Mahbuslar g‘ovur-g‘uvur ko‘tarishdi. Butun qahrlari moldavandan konvoyga ko‘chdi. G‘uvullashyapti-yu, darvozadan nari ketishmaydi.

– Nima-a? – o‘kirib yubordi boshliq. – Qorga o‘tqizaymi? Hozir o‘tqizaman. Ertalabgacha ushlayman!

Bu qiyin emas, o‘tqizadi ham. Necha marta o‘tqizishgan. Hat-to yotqizishgan: «Yot! Qurollarni shayla!» Bularning bari bo‘lgan, mahbuslar bilishadi. Darvozadan asta-sekin uzoqlasha boshlashdi.

– Na-ari tur! Na-ari tur! – majburlaydi soqchi.

– To‘g‘ri-da, nega darvozaga yopishasanlar, palidlar? – orqa qatordagilar oldinda turganlarga zarda qilishadi. Va bosim ostida orqaga chekinishadi.

– B-beshtadan tarqal! Birinchi! Ikkinchi! Uchinchi!

Oy ham endi bor bo‘yicha nur sochyapti. Rangi ochildi, yuzidagi qizg‘ishlik yo‘q bo‘ldi. Yuqoriga chorakdan katta qismi ko‘tarildi. Oqshom ham nobud bo‘ldi!.. La‘nati moldavan. La‘nati soqchi. La‘nati hayot...

Sanoqdan o‘tgan oldingi safdagilar o‘girilib, oyoq uchiga turgan-gacha qarashyapti – oxirgi beshtalikda ikki kishi qolarmikin, uch-tami? Hozir butun hayoting shunga bog‘liq.

Shuxovga oxirgi beshtalikda to‘rt kishi qolayotganday tuyul-di. Qo‘rquvdan serrayib qoldi: ortiqcha odam! Yana sanashadi! Ko‘rsaki, Fetyukov, shoqol, kapitandan chekilmay qolgan sigaret qoldig‘ini olaman deb imillab qolibdi, o‘z beshtaligiga yetib borol-

mabdi, shu bois safda ortiqcha odamdek bo‘lib ko‘rinibdi. Boshliq yordamchisi jahli chiqib, Fetyukovning basharasiga musht tushirdi. To‘ppa-to‘g‘ri!

Oxirgi safda – uch kishi. Hisob to‘g‘ri, o‘zingga shukur, Xudo!  
– Na-ari tur darvozadan! – yana majburlaydi konvoy.

Lekin bu safar mahbuslar to‘ng‘illashmaydi, ko‘rib turishibdi: askarlar vaxtadan chiqib, safni darvoza tomondan o‘rab olishyapti. Erkin ishboshilar ko‘rinmaydi, prorab ham yo‘q, yigitlar o‘tinlarni olib o‘tib ketishdi.

Darvozani ochishdi. O‘sha yerda, darvoza ortida, yog‘och to‘siq yonida yana qorovullar boshlig‘i va nazoratchi sanadi:

– Bir-rinchi! Ikkinchi! Uchinchi!..

Agar yana bir marta sanoq to‘g‘ri chiqsa, qo‘riqchilarni minoradan tushirishadi.

Zona bo‘ylab olis minoralardan bu yoqqacha o‘h-ho‘ qancha yurish kerak! Oxirgi mahbusni zonadan chiqarib, hisobni tekshirish-gach, u to‘g‘ri chiqsa, shundagina hamma minoralarga telefondan xabar qilishadi: tushing! Agar qorovullar boshlig‘i aqlli bo‘lsa, shu zahoti o‘rnidan qo‘zg‘aladi, chunki biladi: mahbusning qochadigan joyi yo‘q, minoradagilar kolonnaga yetib oladilar. Boshliq axmoq bo‘lsa, mahbuslarga qarshi askarlar kamlik qiladi, deb o‘ylaydi-da, kutadi.

Bugungi boshliq ham o‘shanaqangi befahmlardan edi. Kutdi. Kun bo‘yi mahbuslar ayozda ishlashgan, bu o‘limning o‘zginasi, juda sovqotishgan. Ishdan keyin ham bir soat tik oyoqda muzlab turishdi. Ammo ularga ayozdan ko‘ra ko‘proq jahl ta’sir qilyapti: oqshom behuda ketdi! Zonada endi bir ish qilolmaysan.

– Ingliz flotining hayotini qayerdan bunchalik yaxshi bilasiz? – savol eshitaladi qo‘shni beshtalikdan.

– Ha, bilasizmi, bir oy ingliz kreyserida yashaganman, o‘sha yerda alohida kayutam bor edi. Men dengiz konvoyiga hamrohlik qilganman. Aloqa ofitseri edim ularda.

– E, shundaymi? Sizga yigirma besh yil berishga yetarlik ekan bu.

– Yo‘q, bilasizmi, liberal tanqidchilik tarafdori emasman men. Qonunchiligimiz haqida yaxshi fikrdaman. (Sayra, sayra, o‘zicha o‘ylaydi Shuxov gapga qo‘shilmay. Senka Klevshin amerikaliklar



bilan ikki kun turgan, unga to'rtinchi muddatni yopishtirishdi, sen bir oy ularning kemasida o'ralashgansan-u, seni qanchaga kesishlari kerak edi?) Lekin urushdan keyin ingliz admirali, jin ursin uni, menga esdalikka deb sovg'a jo'natdi. «Minnatdorchilik belgisi» deb. Ham hayron qolaman, ham la'natlayman!..

G'aroyib. Mana shunday bir nazar solish juda g'aroyib: dasht tap-taqir, zona bo'm-bo'sh, oy nurida qor yiltiraydi. Konvoy joyini egalladi: bir-biridan o'n qadam narida, qurollari otishga shay. Qora bushlatdagi mahbuslar podasi va xuddi shunday bushlatda Shch-311 – tilla pogonlarsiz hayotni ham xayoliga sig'dirmagan, ingliz admirali bilan muomala qilgan, endi esa Fetyukov bilan zambil tashiyapti.

Odamni unaqasiga o'girib qarasa ham bo'ladi, bunaqasiga ham... Konvoy to'plandi. «Duo»siz to'g'ridan-to'g'ri buyurishdi:

– Qadam bos! Tezroq!

Yo'q, q... senlarga endi – tezroq! Hamma Obyektlardan orqada qolishdi, endi shoshilishga hojat yo'q. Mahbuslar so'zsiz ham barini tushunishdi: senlar bizni ushlab turdilaringmi, endi biz ushlab turamiz. Senlarning ham issiqqina makonga borgilaring kelyapti, chog'i?

– Ildam yur! – qichqiradi boshliq. – Ildam, oldindagi!

Q... senga – «ildam yur!» Mahbuslar bir maromda, xuddi dafn-ga ketayotganek bukilib borishadi. Endi yo'qotadigan narsamiz yo'q, baribir lagerga oxirgi bo'lib kiriyapmiz. Biz bilan odambashara muomala qilmadingmi, endi baqiriqdan yorilib o'l.

Qorovullar boshlig'i «ildam yur!» deb baqirdi-baqirdi, nihoyat, tushundiki, mahbuslar tezroq yurishmaydi. O'q otish ham mumkin emas: beshtadan bo'lib, tekis kolonna bo'lib ketishyapti. Boshliqning mahbuslarni tezroq haydashga haqi yo'q. (Ertalab mahbuslarni xuddi shu – ishga sudralib borish qutqaradi. Kim tez yugursa, u muddati tugashiga yetib kelolmaydi, holdan toyadi, yiqiladi).

Shu tarzda bir tekis, shoshilmay jo'nashdi. Qorni g'archillatib bosishadi. Kim asta so'zlashib boradi, kimdir jim ketadi. Shuxov ertalab zonada nima chala ishim qoldi deb eslay boshladi. Va esladi: sanitar qism! Buni qara-ya, ish ustida sanitar qismni umuman unutib yuboribdi.

Ayni hozir sanitar qismda qabul vaqti. Agar kechki ovqatni yemasa, ulgursa bo'ladi. Lekin hozir zirqillash yo'q, chog'i. Harorati ham o'Ichagudek emas... Vaqtzni yo'qotish! Do'xtirlarsiz ham yengib yuboribdi. Bu do'xtirlar yog'och bushlat kiyadigan qilib davolashadi.

Uni hozir jalb qilayotgan narsa sanitar qism emasdi – kechki taomiga nimani qo'shsa ekan? Umid qilardiki, Sezar jo'natma oladi, axir allaqachon vaqti yetgan.

Birdan mahbuslar kolonnasini go'yo almashtirib qo'yishdi. Kolonna tebranib, tekis yurishdan chalg'ib, siltandi, guvilladi, g'uvilladi, mana oxiridagi beshtaliklar, ular orasida Shuxov ham oldinda ketayotganlarga yetib yurish emas, ular ortidan yugurishga tushishdi. Bir nechta qadam tashlashadi-yu, tag'in yugurishadi.

Kolonna oxiri do'nglikka chiqqanda Shuxov o'zlaridan o'ngda, dashtda uzoqda yana bitta kolonna qorayib ko'rinayotganini, u o'zlarining kolonnasi oldini kesib chiqayotganini, ularni ko'rib, ehtimol, qadamini tezlatganini ko'rdi.

Bu kolonna faqat mexanika zavodini bo'lishi mumkin edi, unda uch yuztacha odam bor. Ularning ham, demak, omadlari kelmabdi, ushlanib qolishibdi. Ularni nega ushlab qolishdi? Ularni ko'pincha ishda ushlab qolishadi: biron-bir mashina ta'mirini tugatish uchun. Bu ularga hech narsa emas, ular kun bo'yi issiq joyda.

Qani, endi kim kimdan o'zarkin? Yigitlar yugurishyapti, chindan yugurishyapti. Konvoy ham chopqillab qoldi, faqat qorovullar boshlig'i qichqirib qo'yadi:

– Sudralma! Orqadagilar, yetishib yur! Yetishib yur!

Peshonangga s... seni, nega akillaysan? Yetishib yurmay nima qilyapmiz?

Kim nimani gapirayotuvdi, kim nimani o'ylayotuvdi, barini unu-tishdi, butun kolonnada bittagina maqsad qoldi:

– Quvib o'tish! O'zib ketish!

Hammasi – nordon chuchuk bilan aralashib ketdi, endi konvoy mahbuslarga dushman emas, balki do'st. Dushman esa – narigi, boshqa kolonna.

Hamma birdan jonlanib ketdi, qahr yo'q bo'ldi.

– Bo'laqol! Bo'laqol! – orqadagilar oldingilarga qichqirishadi.

Bizning kolonna ko'chaga yetdi, mexzavodniki esa turar joy mavzesi ortida g'oyib bo'ldi.

Poyga tavakkaliga ko'chdi. Bu yerda bizning kolonnaning yurishi oson ko'chdi, ko'chaning o'rtasidan ketishdi. Konvoy ham biqinda unchalik qoqilmadi. Xuddi shu yerda biz ulardan o'zib ketishimiz kerak!

Shuning uchun mexzavoddagilardan o'zish kerakki, lager vaxtasida ularni o'ta uzoq tintishadi. Lagerda so'yish boshlangani uchun boshliqlar pichoqlarni mexzavodda yasashadi, lagerga pichoq o'sha yerdan kelyapti, deb hisoblashyapti. Shu bois lagerga kiraverishda mexzavoddagilarni sinchiklab tintib ko'rishadi. Kech kuzda, yerni qirov bosgan paytda ularga qichqirishardi:

– Botinkalarni yech, mexzavod! Botinkalar qo'lga olinsin!

Shunday yalangoyoq holda tintuvdan o'tishardi. Hozir esa, ayoz bo'lgani uchun tanlab buyurishardi:

– Qani, o'ng poyini yech-chi! Sen chap poyini yech!

Mahbus piymani yechib, ikkinchi oyog'ida sakragancha, yechilgan piymani ag'darib, paytavasini silkitishi, shu bilan pichoq berkitmaganini ko'rsatishi kerak.

Shuxov eshitgandiki, rostmi, yolg'onmi, bilmaydi, mexzavodchilar yozda lagerga ikkita voleybol ustunini olib kelishib, o'sha ustunlarga hamma pichoqlarini berkitishgan ekan. Har birida o'ntadan uzun pichoq bor ekan. Hozir ba'zida ularni lagerda topib qolishadi, hali u yoqda, hali bu yoqda.

Shu tariqa, deyarli yugurishib yangi klub yonidan o'tishdi, turar joylardan ham, yog'ochga ishlov berish korxonasidan ham o'tishdi va lager vaxtasiga chiqadigan to'g'ri burilishdan chiqib kelishdi.

– Xu-gu-u! – kolonna birvarakay bor ovozda hayqirdi.

Yo'ning xuddi shu burilishini mo'ljallashgan edi! Mexzavodchilar o'ng tomonda, bir yuz ellik metr orqada qolib ketishdi.

Endi xotirjam keta boshlashdi. Kolonnada hamma xursand. Bu quyonning xursandchiligiga o'xshaydi, bizdan hali baqalar ham qo'rqadi, degandek.

Mana, lager. Ertalab qanday tashlab ketishgan bo'lsa, hozir ham shunday: tun, zona bo'ylab butun devor ustida chiroqlar yonadi, ay-

niqsa, vaxta oldidagi, tintuvga mo'ljallangan maydonchadagi fanorlar yorqin, xuddi quyosh nur to'kkandek.

Lekin vaxtaga yetmasdan...

– To'xta! – qichqiradi boshliq yordamchisi. Avtomatini askarga berib, chopqillab kolonnaga yaqinlashadi (ularga avtomati bilan yaqinlashish ta'qiqlangan). – O'ng tomonda turgan hamma, qo'lingdagi o'tinni o'ngga tashla!

Tashqarida o'tinni hamma ochiqchasiga ko'tarib kelgan, hammasi ko'rinib turibdi. Bitta, ikkita bog'lam uchdi, ketidan uchinchisi. Ba'zilar o'tinlarini kolonna ichiga yashirmoqchi bo'lishdi, qo'shnilari esa ularga shipshidi:

– Seni deb boshqalarnikini ham tortib olishadi! Yaxshilikcha tashla!

Mahbusning eng katta dushmani kim? Boshqa mahbus. Agar qamalanganlar bir-biri bilan g'ajishmasa, boshliqlar ular ustidan hukm yurgizolmasdi.

– Yu-u-ur! – qichqiradi qorovullar boshlig'ining yordamchisi. Hamma vaxtaga jo'naydi.

Vaxtaga beshta yo'l kelib ulanadi, bir soat avval ularda hamma Obyektdagilar to'plangan. Agar mana shu yo'llarning hammasi bo'ylab ko'chalar qurilsami, mana shu vaxta va tintuv joyini bo'lg'usi shaharchaning bosh maydoni qilsa bo'ladi. Hozir har tomondan Obyektlar oqib kelgandek, o'sha paytda namoyishchilar kelib birlashadi.

Nazoratchilar allaqachon vaxtada isinib o'tirishardi. Chiqib, yo'lni kesib turib olishdi.

– Bushlat oldini o-och! Kamzul oldini och!

Qo'llarini kerishadi. Tintayotib quchoqlamoqchidek bo'lishadi. Yonlariga urib qo'yishadi. Umuman, xuddi ertalabdagidek. Hozir kiyim barini ochish qo'rqinchlimas, uyga kelishyapti. Hamma shunday deydi: «uyga». Boshqa uyni eslashga ham imkon yo'q.

Kolonna boshidagilarni tintishayotgan payt Shuxov Sezarga yaqinlashib, dedi:

– Sezar Markovich! Men vaxtadan chopqillab jo'natmalarga qaragani boraman, sizga navbat olib qo'yaman.

Sezar quyilgandek qop-qora, ammo hozir qirovdan oqargan mo'ylovlarini Shuxovga yaqinlashtirdi:



– Nima qilasan navbat olib, Ivan Denisich? Balki endi hech narsa kelmas.

– Ha, kelmasa, menga nima g'am? O'n daqiqa kutaman, kelmasangiz, barakka qaytaman. (Shuxov esa o'ylayapti: Sezar bo'lmasa, balki boshqa kimdir kelar, navbatdagi o'rnini sotadi-qo'yadi.)

Sezar jo'natmalarni sog'inibdi, shekilli:

– Mayli, Ivan Denisich, yugur, navbat ol. O'n daqiqa kut, ortiq turma.

Mana, tintuv ham yaqinlashib kelyapti. Bugun Shuxovning berkitadigan narsasi yo'q, qo'rqmasdan yaqinlashaverdi. Bushlati barini shoshilmay ochdi, brezent belbog'i tagidan kamzuli barini ham tortib chiqardi.

Bugun ta'qiqlangan narsa olganini eslolmasa ham, sakkiz yillik o'tirish davomida orttirgan hushyorligi odatga aylangan. Qo'lini shimi cho'ntagiga suqdi, bo'sh ekanligini tekshirmoqchi edi, holbuki, bo'sh ekanligini juda yaxshi bilardi.

Lekin u yerda arraning singan bo'lagi bor edi! Bugun ish zonasiidan topib, yarab qolar deb olgan, lagerga umuman olib kirishni xayoliga keltirmagan arra.

U arrani olib kirmoqchi emasdi, lekin endi, bilmay ko'tarib kelandan keyin uni tashlash juda uvol edi! Axir uni kichkina pakkiga aylantirish mumkin – hech qursa etikdo'zlikka, hech qursa tikuvchilikka yarardi!

Agar uni olib kirishni niyat qilsa, uni durust berkitishni ham o'ylagan bo'lardi. Hozir esa oldinda ikkitagina qator qolgandi, mana, o'sha beshtalikning birinchisi ajralib, tintayotganlarga qarab ketdi. Shamol tezligidan ham ildamroq hal qilish kerak: yoki oxirgi beshtalikni pana qilib bildirmay uni qorga tashlash (izlaridan uni topishadi, lekin kimniki ekanligini bilishmaydi), yoki olib kirish!

Arra sinig'i uchun o'n kunga karserga tashlashlari mumkin, agar uni pichoq deb topishsa. Lekin etikdo'z pichoqchasi tirikchilik degani edi, non degani edi! Tashlashga ko'z qiymasdi.

Shuxov uni ip qo'lqopi ichiga tiqdi. Shu payt keyingi beshtalikka tintuvga kelish buyurildi.

Yop-yorug' joyda oxirgi uch kishi qoldi: Senka, Shuxov va 32-brigadadagi moldavanni izlagan yigitcha.

Ular uch kishi edi, ro‘paralarida nazoratchilar besh kishi bo‘lgani uchun quvlik qilish – o‘ng tomondagi ikkitasidan qaysidir birini tanlash mumkin edi. Shuxov yosh, beti qizil nazoratchini emas, mo‘ylovi oqargan keksasini tanladi. Kexsa nazoratchi, albatta, tajribali edi, agar istasa, arrani osongina topardi, lekin u qarigani uchun xizmat achchiqtoshdan battar joniga tekkan bo‘lishi mumkin edi.

Shu asno Shuxov ikkala – arracha solingan va bo‘sh qo‘lqopini yechdi, ikkovini bitta qo‘liga olib, bo‘sh qo‘lqopini oldinga tortib chiqarib qo‘ydi, shu qo‘liga yana belbog‘ini ham ildi, kamzuli tugmalarini oxirigacha yechdi, bushlati va kamzuli barini xushomad qilgandek tepaga ko‘tardi (u hech qachon tintuv payti ularning ishini bunchalik yengillashtirmagan, hozir esa go‘yo mana, meni ko‘raqol, hamma yog‘im ochiq, demoqchi edi,) va buyruq berilishi bilan oq mo‘ylovliga qarab yurdi.

Oq mo‘ylovli nazoratchi Shuxovning yelkalari va yag‘riniga, biqiniga urib qo‘ydi, tizzasi yonidagi cho‘ntagiga ham qo‘lini tekkizdi, kamzuli va bushlati barini qo‘lida ezg‘ilab ko‘rdi, hech narsa yo‘q, qo‘yib yuborayotib, har ehtimolga qarshi Shuxov oldinga uzatib turgan bo‘sh qo‘lqopni ushladi.

Nazoratchi qo‘lqopni ezib ko‘rayotgan payt Shuxovning ich-ichiga burov solib qisgandek bo‘ldi. Ikkinchi qo‘lqopni mana shunday qisimlab ko‘rishsami, u karserga tushadi, kuniga uch yuz gramm non bilan yashaydi, faqat uchinchi kunigina issiq ovqatga yetishadi. Shu zahoti o‘sha yerda ochlikdan sillasi qurishini, hozirgi chayir, och emas, lekin to‘q ham bo‘lmagan holatiga qaytishi qiyin bo‘lishini tasavvur qildi. Va shu zahoti o‘zicha yonib yolvora boshladi: «E, Xudo! O‘zing qutqar! Karserga tashlatma meni!»

Bu xayollarning bari nazoratchi birinchi qo‘lqopni ezib, ikkinchisiga qo‘lini uzatguncha miyasidan yugurib o‘tdi (agar Shuxov qo‘lqoplarini bitta qo‘lida emas, ikkalasida ushlab turganida u birvarakay ikkala qo‘lqopni ham ezg‘ilagan bo‘lardi). Ammo shu zahoti ularning kattasi tezroq qutulish uchun konvoyga qichqirdi:

– Qani, mexzavodni opke!

Kexsa nazoratchi ikkinchi qo‘lqopni tekshirish o‘rniga Shuxovga qarab qo‘lini silkidi – mayli, o‘taver. Va o‘tkazib yubordi.

Shuxov brigadadoshlariga yetish uchun yugurib ketdi. Ular bozordagi ot bog'laydigan xariga o'xshagan ikkita uzun yog'ochni birlashtirib kolonna kirishi uchun qo'tonga taqlidan yasalgan to'siq orasida beshtadan bo'lib saf tortishgan edi. U yengil, oyog'i ostidagi yerni sezmasdan yugurdi, yana bir marta, bu safar minnatdorlik bilan Xudoni esga olmadi ham, chunki bunga vaqti yo'q, endi buning keragi ham yo'q edi.

Ularning kolonnasini qo'riqlab kelgan konvoy chetga chiqib, mexzavod soqchilariga joy bo'shatgan, endi boshliqlarini kutib turishardi. Kolonna tashlagan o'tinlarni esa soqchilar o'zlariga olishdi, tintuv payti nazoratchilar olib qo'ygan o'tinlar esa vaxta yonida uyildi.

Oy borgan sari yuqorilar, oppoq, yorug' tunda ayoz yanada kuchayib borardi.

Soqchilar boshlig'i to'rt yuz oltmish uchta bosh uchun bergan tilxatini qaytarib olish uchun vaxtaga ketdi, Volkovoyning yordamchisi Pryaxa bilan gplashdi, Pryaxa esa qichqirdi:

– Ke – to'rt yuz oltmish!

Kolonna o'rtasiga berkinib olgan moldavan xo'rsinib o'ng tomondagi to'siq yoniga keldi. U hamon boshini egib, yelkalarini qisib turardi.

– Bu yoqqa kel! – Pryaxa unga to'siqni aylanib o'tishga ishora qildi.

Moldavan aylanib o'tdi. Unga qo'lini orqaga qilib, shu yerda turishni buyurishdi. Demak, unga qochishga urinish degan moddani yopishtirishadi. BURga olib ketishadi.

Darvozaga yetmay, qo'tonning o'ng va chap tomonlariga ikkita vaxtyor kelib turdi, uch odam bo'yi keladigan darvoza sekin ochilganda, buyruq eshitildi:

– B-beshtadan tarqal! («Darvozadan nari tur» deyishning endi hojati yo'q, darvozalar zona ichiga ochiladi, mahbuslar ichkaridan yopirilganda ham ularni ochisholmaydi.) Birinchi! Ikkinchi! Uchinchi!..

Mana shu oqshomgi qayta sanoqda, lager darvozalaridan kirayotgan mahbus kun bo'yi shamolda qolib, sovqotib, ochqab kelgan bo'ladi, og'iz kuydiradigan kechqurungi shildiragan bir cho'mich

karam sho'rva hozir uning uchun qaqragan yerga tushgan yomg'ir, bir ho'plashdayoq ichiga yutib qo'ya qoladi. O'sha bir cho'mich sho'rva uning uchun hozir ozodlikdan qimmat, avvalgi hayotidan va kelajakdagi butun hayotidan qimmat.

Lager darvozasidan o'tib kelayotgan mahbuslar go'yo safardan qaytib kelayotgan jangchilar – ovozlari baralla, qadamlari yirik, gursillagan – chetla-a-an!

Shtab barakidagi chmo' yopirilib kirayotgan mahbuslarga qarashga ham qo'rqadi.

Mana shu qayta sanoqdan keyin, ertalab olti yarimda saflanishga zang chalingandan buyon birinchi marta mahbus erkin odamga aylanadi. Zonaning katta darvozasidan o'tishdi, zona oldi maydonidagi kichik darvozadan o'tishdi, yana ikkita ustun oralig'idagi chiziq bo'ylab o'tishi, endi – har kim istagan joyingga sochil!

Kim qayoqqa ketdi, brigadirlarni esa naryadchi ushlab qolyapti:  
– Brigadirlar! PPChga!

Bu – ertaga yana omoch tortiladi, degani. Shuxov BUR yonidan baraklar orasidan jo'natmalar beriluvchi punktga qarab yugurib o'tdi. Sezar esa shoshilmay, obro'sini tushirmay boshqa tomonga, atrofida bir to'da odamlar uymalashayotgan ustun tomonga ketdi, ustunga faner taxtacha qoqilgan bo'lib, unga kimyo qalami bilan jo'natma olgan mahbuslarning ism-sharifi yozilgan edi.

Lagerda qog'ozga kam yozishadi, fanerni ma'qul ko'rishadi. U qattiqroq, aniqrog'i yog'och u. Vertuxay va naryadchilar boshlarni hisoblab yozishadi. Ertasiga o'chirib tashlab, yana yozishadi. Tejamkorlik.

Kim zonada qolsa, ular yana shunday xizmat ko'rsatishadi: taxtachada kimga jo'natma kelganini o'qib olishadi-da, uni chiziq yonida kutib olib, darhol belgilangan raqamni xabar qilishadi. Ko'p emas-u, lekin shunga ham sigaret berishadi.

Shuxov punktga – barakka ulab solingan binoga yugurib keldi, unga yana dahliz ham yopishtirib qo'yishgan. Dahlizga kiraverishga eshik yasalmagan, sovuq bemalol kirib-chiqyapti, lekin baribir shinnamroq ko'rinadi, axir tom ostida-da.

Dahlizda navbat devor yonidan egilib chiqqan. Shuxov ham navbat oldi. Oldinda o'n besh chog'li odam bor, bu bir soatdan ko'p



vaqtni oladi, ayni uxlashga buyruq berilguncha. IES kolonnasidan ro'yxatni ko'rgani ketganlar esa navbatda Shuxovdan keyin turishadi. Mexzavodchilarning hammasi ham keyin. Ular jo'natmani olgani ikkinchi marta, ertaga ertalab kelishlari ham mumkin.

Navbatda to'rvalar, xaltalar ko'tarib turishibdi. U yerda, eshik ortida (Shuxov bu lagerda hali jo'natma olmagan, gap-so'zlardan biladi) jo'natma yashigini bolta bilan ochishadi, nazoratchi bor narsani qo'liga olib, ko'rib chiqadi. Nimanidir kesadi, nimanidir sindiradi, nimanidir paypaslaydi, nimanidir to'kib ko'radi. Agar shisha yoki temir bonkada qandaydir suyuqlik chiqsa, qopqog'ini ochib, ichidagini to'kishadi, xohla kaftingni och, xohla, sochig'ingni o'ram qilib tut. Idishni esa berishmaydi, nimadandir qo'rqishadi. Agar ko'z ko'rmagan piroglar, shirinliklar yoki kolbasa, baliq bor bo'lsa, nazoratchi tishlab ko'radi. (Haq talashib ko'r-chi, shu zahoti ayb topadi, ta'qiqlangan deydi, demak, ruxsat etilmasa, uni bermaydi. Jo'natma olayotgan odam nazoratchidan boshlab faqat berishi, berishi va berishi kerak.) Jo'natmani tintib tugatishgach, yashikni ham berishmaydi, hammasini to'rvangga sol, hech qursa bushlating etagiga sol-da, jo'na. Keyingisi. Ba'zilarni shunday shoshirishadiki, to'siq ustida biron narsasini unutib qoldiradi. Qoldirgan narsangni olaman deb qaytma. Yo'q u.

Bir vaqtlar Ust-Ijmada Shuxov ikki marta jo'natma olgan. Lekin o'zi xotiniga xat yozgan: baribir bo'sh keladi, jo'natma, bolalarning og'zidan olma.

Ozodlikda yurganida bu yerda o'zini o'zi boqishidan ko'ra butun oilani boqishi oson edi, biroq u o'sha jo'natmalar qanchaga tushishini bilardi, oilangdan o'n yil shuncha narsani ololmaysan. Yaxshisi, shularsiz amalla.

U shunday qarorga kelgan bo'lsa ham, har safar brigadasidan yoki baragidan o'ziga yaqin kimdir jo'natma olsa (ya'ni deyarli har kuni), jo'natma unga atalmaganidan yuragi simillardi. U xotiniga hatto Pasxa bayramiga ham sovg'a jo'natishni ta'qiqlagan, hech qachon ro'yxat osilgan ustun yoniga bormagan bo'lsa-da, kimdir yugurib kelib:

– Shuxov! Nega bormayapsan? Senga jo'natma bor! – deyishini kutardi.

Ammo hech kim yugurib kelmasdi...

Temgenyovo qishlog'ini, qarddon kulbasini eslashga borgan sari kam bahona qolayotgan edi...

Bu yerdagi hayot uni tonggi zangdan tungi zanggacha band qilib, bekorchi xotiralarga o'rin qoldirmasdi. Hozir cho'chqa yog'ini tishlash, nonga saryog' surtish yoki choyiga qand tashlashdek umid bilan ichaklarini ovuntirayotganlar orasida turarkan, Shuxov faqat bitta istak bilan yonardi: o'z brigadasi bilan oshxonaga borishga ulgurish va suyuq yovg'onni sovuganda emas, qaynoqligida ichish. Sovuq yovg'on issig'ining oldida yarim bahoga ham arzimaydi.

Uning taxminicha, agar Sezar ro'yxatda ism-sharifini topmagan bo'lsa, allaqachon barakka borgan, yuvinyapti. Agar ism-sharifi topilgan bo'lsa, endi xaltachalar, plastmassa krujkalar, idishlar yig'yapti. Shuning uchun Shuxov o'n daqiqa kutishga va'dalashgan.

Navbatda turib Shuxov yangilik ham eshitdi: bu haftada yana yakshanba kuni bo'lmas ekan, yakshanbani tag'in o'zlashtirib olishyapti. U kutgandiki, hamma ham kutgandi, agar bir oyda beshta yakshanba bo'lsa, uchtasida dam olishadi, ikkitasida ishga haydashadi. U ham shunday deb kutgandi, eshitgani butun yuragini sug'urib oldi, tortib oldi: jonajon yakshanbaga kim achinmaydi? Navbatda turganlar to'g'ri aytishdi: dam olish kunini rasvo qilishni zonada ham qoyillatishadi, nimanidir ixtiro qilishadi – yoki hammomni qayta qurish, yoki o'tadigan yo'lni to'sish uchun devor urish, yoki hovlini tozalash. Hech bo'lmasa to'shaklarni almashtirish, qoqish, vagonkalardagi taxtakanani zaharlash. Yoki kartochkalarga qarab shaxsini tekshirishni o'ylab topishadi. Yoki jihozlarni ro'yxatga olish: bor buyumlarning bilan hovliga chiqib, yarim kun o'tirasan. Ayniqsa, mahbus nonushtadan keyin uxlasa, ularning achchig'i keladi, shekilli.

Navbat sekin bo'lsa-da, olg'a siljirdi. Oldinda turganni itarib tashlab, hech kimdan so'ramay bitta sartarosh, bir buxgalter va madaniy-tarbiyaviy qismdan yana birov navbatsiz kirdi. Lekin bular oddiy mahbuslar emas, lagerning taniqli chmo'lari, zonada o'tirgan ashaddiy palidlar edi. Bunday odamlarni ishchi mahbuslar najasdan ham past deb hisoblashardi (ular esa ishchilarni shunday deb bili-

shardi). Ammo ular bilan olishish behuda, chmo'lar o'zaro jips, nazoratchilar bilan ahil.

Baribir Shuxovdan oldin navbatda yana o'nga yaqin odam bor edi, ortidan yana yetti kishi chopib keldi, shu payt eshik o'rnidan enkayib Sezar kirdi, boshida uyidagilar jo'natgan yangi mo'yna telpak. (Mana, telpak ham bor. Sezar kimnidir «moylagan», yangi, toza shaharcha telpak kiyishga ruxsat berishgan. Boshqalardan hatto titilib ketgan front telpaklarini ham tortib olib, lagerning cho'chqa terisidan tikilgan bosh kiyimini berishgan.)

Sezar Shuxovga jilmaydi va shu zahoti navbatda turib gazeta o'qiyotgan ko'zoynakli g'alati kishiga qaradi:

– E-e! Pyotr Mixaylich!

Ikkovi bir-biriga qarab qizg'aldoqday ochilib ketishdi. O'sha g'alati kishi:

– Menda yangi «Vecherka» bor, qarang! – dedi. – Banderol qilib jo'natishibdi.

– Yo'g'-ey?! – Sezar ham o'sha gazetaga tikildi. Shiftdagi chiroq esa juda xira, juda xira, mayda harflarda yozilgan narsani ko'rib bo'larmishmi?

– Bu yerda Zavadskiyning premyerasiga juda qiziq taqriz bosishibdi!..

Ular, moskvaliklar bir-birlarini olisdanoq tanishadi, xuddi itlar hid olgandek. Topishgandan keyin nuqul iskashib, o'zlaricha hidlashishadi. Tez-tez bidirlashadi, kim ko'p so'z aytishdan bellashadi. Mana shunaqa bidirlashganida rus so'zlari shunchalik kam uchraydiki, ularni tinglash latishlar yoki ruminlarning gapini eshitish bilan teng.

Har holda Sezarning qo'lida xaltalar yig'ilgan, hammasi joyida.

– Haligi... Sezar Markovich... – tovushlarni yamladi Shuxov. – Men boraveraymi?

– Albatta, albatta, – Sezar qop-qora mo'ylovlarini gazetadan ko'tardi. – Demak, men kimdan keyin turibman? Mendan keyin kim?

Shuxov kim kimdan keyinligini tushuntirib berdi, Sezar kechki ovqatni eslashini kutmay so'radi:

– Ovqatingizni opkelib beraymi?

(Bu oshxonadan barakka kotelok ko'tarib kelish degani. Idishni olib chiqish mumkinmas, bu to'g'rida ko'p buyruqlar berilgan. Ushlab olishsa, idishdagi ovqatni yerga to'kib tashlashadi, keyin karserga tiqishadi, lekin baribir olib chiqishyapti va olib chiqishadi, chunki kimning ishi bo'lsa, u brigada bilan oshxonaga borishga ulgurmaydi.)

Ovqatingizni olib kelaymi deb so'radi-yu, o'zicha o'yladi: «Nahotki qoqbosh bo'lsang? Ovqatingni menga sovg'a qilmaysanmi? Axir kechki ovqatga bo'tqa yo'q, quruq yovg'on!»

– Yo'q, yo'q, – jilmaydi Sezar. – Ovqatni o'zing ye, Ivan Denisich!

Shuxov faqat shuni kutib turgan edi! Endi u ozodlikka chiqqan qushdek dahlizdan uchib chiqdi-yu, zona bo'ylab, zona bo'ylab yugurdi!

Mahbuslar har tomonga yugurishadi! Bir vaqtlar lager boshlig'i shunday buyruq chiqargandi: zona bo'ylab hech bir mahbus yolg'iz yurmasin. Borish mumkin bo'lgan joylarga brigadani safga tizib olib borsinlar. Butun brigada birvarakay borishiga ehtiyoj bo'lmagan joylar, aytaylik, sanitar qism yoki hojatga to'rt-besh kishilik guruh tuzib, ularga bir kattani tayinlab, o'sha katta boshqalarni safga tizib olib borsin, o'zi esa ularni kutib tursin, orqaga ham safga turib qaytsinlar.

Lager boshlig'i o'sha buyruqqa rosa taqalishdi. Hech kim uning gapini qaytarishga jur'at qilmadi. Nazoratchilar yakka-yolg'izlarni tutishdi ham, raqamlarini yozishdi ham, BURga tiqishdi ham, buyruq, baribir, sindi. Ko'plab shovqin-suronli buyruqlar singanidek, tinchgina sindi. Aytaylik, bir kishini formalilar chaqirishdi, u bilan birga jamoani qo'shib jo'natmaydilar-ku! Yoki sen o'z yeguliklaring bilan kapyorkaga borishing kerak, men nega endi sen bilan boray? Anavi madaniy-tarbiyaviy qismga borishni xohlab qoldi, gazeta o'qimoqchi, kim u bilan birga boradi? Narigi piymasini tuzattirgani, manavi piymani quritgani, ba'zilar shunchaki u barakdan bunisiga borishi kerak (barakdan barakka qatnash-ku, ayniqsa ta'qiqlangan!), qanday qilib ularni tutib turasan? Boshliq o'sha buyrug'i bilan oxirgi erkinlikni ham tortib olmoqchi edi, uddalolmadi, qorindor.



Barakka ketayotib yo'lda nazoratchini uchratib, har ehtimolga qarshi uning ro'parasida telpagini boshidan salgina ko'tarib qo'yib, Shuxov barakka yugurib kirdi. Barak – qiy-chuv: kunduzi kimningdir payogini olib ketishibdi, mahbuslar navbatchilarga baqirgan, navbatchilar ularga baqirgan. 104-brigadaning burchagi esa bo'sh.

Shuxov zonaga qaytganlarida to'shaklar ag'darilmagan, kunduzi barakda tintuv bo'lmaganini ko'rsa, oqshomini xayrli deb biladi.

Shuxov yo'l-yo'lakay yelkasidan bushlatini yechgancha o'z o'rniga otildi. Bushlati – tepaga, arra sinig'i solingan qo'lqopi – tepaga, to'shagini paypaslab ko'rdi – ertalabki non burdasi o'rnida turardi! Tikib qo'yganiga xursand bo'ldi.

Va chopib tashqariga chiqdi. Oshxonaga!

Nazoratchiga yo'liqmay oshxonaga yetib oldi. Ro'parasidan faqat mahbuslar payok haqida bahslashib o'tishardi.

Hovli oy yog'dusi ostida tobora yorishib borardi. Fonarlar xiralashdi, baraklardan qora soyalar cho'zildi. Oshxonaga to'rt pog'onali, soyabonli keng zina orqali kirilardi, zinapoya ham hozir soyada qolgandi. Lekin tepasida fonarcha tebranadi, sovuqda g'ijirlaydi. Lam-pochkalar ayozdanmi, kirdanmi, xira porillaydi.

Lager boshlig'ining yana bir qat'iy buyrug'i bor edi: brigadalar oshxonaga ikki kishidan saf tortib borsinlar. Buyruqning u yog'ida esa oshxonaga borgach, brigadalar yopiq zinapoyaga chiqmasinlar, balki besh kishidan safga turib, oshxona navbatchisi ularni kirgizmaguncha tursinlar deyilgan edi.

Oshxona navbatchiligini Cho'loq qattiq ushlab olgan. O'zining cho'loqligini nogironlik deb yozdirib olgan, o'zi esa devday keladi, haromi. Qayindan hassa yasab olgan, kim uning buyrug'isiz oshxonaga kiraman desa, o'shani zinadan turib shu hassasi bilan uradi. Lekin hammani ham urmaydi. Ko'zi o'tkir Cho'loq qorong'ida odamni orqasidan ham taniydi, o'zining tumshug'iga tushiradiganlarga tegmaydi. Yuvoshlarni uradi. Shuxovni ham bir marta tushirib qolgan.

Nomi – «navbatchi». Ammo qarasang – knyaz! – oshpazlar bilan oshna! Bugun brigadalarining bari bir vaqtda yopirilib kelganmi, yoki anchagacha tartib o'rnatisholmaganmi, zinapoya usti mahbuslarga to'la, tepada Cho'loq, Cho'loqning quyrug'i va osh-

xona mudirining o'zi turardi. Nazoratchilarsiz boshqarishmoqchi, ko'ppaklar.

Oshxona mudiri – bo'rdoqiga boqilgan cho'chqadek, gazanda, boshi qovoqdek, yelkalari bir gazdan. Kuchi shu qadar toshib ketganki, yurganda prujina ustida tebranayotganga o'xshaydi, go'yo oyog'i ham prujina, qo'li ham. Raqam yopishtirilmagan oq mo'yna telpak kiyadi, bunaqasi ozodlikdagi odamlarda ham yo'q. Qo'y terisidan tikilgan mo'yna kamzul kiyadi, ko'kragida kichkina raqam, xuddi pochta markasiga o'xshagan, bu Volkovoyga yon berganing dalili, yag'rinida esa shu raqam ham yo'q. Oshxona mudiri hech kimga bo'ysunmaydi, hamma mahbuslar undan qo'rqadi. U bir qo'lida minglab odamlar hayotini ushlab turadi. Uni bir marta do'pposlamoqchi bo'lishdi, lekin hamma oshpazlar himoyaga otishdi, hammasi biri-biridan o'tgan turqi sovuq bedavolar.

Agar yuz to'rtinchi kirib ketgan bo'lsa, kulfat keldi, deyaver. Cho'loq butun lagerni yuzidan taniydi, mudirning yonida begona brigada bilan oshxonaga o'lsa ham kiritmaydi, ataylab tahqirlaydi.

Cho'loqning ko'zini shamg'alat qilib ba'zida zinapoya tutqichidan oshib tushishadi, Shuxov ham oshib o'tgan. Bugun mudirning oldida oshib o'tolmaysan – sirpanchiqdan itarib yuboradi, shunangiyiqilasanki, sanitar qismga qarab o'rmlaysan.

Tezroq, tezroq zinapoyaga, bir xil qora bushlatlar orasidan topish kerak, yuz to'rtinchi shu yerdamikin hali.

Ayni shu payt brigadalar itarishib, itarishib kelishdi (iloji yo'q, ko'p o'tmay uxlashga buyruq berishadi!), xuddi qal'aga hujum qilishayotgandek – birinchi, ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi pog'onani egallashdi, pillapoya tepasiga yopirilib chiqishdi!

– To'xtalaring, ...lar! – Cho'loq bo'kirib oldinda turganlarga tayog'ini o'qtaldi. – Orqaga! Hozir birontangni oyog'ingni majaqlayman!

– Bizda nima ayb? – baqirishadi oldinda turganlar. – Orqadagilar itarishyapti!

Orqadan itarishayotgani to'g'ri, lekin oldingi qatorda turganlar ham uncha qarshilik qilishmayapti, oshxonaga uchib kiramiz, deb o'ylashyapti. Bir payt Cho'loq hassasini odamlarning ko'ksi ustiga shlagbaumday qo'yib bor kuchi bilan oldinda turganlarga otilmasin-

mi! Cho'loqning yordamchisi, quyruq ham hassaga yopishdi, oshxona mudiri ham qo'lini iflos qilishdan irganmadi, hassani ushlab, itardi.

Ular safni keskin qaytarishdi, ularning kuchlari oshib-toshgan, go'sht yeyishadi axir, orqaga surib tashlashdi! Tepadan turib oldingi qatordagilarni pastga ag'darib tashlashdi, xuddi poxol bog'lamini yiqitgandek yiqitishdi.

– Cho'loq – qovoq, peshonangga s... seni! – qichqirishadi olomon ichidan, lekin o'zlari berkinishadi. Qolganlar jim yiqilishdi, jim, boshqalar toptab yubormasin deb yiqilgan yerlaridan tezroq oyoqqa turishdi.

Zinapoyani tozalashdi. Oshxona mudiri chetga chiqdi, Cho'loq esa yuqorigi pog'onada turib aql o'rgatyapti:

– Beshtadan tarqal, ho'kiz kallalar, necha marta aytish kerak?! Qachon kerak bo'lsa, shunda kirgizaman!

Shuxov pillapoyaning naq oldida Senka Klevshinga o'xshagan boshni ko'rib, rosa sevindi, tirsaklarini ishga solib, tezroq o'sha yoqqa o'tishga urindi. Yag'rinlarni jiplashtirib olishgan, yo'q, kuchi yetmaydi, o'tib bo'lmaydi.

– Yigirma yettinchi! – qichqiradi Cho'loq. – O'taver!

Yigirma yettinchi pillapoya bo'ylab yugurib, eshikka oshiqdi. Uning ortidan hamma yana zinapoya oldiga tiqilib keldi, orqada turganlar oldingilarni itara boshladi. Shuxov ham kuch bilan itardi. Zinapoya tebranib, tepadagi fonar g'ijiray boshladi.

– Yanami, palidlar? – darg'azab bo'ladi Cho'loq. Va tayog'i bilan kimningdir yelkasiga, kimningdir yag'riniga uradi, odamlarni biri ustiga ikkinchisini itaradi.

Tag'in pillapoyani tozaladi.

Shuxov pastda turib Cho'loqning yoniga Pavlo chiqqanini ko'rdi. Brigadani oshxonaga u olib keladi, Tyurin bu olatasirga kelib obro'sini to'kmaydi.

– B-beshtadan tur, yuz to'rtinchi! – qichqiradi Pavlo tepadan. – Sizlar sal tisarilinglar, og'aynilar!

Og'aynilar tisarilib bo'пти!!

– Qo'yvorsang-chi, ey, yag'rin! Men o'sha brigadadanman! – Shuxov uni silkitadi. U jon deb qo'yvorardi-yu, lekin

uning o'zini har tomondan qisib kelishyapti. Olomon tebranadi, guvillaydi, yovg'on sho'rvasini olgani intiladi. O'ziga tegishli suyuq yovg'onini.

Shunda Shuxov boshqacha ish tutdi: chap tomondan tutqichni ushlab olib, qo'llari bilan zinapoya ustunini quchoqlab, osildi, oyog'i yerdan uzildi. Oyoqlari kimningdir tizzasiga tegdi, uning biqiniga urishdi, ikki martacha o'xshatib so'kishdi, u esa tepaga sho'ng'idi: bir oyog'ini yuqori pog'onaga qo'yib kutib turdi. Uni brigada yigitlari ko'rib qolib, qo'llarini uzatishdi.

Oshxonada mudiri ketayotib eshik yonidan o'girilib qaradi:

– Chaqir, Cho'loq, yana ikkita brigadani!

– Yuz to'rtinchi! – baqirdi Cho'loq. – Sen qayoqqa suqilyapsan, palid?

Va hassasi bilan begona mahbusning bo'yniga tushirdi.

– Yuz to'rtinchi! – Pavlo qichqirib, brigadadoshlarini kirgiza boshladi.

– U-uf! – Shuxov oshxonaga suqilib kirdi. Pavlo unga aytishini kutmay, bo'sh patnislarni izlay ketdi.

Oshxonada har kungiday eshikdan pag'a-pag'a hovur kirar, stollar ortida odamlar kungaboqar urug'laridek bir-biriga jips o'tirishar, stollar orasida izg'ishar, kim to'la patnis ko'tarib kelayotgan bo'lsa turtinib o'tishardi. Lekin Shuxov shuncha yillar ichida bunga ko'nikib ketgan, ko'zlari o'tkir, ko'rdiki, ShCh-208 patnisida atigi beshta tovoq ko'tarib kelyapti, demak, bu brigadaning oxirgi patnisi, yo'qsa nega to'la emas?

Unga yetib olib, orqa tarafdin qulog'iga shipshidi:

– Akaginam! Sendan keyin patnisni men olaman!

– Anavi tuynukda birov kutyapti, va'da berganman...

– Kutayotgan bo'lsa, chipta kavush kirsin og'ziga, anqaymasin edi! Kelishdik.

Tovoqlarni joyiga yetkazgach, patnisni bo'shatdi, Shuxov patnisni ushladi, va'dalashgan mahbus yugurib kelib, patnisning narigi chetidin ushlab tortdi. O'zi Shuxovdan oriq. Shuxov uni tortayotgan tomoniga qarab patnis bilan itarib yubordi, mahbus ustunga tomon uchib ketdi, qo'llari patnisni qo'yib yubordi. Shuxov patnisni qo'ltig'iga qistirib tuynukka yugurdi.



Pavlo tuynuk oldida navbatda turar, patnis yo‘qligiga zerikardi. Xursand bo‘lib ketdi:

– Ivan Denisovich! – Va oldinda turgan yigirma yettinching brigadiri yordamchisini nari itardi: – Qo‘yvor! Nega bekor turibsan? Menda patnis bor-a!

Qara-ya, Gopchik, mug‘ambirgina, patnis tashib kelyapti.

– Ular anqayib qolishdi, – kuldi u. – Men tortvoldim!

Gopchikdan epchil lagerchi chiqadi. Yana uch yil o‘rgansa, o‘ssa, non kesuvchidan kam taqdir kutmaydi uni.

Pavlo sibirlik jussador yigit – Yermolayevga (u ham asir tushgani uchun o‘n yilga kesilgan) ikkinchi patnisni olishni buyurdi. Gopchikni qaysi stolda «kechki tamaddi» tugayotganini aniqlashga jo‘natdi. Shuxov esa patnisni tuynukka burchagi bilan qo‘yib kuta boshladi.

– Yuz to‘rtinchi! – dedi Pavlo tuynukka.

Tuynuklar hammasi bo‘lib beshta: uchta umumiy tarqatuvchi tuynuk, bittasi ro‘yxat bo‘yicha ovqatlanadiganlarga (oshqozon yarasi borlar o‘n kishi, bu buxgalteriyaning bari tekin emas, albatta), yana biri idish-tovoqlarni qaytarish uchun (bu tuynuk oldida tovoq yalaydiganlar urishib ketishadi). Tuynuklar baland emas – odam belidan sal baland. Tuynukdan oshpazlar ko‘rinmaydi, faqat ularning qo‘llari-yu, cho‘michlari ko‘rinadi.

Oshpazning qo‘llari oppoq, parvarishlangan, lekin tukdor, sog‘lom. Boksining o‘zginasi u, oshpazga o‘xshamaydi. Qalamini olib, devordagi ro‘yxatga qayd qildi:

– Yuz to‘rtinchi – yigirma to‘rtta!

Panteleyev oshxonaga sudralib kelibdi. Hech qanaqangi kasal emas ekan, qanjiq.

Oshpaz uch litrlik katta cho‘michni olib bak ichidagi sho‘rvani aralashtiraverdi, aralashtiraverdi, aralashtiraverdi (oldidagi bakka endigina ovqat quyilgan, bo‘g‘zidan salgina pastda, quyuq bug‘ ko‘tarilib turibdi). Keyin yetti yuz ellik grammga mo‘ljallangan cho‘michni olib bakka ko‘p ham botirmay ovqatni suza boshladi.

– Bir, ikki, uch, to‘rt...

Shuxov yovg‘on quyuqlik bak tubiga cho‘kmasidan avval qaysi tovoqqa nima tushganiga, qaysilariga esa shildir suvning o‘zi quyil-

ganiga razm solib, eslab qoldi. O'z patnisiga o'nta tovoqni qo'yib olib ketdi. Gopchik unga ikkinchi ustun yonidan turib qo'l silkidi:

– Bu yoqqa, Ivan Denisich, bu yoqqa!

Tovoq eltish – yeng silkish degani emas. Shuxov patnisga turtki tegmasin deb bir tekis qadam tashlaydi, ko'proq bo'g'zini ishlatadi:

– Ey, Xe – to'qqiz yuz yigirma!.. Ehtiyot bo'l, amaki!.. Yo'ldan qoch, yigit!

Bunaqa tiqilinchda bitta tovoqni ham chayqatmay olib o'tishga mahorat kerak, bu yerda esa o'nta bor. Stolning Gopchik bo'shatgan joyiga patnisni yengilgina qo'ydi, tovoq chekkasida chayqalish izlari yo'q edi. Yana o'zi o'tiradigan joyga ovqatning quyug'i suzilgan ikkita tovoq to'g'ri kelishini fahmlab, patnisni o'sha burchagi bilan qo'ydi.

Yermolayev ham o'nta tovoqni ko'tarib keldi. Gopchik yugurib ketib, Pavlo bilan birga qo'llarida oxirgi to'rtta tovoqni keltirdi. Kildigs patnisda non olib keldi. Bugun bajargan ishlariga qarab yegulik berishadi – kimga ikki yuz, kimga uch yuz, Shuxovga esa to'rt yuz gramm non. O'ziga nonning chetidan to'rt yuz gramm, Sezarga nonning o'rtasidan ikki yuz gramm oldi.

Shu payt butun oshxonadan brigadadoshlari ovqat olgani oqib kela boshlashdi, uni qayerga o'tirsa, shu yerda yeyaverishadi. Shuxov tovoqlarni tarqatarkan, kimga berganini eslab qolar, shuning barobarida patnisning o'ziga tegishli burchagini qo'riqlar edi. Ovqati quyuq tovoqlardan biriga qoshig'ini solib qo'ydi, band qildi, demak. Fetyukov birinchilardan bo'lib o'z tovog'ini oldi-yu, ketdi: hozir o'z brigadasida tirikchilik qilolmasligini tushundi, yaxshisi butun oshxona bo'ylab yurib, shoqollik qiladi, balki kimdir oxirigacha yemas (agar kimdir yeb tugatmay, tovog'ini nari sursa unga ba'zida bir nechtasi kalxatdek tashlanadi).

Porsiyalarni Pavlo bilan birga sanab chiqishdi, to'g'ri keldi, chog'i. Andrey Prokofyevich uchun Shuxov sho'rva quyuqroq suzilgan tovoqni tanlab berdi, Pavlo uni nemislarning tor, qopqoqli kotologiga quyib oldi, uni bushlat ostida ko'ksiga bosib olib chiqish mumkin.

Patnislarni berib yuborishdi. Pavlo o'zining ikki baravar porsiya suzilgan tovog'ini olib o'tirdi, Shuxov esa o'ziga tekkan ikkita tovoq


oldiga. Ular o'rtasida boshqa gap-so'z bo'lmadi, chunki muqaddas daqiqalar boshlandi.

Shuxov telpagini yechib, tizzasiga qo'ydi. Birinchi tovoqqa qo-shiq solib, tekshirib ko'rdi, keyin ikkinchisini tekshirdi. Hechqisi yo'q, baliq ham uchrab turibdi. Umuman, kechqurun yovg'on sho'rva ertalabkidan ancha suyuq bo'ladi: ertalab mahbusni to'yg'azish kerak, chunki u ishlaydi, kechqurun esa shundoq ham uxlayveradi, o'lmaydi.

Yeya boshladi. Avvaliga sho'rva suvini ichdi, ichaverdi. Issiqlik tomog'idan o'tib, badaniga yoyilishi bilan butun ichki a'zolari sho'rvani kutib tipirlay ketdi. Yax-xshi! Mana u, mahbus kutayotgan o'sha qisqa lahza!

Hozir Shuxov hech nimadan xafa emas: muddati uzunligiga ham, kun uzunligiga ham, yana yakshanba – dam olish kuni bo'lmasligiga ham. Hozir u chidaymiz, deb o'ylayapti. Chidaymiz, Xudo xohlasa, hammasi tugaydi!

U tovoqdan ham, bu tovoqdan ham issiq suvni ichib olgach, ikkinchi tovoqni birinchisiga ag'darib oldi, tovoqni qo'yib, yana qoshig'i bilan sidirib ham oldi. Shunisi beg'alva, ikkinchi tovoqni o'ylamaysan, uni ko'zlaring bilan, qo'llaring bilan qo'riqlamay-san.

Ko'zlari bo'shishi bilan qo'shni tovoqlarga nazar soldi. Chap yonidagi qo'shnisiga shildirama suv tushibdi, xolos. Voy gazandalar, nimalar qilishyapti-ya, o'zimizning mahbuslar-a! 

Shuxov karamni atalasimon suyuqlik qoldiqlariga qo'shib yeya boshladi. Ikkita tovoqdan bittagina kartoshka chiqdi, u ham Sezar-ning idishidan. O'rtacha kartoshka, sovuq urgan, albatta, eti qattiq, shirinroq ta'mli. Baliq deyarli yo'q, unda-bunda yalang'och umurtqasi uchrab qoladi. Lekin har bir baliq umurtqasini, suzg'ichini chaynash kerak, ularning sharbatini so'rib olish mumkin, bu foydali sharbat. Bularning hammasiga vaqt kerak, Shuxovning esa shoshadigan joyi yo'q, bugun u bayram qildi: tushlikka ikkita porsiya, kechqurunga ikkita porsiya ovqatga muyassar bo'ldi. Bunaqa ish uchun boshqa barcha ishlarni qo'yib turgan ma'qul. Balki latishning oldiga tamaki olgani boradi. Ertalabgacha tamaki qolmasligi ham mumkin.

Shuxov ovqatni nonsiz yedi: ikki porsiya sho‘rvani non bilan ye-yish – haddan oshish, non ertaga qoladi. Qorin – yovuz, eski had-yani eslab qolmaydi, ertaga yana so‘raydi.

Shuxov yovg‘on sho‘rvasini ichib tugatar, atrofida kimlar bor-ligiga qaramaslikka harakat qilardi, chunki buning keragi yo‘q edi: yangi biron narsani ovlashga intilayotgani yo‘q, o‘ziga haqqoniy te-gishli bo‘lgan ovqatni yerd. Baribir ro‘parasiga, bitta stol nariga ba-land bo‘yli chol – Yu-81 kelib o‘tirganini payqadi. Shuxov bilardi-ki, u 64-brigadadan edi, jo‘natmalarga navbatda turganda esa o‘sha brigada bugun yuz to‘rtinchi o‘rniga Ijtimoiy shaharchaga borganini, kun bo‘yi ayozda tikanli sim tortganini, o‘ziga o‘zi zona qurganini eshitgandi.

Bu chol haqida Shuxovga aytishgandiki, u lagerlar va turmalarda son-sanoqsiz yildan beri o‘tirganmish, sovet hukumati o‘rnashgandan beri bironta ham amnistiya unga tegishli bo‘lmaganmish, bitta o‘n yillik muddati tugasa, shu zahoti yana o‘n yilga kesisharmish.

Shuxov uni yaqindan endi ko‘rishi. Lagerdagi barcha buk-chaygan yag‘rinlardan uning yag‘rini to‘g‘ri, tik, stol ortidan qara-ganda u xarrakda tagiga yana nimadir qo‘yib o‘tirganga o‘xshardi. Uning yalang‘och boshida qiradigan narsaning o‘zi allaqachondan beri yo‘q, sochlari «farovon hayot»dan to‘kilib bitgandi. Cholning ko‘zlari oshxonada bo‘layotgan har narsaga alanglayvermasdi, ular Shuxovning boshi uzra o‘ziga qarashli, o‘zgaga ko‘rinmas nimaga-dir tikilgan edi. U shildirama yovg‘onni cheti kemtilgan yog‘och qoshiq bilan bir maromda ichar, lekin hammaga o‘xshab, tovoq-qqa boshini egib olmagan, qoshiq uning tik boshi tomonga, og‘ziga shoshilmay chiqib-tushardi. Jag‘ining tepasida ham, pastida ham tishlari yo‘q, qotib ketgan milklari nonni tish o‘rniga chaynab be-rardi. Yuzi azobdan tamom bujmayib ketgan, lekin qoqsuyak bir nogiron darajasiga tushmagan, balki tarashlangan qop-qora tosh-ga aylangandi. Uning katta, yorilgan, qoraygan qo‘llariga qarab shuncha yillar ichida u chmo‘ bo‘lib ko‘p ham o‘tirmaganini bilish mumkin edi. Lekin ich-ichiga nimadir o‘rnashib qolgandiki, mu-rosasiz edi: o‘zining uch yuz gramm nonini hammaga o‘xshab kir, to‘kilgan ovqat dog‘lariga to‘la stolga emas, yuvilgan lattachaga qo‘ygandi.



— Lekin cholni uzoq kuzatishga Shuxovning vaqti yo‘q edi. Ovqatini yeb bo‘lib, qoshig‘ini yaladi-da, piymasiga tiqdi, telpagini bos-tirib, o‘zining va Sezarning payogini olib chiqib ketdi. Oshxonadan boshqa eshik orqali chiqilardi, u yerda yana ikkita navbatchi turardi, ular faqat ilgakni ko‘tarib odamlarni chiqarishni, keyin yana ilgakni tushirib qo‘yishnigina bilishardi.

Shuxov qorni to‘lib, o‘zidan ko‘ngli to‘lib chiqib keldi, uyqu vaqti yaqin bo‘lsa ham baribir latishning oldiga g‘irillab borib-ke-lishga qaror qildi. Va nonni to‘qqizinchi barakka olib bormay, qa-damlarini katta-katta tashlab yettinchi barak tomonga ketdi.

Oy ancha balandda, xuddi ko‘k ichidan kesib chiqarilgan-day, oq, pokiza. Osmon musaffo edi. U yer-bu yerda yulduzlar yarqirab ko‘rinardi. Lekin osmonga qarashga Shuxovning vaqti yanada kam edi. U bir narsani tushunardi – ayoz qo‘yib yubor-mayapti. Ozodlikdagilardan eshitganlar aytishdi: kechqurun o‘t-tiz daraja sovuq bo‘lishi kutilayotganmish, ertalab esa – qirq darajagacha.

Juda olisdan, qayerdadir posyolkada traktor tarillagani, shosse tomonda ekskavator g‘ijirlagani eshitalardi. Va lagerning har yeridan yurib yoki yugurib o‘tgan har juft piyma ostidan g‘archillash tovushi chiqardi. Shamol esa yo‘q.

Qo‘lbola tamakini Shuxov har doimgidek bir rublga bir sta-kan sotib olardi, holbuki, ozodlikda bunday stakandagi tamaki uch rubl turardi, navi durustlari esa bundan ham qimmat. Ka-torga lagerida hamma narxlar o‘zicha, boshqa hech narsaga o‘xshamagan, chunki bu yerda pul ushlash mumkin emasdi, pul kamdan-kam odamda bo‘lar va shu uchun juda qadrli edi. Bu lagerda mehnat uchun bir chaqa ham to‘lashmasdi (Ust-Ijmada Shuxov oyiga o‘ttiz rubl olardi). Agar biron kishiga qarindosh-lari pochta orqali pul jo‘natsa ham, u pullarni baribir berishmas-di, balki shaxsiy hisob raqamiga o‘tkazib qo‘yishardi. Oyda bir marta shu hisobdan do‘kondan atir sovun, mog‘orlagan pryanik, «Prima» sigareti sotib olish mumkin edi. Mol yoqadimi, yoq-maydimi, boshliqqa necha pulga ariza yozgan bo‘lsang, shuncha pulga mol sotib olasan. Olmasang, baribir puling kuyib ketadi, chunki ularni hisobdan o‘chirib yuborishgan.

Shuxovga pul shaxsiy mehnati orqali kelardi: buyurgan odamning lattasidan shippak tiksa – ikki rubl, kamzulini yamab bersa – kelishganiga qarab.

Yettinchi barak to‘qqizinchiga o‘xshamaydi, u ikkita katta bo‘lmadan iborat emas. Yettinchi barakda uzun yo‘lak, unda o‘nta eshik, har bir xonada alohida brigada bo‘lib, bitta xonaga yettitadan vagonka tiqilgan. Yana tuvaklar saqlanadigan joy tagidagi kabina va barak yetakchisining kabinasi. Rassomlar ham kabinada yashashadi.

Shuxov latish turadigan xonaga kirdi. Latish pastki narada yotar, oyoqlarini tepaga, chetki qiyalama yog‘ochga qo‘ygan, qo‘shnisi bilan latishcha gaplashardi.

Shuxov uning yoniga kelib o‘tirdi. Salomatmisan, xullas. Salom, dedi u, oyog‘ini tushirmay. Xona esa kichkina, hamma baravar quloq solyapti – kim keldi, nega keldi. Ikkovi buni tushunadi, shuning uchun Shuxov o‘tiribdi-yu, gapni cho‘zyapti, xo‘sh, ahvollaring qalay? Yomonmas. Bugun sovuq bo‘ldi havo. Ha.

Shuxov hamma yana gapga tushib ketishini kutib o‘tirdi (Koreyadagi urush to‘g‘risida bahs qilishyapti: xitoyliklar urushga kirishdi, endi jahon urushi bo‘ladimi, yo‘qmi), so‘ng latishga egildi:

- Qo‘lboladan bormi?
- Bor.
- Ko‘rsat.

Latish oyog‘ini qiyalama yog‘ochdan oldi, naradan pastga qo‘yib, o‘rnidan xiyol ko‘tarildi. Qurumsoq bu latish, stakanni ag‘dararkan, hamisha titraydi, bitta chekishlik ortiq solib yuborishdan qo‘rqadi.

Shuxovga xaltachani ko‘rsatdi, bog‘ichini yechdi.

Shuxov bir chimdim tamakini olib, kaftiga qo‘ydi, ko‘rdi: o‘sha, o‘tgan safargidek, qo‘ng‘irtob, kesilishi ham o‘sha-o‘sha. Burniga yaqinlashtirib, hidladi. Latishga esa:

- O‘sha emas, shekilli, – dedi.
- O‘sha! O‘sha! – achchiqlandi latish. – Menda boshqa nav hech qachon bo‘lmasin, doim bir xil.
- Ha, mayli, – rozi bo‘ldi Shuxov. – Bitta stakanni to‘ldir-chi, chekib ko‘raman, balki ikkita olarman.

U to‘ldir deb bejiz aytmadi, chunki u qaltirab siyrak solishi mumkin edi.

Latish yostig'i ostidan boshqa xaltacha, birinchisidan yumaloq-roq xaltacha chiqardi, tumbasidan stakanча oldi. Stakanча plastmassadan yasalgandi, lekin Shuxovning chamalashicha, qirrali stakanga teng edi. Sola boshladi.

– Ha, sen zichlab sol, zichla! – dedi Shuxov unga va o'zi ham barmog'ini stakanga suqdi.

– Men o'zim bil! – zarda bilan stakanni nariga tortadi latish va tamakini bosib qo'yadi, lekin yengil, nomigagina bosadi. Va yana siyrak sepadi.

Shuxov shu asno kamzuli tugmasini yechib, astari ichidagi paxtani paypaslab, faqat o'zigagina seziladigan qog'ozni topdi. Ikkala qo'li bilan uni paxta uzra oldinga itara-itara, boshqa joyda teshilib, ikkita chok bilan salgina yo'rmab qo'yilgan kichkina teshikka tomon sura boshladi.

Surib keltirgach, tirnog'i bilan ipni so'tdi, qog'ozni uzunasiga yana ikki bukladi (u shundoq ham uzunchoq taxlangan edi) va teshikchadan sug'urib oldi. Ikki rubl. Eskigina, shildiramaydigan.

Xonada esa tomoqlari yirtilib baqirishardi:

– Mo'ylovdor otaginam rahm qilarkan-da sizlarga! U nafaqat siz – kallavaramlarga, tug'ishgan akasiga ham ishonmaydi.

Katorga lagerining shunisi yaxshiki, bu yerda tiling qorningga tushsa ham bemalolsan. Ust-Ijmada pichirlab mamlakatda gugurt yo'q, degin, seni o'tqazishib, yana bitta o'n yilni yopishtirishadi. Bu yerda tepadagi naraga yotvolib xohlaganingni aytib baqir – bit-boqarlar yetkazishmaydi, chunki tutinganlar bungæ qo'llarini siltab qo'ya qolishgan.

Faqat bu yerda ko'p valaqlashishga vaqt yo'q...

– Eh, siyrak solyapsan, – shikoyatomuz dedi Shuxov.

– Ma, ma! – latish ustiga yana bir chimdim qo'shdi.

Shuxov ichki cho'ntagidan o'z xaltachasini chiqarib, stakandagi tamakini unga ag'dardi.

– Mayli, – qaror qildi u, birinchi shirin papirosni shoshilib chekishni istamay. – Ikkinchisini to'ldir.

Yana biroz tortishib, ikkinchi stakanni ham xaltachasiga to'kib oldi, ikki rublni berib, latishga bosh silkib, ketdi.

Hovliga chiqishi bilan yana yugurib, yugurib baragiga jo'nadi. Sezar jo'natmasi bilan qaytsa, uni ko'rmay qolmasin tag'in.

Lekin Sezar o‘z o‘rnida, pastki katda o‘tirar, olgan jo‘natmasi bilan ovora edi. Nima keltirgan bo‘lsa, bari to‘shagi, tumbasi ustiga terib qo‘yilgan, u yerga yorug‘lik chiroqdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tushmas, Shuxovning tepadagi yotoq o‘rni to‘sib turganidan qorong‘iroq edi.

Shuxov egildi, kapitan va Sezarning katlari o‘rtasiga turib, kechqurungi payokni uzatdi.

– Mana noningiz, Sezar Markovich.

Shuxov: «Xo‘sh, oldingizmi?» demadi, chunki bu uning Sezar uchun navbat olgani, demak, ulushga haqli ekaniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishora bo‘lardi. U shundoq ham haqqi borligini bilardi. Lekin u hatto sakkiz yil umumiy ishlarga tashlashganda ham shoqolga aylanmagan, vaqt qancha o‘tsa, qadri o‘z ko‘zi oldida shuncha mustahkamlanib borardi.

Lekin ko‘zlariga hukmini o‘tkazolmasdi. Uning ko‘zlari, lager mahbusining qirg‘iynikiga o‘xshagan ko‘zlari bir lahza ichida kat ustidagi, tumba ustidagi noz-ne‘matlar uzra sirg‘alib o‘tdi, holbuki, o‘ralgan qog‘ozlar oxirigacha ochilmagan, ba‘zi xaltachalari umuman bog‘log‘liq edi, Shuxov mana shu oniy qarashi va sezgir fahmi bilan beixtiyor bilib oldiki, Sezar kolbasa, quyultirilgan sut, dudlangan semiz baliq, cho‘chqa yog‘i, hidi yoqimli qotirilgan non, yana boshqacha isli pechenye, ikki kilocha kesilgan qand, yana sariyog‘ shekilli, keyin sigaretlar, trubkaga solinadigan tamaki, va yana, va yana nimadir olgan.

Shularning hammasini u qisqa bir vaqt ichida, o‘sha so‘zlarni aytguncha anglab ulgurdi:

– Mana noningiz, Sezar Markovich.

Sezar esa hayajonlangan, sochi hurpaygan, xuddi sarxush kishiday (oziq-ovqat kelsa, hamisha shunday bo‘lib qoladi), nonga qo‘lini siltadi:

– O‘zing ola qol, Ivan Denisich!

Yovg‘on sho‘rva bilan yana ikki yuz gramm non – bu to‘liq kechlik ovqat va albatta, Sezar olgan jo‘natmasi uchun Shuxovga bergan to‘liq ulushi degani edi.

Shuxov Sezar terib qo‘ygan ne‘matlardan o‘ziga ortiq ulush kutmay darhol, cho‘rt kesgandek yuzini burdi. Qorningni bekorga gij-gijlashdan yomoni yo‘q.



Mana to'rt yuz gramm, yana ikki yuz gramm non, to'shagi ichida yana kamida ikki yuz gramm bor. Yetadi. Ikki yuz grammini hozir yeydi, ertaga ertalab besh yuz ellik grammini tushiradi, to'rt yuz gramm nonini o'zi bilan ishga olib ketadi, mana bu – yashash! To'shakdagi noni esa tura tursin. Yaxshiki, Shuxovning xayoliga kelib, tikib qo'ydi, tumbaga qo'yilganini, mana 75-brigadadagi birovnikini, o'marishibdi, endi uni ho'... Oliy Sovetdan so'raysan!

Ba'zilar shunday o'ylashadi: jo'natma olayotgan odam – to'la qopchiqning o'zi, o'shani tala! Lekin o'ylab qarasa, unga ne'matlar qanday oson kelsa, shunday oson ketadi. Ba'zida jo'natmangni berayotganda, uni tarqatadiganlar ham ortiqcha bo'tqa ishlab olishdan xursand bo'lishadi. Chekkani olishadi. Nazoratchiga, brigadirga, jo'natma punktidagi chmo'ga qanday qilib bermaysan? U keyingi safar senga kelgan jo'natmani shunaqangi boplaydiki, u bir hafta ro'yxatlarga kirmaydi. Hamma oziq-ovqatlarini topshiradigan omborda o'tiradigan odamga-chi, mana, ertaga ertalab ishga chiqish oldidan Sezar qopga solib jo'natmasini o'sha joyga olib boradi (ombor o'g'ridan, tintuvdan nari, qolaversa, boshliq shunday buyurgan), o'sha omborchiga durustroq qistirmasang, u sendan ushoqdek kemtib, kemtib, qaytaga ko'proq kemirib oladi. Kun bo'yi o'sha yerda o'tiradi u kalamush, begona yeguliklar bilan qamalib o'tiradi, tekshirib ko'r-chi uni! Shuxovga o'xshab senga xizmat ko'rsatganlarga-chi? Hammomdagi odam-chi, senga alohida durustroq ich kiyim uzatsin deb biron narsa berish kerak-ku! Sartaroshga-chi, qo'lida qog'oz ushlab soch oladigan sartaroshga (ya'ni ustarasini qog'ozga artadi, sening yalang'och tizzangga artarmidi axir), ko'p bo'lmasa ham, hech qursa uch-to'rtta sigaret berarsan? Kelgan xatlarni yo'qotmasdan, alohida olib qo'yishlari uchun madaniy-tarbiyaviy qismda o'tirganlarga? Bir kun bo'lsa ham ishga chap berishni, zonada yonboshlab yotishni istaysanmi, doktorga nimadir berish kerak. Qo'shning-chi, xuddi kapitan bilan Sezardek sen bilan bitta tumbani bo'lishayotgan qo'shning, qanday qilib unga hech narsa bermaysan? Axir u senga kelayotgan har bir burdani sanayapti, bu ahvolda har qanday vijdotsiz ham chidolmaydi, beradi.

Shunday ekan, boshqalar begona qo‘lda turgan sholg‘om ko‘zlariga kattaroq ko‘rinib, hasad qilaverishsin, Shuxov hayotni tushunadi, begonaga tegishli narsaga qornini do‘ppaytirmaydi.

Shu asno u poyabzalini yechdi, to‘shagiga chiqdi, qo‘lqopidan arra sinig‘ini oldi, ko‘zdan kechirdi, ertaga durustroq tosh topib, o‘sha toshga ishqab, uni etikdo‘zlarning pichog‘iga aylantirishga qaror qildi. Agar ertalab ham, kechqurun ham o‘tirsas, to‘rt kunda zo‘r, qiyshiqroq o‘tkir tig‘li pichoqcha yasasa bo‘ladi.

Hozircha, hatto ertalabgacha buni yashirib turish kerak. O‘z to‘shagi tagidagi katning ko‘ndalang yog‘ochi orasiga tiqib yuborsa bo‘ladi. Pastda kapitan yo‘q, demak, yuziga qipiq to‘kilmaydi, Shuxov payraha emas, qipiq to‘ldirilgan og‘ir to‘shagining bosh tomonini ag‘dardi-da, arra sinig‘ini yashira boshladi.

Uni yuqori qavatdagi qo‘shnilari – baptist Alyoshka, sal nari-dagi ikki og‘ayni estonlar ko‘rib turishardi. Lekin Shuxov ulardan xavfsirammasdi.

Barak bo‘ylab xiqillaganicha Fetyukov o‘tib ketdi. Bukchayib olgan. Labiga qon chaplashgan. Demak, yana oshxonada tovoq yalagani uchun kaltak yebdi. Hech kimga qaramay, ko‘z yoshlarini yashirmay, butun brigada yonidan o‘tib, tepaga chiqdi, to‘shagiga yuzini bosib oldi.

O‘ylab qarasa, unga achinadi kishi. Muddati oxirigacha yetolmaydi u. O‘zini tutishni bilmaydi.

Shu payt kapitan paydo bo‘ldi, xursand, kotelokda o‘zgacha qilib damlangan choy keltirdi. Barakda choy solingan ikkita bochka bor, lekin uni choy deb bo‘larmidi? Faqat iliqqina-yu, salgina rang berilgan, aslida esa loyqaning o‘zi, bochkaning – bug‘da dimlangan yog‘och bilan chirindining hidi keladi. Bu oddiy mehnatkashlarga mo‘ljallangan choy. Buynovskiyy esa Sezardan bir siqim haqiqiy quruq choy olib, kotelokka tashlabdi-yu, dog‘ suvga yugurgilab borib kelibdi.

Mamnun bo‘lib, pastdagi tumba yoniga o‘rmashib o‘tirdi:

– Jo‘mrak tagida qo‘limni kuydirayozdim! – deb maqtandi.

Pastda Sezar qog‘oz o‘ramini ochyapti, uning ustiga bitta, yana bitta yegulikni qo‘yyapti. Shuxov ko‘rmaslik uchun, ko‘nglini buzmaslik uchun to‘shagini yopdi. Baribir Shuxovsiz ularning ishlari

yurishmadi – Sezar bor bo'yini ko'rsatib yo'lakchani to'sdi-da, ko'zlarini aynan Shuxovga qadab, kipriklarini pirliratdi:

– Denisich! Anavi... O'n sutkani ber!

Bu, demak, kichkina buklama pichoqni ber degani. Shuxovda shunaqa pichoqcha bor, uni ham yashirib qo'ygan. Agar bitta barmoqni o'rta bo'g'inidan egsang, pichoqcha shundan ham kichik, lekin, la'nati, besh barmoq qalinlikdagi yog'ni ham kesadi. Bu pichoqchani Shuxovning o'zi yasagan, pardozlagan, o'zi o'tkirlab turadi.

Qo'lini tiqib, pichoqchani oldi, berdi. Sezar boshini silkidi-da, pastda g'oyib bo'ldi.

Mana, shu pichoq ham – mehnat haqi. Uni saqlash uchun karserga tushish mumkin. Bu gapni vijdoni yo'q odamgina aytishi mumkin: bizga pichoqchangni ber, biz kolbasa kesamiz, sening og'zingga esa – achchiq qalampir.

Endi Sezar yana Shuxovdan qarz bo'lib qoldi.

Non va pichoq bilan bog'liq ishlarni hal qilgach, Shuxov xaltachasini chiqardi. Shu zahoti undan bir siqim, ertalab o'zi qarzga olganiga teng miqdorda tamaki olib, yo'lakcha ustidan qo'llarini cho'zib, estonga uzatdi: rahmat.

Estonning lablari jilmaygandek tortildi, qo'shnisiga – og'asiga o'z tilida nimadir deb g'o'ldiradi, ikkovi tamakini alohida qog'ozga sigarka qilib o'rashdi – demak, Shuxovning tamakisini tatib ko'rishmoqchi.

Sizlarnikidan yomonmas, tatiyvering, salomat bo'ling! Shuxov ham jon deb tatib ko'rardi-ya, ammo ich-ichidan sezyaptiki, tekshiruvgacha oz vaqt qoldi. Hozir shunaqa paytki, nazoratchilar barakdan-barakka sanqib yuradi. Chekish uchun hozir dahlizga chiqish kerak, Shuxov esa tepada, o'z to'shagida issiqroq o'tirganga o'xshaydi. Barakda hecham issiq emas, o'sha-o'sha shiftgacha chiqqan qatqaloq muz. Tunda diydiraysan, hozircha chidasa bo'ladi, chog'i.

Shuxov ikki yuz grammlı payokdan ozgina-ozginadan nonni sindirib og'ziga sola boshladi, o'zi esa beixtiyor pastda kapitan bilan Sezar choy ichayotib suhbatlashayotganini eshitib qoldi:

– Yeng, kapitan, yeng, tortinmang! Mana, dudlangan baliqdan oling. Kolbasadan oling.

- Rahmat, olyapman.
- Batonga saryog‘ surting! Haqiqiy Moskva batoni!
- Voy-voy-voy, odamning ishongisi kelmaydi, qayerdadir hozir ham batonlar yopisharkan-da. Bilasizmi, bunday kutilmagan mo‘l-ko‘lchilik menga bir voqeani eslatdi. Bir kuni Arxangelskka borib qoldim...

Barakning yarmida ikki yuzta tomoqdan shovqin-suron turgan, lekin baribir relsga urib, zang chalishganini eshitdi. Lekin buni boshqa hech kim eshitmadi. Shuxov yana barakka Puchuq laqabli nazoratchi – yuzlari qizil pastak yigitcha kirganini payqadi. Qo‘lida qog‘oz ushlagan, shundan ham, o‘zini tutishidan ham kashandalarni tutishga yo tekshiruvga haydashga kelmagani, kimnidir izlayotgani bilinardi.

Puchuq qog‘ozga qarab olib, so‘radi:

- Yuz to‘rtinchi qayerda?
- Shu yerda, – javob berishdi unga. Estonlar esa papiroslarini yashirishib, tutunni haydashdi.
- Brigadir qani?
- Xo‘sh? – Tyurin to‘shagidan ko‘tarildi, oyog‘i polga salgina tegdi.
- Tushuntirish xatlarini yozishsin deb kimga aytilgan edi?
- Yozishyapti! – ishonch bilan javob berdi Tyurin.
- Topshirish kerak.
- Mendagilar chalasavod odamlar, oson ish emas bu. (Bu gapni Sezar va kapitan haqida aytyapti u. Yasha, brigadir, hech qachon tutilib qolmaydi.) Ruchka yo‘q, siyoh yo‘q.
- Bo‘lishi kerak.
- Tortib olishyapti!
- Xo‘sh, qara, brigadir, ko‘p gapirsang, seni ham o‘tqi-zaman! – loqayd va‘da berdi Puchuq. – Ertaga ertalab ishga chiqquncha tushuntirish xatlari nazoratchilarga topshirilsin! Ruxsat etilmagan buyumlar kapyorkaga topshirildi, deb qayd etishsin. Tushunarlimi?
- Tushunarli.
- («Qutulib qoldi kapitan!») – o‘yladi Shuxov. – Kapitan bo‘lsa hech narsani eshitmayapti, kolbasaga maftun bo‘lib o‘tiribdi.)



– Xo‘sh, endi-i, – dedi nazoratchi. – Shch – uch yuz o‘n bir – bormi senda shunaqa raqam?

– Ro‘yxatga qarash kerak, – aldashga urinadi brigadir. – Es-lab qolarmiding barini, la‘nati raqamlar? (Gapni cho‘zyapti brigadir, Buynovskiyni hech qursa shu tunda olib qolmoqchi, tekshiruvgacha cho‘zmoqchi.)

– Buynovskiy bormi?

– A? Men! – ovoz berdi kapitan Shuxovning kati tagidan, ber-kingan joyidan chiqib.

Mana shunaqa, chaqqon mushuk hamisha taroqqa birinchi bo‘lib tutiladi.

– Senmi? Ha, to‘g‘ri, Shch – uch yuz o‘n bir. Otlan.

– Qayerga?

– O‘zing bilasan.

Kapitan xo‘rsindi, yo‘taldi, xolos. Ehtimol, qorong‘i tunda qutur-gan dengizda minonosetslar eskadrasini boshlab suzish hozir unga yaxdek karserda o‘tadigan «do‘stona» suhbatdan oson ko‘rinib ket-gan bo‘lsa kerak.

– Necha sutkaga? – ovozi bo‘shashib so‘radi u.

– O‘n. Xo‘sh, bo‘laqol, bo‘l, tezroq!

Shu zahoti navbatchilar qichqirib qolishdi:

– Tekshiruv! Tekshiruv! Tekshiruvga chiq!

Bu tekshiruv o‘tkazgani jo‘natishgan nazoratchi barakda turib-di, degani. Kapitan ortiga o‘girildi: bushlat olaymi? Axir bushlatni u yoqda tortib olishadi, paxtali kamzulning o‘zida qoldirishadi.

Bundan chiqdi, shu turishda boraverish kerak ekan. Kapitan Vol-kovoy esidan chiqarvorar, deb umid qilgan ekan (Volkovoy esa hech kimni, hech nimani unutmaydi), tayyorgarlik ko‘rmagan ekan, hatto kamzuliga tamaki ham yashirib olmabdi. Qo‘liga olishning foydasi yo‘q, tintiganda tortvolishadi.

Shunday bo‘lsa-da, u telpagini kiyayotganda Sezar bir juft siga-ret tutqizdi.

– Xo‘sh, xayr, og‘aynilar, – gangib bosh silkidi kapitan 104-bri-gadaga va nazoratchining ortidan ketdi.

Izidan unga bir necha ovoz qichqirib qoldi, kimdir bardam bo‘l, kimdir o‘zingni yo‘qotma, dedi, yana nima deysan? O‘zlari qurish-

gan BUR, yuz to‘rtinchi juda yaxshi biladi: u yerning devorlari toshdan, poli sementdan, hech qanaqa deraza yo‘q, pechkani faqat devordagi muz erisin-u, polda ko‘lmak hosil qilsin uchun yoqishadi. Quruq taxtada uxlaysan, agar tishlaring takillamas, kuniga uch yuz gramm non yeysan, yovg‘on sho‘rva faqat uchinchi, oltinchi va to‘qqizinchi kunlari beriladi.

O‘n sutka! Bu karsening o‘n kecha-kunduzi, agar qat‘iy va oxirigacha o‘tirsang, butun umrga sog‘lig‘ingni yo‘qotasan, degani. Sil bo‘lasan, u yog‘iga kasalxonadan chiqmaysan.

O‘n besh sutka qat‘iy rejimda o‘tirganlar allaqachon zax yerda yotibdi. Barakda yashayapsanmi, xursand bo‘l-u, shukur qil, qo‘lga tushma.

– Qani, chiq, uchgacha sanayman! – barak yetakchisi baqiradi. – Kim uchgacha chiqmasa, raqamini yozib olib, grajdanin nazoratchiga beraman!

Barak yetakchisi – mana yana bitta katta palid. Uni hammamiz bilan birga tun bo‘yi shu barakka qamab qo‘yishadi, u esa o‘zini boshliqdek tutadi, hech kimdan qo‘rqmaydi. Aksincha, hamma undan qo‘rqadi. Kimni nazoratchiga tutib beradi, kimningdir basharasiga o‘zi tushiradi. Nogiron deb hisoblashadi uni, bitta barmog‘i mushtlashuvda uzilib tushgan, basharasi – urka<sup>1</sup>. U haqiqatan ham urka, jinoyat moddasi, lekin boshqa moddalar qatori unga ellik sakkiz-u o‘n to‘rtni ham ilvorishgan, shuning uchun bu lagerga tushgan.

Erkin ish bu, hozir qog‘ozga yozadi, nazoratchiga beradi, mana senga ikki sutkaga karser, yana ishga chiqish bilan. Hamma eshikka sudralib chiqayotgan edi, birdan oshiqib, oshiqib qolishdi, tepadagi katlardan ayiqdek sakrab tushib birdaniga tor eshikka o‘zlarini urishdi.

Shuxov o‘rab tayyorlangan, qachondan beri orzu qilib kelgan sigarkasini qo‘lida ushlab, ephillik bilan sakrab tushdi, oyoqlarini piymasiga tiqdi, ketmoqchi edi-yu, Sezarga rahmi keldi. Sezardan yana nimadir olish umidida emas, dildan rahmi keldi: o‘zini ko‘p o‘ylaydi Sezar, ammo hayotda hech narsani tushunmaydi, jo‘natmani olib, uning ustida parvona bo‘lish emas, tekshiruvga cha tezroq kapyorkaga olib borib qo‘yish kerak edi. Yeb olishni

<sup>1</sup> *Urka* – mahbuslar jargonida mayda o‘g‘ri shunday deb ataladi.

kechiktirish ham mumkin. Endi Sezar jo‘natmasini nima qilsin? Qopchig‘ini tekshiruvda ko‘tarib chiqsa kulgiga qoladi, besh yuzta og‘iz baravar kuladi. Shu yerda qoldirsa, tekshiruvdan keyin kim birinchi bo‘lib barakka yugurib kirsa, o‘sha aniq o‘marib ketadi. (Ust-Ijmada qoidalar bundan ham og‘ir edi: u yerda ishdan qayta-yotganda o‘g‘rilar hammadan avval barakka kirib olishardi, keyingi qatordagilar kirguncha ularning tumbalari «tozalab» qo‘yilgan bo‘lardi.)

Shuxov ko‘rdiki, Sezar tipirchilab qoldi, dik-dik qiladi, ammo endi kech. Kolbasa bilan yog‘ini qo‘yniga tiqdi, hech qursa shular bilan tekshiruvga chiqsa-yu, hech bo‘lmasa, shularni qutqarib qolsa.

Shuxov achinib, nima qilishni o‘rgatdi:

– O‘tiraver, Sezar Markovich, oxirigacha o‘tir, anavi yerga, qorong‘i yerga tiqil, oxirigacha o‘tir. Nazoratchi navbatchi bilan kirib hamma yoqni aylanganda, har teshikka mo‘ralaganda, ana o‘shanda chiq. Kasalman, de! Men birinchi bo‘lib chiqaman, qaytishdayam birinchi bo‘laman. Mana shunaqa...

Va chopib ketdi.

Tashqariga Shuxov shartta tiqilib o‘tdi (o‘ralgan sigarkasini esa avaylab mushtiga yashirdi). Barakning ikkala qismi uchun umumiy bo‘lgan yo‘lakda, dahlizda hech kim oldinga tiqilmasdi, chapdagi devorga ikki qator, o‘ngdagi devorga ikki qator bo‘lib turib olishibdi yovvoyi hayvondek ayyor qavm, o‘rtada faqat bir kishi sig‘adigan bo‘sh yo‘lakcha qoldirishibdi: kim ahmoq bo‘lsa, o‘taversin ayoza, biz shu yerdayam turaveramiz. Shundog‘am kun bo‘yi qahratonda yurdik, endi qo‘shimchasiga yana o‘n daqiqa sovqotaylikmi? Ahmog‘ing yo‘q. Bugun sen o‘l, men ertaga o‘la qolarman!

Boshqa safar Shuxov ham xuddi shunday devorga qapishardi. Hozir katta-katta qadam tashlab oldinga chiqdi-yu, tirjaydi:

– Nimadan qo‘rqyapsanlar, telbalar? Sibir ayozi ko‘rmaganmisanlar? Chiq bo‘rining quyoshiga isingani! Ber, o‘t ber tutatgani, amaki!

Dahlizda sigarkasiga o‘t tutashtirib, zinapoya tepasiga chiqdi, Shuxovning yurtida oyni hazillashib «Bo‘rining quyoshi» deb atashardi.

Oy balandga chiqibdi! Yana shuncha ko'tarilsa, ko'kning naq avjiga keladi! Osmon oppoq, hatto yashiltob, yulduzlar kamyob, lekin porloq. Oppoq qor yarqiraydi, baraklarning devori ham oq, fonnalar yoritayotganga ham o'xshamaydi.

Ana, u barak yonida qora olomon quyuqlashib boryapti, saf tortgani chiqishyapti. Narigisidan ham odamlar chiqyapti. U barakdan bu barakka gap-so'zlardan ko'ra qorning g'archillagan tovushi yetib keladi.

Zinalardan tushgach, devorga tomon besh kishi yuz o'girib turdi, ular ortidan yana uch kishi keldi. O'sha uchala kishi yoniga ikkinchi beshtalik qatorini hosil qilgani Shuxov ham joylashdi. Nonini chaynab, tishida papirosi bilan shu yerda tursa bo'ladi. Tamaki yaxshi ekan, latish aldamabdi, ham o'tkir, ham xushbo'y.

Eshikdan yana oz-ozdan surgalib chiqishyapti, Shuxovning ortida yana ikki-uch qator beshtalik paydo bo'ldi. Endi kim chiqsa, bularning achchig'i keladi, nega bu gazandalar yo'lakda tiqilishadi, chiqishmaydi. Ular uchun ham biz sovqotaylikmi?

Mahbuslarning hech biri hech qachon soatni ko'rmaydi, ha, soat nimaga ham kerak? Mahbusning bilishi kerak bo'lgani – turishga buyruq qachon beriladi? Safga turishga-chi? Tushlikka qancha vaqt qoldi? Uyquga yotishga-chi?

Baribir aytishadiki, kechki tekshiruv soat to'qqizda bo'ladi, deb. Faqat u hech qachon soat to'qqizda tugamaydi, tekshiruvni ikkinchi, uchinchi marta ham o'tkazaverishadi. Soat o'ndan erta uxlolmaysan. Soat beshda esa tur, deb buyurishadi. Bugun moldavan ish tugashi oldida uxlab qolgani ham ajabmas. Mahbus qayerda isinsa, o'sha yerda darrov uxlab qoladi. Bir hafta ichida to'ymagan uyqusi shunchalik to'planib qoladiki, agar yakshanbada ishga solishmasa, butun bir baraklar qotib uxlaydi.

Eh, qara-ya, yopirilib tushishdi, mahbuslar yopirilib tushishdi-ya zinapoyadan! – barak yetakchisi bilan nazoratchilar ularning ketiga tepib haydayapti! Shunday qilish kerak edi ularni, hayvonlarni!

– Nima? – qichqirishadi ularga birinchi qatorda turganlar. – Omuxta yasayotganmidilaring, gazandalar? Najasdan qaymoq axtardilaringmi? Boya chiqqanlaringda – boya sanab tugatishardi.



Barak ichini tashqariga chiqarib tashlashdi. Barakdagi to‘rt yuz odam – bu saksonta beshtalik degani.

Hamma orqa tomonga saf tortdi, oldiniga qat’iy beshtadan bo‘lishib, keyin esa betartib to‘planaverishdi.

– Safga tur, orqadagilar! – barak yetakchisi zinapoyadan turib o‘shqiradi.

Gap uqmas chulchitlar beshtalikka tarqalmayapti, jin urgurlar!

Eshikdan Sezar chiqdi, bukilib olgan, ko‘rinishidan xasta, uning ortidan barakning narigi yarmidan ikki navbatchi, bu yarmidan ikkisi, yana cho‘loq mahbus zinadan tushib kelishdi. Ular birinchi beshtalik o‘rniga turib olishdi, Shuxov uchinchi qatorga o‘tdi. Sezarni esa safning oxiriga haydab yuborishdi.

Nazoratchi zinapoya tepasiga chiqdi.

– B-beshtadan tarqal! – qichqiradi to‘daning oxiriga qarab, bo‘g‘izi baquvvat uning.

– B-beshtadan tarqal! – barak yetakchisi bo‘kiradi, uning bo‘g‘izi yanada baquvvat.

Beshtalikka tarqalishmayapti, la’nati chulchitlar. Barak kattasi zinapoyadan tushib kelib, ularga tashlandi, so‘kinish bilan, yag‘rinlariga atalgan musht bilan!

Lekin kimligiga qarab uradi. Faqat yuvoshlarga musht tushiradi. Safga tarqalishdi. Orqaga qaytdi. Nazoratchi bilan birga sanay ketdi:

– Birinchi! Ikkinchi! Uchinchi!..

Qaysi beshtalikni sanashsa, o‘sha oyog‘ini qo‘liga olib barakka chopadi. Buguncha boshliqcha bilan hisobni to‘g‘rilashdi!

Hisobni to‘g‘rilashardi, agar ikkinchi tekshiruv bo‘lmasa. Tekin-tomoqlar bular, do‘ngpeshonalar, oddiy cho‘pondan ham yomonroq sanashadi: cho‘pon savodsiz bo‘lsa ham, podani haydayotganda bir qarashdayoq biladi: hamma buzog‘i bormi. Bularning adabini bersang ham foydasi yo‘q.

O‘tgan qishda bu lagerda poyabzal quritadigan joy umuman yo‘q edi, piymalarning hammasi barakda qolardi, ikkinchi, uchinchi va to‘rtinchi tekshiruvda ham ko‘chaga haydab chiqarishardi. Mahbuslar kiyinib o‘tirishmasdi, adyolga o‘ranib chiqishaverardi. Bu yil piyma quritadigan pech qurishdi, lekin u hammaga ham yetmaydi, ikki kun oralatib, uchinchi kunda har

bir brigadaga piymalarni quritish navbati yetadi. Endi ikkinchi tekshiruv boshlanganda mahbuslarni baraklarning bir yarmidan ikkinchisiga haydashadi.

Shuxov birinchi bo'lmasa-da, birinchi qatordan ko'z uzmay yugurib kirdi. Sezarning katiga yetib borib, o'tirib oldi. Oyog'idan piymasini yechib, pechka yonidagi vagonkaga chiqdi, piymalarni o'sha yerdan turib pechka ustiga qo'ydi. Bu yerda kim birinchi bo'lib kirsam, o'sha piymasini qo'yadi. Keyin orqaga – Sezarning katiga qarab chopdi. Oyog'ini bukib o'tirarkan, bir ko'zi bilan Sezarning qopchig'ini yostig'i tagidan olib qo'yishmasin deb qaraydi, ikkinchi ko'zi bilan esa pechkaga hujum qilayotganlar piymasini olib ketmasin deb qaraydi.

– Ey! – deya qichqirishga to'g'ri keldi. – Sen! Malla! Piyma bilan basharangga solsam-chi? O'zingnikini qo'y, birovnikiga tegma!

Mahbuslar barakka yopirilib kirishyapti, kirishyapti. 20-brigadada qichqirishyapti:

– Piymalarni topshir!

Hozir ularni piymalar bilan barakdan chiqarishadi, barakni yopishadi. Keyin ular yugurib yurishadi:

– Grajdanin boshliq! Barakka kiriting!

Nazoratchilar esa shtab baragiga yig'ilishadi, qo'llaridagi taxtachalariga qarab hisoblashadi, biron kim qochib ketmadimi, hamma o'z o'rnidami?

Bugun Shuxovning bu bilan ishi yo'q. Mana Sesar ham o'z vagonkasiga sho'ng'idi.

– Rahmat, Ivan Denisich!

Shuxov bosh silkidi va ildam tepaga, o'z o'rniga ko'tarildi. Ikki yuz grammlik nonini yeb tugatish mumkin, ikkinchi papirosni chekish mumkin, uxlash ham mumkin. Kun yaxshi o'tganidan xursand bo'lib ketdi Shuxov, hatto uxlagisi ham kelmaydi, chog'i.

O'rin solish Shuxovga oson: kirchimol qora adyolchasini to'shagi ustidan olib tashlaydi, to'shagiga yotadi (Shuxov qirq birinchi yildan beri, uyidan ketgandan buyon choyshabda yotmasdi; unga hatto xotinlarning choyshab tutib o'zlarini urintirishlari g'alati tuyulardi, ortiqcha tashvish – ortiqcha kir yuvish), boshini

qipiq to'ldirilgan yostig'iga qo'ydi, oyog'ini kamzuliga suqadi, ad-yol ustidan bushlatini tashlaydi, va – O'zingga shukur, Xudoyim, yana bir kun o'tdi, deydi! Karserdagi uxlamayotganiga shukur, bu yerda chidasa bo'ladi.

Shuxov boshini deraza tomonga qaratib yotdi, Alyoshka esa xuddi shu vagonkada, Shuxovdan yupqa, kalta taxta to'siq nari-da – boshini teskari, chiroq nuri tushadigan tomonga to'g'rilab yot-di. Tag'in Injil o'qiydi.

Chiroq ulardan unchalik uzoq emas, hatto o'qish, tikish mumkin. Alyoshka Shuxov ovoz chiqarib Xudoga shukur qilganini eshitib, o'girildi.

– Mana, axir Ivan Denisovich, ko'nglingiz Xudoga munajat qil-gani intilyapti. Nega siz uni o'z erkiga qo'y-maysiz, a?

Shuxov Alyoshkaga qiya qaradi. Ko'zlari go'yo ikkita shamdek iliq yondi. Xo'rsindi.

– Chunki, Alyoshka, iltijolar xuddi arizalarga o'xshab yoki yetib bormaydi, yoki «shikoyati rad etilsin» deyiladi.

Shtab baragi yonida shunaqa yashiklardan to'rttasi bor, ular muhrlangan, oyiga bir marta vakolatli kishi bo'shatib oladi. Ko'plar o'sha yashiklarga ariza tashlashadi. Kutishadi, vaqtini hisoblashadi: mana, ikki oydan keyin, mana, bir oydan keyin ja-vob keladi deb. Javob esa yo'q. Yoki «rad etilsin» degan javob.

– Chunki, Ivan Denisovich, kam, yomon, qunt qilmay iltijo qil-gansiz, shuning uchun duolaringiz ijobat bo'lmagan. Duo uzluksiz bo'lishi kerak! Agar e'tiqodingiz bo'lib, bu kulfatga o'tib ket, de-sangiz, o'tib ketadi.

Shuxov iljayib, yana bitta papiros o'radi. Estondan tutatib oldi.

– Qo'y, Alyoshka, behuda gapni. Tog' yurganini ko'rganim yo'q. Xo'sh, tan olsam, tog'ning o'zini ham ko'rmaganman. Mana, sizlar Kavkazda o'zlaringning butun bir baptist klubing-lar bilan munajat qildinglar, g'amlaringni loqaqal bittasi aridimi?

Shu ham kulfatmi, Xudoga munajat qilib o'tirishuvdi, kimga xalal berishuvdi? Hammalarini qatorasiga yigirma besh yildan kesishdi. Chunki shunaqa davr hozir: o'lchov bitta – yigirma besh yil.

– Biz buning uchun munojot qilganimiz yo‘q, Denisich, – ishon-tirmoqchi bo‘ldi Alyoshka. O‘z Injili bilan Shuxovga yaqinroq suri-lib, yuzma-yuz o‘tirdi. – Xudo bizga barcha dunyoviy va bebaqo narsalardan faqat tirikchilikka zarur rizqni so‘rashni buyurgan: «Bu-gun uchun rizq ber bizga!»

– Payok, de? – so‘radi Shuxov.

Alyoshka esa o‘zinikini ma‘qullaydi, ko‘zlari so‘zdan ortiq ma‘noni ta‘kid qiladi, yana qo‘li bilan Shuxovning qo‘liga urib, go‘yo silab qo‘yadi:

– Ivan Denisich! Iltijoni jo‘natma olish yoki ortiqcha porsiya yovg‘on sho‘rva olish uchun qilmaydilar. Odamlar nazarida yuksak neki bor, Xudo oldida u tubanlik! Ruhiyat uchun iltijo qilish kerak: Xudo qalbimizdan yovuzlik qasmog‘ini olib tash-lasin...

– Menga qara, bizning Polomna cherkovida bir pop bor edi...

– Pop haqida gapirmang! – iltimos qildi Alyoshka, hatto azob-dan peshonasi tirishib ketdi.

– Yo‘q, sen bir eshitgin-a, – Shuxov tirsagiga tayanib, qaddini sal ko‘tardi. – Polomnada, bizning qavmimizda popdan boy odam yo‘q edi. Masalan, tom yopishga chaqirishsa, odamlardan kuni-ga o‘ttiz besh rubldan olamiz, popdan esa – yuz rubl. Loaqal to-mog‘ini qirib qo‘ysa-chi. O‘sha Polomnadagi pop uchta shahardagi uchta xotinga aliment to‘lab, o‘zi to‘rtinchisi bilan yashardi. Oblast-dagi arxierey uning ilgagiga ilingan, bizning pop o‘sha arxiereyga yog‘liqqina qo‘lini uzatib turadi. Boshqa poplarni, mana nechtasini jo‘natishmasin, hammasiga kun bermay chiqarvordi, hech kim bilan bo‘lashgisi kelmaydi...

– Nega menga popni gapirasiz? Pravoslav cherkovi Injildan aj-ragan. Ularni qamashmaydi yoki besh yilga kesishadi, chunki ular-niing e‘tiqodi mustahkam emas.

Shuxov chekkan ko‘yi Alyoshkaning hayajoniga xotirjam boqa-verdi.

– Alyosha, – uning qo‘lini chetga itarib, baptistning yuziga tutun purkagancha gapiraverdi. – Men Xudoga qarshi emasman, tushunyapsanmi? Men Xudoga jon deb ishonaman. Faqat mana jannat bilan do‘zaxga ishonmayman men. Nega bizni axmoq deb



o‘ylaysizlar, bizga jannat bilan do‘zaxni tiqishtirasizlar? Mana shu menga yoqmaydi.

Shuxov yana chalqancha yotib oldi, papirosi kulini boshi osha ehtiyotkorlik bilan, kapitanning buyumlarini kuydirib qo‘ymaslik uchun vagonka va deraza o‘rtasiga qoqa boshladi. O‘ylanib qoldi, Alyoshka nimalar deb g‘ing‘illayotganini eshitmadi.

– Umuman, – qat‘iy qarorga keldi u. – Qancha munojot qilmagin, muddatingni kamaytirishmaydi. Boshidan oxirigacha o‘tirasan, boshqa gap yo‘q.

– Bu to‘g‘risida munojot qilishning keragi yo‘q! – qo‘rqib ketdi Alyoshka. – Ozodlikni nima qilasis? Ozodlikda sizning oxirgi ishonchingiz ham tikanlar orasida yo‘q bo‘lib ketadi! Siz turmada o‘tirganingiz uchun xursand bo‘ling! Bu yerda qalbingiz haqida o‘ylab olishga fursatingiz bor! Havoriy Pavel<sup>1</sup> mana shunday degan: «Nega yig‘lab, qayg‘uga ko‘masiz qalbimni? Men Xudo va Iso uchun nafaqat bandi bo‘lmoq, o‘lmoqqa ham tayyordirman!»

Shuxov shiftga jim qarab yotaverdi. Ozodlikka chiqishni istaydimi, yo‘qmi, o‘zi ham bilmasdi. Avvaliga buni juda xohlab, har kuni kechqurun muddatidan necha kun o‘tganini, qancha qolganini hisobladi. Keyin bu joniga tegdi. Keyin esa unga oydin bo‘la bordiki, unga o‘xshaganlarni uyiga ketkazishmas ekan, surgunga haydasharkan. Qayerda u yaxshiroq yashaydi, bu yerdami, u yerdami, noma‘lum. U Xudodan faqat uyiga qo‘yvorishlarini so‘ragisi kelardi. Uyiga esa qo‘yvorishmaydi...

Alyoshka aldamaydi, uning ovozidan ham, ko‘zlaridan ham ko‘rinib turibdi, turmada o‘tirganidan xafa emas.

– Ko‘ryapsanmi, Alyoshka, – tushuntirdi unga Shuxov. – Senda bularning hammasi tushunarli. Iso senga shu yerda o‘tirishni buyurdi, sen Iso uchun o‘tiribsan. Men nega o‘tiribman? Qirq birinchi yil urushga tayyor bo‘lishmagani uchunmi, shungami? Mening aybim nima?

– Negadir ikkinchi tekshiruv yo‘q... – Kildigs yotgan o‘rnida to‘ng‘illadi.

---

<sup>1</sup> *Havoriy Pavel* – Iso payg‘ambarning o‘n ikki afsonaviy shogirdlaridan biri.

– Ha-a! – dedi javoban Shuxov. – Bu gapni ko‘mir bilan dud-buronga yozib qo‘yish kerak, ikkinchi tekshiruv yo‘q, deb. – Va esnadi: – Uxlaymiz, shekilli.

Shu zahoti tinchib, jimib borayotgan barakda tashqi eshik bolt-larining sharaqlab ochilgani eshitildi. Yo‘lakka piymalarni quritgani olib borgan ikki mahbus yugurib kirib, qichqirdi:

– Ikkinchi tekshiruv!

Izma-iz nazoratchi paydo bo‘ldi:

– Narigi tomonga o‘t!

Ba‘zilar allaqachon uxlab qolishgan edi! To‘ng‘illashdi, qimir-lashdi, piymalariga oyoqlarini tiqishdi (kamdan-kam mahbus kal-sonda yotadi, aksariyat paxtali shimlarining o‘zidayoq uxlashadi, shusiz adyol tagida sovuqdan qotib qolasan.)

– Tuf, la‘natilar! – so‘kindi Shuxov.

Lekin unchalik achchiqlanmadi, chunki hali uxlamagan edi.

Sezar qo‘llarini tepaga uzatib, uning to‘shagi ustiga ikkita pe-chenye, ikki bo‘lak qand va bir tilim dumaloq kolbasa qo‘ydi.

– Rahmat, Sezar Markovich, – egildi Shuxov pastga. – Qop-chig‘ingizni tepaga, menga uzating, yostig‘im tagiga qo‘yaman, bexavotir bo‘ladi. (Tepada turgan qopchiqni yo‘l-yo‘lakay o‘marib ketishning iloji yo‘q, qolaversa, Shuxovning to‘shagidan birov biron narsa axtararmidi?)

Sezar o‘zining uchi bog‘liq oq qopchig‘ini tepaga – Shuxov-ga uzatdi. Shuxov uni to‘shagi tagiga tiqib yubordi, keyin yo‘lakda polda kamroq yalangoyoq turish uchun ko‘proq odamni haydab chi-qishlarini kutib o‘tirdi. Lekin nazoratchi tishlarini irjaytirdi:

– Ey, senlar! Burchakdagilar!

Shuxov yalang oyoqlari bilan polga yengilgina sakrab tushdi. (piymalari bilan paytavalari pechka ustiga juda yaxshi o‘mashtirilgan edi-da, ularni olib qo‘yishga achinadi kishi!) Qanchalar shippaklar tikib tashladi – hammasi boshqalarga, o‘ziga olib qolmadi. Ha, u o‘rganib qolgan, bu turishi uzoqqa cho‘zilmaydi.

Shippaklarni ham tortib olishadi, agar kunduzi topib olishsa. Piymalarini quritishga topshirgan brigadalar ham hozir shu ahvolda turishibdi, kim shippakda, kim ustidan bog‘langan paytavada yoki yalangoyoq.

– Qani! Xo‘sh! – irillaydi nazoratchi.

– To‘qmoq kerakmi, palidlar? – barak yetakchisi ham qolishmaydi.

Mahbuslarni barakning ikkinchi yarmiga, sig‘maganlarni yo‘lakka chiqarib yuborishdi. Shuxov tuvaklar turadigan bo‘lmaning yonidagi devorga qapishib to‘xtadi. Oyog‘i ostidagi pol ho‘lroq edi, dahliz eshigining tagidan sovuq urardi.

Hammani haydashdi – nazoratchi va barak yetakchisi yana bir marta qaragani ketishdi – birov berkinmaganmikin, qorong‘ida birov pisib uxlamayotganmikin. Chunki sanog‘ing kam chiqsa – yomon, ko‘p chiqsa – yomon, qaytadan tekshiruv keladi. Aylanib chiqishdi, aylanib chiqishdi, eshik yoniga qaytishdi.

– Birinchi, ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi... – endi tez-tez bittadan kirgizishyapti.

O‘n sakkizinchi bo‘lib Shuxov ham suqilib o‘tdi. Va vagonkasiga qarab yugurdi, oyog‘ini tirgakka qo‘ydi-yu, lip etib tepaga chiqib oldi.

Durust. Oyoqlarini yana kamzulning yengiga tiqadi, ustiga adyol, uning ustidan bushlat tashlaydi, uxlaydi! Endi barakning narigi yarmini biz tomonga haydashadi, bizga esa nima g‘am.

Sezar qaytdi. Shuxov unga qopchig‘ini tushirib berdi.

Alyoshka qaytdi. Noshud u, hammaning ko‘nglini oladi-yu, lekin o‘zining tirikchiligini eplolmaydi.

– Ma, Alyoshka! – deya unga bitta pechenye uzatdi.

Alyoshka jilmaydi.

– Rahmat! Axir o‘zingizda yo‘q-ku!

– Yesang-chi!

– Bizda yo‘q, lekin biz hamisha ishlab topa olamiz.

O‘zi esa kolbasani – og‘ziga! Tishlari bilan ezdi uni! Tishlari bilan! Go‘sh t hidi-ya! Mazasi ham go‘sh tnik i, haqiqiy. Joyiga, qoringa ketdi. Va – yo‘q bo‘ldi kolbasa.

Qolganini, o‘yladi Shuxov, ishga chiqish oldidan yeymiz. Va boshi bilan adyoliga burkandi, yupqa, yuvilmagan adyolini tortdi, vagonkalar orasiga barakning narigi yarmidagi mahbuslar to‘lganiga, o‘sha tomonni tekshirib bo‘lishlarini kutayotganlariga qaramadi ham, shovqinga quloq solmadi ham.

Shuxov ko‘ngli to‘lib uyquga ketdi. Bugungi kuni ko‘p omadli keldi: karserga tashlashmadi, brigadani Ijtimoiy shaharchaga hay-

dashmadi, tushlikka bo'tqa o'mardi, brigadir foizlarni juda yaxshi yopdi, devorni Shuxov xursandchilik bilan urdi, arra sinig'i bilan qo'lga tushmadi, kechqurun Sezarga xizmat ko'rsatib, ish haqi oldi, tamaki sotib oldi. Kasal bo'lib qolmadi, dardga chidab, yengib o'tdi.

Kuni hech bir narsa bilan xiralashmay, deyarli baxtli o'tdi.

Bunday kunlar uning muddatida belgilangan sanadan to tugaydigan sanagacha hisoblasa, uch ming olti yuz ellik uchta edi. Kabisa yillari hisobiga ortiqcha yana uch kun qo'shilgan edi...

1963









*O'shandan so'ng yana naq yarim yilcha o'tgach ham barcha poyezdlar Moskvadan Murom va Qozonga boradigan yo'lning bir yuz sakson to'rtinchi chaqirimida xuddi tovsilganday yurishlarini sekinlatardilar. Yo'lovchilar: «Nima balo, yo'l tuzatish-yaptimi? Yo jadvaldan chiqib ketdimi?» deb oynalarga yopishishar, tamburga chiqishar edi.*

*Yo'q, poyezd yo'lning kesishgan yeridan o'tib, yurishini yana tezlatar, yo'lovchilar joy-joylariga qaytardilar.*

*Faqat haydovchilargina nega bundayligini bilishar va eslardilar. Men ham.*

## I

1953-yilning yozida chang-to'zon jazirama sahrodan tavakkal qilib shundoq Rossiyaga qaytardim. Uning loaqal biror yerida biror kimsa meni kutmas, meni chaqirmas, chunki mening qaytishim o'n yil orqaga surilib ketgandi. Men shundoq o'rta mintaqaga bor-gim kelardi – issiq bo'lmasa, quyuq qora o'rmonlar shovullab tursa derdim. Men ichki Rossiyada, agarda u qaydadir va nima qilib bo'lsa ham omon qolgan bo'lsa, boshpana topsam-u shu bilan badar yo'qolib ketsam derdim.

Bundan bir yilchagina burun O'rol tog'larining bu yog'ida men faqat zambil tashigani yollanishim mumkin edi, xolos. Meni tuzukroq qurilishga hatto elektrik qilib olishlari ham dargumon edi. Men bo'lsam muallimlik qilgim kelardi. Ko'pni ko'rgan odamlar, hoy, chiptaga puling kuygani qoladi, bekor ovora bo'lasan, deyishardi. Lekin hayotda allanelardir joyidan qimirlab qolgandi. Men Vladimir maorif sho'basiga kirib, kadrlar bo'limini so'radim va shunda bu yerda kadrlar endi qora charm eshiklar ortida emas, oynavand to'siqlar orqasida o'tirishganlarini ko'rdim. Harqalay darcha oldiga yuragimni hovuchlabgina bordim, qulluq bajo keltirib so'radim:

– Ayting-chi, sizlarga temir yo‘llardan uzoq bir yerlarda matematikadan dars beradigan odam kerak emasmi? Men o‘sha yerda butunlay joylashib qolmoqchi edim.

Hujjatlarimdagi har bir harfni qayta-qayta ko‘zdan kechirib chiqishdi, xonama-xona kirib yurishdi, qayergadir qo‘ng‘iroq qilishdi. Ular bunaqasiga kamdan-kam duch kelishgan – axir hamma shaharga yuborishni so‘raydi, yana yirikrog‘iga. Buni qarangki, harhol-da birdan menga Baland Qir degan joyni taklif etishdi. Nomining o‘zidanoq diling yayrab ketadi.

Nomi aldaman ekan. Qir-o‘r, yana qir-o‘r, atrof keta-ketguncha yalpi o‘rmon, bir tomonda ko‘l, bir tomonda to‘g‘on – Baland Qir deganlari shunday armonsiz yashab o‘tsa bo‘laveradigan bir joy ekan. Men bu yerda daraxtzorda, to‘ngak ustida o‘tirib uzoq o‘ylandim. Qaniydi, har kuni nonushta, tushlik deb qayg‘urmasam, faqat shunda qolib, tunlar daraxt shoxlari tom uzra shatirlaganlarini tinglab yotsam-u – hech qaydan radio ovozi chiqmasa, olamda neki bor, bari sukut saqlasa.

Afsus, bunda non yopmas ekanlar. Bu yerda yegulik narsalar sotmas ekanlar. Butun qishloq rizq-ro‘zini viloyat markazidan qoplarga ortib tashib keltirar ekan.

Men kadrlar bo‘limiga qaytib keldim va darcha oldida turib yolvordim. Oldin men bilan hatto gaplashib o‘tirgilari ham kelmadi. Keyin harqalay u xonaga kirishdi, bu xonaga kirishdi, yana qo‘ng‘iroq qilishdi, to‘ng‘illay-to‘ng‘illay nihoyat menga buyruqqa «Torfoprodukt» deb yozib berishdi.

Torfoprodukt? Oh, Turgenyev hatto xayoliga ham keltirmagandi bundaqasiga ruschalashni!

Torfoprodukt stansiyasida omonat, chirigan, tussiz barakka: «Po-yezdga faqat vokzal tomondan o‘tirilsin!» degan jiddiy ogohlantirish osilgan. Bu yozuv-taxtaning tagiga mix bilan tirnab: «Bilet shart emas», deb to‘ldirilgan. Kassa oldida esa yana o‘shanaqa xayolchan hazilkashning pichog‘i: «biletlar yo‘q» deb hech o‘chmaydigan qilib o‘yib yozgan. Ushbu izohlarning aniq ma‘nosini keyinroq bildim. Torfoproduktga kelish oson ekan. Ketish qiyin.

Ana bu yerda ham ilgarilar o‘tish qiyin qorong‘u o‘rmonlar bo‘lgan, ular inqilobdan ham omon chiqqanlar. So‘ng ularni torf qa-

zuvchilar va qo'shni kolxoz kesib bitirgan. Kolxoz raisi Gorshkov necha-necha gektarlab o'rmonlarni tag-tugi bilan quritib, Odessaga jaraq-jaraq pulga sotdi, ham kolxozni ko'tardi hisob, ham o'z ko'kragiga Oltin Yulduz taqdi.

Torf cho'kmalari oralab qishloq uylari tartibsiz sochilib yotadi. Bular o'ttizinchi yillarning bir tusdagi nochor shuvalgan baraklari, oldi yog'och o'ymakorli, elliginchi yillarning oynaravonli uylari. Lekin bu uychalarning ichi shiftga qadar to'silib xonalarga ajratilmagan, shuning uchun to'rt tomoni chinakam devor bilan o'ralgan xonani ijaraga olaman, deb xomxayol qilmasam ham bo'ladi.

Qishloq uzra fabrika quvuri tutab yotadi. Uylar orasidan u yoqdan-bu yoqqa tor izli temir yo'l o'tgan, undan qora tutun burqsitgan parovozchalar quloqni qomatga keltirguday chinqirib, qo'ng'ir torf hamda torf g'olachalari va taxtachalarini ortgan poyezdlarni sudrab borishadi. Hech adashmay taxmin qilamanki, oqshom tushgach, klub tepasida radio varanglaydi, ko'chalarda esa mast-alastlar sang'ishadi va bir-birlariga pichoq sanchishadi.

Rossiyaning sokin go'shasini orzu qilib ana shu yerga kelib qoldim. Holbuki, men tark etib kelayotgan yerlarda sahroga qaragan paxsa devorli uylarda yashashim mumkin edi. U yerlarda tunlari salqin shabadalar esadi va boshing uzra seryulduz samo ochilib yotadi.

Stansiya o'rindig'iga yotib uyqum kelmadi. Tong g'ira-shira yorisha boshlagani hamon yana qishloq ko'chalarini aylandim. Endi kichkina bozorchaga ko'zim tushdi. Hali barvaqt bo'lganidan bu yerda yolg'iz bir xotin sut sotib turardi. Men bir shisha sut oldim-da, shu yerning o'zida icha boshladim.

Meni uning zaboni lol qilib qo'ydi. U so'ylamas, balki xuddi to'liqib kuylaganday qilib gapirardi, so'zlari ham o'sha men orzu qilgan so'zlar edi, Osiyodan ularni sog'inib kelgan edim:

- Ich, ich, to'yib-to'yib ich. Sen, chog'i, mehmonmisan?
- O'zingiz qayerdan? – so'radim chehram ochilib.

Gapdan gap chiqib bu yerlar boshdan-oyoq torf konlari emasligini bildim, temir yo'l ko'tarmasining orqasida tepa, tepaning narigi yog'ida – qishloq, u qishloq Talnovo deb ataladi, qishloq hov azaldan, hali «lo'li»-begoyim zamonlaridan beri bor, u paytlar bu yerlar bari azamat o'rmonlar edi. Undan ham narida yana ketma-



ket qishloqlar keladi: Chaslitsa, Ovinsa, Spudni, Shevertni, Shestimirovo – hammasi temir yo‘ldan uzoq, ko‘llarni yoqalagan ovloq qishloqlar.

Bu nomlarni eshitib, ko‘ksimga huzurbaxsh shabada tekkanday bo‘ldi. Ular menga asil Rossiyani va‘da qilardi.

Shundan so‘ng yangi tanishimdan bozor tugagach meni Talnovoga olib borishni, ijaraga turish uchun qo‘nalg‘a topib berishini so‘radim.

Meni ijaraga qo‘ygan kishi ziyon ko‘rmaydi: maktab ijara pulidan tashqari men uchun qishga bir mashina torf ajratgan. Ayolning chehrasidan tabassum o‘chib, o‘rmini tashvish egalladi. Uning uyida bo‘sh joy yo‘q ekan (eri bilan birga qari onasini boqisharkan), shuning uchun u meni dam u qarindoshiga, dam bu qarindoshiga olib bordi. Lekin alohida xona topilmadi, bari tangu tor, behalovat joylar edi.

Shunday qilib, qurib borayotgan suvi to‘g‘on bilan damlangan, ustiga kichkinagina ko‘prik tashlangan soy ustidan chiqdik. Qishloqni shuncha aylanib bunchalar so‘lim joyni ko‘rmadim. Ikki-uch tup majnuntol, bir tomonga qiyshaygan yog‘och kulba, hovuzda o‘rdaklar suzadi, g‘ozlar esa ustlaridagi suvni silkitishib hovuz bo‘yiga chiqishadi.

– Shu deyman, Matryonanikiga kirsakmikin,– dedi hamrohim nihoyat mendan toriqib.– Faqat unchalar saranjom emas, uvrin-to‘daroq turadi, o‘zi kasalmand.

Matryonaning uyi shu yaqinda ekan, uyning qatorasiga to‘rt derazasi ayoz uradigan terskay tomonga tushgan, ikki qanotli tomi mayda qirqilgan taxtachalar bilan yopilgan, uyning old tomonidagi ko‘shki o‘ymakor, boloxonasiga esa darcha qo‘yilgan edi. Uyning qaddi ancha baland – devorlariga o‘n sakkiz qator qilib chorxarilar taxlab chiqilgan edi. Biroq tomga to‘shalgan taxtachalar chirigan, devor qilib taxlangan yog‘ochlar eskirgandan oqarib ketgan, bir mahallar mustahkam qilib ishlangan, usti yopilgan darvozaning tepasi ham ochilib, taxtalari siyraklashib qolgandi.

Eshik ichkaridan berk ekan, lekin hamrohim eshikni taqillatib o‘tirmadi, qo‘lini pastdan ichkariga yubordi-da, mol-hol, yot-begona odam oralamasin deb jo‘ngina qilib yasalgan ilgakni surdi. Kichki-

nagina hovli sahnining tepasi yopilmagan, ammo uy har tomondan chambarchas bog‘lanib ketardi. Darvozadan kirgach, ichkaridagi zinalar shifti baland chorsi sahnga olib chiqadi. Chapdagi boshqa bir zinadan tepaga, yog‘ochdan qurilgan pechkasiz alohida kichik uyga ko‘tariladi, shu yerda yana bir zina pastdagi xonaga olib tushadi. O‘ng tomonda esa, yerto‘lasi, boloxonasi bilan asosiy uy qad ko‘tarib turadi.

Uy katta, gavjum xonadonga mo‘ljallab ancha ilgari pishiq-puxta qilib qurilgan, hozir unda oltmishlarga borib qolgan yolg‘izgina ayol yashardi.

Men uy ichiga kirib borganimda, u shundoqqina eshik yaqinida rus pechkasi ustida mehnatkash odamning o‘ziga juda qadri qandaydir qoramtir mato yopinib yotardi.

Keng uyning ichi va ayniqsa, bahavo deraza atroflarida kursilar- u tokchalarda fikus o‘stirilgan tuvak-badiyalar joylashgandi. Ularning zabonsiz tirik izdihomi bekaning yolg‘izligini bilintirmay turardi. Tuvakgullar shimol tomonning chala yorug‘ini butunlay to‘sib tarvaqaylab o‘sgan edilar. Tuvakgullardan ortgan yorug‘da va buning ustiga mo‘rining orqasidan qaragan kishiga bekaning dumaloq yuzi sarg‘aygan, betob bo‘lib ko‘rinadi. Kasallik uni abgor qilib tashlaganligi xira tortgan ko‘zlaridan ham ayon edi.

Men bilan ham shunday, pechka ustida muk tushib, yostiq qo‘yilmagan boshini eshik tomonga qaratib gaplashdi, men bo‘lsam, pastda turdim. U ijaraga odam qo‘yarkanman deb, quvonib ketgani yo‘q, og‘ir dardga chalinganidan nolidi, hozir dardning xuruji picha pasayibdi; dard oy sayin tutavermas ekan, lekin bir tutganda... – ... ikki-uch kunlab qo‘yib yubormaydi,– dedi u.– Qimirlamay yotaman, issiq-sovug‘ingizdan xabar ololmayman. O‘lsin, bo‘lmasa, uyni qizg‘anarmidim, turavering.

So‘ng, sizga balki tinchroq va qulayroq bo‘lar, deb, boshqa bekalarni sanab chiqdi, ularga ham borib ko‘ring, dedi. Biroq men chekimga shu ichi qorong‘iroq, tosh oynasi xira tortganidan kishi basharasini ko‘rsatmaydigan darajaga kelgan, devorlariga chiroyli bo‘lsin deb, kitob savdosi hamda hosildorlik haqida ikkita bir so‘mlik plakat osilgan uy tushganligini sezib turardim. Menga yana bu yerda shunisi ham ma‘qul ediki, Matryona qo‘li qisqalik qilib uyga radio

tushirmagan, ustiga ustak yolg'iz turgani uchun hech kim bilan su-xandonlik qilmasdi.

Garchi Matryona Vasilyevna tag'in bir karra qishloqni aylanib chiqishga undagan va men ikkinchi marotaba qaytib kelganimda anchagacha ko'nmay turgan bo'lsa-da:

– Koshki eplab bilsak, pishirib-kuydirib, ko'ngil olsak,— desa-da, harqalay meni bu safar o'rnidan turib kutib oldi, hatto qaytib kelganimdan yuzida mamnuniyat ifodasi zuhur etdi.

Ijara haqi-yu maktabdan beradigan torfni kelishib oldik.

Men keyin bildim. Matryona Vasilyevna allazonlardan beri oylab-yillab bir so'm pul ishlamas ekan. Nafaqa olmas ekan. Qavm-qarindoshlari ham ko'pda yordam berishavermas ekan. Kolxozda esa u pulga emas, chiziqcha uchun ishlarkan. Anovchi, hisobchining chirk bosgan daftarchasiga qayd qilib qo'yiladigan mehnat kuni chiziq-lari.

Shunday qilib, Matryona Vasilyevnaning uyiga joylashdim. Xonalarimiz alohida ajralgan emasdi. Uning karavoti eshik orqasidagi burchakda pechka oldida edi, men o'z to'shagimni deraza yaqiniga to'shadim, Matryonaning suyuqli tuvakgullarini biroz nariga surib ikkinchi deraza tagiga stol qo'ydim. Qishloqqa elektr tushirilgan, uni yigirmanchi yillardayoq Shaturadan tortib keltirishgan edi. O'shanda gazetalarda «Ilich chiroqlari» deb yozishardi, mujiklar esa ko'zlarini chaqchaytirib: «Poshsho chiroq!» deb qo'yishardi.

Qishloqning o'ziga to'q, badavlatroq xonadonlariga, ehtimol, Matryonaning kulbasi nochorgina bo'lib ko'rinar, lekin o'sha qish oylari unda Matryona bilan ikkimiz yaxshi yashadik. Tinimsiz yog'ingarchiliklarda uydan chakka sizib oqmas, etni qaqshatadigan ayozlarda pechkaning harorati darrov yalanib ketmas, faqat ertalabga qarab, shamol terskay tarafdin esib zabtgga minganda, uy ichi to'ng'iy boshlardi.

Uyda Matryona bilan mendan boshqa yana: mushuk, sichqon va suvaraklar istiqomat qilardi.

Mushuk qari va buning ustiga bir oyog'i cho'loq edi. Matryona uni ko'chadan topib olib, rahmi kelib, uyga keltirgan, mushuk shu-shu bu yerda turib qolgan edi. Garchi u to'rt oyoqlab yursa ham, lekin qattiq oqsoqlanardi: og'riqli bir oyog'ini ayab bosardi. Mu-

shuk pechkadan pastga sakraganda boshqa mushuklarday yumshoq, ship etib tushmas, balki uch oyoqlab birdaniga zarb bilan to'p etib tushardi. Men ancha vaqt bunga ko'nikolmay cho'chib yurdim. U to'rtinchi oyog'ini avaylab, qolgan uch oyog'ini birdan yerga tashlardi.

Uyda sichqon bor edi, lekin bunga sabab cho'loq mushuk ularni eplolmagani emasdi. Mushuk burchakka yalt etgan yildirimday tashlanar va tishida sichqon tishlab chiqardi. Mushuk sichqonlarni boplab ovlolmasligining sababi boshqa yoqda edi, allakim qutlug' kunlarda Matryonaning uyi devorlariga ko'kimtir taram-taram devorqog'oz yopishtirib chiqqan, yana bir qavat emas, besh qator ustma-ust yopishtirgan edi. Qog'ozlar bir-birlariga chippa yopishgan-u, lekin ko'p joylarda devordan ko'chg'an edi – devor bilan qoplama qog'oz orasi havol bo'lib qolgandi. Sichqonlar uyning xarilari va qog'oz qoplamalari oralab o'zilariga yo'llar solishgan, shu yo'llardan va hatto sira tap tortmay ship ustidan shitirlab yugurgilab yurishardi. Mushuk ko'zlari yonganicha ularning shitirlab chopishlariga quloq solar, lekin tutolmasdi.

Ba'zan mushuk suvaraklarni ham tutib yer, lekin keyin bundan mazasi qochardi. Suvaraklar bu yerda rus pechkasining tavaqasi-yu, oshxonani uyning ozoda qismidan ajratib turadigan to'siqqagina ri-oya qilar edilar. Ular uyning toza tomoniga o'rmalab o'tmasdilar. Lekin qorong'u tushishi bilan o'choqboshida g'ujg'on o'ynardilar, mabodo kechasi suv ichgim kelib, chiroqni yoqsam, butun polning usti, o'tiradigan uzun o'rindi, hatto devorning boshdan-oyog'i qora qo'ng'ir tusga kirib g'imirlayotganiga ko'zim tushardi. Kimyo kabinetidan tanakor keltirib, xamirga qo'shib qorib biz ularni qirardik. Suvaraklarning urug'i qurirdi, lekin Matryona suvaraklarga qo'shib mushukni ham zaharlab qo'yishimizdan qo'rqardi. Biz zahar tashlashni to'xtatar, suvaraklar yana ko'payardi.

Kechalari Matryona uxlaganda, men stolga o'tirib o'z ishimga sho'ng'ir – sichqonlarning qog'oz ostida o'qtin-o'qtin shitirlashlarini to'siq orqasidagi suvaraklarning xuddi olis okeanning shovqiniday yaxlit, bir butun, to'xtovsiz shuvillashlari bosib ketardi. Biroq men bunga o'rganib qoldim, binobarin, unda hech qanday qabohat yo'q edi, yolg'on yo'q edi. Ularning shitirlashlari – ularning hayoti edi.



Plakatdagi bachkana oyimtillaga ham ko'nikdim, u devordan turib menga doim Belinskiy, Panfyorov va yana bir talay qandaydir kitoblarni uzatib turar, lekin – miq etib og'zini ochmasdi. Men Matryonaning uyidagi jamiki narsalarga ko'nikdim.

Matryona tong qorong'usida, soat to'rt-beshlarda turardi. Matryonaning osma soati selpodan sotib olinganiga yigirma yetti yil bo'lgan. Soat hamisha oldinga ketib qoladi, Matryona bunga parvo qilmaydi – orqada qolmasa bas, aks holda ertalab turishga qiynaladi. U to'siq orqasidagi oshxona chirog'ini yoqib, sekingina, taraqturuq qilmay pechga o't yoqadi, echkini sog'gani chiqadi (uning bor-yo'q moli shu birgina oqish, shoxi ayri echki), suv keltiradi, uchta cho'yan doshda ovqat pishiradi: biri – menga, biri – o'ziga, biri – echkisiga. Echkiga yerto'ladan eng mayda kartoshkani olib chiqadi, o'ziga sal maydarog'ini, menga tuxumday-tuxumday keladiganlarini qaynatadi. Uning to'xtovsiz kartoshka, kartoshka va yana kartoshka ekiladigan, urushdan oldingi yillardan beri hech qachon o'g'itlanmagan qumloq yeri yirik hosil bermasdi.

Ertalabki kuymalanishlari menga bilinmasdi hisob. Men uzoq yotib uxlar, qish kuni allamahal bo'lganda uyg'onar, adyol va po'stin ostidan boshimni chiqarib kerishardim. Shular va yana oyog'imga yopilgan qamoqning paxtalik choponi, karovotning past qismiga xashak to'ldirib qo'yilgan qop zamharir sovuq yupqa darchalarimizga shimol tarafdin yopirilib hujum qilgan kechalarda ham hattoki is-siqni saqlar edilar. To'siqning orqasidan eshitilar-eshitilmas shovqin qulog'imga chalinganda har safar bir zaylda derdim:

– Yaxshimisiz, Matryona Vasilyevna?

Shunda to'siq orqasidan bir xildagi iltifotli so'zlarni eshitardim. Avvaliga xuddi ertaklardagi kampirlarday past, iliq himlagan sas keldi:

– Him-mm-m... o'zingiz ham sog'gina bo'ling! Yana biroz o'tgach:

– Nonushtangiz tayyor bo'ldi-i.

Nonushtaga nima pishirganini u aytmas, lekin buni bilish unchalik qiyin emasdi: po'sti archilmagan butun kartoshka yoki kartoshka solingan suyuq osh (qishloqda kartoshka so'zini yuz ohangga solib aytishadi), yoki arpa yormasidan bo'tqa (o'sha yili Torfoproduktda

boshqa yormalarni topib bo‘lmas, arpa yormasini ham to‘s-to‘polon bilan olishga to‘g‘ri kelardi – eng arzon narsa shu bo‘lgani uchun cho‘chqalarni u bilan boqishar, shuning uchun qoplab sotib olishardi). Ko‘pincha bo‘tqaning ham tuzi rostlanmagan bo‘lar, aksaran, tagiga olib ketar, yeganda og‘izning tanglay va milklariga yopishib qolar, keyin odamni zarda qilardi.

Lekin bunga Matryona aybdor emasdi: binobarin, Torfoprodukt-da yog‘ yo‘q, margarin kelsa, talash bo‘lib ketardi, faqat omuxta moygina bemalol edi. Bundoq razm solib qarasam, rus pechkasining o‘zi ham taom pishirish uchun noqulay ekan: ovqat idishda qanday qaynayotganligini ko‘rolmaysan, cho‘yan doshga olov har tomondan baravar tegmaydi. Lekin bu pech tosh asrlardan beri ota-bobolarimizga o‘rganish bo‘lib ketganligining boisi bo‘lsa kerakkim, u tong azonlab bir karra yoqilgach, keyin kun bo‘yi mol-holning atala-ardobi, kishilarning ob-ovqatini o‘z bag‘rida issiqqina asrab turadi. Uyquga yotganda ham, uy issiq bo‘ladi.

Menga atab pishirilgan taomni sabr-toqat bilan yerdim. Ko‘ngilga to‘g‘ri kelmaydigan nimaiki bad narsa bor: inchunin, sochmi, torf parchasimi, suvarakning oyog‘imi barini indamay bir chekkaga olib qo‘yardim. Matryonaga ta‘na qilishga tilim bormasdi.

Har qalay boshda uning o‘zi meni ogohlantirgan: «Koshki eplab bilsak, pishirib-kuydirib, ko‘ngil olsak?»

– Rahmat, – derdim chin dildan chiqarib.

– Nimaga? O‘z halol haqingiz-ku? – deb tamom meni lol qilardi shunda u oftobday kulib. So‘ng andak ko‘kintir ko‘zlari bilan soddadillarcha boqib, so‘rab qo‘yardi: – Xo‘p, oqshomingizga ne pishirib berayin?

Oqshomingizga degani kechki ovqat. Men xuddi frontda yurganday kuniga ikki marotaba ovqatlanardim. Oqshomga nima ham buyurardim? Yana o‘sha-o‘sha kartoshkavoy yoki o‘sha kartoshkavoyli suyuq osh.

Men bunga rozi edim, chunki hayot meni asil tirikchilikning ma‘nosini yeb-ichishdan axtarmaslikka o‘rgatgan edi. Uning duma-loqqina chehrasidagi mana shu tabassum menga juda qadrli edi, men nihoyat pul jamlab fotoapparat olganimda, shu tabassumni suvratga tushirishga xiyla urindim. Ne choraki, Matryona apparatning sovuq

nigohiga qaragan zamon darhol o'ziga o'ta jiddiy tus berar yoki zo'rma-zo'raki qiyofaga kirardi.

Bir martagina u deraza oldida ko'chaga qarab nimagadir kulib qo'yganda, men shuni suvratga olib ulgurdim.

O'sha kuz Matryonaning xafagarchiliklari ko'payib ketdi. Orada nafaqa haqida yangi qonun chiqib, qo'shni xotinlar uni pensiya harakat qil deb ko'ndirishdi. U so'qqabosh edi, hadeb qattiq og'riqqa chalinavergach kolxozdan ham javobini berishgan edi. Matryonaga ko'p adolatsizliklar qilishgan edi: u kasal edi-yu, lekin majruhlar hisobiga kirmasdi. U chorak asr kolxoz uchun ter to'kkan, lekin kolxoz zavod emas – shuning uchun unga nafaqa to'lanmasdi. Nafaqani o'zi uchun emas, eri uchun olishi mumkin edi, ya'ni bu boquvchisini yo'qotganlik uchun deb atalardi. Ammo eri urushning boshidayoq bedarak ketgan, bunga o'n besh yil chamasi bo'layozgan, endilikda turli joylardan uning ishlagan davri-yu, qancha haq olgani to'g'risida qog'oz to'g'rilash mushkullashgan edi. Toza ovoragarchilik edi bu qog'ozlarni olish; lo-aqal oyiga uch yuz so'm olgan deb yozib berishsa ham koshkiydi; buning ustiga Matryona yolg'iz yashaydi, unga hech kim yordam ko'rsatmaydi deb tasdiqlatish kerak; yana yoshi nechadaligini ham ko'rsatish zarur; keyin bularning barini ta'minot bo'limiga olib boriladi; qayta-qayta so'raladi, noto'g'ri to'ldirilgan bo'lsa, tuzatiladi; so'ng boshqatdan olib boriladi. Ana undan keyin so'rab bilingiz mumkin: nafaqa beriladimi, yo'qmi?

Bu yumushlar juda qiyin edi, ta'minot bo'limi Talnovodan sharqda yigirma chaqirim narida, qishloq Soveti g'arbda – o'n chaqirim, yangi qishloq esa shimolda – yayov bir soatlik yo'l. Uni idorama-idora ikki oy abgor qilishdi – dam nuqta deb chopadi, dam vergul deb. Har bir borish-kelishga rosa bir kun vaqt ketadi. Bugun qishloq Sovetiga borsa, kotib yo'q, kelmagan, yo'q-da, vassalom, qishloqchilik. Ertasiga yana bor sho'ltirab. Endi kotib bor-u muhri yo'q. Uchinchi kun yana o'tlan, yana yo'lga chiq. To'rtinchi kun tag'in uchrashishga to'g'ri keladi, chunki yaxshi qaramay boshqa qog'ozga qo'l qo'yib yuborgan bo'lib chiqadi, axir Matryonaning barcha qog'ozlari bir dasta qilib taxlab qo'yilgan-da.

– Toza ezishyapti meni, Ignatich,– deb shikoyat qilib qo‘yardi u ana shunday quruq ovoragarchiliklardan keyin. – Abgor bo‘lib ketdim.

Lekin baribir manglayini uzoq tirishtirib yurmasdi. Bir narsani payqab qoldim: u ko‘nglini nima bilan chog‘ qilishning yo‘lini bilardi: o‘zini to‘xtovsiz ishga urardi. U darhol belkurakka yopishar – kartoshka qazishga tushardi. Yo qo‘ltig‘iga qanor qistirib torf olib kelgani borardi. Yoki kajava savat ko‘tarib uzoq o‘rmonga meva terгани jo‘nardi. Idora ustalariga emas, o‘rmon nihollariga ta‘zim qila-qila Matryona yukdan yelkaları mayishib, yuz-chehrasi yorishib, hamma narsadan ko‘ngli to‘lib, kulib-charaqlab uyga qaytardi.

– Endi aqlim kirdi, Ignatich, qayerdan qazishni bilib oldim,– derdi u torf haqida so‘ylab.– Xo‘p ajoyib joy ekan, ko‘rib ko‘zing to‘ymaydi!

– E Matryona Vasilyevna, axir mening torfim yetmaydimi! Bir mashina-ku.

– Uf-f! Sening torfing! Yana o‘shancha, undan keyin tag‘in o‘shancha, ana unda yetadi. Hali qish qilichini yalang‘ochlab kelsin, derazalarni muzlatsin, qancha yoqsang, hammasini yalab ketadi sovuq. Yozda qanchalab torfni yelkamda tashidim! Hozir ham uch mashina desinchi, men tashimas edimmi? Ushlab tiriqtirmasa mayliydi-ya. Ana qishlog‘imizdan bir xotinni sudma-sud ovora qilib yurishibdi.

Ha, rostdan ham, shunday edi. Qishning vahimali nafasi quyunday boshlagach, yurak orziqardi. Atrof bari o‘rmon, lekin hech qachon o‘tin olishning iloji yo‘q edi. Tevarak botqoqliklarda ekskavatorlar arillashar, biroq aholiga torf sotilmas, uni faqat boshliqlarga, boshliqlarning shotirlariga va nihoyat, bir mashinadan – o‘qituvchilar, shifokorlar, zavod ishchilariga berilardi. O‘tin-ko‘mirga ruxsat yo‘q, buni hatto so‘rab o‘tirilmasdi. Kolxoz raisi qishloqni aylanib yurar, odamlarning ko‘zlariga yo ma‘nosiz, yo talabchan va yo go‘llarcha bir nigoh bilan qarar, o‘tin-ko‘mirdan boshqa hamma narsa haqida biyron so‘zlardi. Chunki o‘zining yoqilg‘idan ko‘ngli to‘q. Qishga esa go‘yo hali ancha vaqt bor.

Nima ham deb bo‘lardi, ilgari boyning yog‘och-o‘tinini o‘g‘irlashardi, endi trestning torfini o‘marishadi. Xotinlar bir-



birlariga dalda bo‘lish uchun besh-o‘n kishi to‘planib olishadi. Torfga kunduzi borishadi. Yoz bo‘yi har yer-har yerda torf qazib qo‘yilgan va quritish uchun to‘dalangan. Torfning shunisi yaxshi, qazib olingach, darhol tashib ketolmaydilar. To kuzgacha u selgib quriydi, yo‘llarda loygarchilik cho‘zilib ketsa yoki trest negadir paysallanib qolsa, to qor tushguncha ham yotaveradi. Xotinlar xuddi mana shu paytni poylaydilar. Bir ko‘targanda agar torf ho‘l bo‘lsa qopda olti bo‘lak, agar quruq bo‘lsa, o‘n bo‘lak qilib tashib ketadilar. Gohida uch chaqirim naridan keltirilgan bir qop shunday torf (u ikki pudcha chiqardi) bir marta pechgga qalashga yetardi. Qish esa ikki yuz kun. Ertalab rus pechkasini, kechqurun «gollandka»ni yoqmay iloj yo‘q.

– Hammasi quruq gap! – allakinga zarda qilib derdi Matryona. – Otning zoti qurigandan buyonga yelkangda tashib keltirmaguningcha uyingda qut-baraka bo‘lmaydi. Yelkamning yag‘iri hech bitmadi hoy. Qishda chana tortaman, yozda shox-shabba ortaman, bo xudo, rost aytaman!

Xotinlar bir kunda bir necha marta qatnashadi. Omadi chopgan kunlar Matryona olti qoplab tashiydi. Mening torfimni esa ochiqda saqlaydi, o‘zi olib kelganlarini taxta so‘rilarning tagiga berkitadi va teshik og‘zini taxta bilan yopib qo‘yadi.

– Ishqilib, sezib qolmasin-da, battollar, – deb kulardi u peshonasidagi terni artib, – bo‘lmasa, topib bo‘pti.

Trest nima qilsin? Barcha botqoqliklarni qo‘riqlashga yetarli qorovul yo‘q. Chamasi, hisobotlarda mo‘l-ko‘l qazilma olingani ko‘rsatiladi, so‘ng yomg‘ir yuvib ketdi, kukunga aylandi, deb chiqitga chiqarib yuboradilar. Ba‘zan-ba‘zan kufrlari qo‘zib, atrofga qorovullar qo‘yadilar, qishloqqa kiraverishda xotinlarni tutadilar. Gohida chaquv tushsa, uyma-uy yurib tintuv o‘tkazishadi, o‘g‘irlangan torf topsalar, darhol qog‘oz to‘ldirishadi va ishingni sudga oshiramiz deb do‘q-po‘pisa qilishadi. Shundan so‘ng xotinlar biroz vaqt tashishni to‘xtatar, lekin qish qilichini qayrab kela boshlagach, yana majburan chana tortib yo‘lga chiqardilar.

Umuman, Matryonaga sinchiklab qarasam, har kuni ob-ovqat hozirlash va xo‘jalik yumushlaridan tashqari uning zimmasida yana boshqa talay ishlar ham bor ekan: bu yumushlarni qaysinisini qachon qilishni u doimo xayolining bir chekkasida saqlar va ertalab uyqu-

dan ko‘z ochganda bugun nimalar bilan mashg‘ul bo‘lishini aniq bilardi. Torfdan tashqari, traktor botqoqlikda ag‘darib tashlagan eski ildiz to‘nkalarni sudrab kelishdan tashqari, chorak idishlarda ivitib qo‘yiladigan brusnikalardan tashqari («E tishingni qayrasang-chi, Ignatich!» – mehmon qilib siylardi u meni), kartoshka qazishdan tashqari, nafaqa uchun chop-choplardan tashqari yana ustiga ustak u oqish echkisi uchun qaylardandir xashak topib kelishi kerak edi.

– Nega siz sigir boqmaysiz, Matryona Vasilyevna?

– E-eh! Ignatich! – deb tushuntira ketardi Matryona kir etak tutgancha oshxona eshigida turib mening stolim tomonga o‘girilarkan. – Menga shu echkinging suti yetib ortadi. Sigir boqsam, u meni tiriklay yamlab yeydi. Temiryo‘l bo‘yida o‘t o‘rolmaysan – u yerning o‘z egalari bor, o‘rmondan ham o‘rolmaysan – xo‘jasi o‘rmonchilik, kolxoz esa ruxsat bermaydi – sen kolxoz a‘zosi emassan deb. Kolxozchi xotinlarning o‘zlarichi, to qip-yalang‘och qolmaguningcha hammasi – kolxozga, hammasi kolxozga, keyin qor tagida qolgan o‘tni in‘om etishadi – nomiga o‘t. Ilgarilar yoz chillasida o‘rim qaynardi – Petrov kunidan Ilin kunigacha. Ana u o‘tni o‘t emas, asal deyдилar..

Shuytib, zing‘ircha echki uchun xashak g‘amlash Matryona-ning boshini qotirib tashlardi. U ertalabdan qopni olib o‘roqni qo‘ltiqqa qistirib, o‘zi mo‘ljallab qo‘ygan yo‘l bo‘yimi, marzalar tepasimi, botqoqliklar orasidagi quruq joylarmi, ishqilib, jinday o‘t-o‘lan o‘sgan yerlarga jo‘nardi. Qopni yangi o‘rilgan sersuv o‘t bilan to‘ldirib, uyga keltirar va quritish uchun hovli yuziga yoyib tashlardi. Bir qop ho‘l o‘tdan panshaxaga ilinadigan ozginagina xashak chiqardi.

Shahardan ishga yaqinda jo‘natilgan yangi raisning kelib qilgan birinchi ishi shu bo‘ldiki, barcha mayib-majruhlarning tomorqalarini qirqdi. Matryonaga o‘n besh sotix qumloqni qoldirdi, qolgan o‘n sotixi hamon chetan ortida ekilmay huvillab yotadi. Darvoqe, kolxoz shu o‘n besh sotix uchun ham Matryonani tinch qo‘ymasdi. Ishchi qo‘llar yetishmay qolsa, xotinlar qattiq tixirlik qilib turib olsalar, raisning xotini Matryonaga kelardi. U ham shaharlik edi, kulrang kalta palto kiyib yurar, xuddi harbiylarday ko‘zi qattiq va o‘zi shaxdam edi.

U kulbaga kirib, salom-alik qilib o'tirmay, Matryonaga o'qrayib tikilardi. Matryona sho'rlik o'zini yo'qotib qo'yardi.

– Xo'-o'sh, – derdi do'rillagan ovoz bilan raisning xotini. – O'rtoq Grigoreva! Kolxozga yordam berish kerak bo'ladi! Ertaga go'ng tashigani borish kerak bo'ladi!

Matryona xijolat tortib jilmayadi, birovning bajargan xizmati uchun haq to'lolmaydigan raisning xotini uchun vijdoni qiynalib ketadi.

– Mayli-yu, – deb cho'zadi u gapni. – Tobim yo'q edi-ya. Sizing ishingizga tegishli joyim qolmagan. – Yana shu zahoti shoshapisha gapini tuzatadi: – Soat nechchida borish kerak?

– Panshaxangni ham ol! – uqtiradi raisning xotini va taxtakachday yubkasini shildiratib chiqib ketadi.

– Ko'rdingmi! – fig'oni chiqadi Matryonaning, u ketgach. – Panshaxa ham o'zingdan! Kolxozda na belkurak bor, na panshaxa. Boshimda erkagim bo'lmasa, kim menga yasab beradi?..

Keyin to qorong'u tushguncha dardi-hasratini aytib ado qilolmaydi:

– Aslo so'rama, Ignatch! Na suyanib bo'ladi bularning ishiga, na tayanib. Belkuragingga tayanib qo'qqayib turaverasan, qachon fabrikaning gudogi chalinadi, qachon soat o'n ikki bo'ladi deb. Xotirlarning jag'i gapdan bo'shamaydi, biri olib, biri qo'yib sayrashadi. Kim chiqdi, kim chiqmadi deb hisoblashadi. Ilgarilar hamma o'zi uchun ishlagan-da, miq etgan tovushni eshitmasding. Voy-voy-yeyy, tush bo'lib qolibdi, kech kiribdi – shundan boshqa gap yo'q edi.

Baribir ertalab u panshaxasini ko'tarib chiqib ketadi.

Kolxozgina bo'lsa koshkiydi, xoh uzoq qarindoshi, xoh qo'shnisi, kechqurun Matryonaning oldiga chiqardi-da, buyurardi:

– Ertaga, Matryona, menga qarashib yubor. Kartoshkaning chalasini kavlaymiz. – Matryona yo'q deb aytolmasdi. O'z yumushlarini qo'yib, qo'shnisiga ko'maklashardi, kechqurun qaytib kelgach, ochiq ko'ngillik bilan derdi:

– Oh, Ignatch! Kartoshkasi biram bitibdiki! Qazigan sari qazigim keladi, tomorqadan chiqmasam deyman. Xudo haqi, rost!

Buning ustiga bironta ham tomorqani haydash Matryonasiz bitmasdi. Talnovoning xotinlari tomorqani bir o'zing yolg'iz belkurak-

da chopsang ishing cho‘ziladi, qiynalib ketasan deb, olti kishilashib qo‘sh tortishga odatlanishgan va shu yo‘l bilan bir yo‘la olti tomorqani haydab chiqishardi. Matryonani ana shunga yordamga chaqirishardi.

– Xo‘sh, unga haqini berdingizmi? – deb so‘rashga to‘g‘ri keldi birovdan.

– Pul olmaydi u. O‘ziga bildirmay bir narsa qilasz-da.

Echkilarni boqadigan podachilarni to‘ydirish navbati Matryonaga kelganda, tashvish ustiga tashvish ortardi. Podachilar ikkita, birovi – qulog‘i kar, bahaybat kishi; ikkinchisi – og‘zidan tupuk bosgan tamaki tushmaydigan bolakay. Navbat bir yarim oyda bir marta kelar, lekin Matryonani anchagina chiqimdor qilardi. U selpoga borib baliq konservalar sotib olar, o‘zi yemaydigan qant bilan sarimoyga ham pulni ayamasdi. Bekalar podachilarni yaxshilab boqaylik deb, bir-birlaridan qolishmaslikka tirishardilar.

– Tikuvchi bilan podachi zoti borki, ulardan qo‘rq, – deb tushuntirardi menga. – Agar xursand qilmasang, butun qishloqqa sharmandangni chiqaradi.

Yelib-yugurish, tashvishlar bilan to‘lib-toshgan ushbu umrguzaronlikka vaqti-vaqti bilan og‘ir dard ham aralashib qolardi. Matryona bir qulagancha bir necha kun to‘shak tishlab yotardi. U nolimas, ingramas, lekin yotgan joyidan qimirlamasdi ham. Mana shunday kunlarda Matryonaning yoshlik chog‘laridan birga o‘sgan jonajon dugonasi Masha kelib echkiga qarar, pechga o‘t yoqardi. Matryonaning o‘zi tuz totmas, hech narsa so‘ramasdi. Talnovoda yangi qishloq shifoxonasidan uyga vrach chaqirishga o‘rganishmagan, bu qo‘ni-qo‘shnilar oldida juda g‘alati ko‘rinadi – nima, biz oyimtilla edikmi, deyishardi. Bir safar chaqirib ko‘rishgach, vrach g‘oyatda darg‘azab bo‘lib kelgan, Matryonaga o‘rningdan turgach, shifoxonaga o‘zing bor, deb to‘ng‘illab ketgan. Matryona istar-istamas borgan, uni xo‘p tekshirishgan, natijalarini rayon kasalxonasiga jo‘natishgan – shu-shu yo‘qolib ketgandi.

Ish yotgani qo‘ymaydi. Ko‘p o‘tmay Matryona o‘rnidan turib yura boshlar, oldin sekin-sekin qimirlar, so‘ng yana g‘ayratga mi-nardi.



– Sen meni ilgari ko‘rmagansan-da, Ignatich, – o‘zini oqlardi u. – Qop-qanor deganni menga chiqargan edi. Besh pud nima, pisand qilmasdim. Qaynatam baqirardi: «Matryona! Belingni sindirasan!» Men ushlab turgan xarini joyiga qo‘ndirish uchun qaynag‘am oldimga yo‘lamasdi. Volchok degan harbiy otimiz bo‘lardi, otmisan ot...

– Nega harbiy?

– Bizning otni urushga olishuvdi, o‘rniga shu yarador otni berishgandi. Fe‘li telbaroq ot edi. Bir kun qo‘rqib ketib chanani ko‘lga qarab olib qochsa bo‘ladimi, erkaklar cho‘chib yo‘lasholmadi, men rost, yuganidan ushlab to‘xtatdim. Suli yerdi o‘sha ot. Bizning erkaklar ot boqishni yaxshi ko‘rishadi. Suli yeydigan ot yukni pisand qilmaydi.

Lekin Matryona unchalar ham botir xotin emasdi. U yong‘indan qo‘rqardi, momaqaldiroqdan qo‘rqardi va negadir hammadan ham ko‘ra poyezddan qo‘rqardi.

– Cherustiga kela turuvdim, Nechayevkadan guldirab poyezd chiqib keldi, ko‘zlari kosasidan chiqqan, bahaybat, temir izlar – guvillaydi, isitmam chiqib ketdi, tizzalarim dir-dir qaltiraydi. Xudo haqi, rost! – o‘zi ham hayron bo‘lib yelkalarini qisardi Matryona.

– Balkim bilet berishmagani uchun shunday bo‘lgandir, Matryona Vasilyevna?

– Tuynukdanmi? Yumshoq barmoqlarini ko‘rsatishadi. Poyezd esa – jildi! Uyoqqa chopamiz, buyoqqa chopamiz, tushunsangizchi, axir, deymiz! Erkaklar zinadan tomga chiqib ketishdi. Biz esa ochiq qolgan eshikni topib bostirib ichkariga kirdik. Chiptamiz yo‘q. Voy, vagonlarni ayting, bari bo‘sh. Cho‘zilib yotib ketsa ham bo‘laveradi. Nega chipta berishmaydi rahmsiz nobakorlar, nevlay...

Har qalay o‘sha qish Matryonaning turmushi avvalgiga qaraganda biroz o‘nglanganday bo‘ldi. Ajabki, unga sakson so‘m nafaqa to‘lay boshladilar. Buning ustiga maktabdan va mendan yuz so‘mdan ortiqroq pul olardi.

– Puf-puf-ey! Matryonaning kuni tug‘ib qoldi! – andak hasad ham qila boshlash-di Matryonaning ayrim qo‘shnilari. – Pulini qo‘ygani joy topolmayapti, kampir.

– Pensiyaga ishonib bo‘ladimi? – gumonsirashardi boshqalari. – Davlatning ishi – bir zumlik. Bugun qarasang – beradi, erta qarasang – tortib oladi.

Matryona o‘ziga yangi piyma bostirdi. Yangi paxtalik sotib oldi. O‘zi tarbiyalab voyaga yetkazgan qiz Kiraning eri – cherustilik mashinist hadya qilgan, andakkina kiyilgan temiryo‘lchilar shineli-dan palto tikirdi. Qishloqning bukir tikuvchisi mato tagiga paxta solib berdi, binoyiday palto bo‘ldi, Matryona oltmishga kirib buna-qasini endi kiyishi edi.

Qishning o‘rtalarida Matryona o‘limligim deb, paltoning astariga ikki yuz so‘m tikib qo‘ydi. Chehrasi ochilib ketdi:

– Sekin-sekin men ham ro‘shnolik ko‘rdim, Ignatich.

Dekabr o‘tdi, yanvar o‘tdi – ikki oy orasi kasal yaqin yo‘lamadi. Kechqurunlari Matryona tez-tez Mashanikiga pista chaqib gaplashib o‘tirgani chiqadigan bo‘ldi. Meni bezovta qilmay deb o‘zi kechqurunlar uyga mehmon chaqirmasdi. Faqat cho‘qinish kuni maktabdan qaytib uyda o‘yin-kulgining ustidan chiqdim. Menga Matryonaning uchta singlisini tanishtirishdi. Singillari Matryonani o‘zlaridan katta bo‘lgani uchun – opoch, nanna deb chaqirishardi. Shu kungacha uyimizda uning singillari haqida juda kam eshitgan edim – singillari Matryona bizdan yordam-pordam so‘rab qolmasin deb, kelmay yurishganmi hoynahoy?

Bir voqea deymizmi, bir alomat deymizmi, sodir bo‘ldi-yu bayramni Matryonaga xira qilib qo‘ydi. U besh chaqirim yo‘l bosib cherkovga obi muborakka borgan edi, o‘zining temir idishini boshqa idishlar qatoriga qo‘ydi, marosim tugagach, xotinlar bir-birlarini turtib-surtib idishlarini olishdi, Matryona ulgurolmay orqada qoldi, borib qarasa, idish yo‘q, bo‘m-bo‘sh, o‘rniga boshqa idish ham qoldirilmagan. Jin urdimi, idish g‘oyib bo‘ldi-qo‘ydi.

– Xotinlar-ov, – so‘rab-istab yurdi Matryona ibodatga kelgan ayollardan. – Adashib birovning idishi, birovning suvini olib ketmadinglarmi?

Olgan topilmadi. Bolakaylar sho‘xlik qilishgandir, u yerda bolakaylar ham bor edi. Matryona ma‘yus qaytib keldi. Unda hamisha obi muborak bo‘lardi, mana endi bu yil muborak suvdan quruq qoldi. Biroq Matryonani dinga ashaddiy mukkasidan ketgan deb

ham bo'lmadi. Uni hatto ma'jusiy deyish mumkin edi, xurofotga ishonardi: ya'ni Ivan Postnoy kunida tomorqaga kirib bo'lmaydi, kirsang, kelasi yil hosildan quruq qolasan: agar quyun aylansa, demak, qaydadir kimdir o'zini osib qo'ygan; eshik mabodo oyog'ingni qisib qolsa, demak, uyingga mehmon keladi. Uning uyida qancha yashagan bo'lsam, biron marotaba ibodat qilgani yoki cho'qinganini ko'rgan emasman. Nima ishga qo'l urmasin barini «Xudo yor bo'lsin!» deb boshlar, har safar maktabga jo'nar ekanman, menga: «Xudo yor bo'lsin!» deb qo'yardi. Balki ibodat ham qilar, lekin menga ko'rsatmasdi, mendan tortinardi yoki meni qisintirib qo'yishdan qo'rqardi. Uyning ozoda qismida tabarruk go'sha, oshxonachada esa Nikolay Ugodnikning ikonasi bor edi. Begim kunlar go'sha qorong'u turar, tungi taborak chog'lari hamda bayramlarda Matryona ertalabdan tabarruk go'shaning chirog'ini yoqib qo'yardi.

Biroq, uning gunohlari cho'loq mushuknikidan ham ozroq edi. Har holda cho'loq sichqonlarni bo'g'izlardi...

Matryona abgorlikdan picha nafas rostlab, hatto mening radiomni ham tinglay boshladi (o'zim razvedka o'rnatdim – Matryona rozetkani shunday deb atardi. Kichkinagina priyomnigimga baloyi ofat deb qaramay, chidasa bo'lardi. Chunki uni istagan paytda o'z qo'lim bilan burab o'chirib qo'yishim mumkin edi; lekin u menga ovloq kulbadan, haqiqatan ham – razvedka bilan chiqardi). O'sha yili haftasiga ikkitalab-uchtalab xorijiy delegatsiyalarni kutib olish, qabul qilish, kuzatish va bir qancha shaharlarga olib borish, odamlarni mitingga yig'ish odat tusiga kirgan edi. Kunlar ziyofatlar, qabullar, nonushtalar haqidagi muhim xabarlar bilan to'lib-toshib yotardi.

Matryonaning peshanasi tirishar, norozi bo'lib xo'rsinardi:

– Uyoqqa borishadi, buyoqqa borishadi, axir bir kun ishkali chiqadi.

Yangi mashinalar chiqqanini eshitib, Matryona oshxonadan turib vaysardi:

– Nuqul yangi-yangi deydi. Eskisida ishlagilari kelmaydi. Bu ahvolda eskilarini qayerga qo'yamiz?

Tag'in o'sha yili yerning sun'iy yo'ldoshi uchadi deb va'da qilishgan edi. Matryona pechka ustida yotib boshini chayqardi:

– Voy-voy-voy-yeyy, axir bir nimani o‘zgartirib yuborishadi, yo yoz qoladi, yo qish.

Shalyapin rus qo‘shiqclarini ijro etardi. Matryona turib-turib eshitdi-da, keyin uzil-kesil qilib deddi:

– G‘alati o‘qiydi, bizga o‘xshamaydi?

– E qo‘ysangiz-chi, Matryona Vasilyevna, axir mundoq quloq solib ko‘ring! Yana tinglab turdi. Labini tishladi.

– Yo‘o‘. Unaqamas. Bizchasiga aytmaydi. Ovozi ham aylanib ketyapti.

Keyin Matryona meni hayron qilib qo‘ydi. Bir kuni Glinka romanslaridan konsert berishayotgan edi. Beshtacha kamer romanslardan so‘ng kutilmaganda oshxona tomondan Matryona etagini tutgan holda ko‘zlarida yosh halqalanib chiqib keldi.

– Mana, mana bu bizga o‘xshaydi... – pichirladi u.

## 2

Shunday qilib, men Matryonaga, Matryona menga o‘rganib qoldik, oddiygina kun kechirdik. Kechasi uzoq, o‘tirib ishlaganlarimda u zarracha xalaqit bermas, savollar bilan g‘ashimga tegmasdi. U barcha xotinlarga xos qiziqishdan shunchalar mahrum edi yoki u shu qadar nazokatli ediki, mendan loaqal biron marta: xotiningiz bormi? – deb so‘ramagandi. Talnovoning xotinlari qo‘ymay undan meni so‘rab-surishtirishardi. Ularga shunday deb javob qilardi:

– Kerak bo‘lsa, o‘zidan so‘ranglar. Bilgan narsam shu – u uzoqning odami. Ancha vaqt o‘tgach, o‘zim unga ko‘p turmada yotganimni aytdim, u xuddi ilgaridan sezib yurganday indamay boshini liqillatib qo‘ydi.

Men ham bugungi Matryonani, aftadahol sho‘rlik kampirni ko‘rib turar va uning eski yaralarini kavlamas, buning boshidan nimalar kechgan ekan deb, boshimni qotirmasdim.

Matryona inqilobga dovur erga tekkanligi, o‘shandayoq mana shu biz hozir yashab turgan uyga tushganligi, darhol shu pechkaga unnaganligini (zotan, u paytga kelib qaynota ham, to‘ng‘ich, bokira qayinegachisi ham olamdan o‘tgan, shuning uchun nikohning ertasi-gayoq ertalabdan Matryona qozon-tovoqqa qo‘l urgan edi) bilardim.



Yana bilganim shu ediki, u oltita bola tuqqan, hammasi juda erta o'lgan, hech qachon bolasi ikkita bo'lmagan edi. Keyin Kira degan qizchani asrab olgandi. Matryonaning eri bu urushdan qaytmadi. Qora xat ham kelmadi. Eri bilan birga rotada bo'lgan hamqishloqlari u yo asir tushgan, yo halok bo'lgan, faqat o'ligi topilmadi, deb aytdilar. Urushdan keyin o'n bir yil o'tib, Matryona u o'lgan degan xulosaga keldi. Shunday deb o'ylagani ham ma'qul. Agar hozir tirik bo'lsayam – biron yerda, Braziliyadami yoki Avstraliyada uylanib, bola-chaqali bo'lib ketgandir. Talnovo ham, rus tili ham xotirasidan ko'tarilib borayotgandir...

Bir kuni maktabdan kelsam, uyda mehmon o'tiribdi. Baland gavgdali qorachadan kelgan chol Matryona xonaning o'rtasiga, «gollandka»ning yaqiniga surib bergan kursida shapkasini tizzasiga qo'yganicha o'tirardi. Uning butun basharasiga hali unchalar oq oralamagan quyuq sochlari quyulib tushardi: savlatdor qora soqoli qora mo'ylovlariga tutashib ketgandi, shuning uchun og'zi bazo'r ko'zga chalinardi. To'sday qorayib turgan uzun chakka mo'ylari qulog'i tepasidan osilib tushgan tola-tola sochlariga qo'shilib ketar, qulog'i ham arang ko'rinardi; o'siq-o'siq qora qoshlari ikki ko'prikday bir-biriga payvasta bo'lib ketgandi. Faqat yalang manglayigina keng tepakal boshi tomon ravoq singari ko'tarilib borardi. Qariyaning butun qiyofasidan kordonlik va viqor barq urib turardi. U qo'llarini hassasiga qo'yib, qaddini tik tutib o'tirar, asosi polga qiya tiralgan edi. Shu o'tirishida toqat bilan nimanidir kutar va aftidan, to'siq orqasida kuymalanib yurgan Matryona bilan kam gaplashardi.

Uyga kirganimda, ulug'vor kallasini men tomonga vazmin burdida, kutilmaganda menga qarab dedi:

– Otaginam!.. Ko'zim yaxshi ko'rmaydi. O'g'lim sizda o'qiydi. Grigorev Antoshka...

Uyog'ini aytmasa ham ravshan edi... Bu muhtaram qariyaga qanchalar chin dildan yordam berishni istamay, chol hozir nima deyishini oldindan bilar va u foydasiz gaplarni o'zimdanda soqit qilardim. Grigorev Antoshka 8-«G»da o'qiydigan, ikki yuzi qip-qizil, dum-dumaloq, xuddi quymoq yegan mushukday bo'lib yuradigan bolakay edi. Maktabga u bamisoli hordiq chiqargani kelar, partada yalqovlanib iljayib o'tirardi. Buning ustiga u hech qachon

darslarini uyda tayyorlab kelmasdi. Asosiysi, rayonimiz maktablari, oblastimiz va qo'shni oblast maktablari o'zlashtirish bo'yicha yuksak ko'rsatkichlari bilan shuhrat qozongan, ko'rsatkich uchun kurashda – uni yildan yilga o'tkazishar, u ham obdon bilib olgan edi – muallimlar har qancha do'q-po'pisa qilishmasin, baribir yil oxirida uni o'tkazishadi, shuning uchun jon koyitib o'qib o'tirishning hojati yo'q. Ustimizdan kalaka qilardi tirmizak. Sakkizinchi sinfda o'tirardi-yu na kasrni bilar, na uchburchaklarni ajrata olardi. Birinchi choraklarda unga xo'p ayamay ikki qo'ydim — lekin uchinchi chorakda ham ahvoli o'zgaradiganga o'xshamasdi.

Lekin mana shu ko'zi ojiz, Antoshkaga ota emas, bobo o'rnida yaraydigan, oldimga tizzasini bukib, elanib kelgan cholga nima ham deya olardim? Maktab sizni yil sayin laqillatib kelgan edi, bundan buyog'iga men sizni aldayolmayman, aks holda butun sinfni izdan chiqarib yuboraman, bolalar ko'z o'ngida betayin kimsaga aylanib qolaman, ana undan keyin o'zimning shuncha mehnatlarimga, vazifam, kasbimga tupurishga to'g'ri keladi, deyishim kerakmidi?

Unga xo'p bosiqlik bilan tushuntirdim, o'g'lingiz tartib-qoidadan chiqib ketgan, uyda ham, maktabda ham yolg'on gapiradi, uning kundaligini tez-tez tekshirib turish, ikki tomondan qattiq kirishish kerak, dedim.

– Qattiq deb sekinroq aytasizmi, otaginam, – deb uqtirdi menga qo'noq. – Haftasiga tayoq yeydi. Qo'lim og'ir juda.

Gaplashib o'tirib esladim, bir gal Matryona ham o'zidan o'zi Antoshka Grigorevga yordam berishimni so'ragan edi, men ko'nmagan va o'shanda qanday qarindoshingiz bo'ladi deb qiziqib qam ko'rmagan edim. Matryona hozir ham oshxonaga kiraverishda og'izda bo'lmasa-da, butun vujudi bilan iltijo qilib turmoqda edi. Faddey Mironovich xabar olib turadigan bo'lib, o'rnidan qo'zg'alib chiqib ketgach, men so'radim:

– Hech bilolmay turibman, Matryona Vasilyevna, Antoshka o'zi sizga kim bo'ladi?

– Qaynog'amning o'g'li, – javob berdi Matryona quruqqina qilib, so'ng echkisini sog'gani ketdi.

O'ylay-o'ylay men ushbu basavlat qariya – Matryonaning bedarak ketgan erining akasi ekanligini bildim.

Qo'shom uzoq cho'zilib o'tdi – Matryona boshqa bu gapni eslamadi. Faqat kech kirib, uyga sukunat cho'kkanda, men qariyani unutib, osma soatning taqillashi va suvaraklarning shipillashi ostida yozuv-chizuv ishlarimga sho'ng'igan chog'imda – birdan Matryona o'z qorong'u puchmog'idan turib gap ochdi:

– Men, Ignatich, bir paytlar sal bo'lmasa unga turmushga chiqay deganman.

Shu tobda qulog'imga hech narsa kirmas, hatto uyda Matryona borligini ham unutgan edim. Lekin bu so'zlarni u qorong'ulik ichidan turib shunchalar hayajon bilan aytdiki, go'yo chol uni hamon o'ziga tegishga undayotganday edi.

Aftidan, butun shu oqshom Matryona shu haqda o'ylagan shekilli.

U jo'ngina ko'rpa-to'shak solingan karovatidan turib, ohista men tomonga chiqib keldi, u bamisli o'z so'zlariga izma-iz kelardi. Men ishimdan to'xtadim va birinchi marotaba Matryona ko'zimga boshqacha bo'lib ko'rindi.

Tuvakgullar o'rmonday chirmagan katta uyimizning shiftida chiroq o'rnatilmagan edi. Stol ustidagi chiroqdan esa yorug'lik doira bo'lib faqat yoyilib yotgan daftarlarimga tushardi. Ushbu to'garak yorug'ga o'rgangan ko'zlarga uyning boshqa hammayog'i nimpushti tusga kirgan qorong'ulik kabi ko'rinardi. Matryona shu qorong'ulikdan yurib kelardi. Nazarimda, uning ikki yuzi ham odatdagiday sarg'imtir emas, balki nimqizil edi.

– O'zi birinchi bo'lib menga og'iz soldi... Yefimdan burun... U Yefimning akasi bo'ladi... Men o'n to'qqizda edim. Faddey yigirma uchda ... Mana shu uyda turishardi ular o'shanda. Bu ularning uylari edi. Otalari solgan bu uyni.

Beixtiyor atrofga qaradim. Ushbu eskirib, oqarib, chirib borayotgan uy birdan ko'z o'ngimda devorlariga yopishtirilgan ko'kimtir qog'ozlar, ular orqasida shitirlab chopib yurgan sichqonlar osha navqiron bir holda o'zining yap-yangi tarashlangan xari og'ochlari va xushbo'y mo'm islari bilan gavdalanganday bo'ldi.

– Nima, siz uni? Keyin nima bo'ldi?..

– O'sha yozda... u bilan tolzorga bordik, – pichirladi u. – Tolzor bor edi hozir-gi otxonalar o'rnida, keyin kesib tashlashdi... Unga

tegishimga sal qolgandi, Ignatich. German urushi boshlandi. Faddey urushga ketdi.

Shu gapni o'rtaga to'kdi-yu, ko'z o'ngimda o'n to'rtinchi yilning moviy, hafrang iyul oyì lov etib namoyon bo'ldi: hali osuda osmon, yurg'un bulutlar va o'rimda qaynagan odamlar. Nazarimda, ular yonma-yon o'tirganday edilar: bir yonda cho'yanday pishiq yelkasiga chalg'i tashlagan bahodir; uning yonida yonoqlari lovullagan, g'aram quchgan qiz. Yana qo'shiq, hozir qishloq allaqachonlardan beri aytmay qo'ygan osmon baravar qo'shiq. Endi mashinalar arillab turganda, qo'shiq aytib bo'ladimi?

– Urushga ketdi-yu, dom-daragi bo'lmadi... Uch yil nafasimni ichimga yutib kutdim. Na xat keldi, na xabar...

Chiroqning yumshoq shu'lalari girdobida Matryonaning eski ro'mol bilan chirmalgan dumaloq yuzi xayolimda ajinlardan ozod bo'lganday, kundalik jo'n liboslaridan qutulganday, ko'z o'ngimda ikkidan birini tanlashday mushkul savdo oldida turgan qizning hurkan chehrasi qad rostladi.

Rost. Rost... Bilaman. Yaproqlar parokanda uchdi, qor yog'di – keyin erib ketdi. Yana yer haydadilar, yana don sochdilar, yana o'rib oldilar. Boshqatdan yaproqlar to'kildi, yana boshqatdan qorlar yog'di. Yana bir inqilob qo'pdi. Keyin boshqa bir inqilob. Keyin butun dunyo teskari bo'lib ketdi.

– Onalari o'lib, Yefim menga sovchi qo'ydi. Bizning uyga tushmoqchi eding, endi niyatingdan qaytma deganday. Yefim mendan bir yosh kichik edi. Bizda shunday gap bor: aqlli Pokrovdan keyin turmushga chiqadi, ahmoq – Petrovdan so'ng. Ularning qo'llari kalta bo'lib qolgan edi. Mayli dedim... Petrov kuni nikohdan o'tdik, qishki Mikola kuni esa qaytib keldi... Faddey... majorlarga asir tushgan ekan.

Matryona ko'zini yumdi.

Indaganim yo'q.

U xuddi eshik tirikday unga o'girildi:

– Ostonada turdi. Dodlab yubordim! Oyog'iga tiz cho'ksam derdim!.. Iloji yo'q... Hay, dedi, agar tug'ishgan ukam bo'lmaganda, ikkovingizni qiymalab tashladim!



Men seskanib ketdim. Uning o'pkasi to'lib, qalt-qalt titrab gapirishidan qop-qora bulutday bo'lib qorong'u eshik oldida turgan va Matryonaga bolta o'qtalغان yigitni tasavvur qildim.

Lekin u o'zini bosib oldi, qarshisida turgan stulning suyanchig'iga tiraldi va ohangdor lafz bilan so'yulab berdi:

– Voy-voy-voy-yeyy, sho'rlik boshim! Qishloqda qancha qizlar bor edi – uylanmadi. Ismi senga o'xshaganini, boshqa Matryonani topaman, dedi. Aytganiday qildi, Lipovka qishlog'idan Matryonasini topib keldi. Alohida uy-joy solishdi, hozir ham o'sha uyda turishadi, sen har kuni ularning yonidan maktabga o'tasan.

E-ha, gap buyoqda ekan-ku! Endi bildim. O'sha Matryonani bir necha bor ko'rganman. Negadir uni jinim suymasdi. U doim Matryonaning oldiga kelib, erim uradi, o'lguday haris, siqib suvimni ichadi, deb hasrat qilar, uzoq o'tirib ko'zyoshi to'kar, ovozi ham hamisha yig'lamsiragan bo'lardi.

Alohol, Matryonam achinmasa ham bo'larkan – Faddey o'z Matryonasini bir umr kaltaklab ko'zini ochirmas, hozir ham holjoniga qo'ymas, xonadonni zir titratardi.

– Menga o'zi bir marta ham qo'l ko'tarmagan, – deb aytardi u Yefimni. – Ko'chada o'zi tengilar bilan mushtlashishdan sira qaytmasdi, menga esa hech qo'l tekkizmasdi... Yo'g'-a, bir martagina bo'lgan – qaynsinglim bilan urishib qoldim, Yefim qoshiqni boshimga urib sindirdi. O'rnimdan sapchib turdim: «Tiqilib o'llaring, yashshamagur tekinxo'rlar!» – deb qarq'ab o'rmonga ketdim. Shundan keyin qo'l ko'tarmadi.

Chamasi, Faddeyning armon qiladigan joyi yo'q edi: ikkinchi Matryona unga olti bola tug'ib berdi (mening Antoshkam ularning kenjasi, to'rvaqoqtisi) – hammasi sog'-omon katta bo'lishgan; Matryona bilan Yefimning esa bolalari turmasdi: uch oyga yetmay hech bir og'rimay-netmay o'lib qolaverardi.

– Bir qiz tug'dim, cho'miltirayotganda tirik edi, keyin darrov o'lib qoldi, o'ligini yuvishga ham hojat qolmadi... Petrov kuni to'yim bo'luvdi, oltinchi bolam Aleksandrni ham Petrov kuni yerga qo'ydim.

Shundan so'ng butun qishloq Matryonaga jin tekkan degan xulosaga keldi.

– Menga jin tekkan! – ishonch bilan boshini qimirlatardi hozir ham Matryona. – Meni ilgari rohiba bo‘lgan bir xotinning oldiga olib borishdi davolatgani, u meni qayt qildirdi, o‘qchitdi – jin ichimdan qurbaqa bo‘lib chiqadi deb kutib o‘tirdi. Chiqmadi qurbaqa bo‘lib...

Suvlar oqar, yillar o‘tardi... Qirq birinchi yilda Faddeyni ko‘zi yaxshi ko‘rmagani uchun urushga olishmadi, biroq Yefimni olishdi. Akasi birinchi urushda dom-daraksiz ketganday, ukasi ham bu urushda xat-xabarsiz g‘oyib bo‘ldi. Lekin bunisi butunlay kelmadi. Bir mahallar g‘ala-g‘ovur uy endilikda huvillab yotadi, chirib, tobora qartayadi – bexonumon va g‘arib Matryona ham qarib kuchquvvatdan ketib boradi.

U aloha anavi tayoq tagida qolgan ikkinchi Matryonadan bir parcha etini (Faddeyning pushti kamaridan bo‘lgan) – eng kichik qizlari Kirani yalinib-yolvorib tilab oldi.

Uni o‘zining turmagan bolalari o‘rnida ko‘rib, o‘n yil boqib, tarbiya qildi. Men kelmasimdan sal burun uni Cherustiga, yosh bir mashinist yigitga uzatgan edi. Unga keladigan yordam ham faqat shu yerdan tomchilab turardi: ba‘zan qand-qurs, ba‘zan cho‘chqa so‘ysalar – moyi deganday.

Dardga chalinib yurgan Matryona ko‘p o‘tmay o‘lishini sezganmi, vasiyat qilib qo‘ygan edi: o‘lsam, katta uyga tirkab solingan kichik uyni Kiraga qoldiraman. Katta uy haqida u og‘iz ochmagan edi. Uchta singil katta uyga ega chiqishni mo‘ljallashardi.

Shunday, o‘sha kecha Matryona menga to‘liq ochilganday bo‘ldi. Hayot o‘zi shunday ekan, umrguzaronligining ma‘nosi va bog‘lanishlari menga picha ayon bo‘lgach, o‘sha kunlariyoq, ularni xatti-harakat ichida ko‘rdim. Cherustidan Kira keldi, qariya Faddeyning paytavasiga qurt tushdi. Cherustidan bir parcha yer olib saqlash uchun yoshlar qanday bo‘lmasin, bir imorat tiklashlari kerak ekan. Matryonaning kichik uyi ana shunga g‘oyatda mos edi. Boshqa imorat qurishning iloji yo‘q, hech qaydan yog‘och topilmasdi. Kiraning o‘zi, uning eri bir yoqda qolib, Faddey bobo Cherustidagi yerni qo‘ldan chiqarib yubormaslik uchun o‘lib-tirilib harakat qila boshladi.

Shu asno u biznikiga tez-tez keladigan, Matryona bilan og‘alarcha so‘ylashadigan, kichik uyni o‘lgandan keyinga qoldirmay hozir ko‘zi tirikligida berishni talab qiladigan odat chiqardi. U endi o‘sha hassa-

ga tayanib o'tirgan, bir turtsa yo qattiqroq gapirsa, qulab tushadigan mo'ysafidga sira o'xshamasdi. Bel og'rig'idan bukchaygan, lekin qaddini tik tutib yuradigan, oltmishdan oshganiga qaramay sochlari-ning navqiron shirasi va qoraligini saqlagan bu odam jonini jabborga berib ko'ndirish payida bo'lardi.

Matryona ikki kecha uxlamay chiqdi. Bir qarorga kelishi qiyin bo'ldi. Bo'sh yotgan kichik uyga achinmasdi, yo'q, umuman, Matryona hech qachon na kuchi-hushi, na bor bud-shudini birovdan ayab o'tirmasdi. Kichik uy bari bir Kiraga atalgandi. Lekin o'zi qirq yil istiqomat qilgan uyning tomini buzish uni vahimaga solardi. Hatto men, chekkadagi odam, uying taxtalarini qayirib, xarilarini ko'chira boshlashlarini o'ylasam, yuragim zirqirardi. Matryonaga esa bu ha-yotning barham topishi bilan baravar edi.

Lekin oyog'ini tirab turganlar uning uyini tirikligidayoq buzish mumkinligini bilardilar.

Fevral kunlaridan birida ertalab Faddey o'g'lonlari va kuyovlari bilan kelishib, besh bolta taraqa-turuq ishga tushdi. Taxtalar qiyqillab, g'achirlab qayrildi. Faddeyning korfarmo ko'zlari dambadam yiltirab ketardi. Beli yaxshi bukilmasa ham, u tomga tashlangan yog'ochlar tagida chapdast yurar, pastga tushganda o'zini o'tga-cho'qqa urar, yordamchilarga hayqirib-qiyqirib qo'yardi. Bu kichkina uyni bir zamonlar otasining yoniga kirib o'zi qurgan edi; u to'ng'ich o'g'il bo'lgani uchun unda yosh kelin-kuyov yashaydilar deb mo'ljallashgan edi. Mana endi uni begona joydan ko'chirish uchun o'lib-tirilib yog'ochlarini ayirar edi.

Kichik uyning chorxarilari va tomining yog'ochlarini birma-bir raqamlab, ajratib olishdi, sahni qisqargan katta uyni yupqa taxtalar-dan devor yasab, vaqtincha o'rab qo'yishdi. Devor ham naridan-be-ri oralari ochiq-ochiq qilib qurildi. Bularning bari uy buzayotganlar imoratsoz emasligini, Matryona bu yerda hali uzoq yashaydi-ku, deb hisoblamasliklarini ko'rsatardi.

Erkaklar imorat buzisharkan, xotinlar yuk tashib ketiladigan kunga atab samogon tayyorlashardi: aroq juda qimmatga tushardi. Kira Moskva oblastidan bir pud qand olib keldi, Matryona Vasilyev-na kechasi hech kim ko'rmaydigan mahalda qand bilan shishalarni samogonchilikiga eltdi.

tanchoqlik avjga mindi. Ayniqsa, traktorchi keriladi. Samogonning qo'lansa hidi dimog'imga urdi. Ammo ichkilik uzoqqa cho'zilmadi. Qorong'u bostirib kelar, shoshiltirardi. Birin-sirin chiqib kela boshladilar. Basharasi yovuz, errayim traktorchi ham chiqdi. Chanalarni Cherustigacha mashinist kuyov, Faddeyning cho'loq o'g'li, yana bir qarindosh kuzatib boradigan bo'ldilar. Boshqalar uy-uylariga tarqalishdilar. Faddey bobo hassasini silkitib, kimningdir orqasidan yugurdi, nimalarnidir shoshilib uqtira ketdi. Cho'loq o'g'lon mening stolim oldida chekib olgani to'xtadi va birdan Matryona kennoyimni yaxshi ko'raman, yaqinda uylandim, kuni kecha o'g'il ko'rdik, deb gapirib qoldi. Shunda uni chaqirdilar, u ketdi. Ko'chada traktor tariladi.

To'siq ortidan hammadan keyin shosha-pisha Matryona chiqdi. U jo'nab ketganlar ortidan xavotirlanib boshini chayqadi. Paxtaligini kiydi, ro'molini o'radi. Eshikda menga qarab dedi:

– Ikkita traktor chaqirsa, bo'lmas ekanmi? Bittasi tortolmasa, ikkinchisi qarashib yuborardi. Endi nima bo'ladi? Xudo biladi!..

U ketganlar orqasidan chopdi.

Dam-badam ochilaverganidan sovib ketgan, hamma tark etgan uyga ichkilik, tortishuv, yugur-yugurlardan so'ng birdan suv quyganday jim-jit sukunat cho'kdi. Tashqarini zimiston qopladi. Men ham paxtaligimni kiyib oldim-da, stolga ishga o'tirdim. Olisda traktor sasi o'chdi.

Bir soat o'tdi, ikki soat. Uchinchi soat ham o'tdi. Matryonadan hamon darak yo'q. Lekin bunga unchalik hayron bo'lib o'tirmadim: chanalarni kuzatib qo'yib, keyin Mashaning oldiga kirgandir.

Yana bir soat o'tdi. Yana. Qishloqqa zulumat bilan birga allaqanday teran sukunat cho'kdi. Unda bu jimjitlikning sababini anglab yetolmagan edim. Keyin bilsam, bizdan yarim chaqirim naridagi temiryo'ldan tun bo'yi bironta ham poyezd o'tmabdi. Priyomnikning ovozi chiqmas, lekin nima uchundir sichqonlar har qachongidan ko'ra dadilroq chopqillashib qolganlarini payqadim: ular devor bilan qog'ozlar orasida borgan sari tap tortmay yugurishar, shovqin solishar, qirtillatishar va chiyillashardi.

Ko'zimni ochdim. Soat tungi bir. Matryona esa hanuzgacha qaytmagan edi.



40 Birdan qishloq ichida baland-baland yangragan ovozlarni eshitdim. Ovozlar hali yiroq, lekin negadir xayolimga, biznikiga kelishyapti, hoynahoy degan fikr keldi. Rostdan ham, ko'p o'tmay darvoza qattiq taqilladi. Begona, hukmfarmo bir tovush, oching, deb qichqirdi. Men elektr fonarimni ko'tarib zimiston qorong'ulikka chiqdim. Qishloq dong qotib uxlar, derazalarda chiroq yo'q, qor esa bir haftadan beri erib, endi oq shu'la taratmasdi. Men pastki ilgakni ko'tarib, darvozani ochdim. Uygga shinel kiygan to'rt kishi kirdi. Kechasi iddao qilib shinel kiyganlar kirib kelsa, bu juda mudhish ko'rinadi.

Biroq chiroqning yorug'ida kelganlarning ikkitasi temiryo'lchilar kiyimida ekanligini payqadim. Ularning kattasi, yuzi anavi traktorining yuziga o'xshab ketadigan, yirik sumbatli birovi so'radi:

- Beka qani?
- Bilmayman.
- Chana qo'shilgan traktor shu hovlidan chiqqanmidi?
- Shu hovlidan.
- Ketmasdan oldin shu yerda ichishdimi?

To'rtovlari ham stoldagi chiroqning xira doira shu'lasida ko'zlarini qisib atrofga alanglashardi. Men kimnidir qamashgan yoki qamamoqchilar deb tushundim.

- Nima gap o'zi?
- Sizdan so'rashyapti, javob bering!
- Biroq...
- Mast holda ketishdimi?
- Bu yerda ichishdimi?

Birov birovni o'ldirib qo'ydimikin? Yoki uyni ko'chirib ketish mumkin emasmikin? Meni har tomondan siquvga olishdi. Lekin bir narsa aniq edi: samogon uchun Matryonani javobgarlikka tortishlari mumkin.

Men asta oshxonaga kiriladigan tomonga o'zimni oldim, gavdam bilan to'sdim.

– Ochig'i, ko'rganim yo'q. E'tibor bermabman. (Men rostdan ham ko'rmadim, faqat eshitdim.)

Qo'limni parishon bir alfozda silkib, uy ichidagi ahvolni ko'rsatganday bo'ldim: kitob-daftarlar tepasida osuda yonib turgan stol chirog'i; tuvakgullarning qo'rqib ketgan izdihomi; darvesho-

na g'arib to'shak. Bu yerda hech qachon ichkilikbozlik bo'lganga o'xshamaydi.

Ularning o'zlari ham bu yerda hech qanday ichkilikbozlik bo'lmaganligini sezib, hafsalalari pir bo'ldi. O'zaro bu uyda ichilmagan, demak, boshqa joyda, topsak durust edi, deb gaplashgancha, ular eshikka qarab yurdilar. Men ularni kuzatib qo'ya turib ham, nima bo'lganligini surishtirishdan to'xtamadim. Ko'cha eshikka chiqqandagina birovi po'ng'illadi:

– Hammasi qiyma-qiyma bo'lib ketgan. Tanib bo'lmaydi.

Boshqasi qo'shimcha qildi:

– E xudo saqladi! Yigirma birinchi tezyurar ag'darilishiga oz qoldi. E ana unda ko'rardingiz.

Ular jadal jo'nab ketdilar.

Kimni aytyaptilar? Hammasi deganlari kimlar? Matryonasi tushmagur qayda qoldi?

Men uyga qaytib kirdim. Oshxona pardasini surib ichkariga o'tdim. Samogonning sassiq hidi dimog'imga urildi. Bunda hamma narsa tashlab ketilgan jang maydoniday ayqash-uyqash bo'lib yotardi: biri ustiga biri qalashgan kursilar va o'rindiqlar, bo'shagan, yumalagan shishalar va bitta yarmi ichilgan shisha, stakanlar, chalachulpa yeyilgan sho'r baliq va bosh piyozlar, maydalangan cho'chqa yog'i.

Hammasi o'lik. Faqat suvaraklargina jang maydonida bemalol sudralib yurardilar.

Darhol yig'ishtirishga kirishdim. Shishalarni chaydim, ovqatlarini oldim, kursilarni joy-joyiga qo'ydim, samogondan qolganini esa ko'zdan nariroqqa yashirdim.

Shularni qilib bo'lgandan keyingina uy o'rtasida serrayib turib qoldim: yigirma birinchi tezyurar poyezd haqida allanimalar deyishdi-ya. Nega?.. Balki bularning barini ularga ko'rsatish kerakmidi? Men endi shubhaga tushib qolgandim. Ammo bu qanday padarla'nat qiliq o'zi – oddiy odamga hech narsani tushuntirib aytmaslik?

Birdan ko'cha eshigimiz g'ichirladi. Men tezgina hovli yuziga chiqdim.

– Matryona Vasilyevna?

Uyga gandaraklab uning chiqoni Masha kirib keldi:

– Voy, Matryona... voy Matryona sho‘rlik-ey, Ignatich..,

Men uni o‘tqizdim, ko‘zlaridan duv-duv yosh quyulib u aytib berdi:

– Yo‘l temiryo‘l bilan kesishgan joy tepalik. Unga tik chiqiladi. Shlagbaum yo‘q. Traktor birinchi chanani olib o‘tgach, tros uzilib ketibdi, qo‘lda yasalgan ikkinchi chana temiryo‘lda ko‘ndalang turib qolibdi. Faddey bobo yaxshi yog‘och bermagani uchun chana yeyilib keta boshlabdi. Birinchi chanani picha nariga eltib, ikkinchisiga qaytib kelishibdi, traktorchi bilan Faddeyning cho‘loq o‘g‘li trosni mahkamlaymiz deb urinishibdi, Matryona ham traktor bilan chana o‘rtasida o‘ralashib yuribdi. Nima yordam berardi bo‘lmasa erkaklarga? Doim o‘zi erkaklarning ishlariga suqilib yuradi. Bir paytlar ot olib qochib ko‘lga cho‘ktirib yuborishiga oz qolgan, muz tagiga. Nimaga, nimaga boradi u qurib ketkur yerga? – uyni bergani yetmasmidi, bo‘ynidan qarzini soqit qiluvdi-ku... Mashinist Cherustidan poyezd kelib qolmasin deb halak. Poyezdning chiroqlari uzoqdan ko‘rinib turadi. Boshqa, bizning stansiya tarafdin ikkita juftlashgan parovoz chirog‘ini yoqmasdan orqasi bilan yurib kelaveribdi. Nega chirog‘ini yoqmagan, noma‘lum. Parovoz orqasi bilan yurib kelganda o‘txonadan mashinistning yuziga ko‘mirning kul-kukunlari uriladi, yaxshi ko‘rolmaydi. Qo‘sh parovoz gupillab kelgan cha traktor bilan chana o‘rtasidagilarni majaqlab tashlabdi. Uch kishi. Traktorning pachag‘i chiqqan. Chana mayda-mayda bo‘lib ketgan. Iz qayrilgan, parovozlar yonboshlab qolgan.

– Nahot, parovoz kelayotgan bo‘lsa, eshitishmaydi?

– Traktor tarillab turgan-da axir.

– O‘lganlar qayoqda?

– Berishmayapti. O‘rab olishgan.

– Yigirma birinchi tezyurar poyezd-chi, eshitdimki...

– E, soat o‘nda o‘tadigan tezyurar poyezd stansiyamizda to‘xtamay o‘sha tomonga yurgan. Lekin qo‘sh parovozning mashinistlari omon ekan, sakrab turishib, izga chiqib qo‘llarini silkitib chopishibdi, ishqilib, poyezdni to‘xtatishga ulgurishibdi... Yana bir qarindoshlarining ustiga xari tushib, mayib bo‘libdi. Klavkani-kida biqinib yotibdi. Meni u yerda bo‘lganimni bilishmasin deb.

Bo'lmasa, guvohlikka tortishadi!.. Bilmayman deb qutuldim, bildim dedim – tutildim... Kirkaning eriga hech narsa qilmabdi. O'zini osmoqchi bo'lgan ekan, sirtmoqdan chiqarib olishibdi. Meni deb opam va qaynim halok bo'lishdi dermish. O'zini tutib beribdi. Qurib ketsin, u endi turmada emas, jinnixonada yotadi. Oh, Matryona, sho'rlikkina Matryonushka!..

Matryona yo'q. Qadrton kishim o'ldi. Oxirgi kun u bechorani paxtalik deb koyiganim qoldi.

Kitob plakatidan qizil-sariqqa bo'yalgan tamanno oyimcha charqlab kulib turardi.

Masha xola yana birpas o'tirdi, yig'i-sig'i qildi. Ketaman deb o'rnidan turdi. Keyin birdan so'radi:

– Ignatich! Esingdami... Matryonaning kulrang to'ri bor edi... O'lsam, sening Tanechkangga qoladi deguvchi edi, to'g'rimi?

G'ira-shira yorug'da u menga umidvorlik bilan hoynahoy esingdan chiqmagandir, deganday tikilib turardi.

Rost, mening esimda edi:

– Ha, shunday niyat qilgan edi.

– Menga qara, balki xo'p desang, hozir olib keta qolay, a? Ertalab qarindosh-urug'lari yig'ilishadi, keyin olib bo'lmaydi.

So'ng menga yana yolvorganday umid bilan termuldi. Uning ellik yillik yagona dugonasi, qishloqda Matryonani chin yurakdan yaxshi ko'radigan birdan-bir kimsa shu edi...

Chamasi, shunday bo'larkan-da, o'zi.

– Albatta... Oling... – deya oldim.

U sandiqni ochib, to'rni olib qo'ltig'iga tiqdi-da, chiqib ketdi...

Sichqonlar xuddi jin tekkanday quturishdi, ular devor yoqalab to'da-to'da bo'lib chopishar, devorning ko'k qog'ozi ularning yelkalariga tegib to'lqinlanardi.

Boradigan joyim yo'q edi. Hali o'zlari kelishadi meni so'roqqa tutgani. Ertalab maktabga borishim kerak. Tun yarimdan og'gan, soat uch bo'lib qolgan edi. Yolg'iz chora: eshiklarni berkitib, yotib uxlash.

Ha, eshiklarni yopish kerak, chunki Matryona kelmaydi.

Chiroqni yoqilganча qoldirib, uxlagani yotdim. Sichqonlar chiyillashar, go'yo ingrashar va tinmay chopganlari chopgan edi.



Horg'in fikri chuvalgan boshim beixtiyor bir muztar xayoldan sira qutulolmasdi – go'yo Matryona ko'zga ko'rinmayincha uy ichida o'zini uyoqdan-buyoqqa urar va uy bilan vidolashardi.

Shunda birdan kiraverishdagi eshik bo'sag'asida, g'ira-shira dahlizda yosh qora Faddey qo'lida bolta ko'targan holda ko'z o'ngimda gavdalandi:

«Agarda tug'ishgan ukam bo'lmaganda, ikkovingni chopib tashlardim!»

Uning po'pisasi qirq yil burchakda eski chopqiday yotdi va aloha boshga tushdi...

### 3

Tong bilan xotinlar Matryonaning loshini chanada ustiga kir qanor tashlab olib keldilar. Yuvaylik deb, ustini ochdilar. Sho'rlikning gavdasi majaqlanib ketgan – oyoqlari yo'q, bel yo'q, chap qo'l yo'q. Bir xotin cho'qinib oldi-da dedi:

– Xudoyim o'ng qo'lini butun qoldiribdi. Uyoqda egamga sajda qiladi.

Mana endi tuvakgullarning izdihomini,– ularni Matryona shunchalar yaxshi ko'rardiki, bir kuni kechasi uyni tutun bosganda, uyni emas, tuvakgullarini qutqaray deb, ularni yerga ag'natib chiqqan edi (tutunda bo'g'ilib qolmasinlar deb) – uydan olib chiqdilar. Polni tozalab yuvdilar. Matryonaning xira tortgan tosh oynasini eskicha to'r tashlab tikilgan chorsi sochiq bilan o'rab qo'ydilar. Devordan bachkana plakatlarni olib tashladilar. Mening stolimni nariga surdilar. Tobutni deraza yaqiniga, sanamlar tagiga qo'ydilar. Tobut odmiga yasalgan edi.

Tobutda Matryona yotardi. Uning majaqlanib yo'q bo'lib ketgan a'zolari o'rmini toza choyshab bilan yopib qo'ydilar, boshiga oq ro'mol o'rashdi. Uning yuzi bus-butun qolgan, osuda, o'likdan ko'ra tirikka o'xshardi.

Hamqishloqlar vidolashgani kelib-ketib turishardi. Xotinlar marhumani ko'rsatish uchun yosh bolalarni ham olib kelardilar. Agar girya boshlansa, barcha xotinlar, garchi shunchaki xayrlashgani kirgan bo'lsalar-da, eshik va devor yoqalarida turgancha albatta yig'iga

qo'shilib, baravar jo'r bo'lardilar. Erkaklar esa bosh kiyimlarini yechgancha jimgina tik turardilar.

Yig'ini boshlab berish yaqin qarindoshlar zimmasida edi. Yig'ida men azaldan odat tusiga kirgan, sovuqqonlik bilan o'ylab chiqilgan bir tartibga e'tibor berdim. Uzoqroq qarindoshlar tobut tepasiga bir zumga kelib, ohista pichirlab yig'lardilar. Marhumaga o'zini yaqinroq bilganlar bo'sag'adan turib yig'lab kirishar, tobut tepasiga kelgach, marhumaning naq yuziga engashib, uvvos solardilar. Har bir yig'lovchining yig'i ohangi o'zgacha edi. O'zlarining o'y-dardlarini aytib yig'lardilar.

Shunda men marhumaning ustidagi yig'i shunchaki yig'i bo'lmay o'ziga yarasha butun bir siyosat ekanligini angladim. Matryonaning uchala singlisi ham o'kira-o'kira kirib kelishdi, darhol uyni, echkini, pechkani egallab olishdi, sandiqni qulflashdi, paltoning astaridan o'limlik ikki yuz so'mni qoqib tushirishdi, har bir ta'ziya bildirib keluvchi Matryonaning eng yaqin kishilari o'zlari ekanliklarini bildirib turishdi. Ular tobut tepasida shunday deb yig'lashardi:

– Oh, nanna, nanna! Oh, opajon, opajon! Ko'rar ko'zimiz, yolg'iz erkamiz! Tinchgina yursang, bo'lmasmidi! Mehrimizni bermasmidik senga! Uying boshingga yetdi! Joningni olib ketdi! Nega ham buzdning uyingni! Aytgan edik, hech nazar-pisand qilmading!

Singillarning giryasi er tomonning qarindosh-urug'lariga gina, aybnoma bo'lib yog'ilardi: ya'ni Matryonani uyni buzishga majbur qilish kerak emasdi (Gap tagida yana gap bor edi: kichik uyni-ku olishga oldinglar, katta uyni endi sizlarga berib bo'pmiz!)

Erining qarindosh-urug'lari, Matryonaning qaynsingillari, Yefim va Faddeyning singillari va boshqa xotin urug'lar kelib shunday deb yig'lashardi:

– Oh, xolajon, xolajon! Nega ehtiyot bo'lmadingiz, xolajon! Joningiz sabilmidi, xolajon! Jigarlaring xafamikin endi, xolajon! Tug'ishgandan ham aziz eding, ayb o'zingda! Uyda nima ayb! O'limingni voy, poylab borganmidig-ey! Hech kim seni chaqirmovdi-ku! Shunday dog'da qoldirib ketaverasanmi-yey! Aytgan edik, qulog'ingga ilmading!

(Bu girya nadomatlarning baridan bir xulosa chiqardi: uning o'limiga biz aybdor emasmiz, uy xususida esa, hali bafurja orani ochiq qilarmiz!)

Lekin yuzi oymo'maday, o'zi qo'polgina «ikkinchi» Matryona – bir mahallar Faddey yolg'iz ismiga uchib topib kelgan Matryona giryani bu taxlit yashirin adosiga rioya qilmas, tobut ustida jon-jahdi bilan dod-faryod ko'taradi:

– Voy manim opajonim! Senga ozor berib qo'ydimmi! Voh-ay!.. Bezor maslahatgo'yim eding, opajonim, dardlarimga dardkashim eding, opajonim! Mendan o'tgan bo'lsa, kechir, kechir meni, mehribonim, opajonim! Voh-ay!.. Onangni oldiga ketdingmi, opajonim, voy endi meni ham yoningga chorlarsanmi, opajonim! Voh-ay!..

U «voh-aylab» o'z yuragini bo'shatar – dam-badam to'shini tobutga gursillatib urardi. Uning yig'isi haddan ortib ketganda, xotinalar bu yig'i yurakning qa'ridan chiqayotganiga tan berganday, hammalari barobariga derdilar:

– Bo'ldi! Bo'ldi!

Matryona bas qilar, lekin yana aylanib kelar va avvalgidan besh battar faryod ko'taradi. Shunda juda ham qartayib qolgan momo burchakdan chiqib, Matryonaning yelkasiga qo'lini qo'ydi-da, vazmin dedi:

– Dunyoda ikki jumboq qolgan: qanday tug'ilganman – eslamayman, qanday o'laman – bilmayman.

Shu zahoti Matryonaning uni o'chdi, boshqa hamma ham birdan jim bo'ldi.

Lekin bu yerdagi barcha kampirlardan yoshi ulug'roq bu momo Matryonaga hech qanday yaqinligi yo'qligiga qaramasdan, biroz vaqt o'tgach, o'zi ham yig'ladi:

– Oh, sho'rlikkinam-a! Oh, Vasilyevna, jonim-a! Oh, sizlarni kuzataverib to'yib ketdim-a!

Matryonaning Cherustiga kelin bo'lib tushgan baxti qaro asrandi qizi Kira rasm-rusum uchun emas, yurak-bag'ridan chiqarib yig'lar, uning yig'isi bizning kunlarimizda tez-tez takrorlanib turadigan shu zamonning yig'isi edi. Axir shu Kirani deb uyni buzishgan va yo'lga chiqishgan edi-da. Kiraning jingalak qilingan sochlari to'zg'ib yoyilib ketgan. Ko'zlari xuddi qon quyulganday qizil



edi. U izg'irinda boshidan ro'mol to'xtovsiz sirg'alib tushayotganini payqamas, palto kiyaman desa, qo'li sira yengini topolmasdi. U bir uydagi o'gay onasining tobutidan ikkinchi uydagi akasining tobuti ustiga telbasaro bo'lib qatnar,– undan ishqilib aql-hushini yo'qotib qo'ymasin-da deb, xavfsirashar, chunki bularning ustiga hali erini javobgarlikka tortishlari mumkin edi.

Ahvol shunday ediki, uning eri ikki karra aybdor bo'lib chiqmoqda edi: gap uy ko'chirib borayotganida ham emas, u temiryo'l mashinisti edi, maxsus qo'riqlanmaydigan o'tish joylarining qoidalarini yaxshi bilar, binobarin, stansiyaga borib, traktor o'tadi deb ogohlantirishi kerak edi. O'sha kecha O'roldan kelayotgan tezyurar poyezdda chiroqlarning g'ira-shira yorug'ida pastki va ustki so'rilarda tinchgina uxlab yotgan minglarcha odamlarning hayot shamlari so'nishi hech gap emasdi. Bunga bir necha odamning molparastligi, ochko'zligi, bir qarich yerni tezroq egallab olishga urinishi yoki traktorda bir marta qatnayman deb oyoq tirab turib olishi kifoya edi. Faddey boboning qo'llari buzishni boshlab bergan va shundan tavqi la'nat tamg'asi bosilgan uy ham bunga kifoya qilishi mumkin edi.

Har nechuk traktorchi odamlarning qarg'ish-malomatlaridan qutulib ketdi. Yo'l boshqarmasining o'zi ham serqatnov chorraha qarovsizligi, ham qo'sha parovoz chirog'ini yoqmay kelganligi uchun aybdor edi. Shu bois ular avval barini ichkilikbozlik ustiga ag'darmoqchi bo'lishdi, endi esa sudni ham bosti-bosti qilib yuborishmoqchi.

Hali tobutlar uylardan ko'tarilmasdan, temiryo'l ham, izlar ham ishdan chiqqanligi uchun poyezdlarni uch kungacha boshqa tomondan olib o'tishdi. Butun juma, shanba va yakshanba kunlari – tekshirish tugagandan to mavtlar ko'milguncha – chorrahada kunu tun tuzatish ishlari davom etdi. Yo'l tuzatuvchilar sovqotib, kechasi-yu kunduzi ikkinchi chanadan atrofga sochilib yotgan tekin taxta va yog'ochlarni olib gulxan yoqishar, ham isinishar, ham tunda atrofni yoritar edilar.

Birinchi chana esa yo'ldan picha narida qanday bo'lsa, shunday bus-butun turardi.

Birinchi chana tortadigan simi bilan tap-tayyor turgani va ikkinchi chananing yog'ochlarini hali gulxandan saqlab qolish mum-



kin bo'lgani sababli ham qora soqol Faddey yuragi o'rtanib yonardi, shanba bilan yakshanbani u tamomila shunday vasvasa hamda iztirob ichida o'tkazdi. Qizining ahvoli dam xud, dam bexud, kuyovining ishi sudda, uyida nokom o'lgan o'g'lining o'ligi yotar, o'sha ko'chaning o'zida bir paytlar suygani, uni deb o'lgan xotin – Faddey tobut tepasida bir pasgina turgani kelar, soqollarini to'xtovsiz tutamlardi. Uning keng manglayiga og'ir o'ylar soya tashlagandi. Lekin bular – buzilgan uy yog'ochlarini yonib ketishdan va Matryona singillarining makr-u hiylasidan qanday saqlasam ekan, degan o'ylar edi.

Talnovo odamlarini bir-bir xayoldan o'tkazib, Faddey bobo qishloqda yolg'iz emasligini angladim.

Til g'alati qilib bizning mulkimizni xalqning yoki mening, bizning molimiz deb ataydi. Xuddi ana shuni boy berish odamlar nazarida juda sharmisorlik va ahmoqlik bo'lib tuyuladi.

Faddey qo'nim bilmay dam yangi qishloq, dam stansiyaga qatnar, u boshliqdan bu boshliqqa kirar, qotib qolgan yelkasini tik tutib, hassasiga tayangancha qariligimni inobatga olinglar, deb yolvorar, buzilgan uyning yog'ochlarini qaytarib berishlarini so'rardi.

Nihoyat allakim ruxsat berdi. Shunda Faddey bobo omon qolgan o'g'lonlari, kuyov va qarindoshlarini to'pladi, kolxozdan ot so'rab oldi va temiryo'lning narigi yog'idan uch qishloqni aylantirib, qolgan-qutgan yog'ochlarni o'z hovlisiga tashib oldi. Bu yumushni u shanbadan yakshanbaga o'tar kechasi oxiriga yetkazdi.

Yakshanba kuni marhumlarni chiqardilar. Ikki tobut qishloq o'rtasida duch keldi, qarindoshlar qaysi tobut oldinda boradi, deb tortishdilar. Keyin ikkala tobutni katta keng chanaga yonma-yon qo'yishib fevralning yana yumshayib qolgan qori ustidan bizdan ikki qishloq naridagi cherkov mozoriga eltdilar. Havoning qovog'i soliq, tumtaygan edi. Nohamvor shamol esib turardi. Pop bilan dyakon cherkov ichida kutishmoqda edi, ular Talnovoni qarshilab tashqariga chiqmadilar.

Qishloq chetigacha odamlar jo'r bo'lib o'qib bordilar. Ohista-ohista to'xtab, keyin orqada qoldilar.

Yakshanba oldidan uyimizda xotinalarning keldi-ketdi, lozimomadalari avjga mindi: momo tobut oldida o'tirib Zabur o'qidi, Matryona

naning singillari pechka oldida ob-ovqatga qarashdi, torf bo'laklari lang'illab yonar, pechning komidan alangayi otash purkardi. Matryona uzoq botqoqliklardan bejiz ularni qoplab tashib keltirmagan ekan. Jo'nroq undan mundayroq taomlar pishirishardi.

Yakshanba kuni marhumani yerga qo'yib kelgach, kechga yaqin uyga eslagani odamlar to'planishdi. Uzunasiga stol yasashdi, ertalab tobut turgan yerga ham stol qo'yildi. Avval hammalari stol atrofi-da tikka turdilar, qaynsinglisining eri «Otche nash»ni o'qidi. So'ng hammaga taboqchani tagiga suv qo'shib qaynatilgan asal solib berdilar. Uni hammamiz marhumani xotirlashib quruq o'zini qoshiq bilan yalab oldik. So'ng nimadir chaynaldi, aroq ichildi, gap-so'zlar ham shundan so'ng picha jonlanib qoldi. Kisel ichishdan oldin hamma o'rnidan turib «Vechnaya pamyat»ni o'qidi (menga kisel ichishdan oldin albatta shuni aytiladi, deb tushuntirishdi). Tag'in ichishdi. Ovozlar balandladi, lekin gap Matryona haqida emasdi. Qaynsingilning eri maqtanishga tushdi:

– Imonboylar, hov bugun sezdinglarmi, aytimni bafurja o'qishdi? Padar Mixail menga ko'zi tushgandan keyin shunday qildi. Rasm-rusumlardan yaxshi xabardor ekanligimni u biladi-da. Bo'lmasa, illo-billo deb tugatib qo'ya qolardi.

Nihoyat, ziyofat tugadi. Yana barchalari o'rinlaridan turdilar. «Munosibdur...»ni o'qidilar. Yana uch karra takrorladilar: «Nomi o'chmagay! Nomi o'chmagay! Nomi o'chmagay!» Lekin ovozlar xirillagan, tumtaroq, basharalarda mastlik nishonalari sirg'alar, illo, endi hech kim «Nomi o'chmagay!»ni chin dildan chiqarib aytmasdi.

Keyin asosiy mehmonlar tarqashdi. Eng yaqin kishilargina qolishdi, papiros chiqarib chekishdi, hazil-huzul, kulgilar eshitildi. Gap Matryonaning daraksiz ketgan eriga borib taqaldi. Qaynsingilning eri ko'kragiga mushtlaganicha menga va Matryonaning singillaridan birining etikdo'z eriga tushuntira boshladi:

– Yefim o'lgan, o'lgan! Nega endi qaytib kelmas ekan? E, meni vatanimda osaman desalar ham, bari bir qaytib kelardim!

Etikdo'z ma'qullab boshini liqillatib o'tirardi. U qochoqlardan bo'lib, hech qachon vatanidan nariga chiqmagan: urushning boshidan oxirigacha onasining etagi tagida o'tirgan.

Baland pechkaning ustida yoshi hammadan ulug‘, bugun shu yerda yotib qolgan momo churq etmay vazmin o‘tirardi. U yuqoridan turib ellik-oltmishga borib qolgan yoshlarning maza-matrasiz gap-so‘zlariga ensasi qotib qarardi.

Faqat shu uyda voyaga yetgan asrandi qizgina to‘siqning orqasiga o‘tib o‘sha yerda yum-yum yig‘ladi.

Faddey Matryonani eslash marosimiga kelmadi – ehtimol, o‘zi ham o‘g‘liga ta‘ziyador bo‘lgani uchun kelolmagandir. Lekin keyingi ikki kun ichida u ikki marta bu yerga qovog‘idan qor yog‘gan holda kelib, Matryonaning singillari va etikdo‘z bilan gaplashib ketdi.

Uy ustida janjal chiqdi. U kimga qoladi – singilgami, asrandi qizga? Gap sudga yozishga borib taqaldi, biroq, sud uyni unga ham emas, bunga ham emas, qishloq Sovetiga berib yuboradi deb hadiksiradilar-da, o‘zaro bitishib qo‘ya qoldilar. Kelishuvga ko‘ra, echki – singillardan biriga tegdi, uyni etikdo‘z bilan xotini oladigan bo‘ldi. «Men bu uyning har yog‘ochini o‘z qo‘limdan o‘tkazganman», deb da‘vo qilgan Faddeyga kichik uyning yog‘ochlari tegdi, echki saqlangan og‘il bilan hovli va tomorqa o‘rtasidagi devorni ham unga ajratishdi.

Yana ajz va og‘riqlarini yengib to‘ymas bobo yasharib, dikirlab qoldi. Yana qolgan-qutgan o‘g‘lonlari va kuyovlarini jamladi, ular og‘il bilan devorni buzib taxladilar, chol chorxarilarni o‘zi chanada hovlisiga tashidi, oxiri Antoshka ikkovlari chana tortdilar, 8-«G»da o‘qiydigan Antoshka bu safar yalqovlik qilib o‘tirmadi.

Matryonaning uyi ko‘klamga dovur mixlandi. Men shu yaqin o‘rtada turadigan qaynsingilnikiga ko‘chib o‘tdim. Qaynsingil turli sabablar bilan Matryonani ko‘p eslardi, shu sababli men Matryonani butunlay boshqa tomondan bildim.

– Yefim uni yaxshi ko‘rmasdi. Yaxshi kiyinib yurishni xohlayman, derdi. Xotini pala-partish, hammasini qishloqchasiga qilib ketaverardi. Bir marta Yefim bilan birga shaharga tushgan edik, pul ishlab kelgani; shu-shu o‘ziga shaharlik bir oyimchani topib oldi, Matryonani butunlay unutib yubordi.

U Matryonaning hech bir ishini ma‘qullamasdi: isqirt edi; molhol yig‘ay demasdi; xo‘jalikni qattiq ushlamasdi; hatto cho‘chqa ham boqmasdi, negadir cho‘chqani jini suymasdi; g‘irt tentak, be-

gona odamlarga tekandan tekin ko‘maklashardi (hozir Matryonani xo‘p eslaydigan, Matryona asqotadigan payt kelgan – tomorqani haydash uchun qo‘shilishib qo‘sh tortadigan kimsa qolmagan edi). Qaynsingil Matryonani samimiy va soddadil edi deb tan olar, lekin bular haqida nafratlanib va achinib gapirardi.

Qaynsingilning mana shu yomonlashlaridan ko‘z o‘ngimda Matryonaning butunlay boshqacha bir siymosi birdan namoyon bo‘ldi. U bilan shuncha yonma-yon yashab men buni anglama-gan ekanman.

Rost-da! – cho‘chqa qaysi hovlida yo‘q! Matryonaning cho‘chqasi yo‘q edi. Ochofat, dunyoda yeb-ichishdan boshqani tan olmaydigan cho‘chqa bolasini boqishdan oson ish yo‘q! Kuniga uch marta atala pishirib yedir, uni deb yasha, semirtir – keyin so‘y, ana senga go‘sht-u moy!

Matryona esa boqmasdi...

Mol-mulk yig‘masdi... Narsalar olay deb, o‘lib-tirilmasdi, ular-ni ko‘z qorachig‘iday asrashga vaqtini ketkizmasdi. Liboslar-u be-zaklar ortidan quvmasdi. Libos yovuzlar va badburushlarga poson bo‘lib yurish uchun kerak.

Eri tushunmagan va tashlab ketgan, olti sabiyni yerga qo‘ygan, lekin odamshavandalikni aslo qo‘ldan bermagan, singillar-u qayn-singillarga begona, boshqalarga xolis yordamlashadigan va shuning evaziga tentak nomini orttirgan Matryona o‘limligim deb hech narsa yig‘madi. Oqpar echki, cho‘loq mushuk, tuvakgullar...

Biz hammamiz u bilan yonma-yon yashadik, lekin u o‘sha ma-qolda aytilgan faqir ekanligini tushunmadik, faqirsiz esa qishloq tur-mas.

Shahar turmas.

Jamiki yer yuzi turmas.





## YULDUZ SHU'LASI HAMMAGA KERAK

«Noviy mir» jurnalining 1962-yil noyabr sonida shu kungacha nomi adabiyot olamiga hali unchalar tanish bo'lmagan Aleksandr Soljenitsinning «Ivan Denisovichning bir kuni» degan qissasi chiqdi. Mubolag'asiz aytish mumkinki, bu asar ijtimoiy hayotda ham, adabiy hayotda ham, yangi davr desakmikin, boshlanganidan darak berdi. Qissa atrofida juda katta va qizg'in bahslar boshlanib ketdi. Ular bizda ham, chet ellarda ham uzoq davom etdi. O'sha paytdagi suhbatlardan birida navqiron g'ayrat bilan qator-qator lirik qissalar yozayotgan Odil Yoqubov: bu asarning chiqishi inqilob bilan barobar bo'ldi, degan edi. Shundan so'ng Aleksandr Soljenitsinning birin-birin ko'pgina hikoyalari, qissalari dunyoga keldi.

Soljenitsin o'z ijodini va umrini stalincha totalitar sotsializmining g'ayriinsoniy mohiyati va g'ayriaxloqiy qiyofasini ochishga bag'ishladi.

Aleksandr Soljenitsin urush tugar-tugamayoq, hali harbiy qismlarda halol xizmatini ado qilib yurgandayoq, siyosiy shubhaga olinib qamalgan va shundan e'tiboran to 1953-yilning martigacha lagerlarda azob chekkan edi. 1953-yildan 1956-yilgacha u surgunda yashadi. Ko'proq Qozog'istonning Jambul viloyati Ko'kterak rayonida turdi. Shu yillarda u o'zini o'zi yozuvchi va jamoatchi, siyosiy kurashchi sifatida kashf qildi. Tinmay ishladi. Tinmay o'qidi. Dostoyevskiy, Tolstoy, Pushkin, Dal – u har kuni sevib o'qiydigan adiblar edi. Mana shu yerda va mana shu yillarda «O'n to'rtinchi yil avgust», «Saraton kasalliklari bo'limi», «GULAG arxipelagi», «Qizil g'ildirak» singari ulkan asarlarga asos solindi.

Aleksandr Isayevich O'zbekistonga ham begona emas. U Toshkentga uch marta kelgan. 1950-yil boshlarida u Jambulda kasalga chalilib qoldi. Vrachlar qorin bo'shlig'ida shish borligini aytishdi. Toshkentga borib davolanishni tavsiya etishdi. Soljenitsin ellik uchinchi yilning oxirlarida Toshkentga keldi va Toshkent meditsina institutining o'n uchinchi korpusida bir necha oy davolandi. Rentgen nurlari bilan uning qornidagi shishni yo'qotishga muvaffaq bo'ldilar. O'limni bir karra bo'yniga olib qo'ygan Aleksandr Isayevich bundan g'oyatda xursand bo'lib ketdi. U ko'p o'tmay, 1954-yilning yozida (21-iyunda) vrachlarga yana ko'rsatish uchun tag'in Toshkentga keldi. Yaxshi muolaja tufayli (Aleksandr Isayevich tabiblar tavsiyasi bilan issiqko'l ildizini ham ancha vaqt qaynatib ichgan edi) u butunlay sog'ayib ketdi. Unda ulkan umid bosh ko'tardi.

Aleksandr Soljenitsin uchinchi marta Toshkentga 1964-yilning bahor oyida, martning ikkinchi yarmida keldi. U «Toshkent» mehmonxonasida turdi. Toshkent bahori unga xush mujdalar keltirdi. U Toshkentni ko'p aylandi. O'zi davolangan ToshMida bo'ldi, odamlar bilan uchrashdi. Bu payt uning xayolida «Saraton kasalliklari bo'limi» asarini yozish rejasi yetilgan edi.

Oltmishinchi yillarning oxirlarida Xrushchyov zamonasining iliqliklari butunlay barham topib, turg'unlikning sovuq shamollari esib, jamiyat hayotini ichdan qurita boshlaganda, hur fikr har tomondan quvg'inga olindi. Ayniqsa, chet ellarda «Arxipelag»ning bosilib chiqishi va Soljenitsinga Nobel mukofoti berilishi (1970-yil) stalinchilarning qahr-g'azabini qo'zg'atdi. Soljenitsin og'ir tazyiq va quvg'inga uchradi, SSSRdan chiqib ketishga majbur bo'ldi.

Aleksandr Soljenitsin Amerikaning Bermont shtatida xotini va uch o'g'il farzandi bilan istiqomat qildi. AQSHda adibning o'n sakkiz jildlik asarlari majmuasi e'lon qilindi.

1988-yil dekabr oyida Aleksandr Soljenitsin yetmishga to'ldi. Shu munosabat bilan Ittifoq adabiy jamoatchiligi ulkan yozuvchining asarlarini chiqarish uchun juda katta jiddiy harakat boshladi. Uzoq yillik sovuqchilikdan so'ng markaziy matbuot sahifalarida Soljenitsin to'g'risida bir qancha maqolalar, suhbatlar chiqdi.

«Noviy mir» jurnali yozuvchining «Arxipelag» asarini bosdi. «Sovetskiy pisatel» nashriyoti Soljenitsinning sakkiz jildlik majmuasini nashr etish ishlarini boshlab yubordi. Moskva va Leningrad qalin jurnallari 1990-yilda uning «Saraton kasalliklari bo‘limi», «Ilk davrada», «Qizil g‘ildirak», «Bolutga kalla urgan buzoqcha» singari asarlarini chop etish haqida xabarlar chiqardi. O‘sha kezlar adib o‘n jilddan iborat «Qizil g‘ildirak» romanining oxirgi jildi ustida ishlayotgan edi.

«Faqirsiz qishloq turmas» ilk marta 1963-yil yanvarda «Noviy mir» jurnalida chiqqan edi. Unda adib oddiy dehqon ayol – oddiy insonning go‘zal va oliyjanob siymosini yaratishga bel bog‘lagan. Adib go‘zallikni – soddalik, samimiylik, insoniylikda ko‘radi va xuddi Pushkin, Tolstoy, Dostoyevskiy kabi shu xislatlar haqida doston yaratadi.

Soljenitsinning tili nihoyatda tiniq va g‘oyatda boydir. U g‘oyatda aniq fikrlaydi va hech qachon olib qochmaydi, so‘zni bekorga isrof qilmaydi.

Va nihoyat, bu hikoyani adibning o‘zi «Ne stoit selo bez pravdnika» deb nomlagan. Lekin Aleksandr Tvardovskiy bu hikoyani «Noviy mir» jurnalida bosayotganda uning nomini nima uchundir «Matryonin dvor» deb o‘zgartirgan, voqea bo‘lib o‘tgan yilni ham 1956-yildan 1953-yilga ko‘chirgan (hikoyadagi voqealar Xrushchuyov zamonidan oldin o‘tgan degan ma’noda). Biz hikoyaning butun mazmuni, mohiyati adib qo‘ygan nomga chambarchas bog‘liq ekanini nazarda tutib, o‘sha maqol, o‘sha nomning o‘zbekcha ifodasini topishga urindik. Faqir – bu yerda o‘ta kamtar, qashshoq, oddiy, samimiy, kishilarga bag‘ri va mehri ochiq odam ma’nosida keladi. Vijdonga xilof ish qilmagan kishining yuzi doim go‘zal va tozadir, deydi adib. Faqir – ta’bir joiz bo‘lsa, ana shunday hech qachon vijdoniga teskari ish qilmaydigan odam.

Nihoyat, oxirgi so‘z: «Ivan Denisovichning bir kuni»ni, axiyri, Tvardovskiy o‘z jurnalida bosadigan bo‘lganda, Soljenitsin bundan boshi osmonga yetib: «Ana endi mening yulduzim balqdi!» degan ekan.

Bu yulduz bizdan qanchalar uzoq bo'lmasin, uning nuri yer yuziga, yer yuzida yashaydigan barcha odamlarga kerak. Shu yulduz bo'lmasa, zulmat quyuqroq, shu yulduz balqib tursa, olam munavvarroq bo'lajak.

**Ibrohim G'AFUROV,**

*O'zbekiston Qahramoni,*

*O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi*



—D  
—E  
—F





O'sha qishda Toshkentga chalajon holda keldim. Aslida, bu yer-  
ga jon taslim qilish uchun kelgandim.

Lekin yana ozroq yashashim uchun meni hayotga qaytarishdi.

Oradan bir oy o'tdi, yana bir oy va yana-tag'in bir oy. Xavo-  
tirsiz Toshkent bahori deraza ortida o'tib ketib, yoz keldi, oyoqqa  
turib, shalviragancha sayr qilishga chiqqanimda, hamma yoq quyuq  
yashillikka burkangan, lovullama issiq edi.

Sog'ayayotganimga iqror bo'lishga yuragim dov bermay, uchqur  
xayollarimda qolgan umrimni yillar bilan emas, oylar bilan o'lchab,  
tibbiyot instituti binolari orasida yastangan bog'ning shag'al va as-  
falt yo'laklarida salmoqlanib qadam tashlab bordim. Tez-tez o'tirib  
tin olishimga, ba'zan esa rentgendan keyingi ko'ngil aynishi sabab,  
boshimni quyi solib yonboshlashimga to'g'ri kelardi.

Bir vaqtning o'zida atrofimdagilarga ham o'xshardim, ham ular-  
dan farq qilardim: ko'p borada ulardan ko'ra haq-huquqsiz, mum-  
tishlab yurishga majbur edim. Ulardan hol-ahvol so'rab kelishar,  
qon-qarindoshlari ko'z yoshi qilishardi, ularning yagona tashvishi,  
maqsadi – sog'ayib ketish edi.

Kaminaning sog'ayishi esa foydasiz: o'sha bahorda o'ttiz besh-  
ni urib qo'ygan mendayin haqir bir bandaning jami yer yuzida bi-  
rortayam tug'ishgan jigari topilmasdi. Yana-tag'in pasportim yo'q  
edi, basharti, sog'ayib ketganimda ham, bu yashilliklarni, bu ser-  
hosil o'lkani tashlab, hayot shami yonib bitayotgan men faqirga  
uzoq vaqt davolanishga ruxsat tegmagan, har ikki haftada yo'qlama  
o'tkaziladigan alayno-oshkor nazorat ostiga, o'zim umrbodga  
badarg'a qilingan sahroga qaytishim darkor edi.

Bularning barchasi haqida atrofimdagi emin-erkin bemorlarga  
yurak yutib og'iz ocholmasdim.

Gapirganimdayam tushunishmasdi...

Ammo-lekin o'n yillik sustkash o'y-mulohazalarni ortda qoldi-  
rib, shu haqiqatga amin bo'ldimki, hayotga bo'lgan ishtiyoqqa bo-

riga shukur qilib erishilarkan. Xuddi mana shu jonsiz oyoqlarning ship-ship sudralishi bilan. Ko'krakda sanchiq turmasligi uchun ehtiyotkor nafas olish bilan. Sho'rvadan arang qoshiqqa ilingan birgina sovuq urmagan kartoshka bilan.

Alqissa, o'sha bahor hayotimning eng azobli va ayni damda eng latofatli fasli bo'ldi.

Barchasi men uchun unut yoki misli ko'rilmagan, ajabtovur edi: hatto muzqaymoq aravachasi ham; hatto brandspoytli<sup>1</sup> farrosh ham; hatto bog'lam-bog'lam uzunchoq rediska sotuvchi ayol ham; ayniqsa, maysazorga devor raxidan oshib o'tgan toychoq ham.

Kundan-kunga klinikadan, ehtimolki, o'tgan asrning so'ngida bu naqshinkor mustahkam g'ishtin binolar tiklanayotganda barpo qilingan bog' bo'ylab, uzoqroqqa ketishga o'zimda jur'at topoldim. Ulug'vor quyosh ko'tarilishi bilan uzzukun va sarg'imtil elektr nurlariga cho'mgan oqshom mahali bog' gavjum bo'lardi. To'rt murchasi sog'lar u yoqdan bu yoqqa zir yugurar, bemorlar esa asta-sekin yurib turishardi.

Bir necha xiyobonlar birlashib, asosiy darvozaga yo'nalgan yerda mo'ylovlarida iljayish qotib qolgan kattakon alebastr Stalin oqarib turardi. Nariroqda, darvozaga olib boruvchi yo'l bo'ylab bir te-kisda boshqa, pakanaroq rahnamolar terib qo'yilgan.

Undan keyin qog'oz-pog'oz sotiladigan do'kon. Do'konda plastmassa qalamchalar va mo'jazzgina yozuv daftarlari sotiladi. Lekin aqchalarimning tagi ko'rinib qolgandi – yozuv daftarlari bir vaqtlar bisyor edi, keyin esa begona qo'llarga tushib qoldi, shundan so'ng yozuv daftari tutmaslikka qaror qildim.

Darvoza tagida meva-cheva rastasi va choyxona joylashgan. Bizni, yo'l-yo'l pijamadagi bemorlarni choyxonaga qo'yishmasdi, ammo devor yo'q, mo'ralasa bo'ladi. Bunday gavjum choyxonani, har bir mijoz ta'biga qarab ko'k yoki qora choy solingan choynaklarni umrim bino bo'lib ko'rmaganman. Choyxona stollar qo'yilgan ovro'pacha hamda o'zbeklarga atalgan supali qismdan iborat. Stol atrofida o'tirganlar shosha-pisha yeb-ichib, eski-tuski piyolaga choychaqa tashlab ketishar, jazirama kunlari ustiga qamish soyabon

<sup>1</sup> Brandspoyt – yong'inga qarshi ishlatiladigan suv nasosi; shlangga o'rnatiladigan uchlik.

tortilgan supaga to'shalgan bo'yradagilar esa soatlab, ba'zilari kun bo'yi yonboshlab o'tirishar, xo'rillatib choy ichishar, oshiq-moshiq o'ynashar, go'yo qiladigan ishlari yo'q edi. Meva-cheva rastasida kasallar uchun ham savdo qilindi – biroq narx-navoni ko'rib kapalagim uchardi. Og'zimning suvi qochib o'rik, mayiz, yangitda terilgan gilolar uyumiga suqlanib-suqlanib qolaverardim.

U yog'i baland devor, kasallarni darvozadan tashqariga chiqarishmaydi. Kunda ikki yoki uch marta shu devor tagidan orkestr sadolari ostida motam marshi o'tadi (negaki shaharda millionlab aholi bor, qabriston esa shu yaqin atrofda). Marshchilar o'tib ketguncha, taxminan, o'n daqiqacha gumbur-gumbur yangrab turadi. Nog'oralari yurakni ziq qiladigan ritmga hamohang gumbur-gumbur qiladi. Sog' kishilar jinday o'girilib, tag'in o'z xayollari bilan shoshib ketaverishadi. Kasallar esa marshni eshitib, taqqa to'xtashar, bino derazalaridan boshlarini chiqarishib, uzoq quloq solishar edi.

Kasallik iskanjasidan qanchalik ro'y-rost ozod bo'lib, tirik qolishim qanchalik haqiqatga aylangani sari tevarak-javonibga shunchalik ma'yus boqardim: bu yerlarni tark etish xayoli yurak-bag'rimni ezardi.

Shifokorlar stadionida oppoq jussalar oq tennis to'pchalarini birbirlariga irg'itishmoqda. Butun umr tennis o'ynashni xohlab keldim, afsus, bu ham armonligicha qolmoqda. Tik tushgan qirg'oq uzra sariq-loyqa Solar ayqirib oqmoqda. Bog'da zaranglar soya solib turibdi, emanlar tarvaqaylab ketgan, nafis yapon akaslari ko'rk ochgan. Sakkiz burchakli favvoradan ingichka-ingichka shaffof kumush suvlar tepa-tepaga otilmoqda. Maysazorni aytmaysizmi! Barra-barra! Ko'rmaganimgayam ming yillar bo'ldi-yov (men surgun qilingan yerlarda hech qanaqangi o't-alaf o'smasdi, lagerlarda o't-olan, may-salarni dushmandek yulib tashlashni buyurishardi). Yuztuban tushib yotsang, oftobda qizigan hidlaridan to'yib-to'yib iskasang – bundan ortiq huzur-halovat bormi?!

Maysa uzra bir o'zim yotmasdim. Unda-bunda tibbiyot instituti talaba qizlari o'zlari kabi lo'ppi-lo'ppi darsliklarini, tushunsa-tushunmasa, o'qib o'tirishardi. Yoki entikib-entikib valaqlashganча imtihondan, yoki bo'lmasam, qayishqoq sport jomadonchalarini silkitishib stadion hammomidan chiqishardi. Oqshomlari ko'rgan



ko'zni kuydiradigan jozibador ko'ylaklarda dilbar qizlar favvorani aylanib o'tib, xiyobondagi shag'allarni g'archillatib yurishadi.

O'tirib-o'tirib kimlargadir achinib ketaman: Demyanskda muzlab qolgan, Osvensimda kuydirilgan, Jezkazganda zaharlanib o'lgan, taygada o'lib o'lolmayotgan tengqurlarimga emas, bu oyimqizlarga qo'limiz yetmasligidan. Yoki shu qizlarning o'ziga – axir, ularga botinib ko'rgan-kechirganlarimni aytolmayman, ular ham butun umr bexabar o'tib ketishadi.

Uzzukun shag'al va asfalt yo'laklardan lozar ayollar oqib ke-laveradi – yosh-yosh do'xtir juvonlar, hamshiralalar, xo'jalik bekala-ri, laborant, ro'yxatchi, ko'rpa-yostiq tarqatuvchi qizlar, bemorlarni ko'rgani kelgan xotin-qizlar! Ular yonginamdan qordek oppoq odmi xalatlarda, janubning ko'zni olar yaltir-yultir ko'ylaklarida, sal boy-vuchchalari bambuk tayoqchalariga qotirilgan so'nggi rusumdagi moviy, pushti xitoy soyabonlarini aylantirib-aylantirib o'tishadi. Har biri haqida butun boshli doston yozsang bo'ladi: mengacha bo'lgan hayotlari, ular bilan amalga oshishi mumkin bo'lgan (bo'lmagan) ta-nishuvim...

Men g'arib-u notavon edim. Ozib-to'zib ketgan turqimdan – la-gerda ezilaverib-ezilaverib paydo bo'lgan ajinlar, kulrang tusga kir-gan dag'al terim, ustiga ustak, kasallik va dorilar dastidan yashiltob tortgan yanoqlarimdan boshimga tushgan ko'rgiliklar manaman deb turardi. Mutelarcha boshimni yelkalarim orasiga tortaverganimdan bukri toychoqdan farqim qolmagan. Yo'l-yo'l masxaromuz kam-zulim qornimni arang yopar, yo'l-yo'l shimim to'pig'im tepasida-yoq oxirlar, lagerdan qolgan to'mtoq tumshuqli kirza botinkamdan o'ralaverib qorayib ketgan paytavam chiqib turar edi.

Bu ayollarning eng so'nggisi ham men bilan sayr qilishga or qil-gan bo'lardi!.. Lekin o'zimni tashqaridan ko'rolmayman. Vaholanki, mening nigohlarim ularnikidan qolishmaydi – tiyrak.

Ittifoqo, bir kuni shom mahali asosiy darvoza tagida o'tgan-ke-tganni kuzatib turardim. Yonginamdan gurras-gurras odamlar: qo'ziqorin soyabonlar, shoyi ko'ylaklar, qayishlari yiltirab jujuncha shimlar, yaktaklar va do'ppilar lip-lip o'tardi. Gangir-gungir avjiga mingan, meva-cheva sotilar, choyxonada choyxo'rlik davom etar, oshiq-moshiq sharaq-shuruq qilar edi. Sal nariroqda devorga suyan-

gancha beso'naqay, jikkak, tilanchisifat bir odam turar, ahyon-ahyonda:

– O'rtoqlar... O'rtoqlar... – deb elanib qo'yardi.

Olomon uni eshitmasdi. Men yaqinlashdim:

– Nima deysan, ukaxon?

Bu odamning qorni hatto og'iroyoq xotinnikidan ham katta edi – kir-chir pistoqi gimnastyorkasi va shimini yorvoray derdi. Ma-yishgan etiklari qo'poldan qo'pol, chang-chung. Jaziramaga nomuvo-fiq ravishda kiyib olgan yag'ir yoqali, yeyilib ketgan yeng qaytarmali paltosi egnidan oqib ketay deydi. Boshiga almisoqdan qolgan, titig'i chiqib ketgan, poliz qo'riqchisinikidek kepka qo'ndirib olgan.

Salqigan ko'zlari mungli.

Mushtum qilib olgan bir panjasini zo'rg'a ko'tardi, undan namiqqan g'ijim qog'ozni sug'urib oldim. Bu grajdanin Bobrov tomonidan uni kasalxonaga joylashtirishni iltimos qilib, qog'ozni tirnaydigan pero bilan badxat yozilgan ariza ekan – zimdan ikkita: ko'k va qizil siyoh bilan viza qo'yilgan. Ko'k siyoh gorzdravniki<sup>1</sup> bo'lib, asosli rad javobini anglatardi. Qizil siyoh bemorni tibbiyot instituti klinikasining statsionariga qabul qilishni buyurgandi. Ko'k siyoh kechagi, qizili esa bugungi.

– Xo'sh-xo'sh, – qattiq-qattiq uqtirishga tushdim go'yo u qulog'i og'irday. – Qabulxonaga borishingiz kerak, birinchi binoga. Xo'sh, demak, to'g'riga, anov... haykallar yonidan borasiz...

Shunda ayni manzilga kelganda kuch-madori qurib bitganini, na-faqat so'rab-surishtirishga va tep-tekis asfaltda sudralishga, balki bir yarim kilolik uniqqan xaltasini shunchaki qo'lida ushlab turishga-da majoli qolmaganini payqab qoldim.

– Hay, mayli, otaxon, yuring, o'zim kuzatib qo'yaman. Xaltani bering-chi.

Qulog'i tom bitmagan. Og'ir xo'rsinib xaltasini uzatdi, qo'limni tutgandim, bor jasadini tashlab oldi, qariyb oyog'ini ko'tarmay asfalt bo'ylab sudralishga tushdi. Men uning changdan sarg'ayib ketgan paltosi aralash tirsagidan ushlab oldim. Shishib ketgan qorni o'zidan burun ilgari lardi cholning. Og'ir-og'ir nafas olib qo'yadi.

<sup>1</sup> Gorzdrav (*Gorodskoye zdravooxraneniye*) – shahar sog'liqni saqlash bosh-qarmasi.

Ikki juldurvoqi kamina xomxayollarida Toshkentning zebolarini qo'ltiqlab yurgan xiyobondan yurdik. Toshbaqaday imillab, ma'nosiz boqib turgan alebastr byustlar yonidan sudralib bordik.

Nihoyat, burildik. Yo'limizda o'rindiqli uchradi. Hamrohim, o'tiraylik, dedi. O'zimning ham qayt qilgim kela boshladi – ortiqcha tik turdim. O'tirdik. Huv, ana, favvora ko'rinib turibdi.

Yo'l-yo'lakay chol bir-ikki bor og'iz ochgandi, endi tin olib, tag'in tilga kirdi. O'rolga borishi kerak ekan, pasporti bo'yicha yashash joyi ham O'rol deb ko'rsatilgan, hamma falokat shunda. Kasallik esa taxminan Taxiatoshda tutib qolibdi (xotiram pand bermasa, allaqanday ulkan kanal qurisha boshlagandi, keyin tashlab qo'yishdi). Urganchda uni bir oy kasalxonada ushlab turishibdi, qorni va oyog'idan suv olishibdi, befoyda – battar qilishgani qolibdi, xolos, so'ng pattasini qo'liga berishibdi. Chorjo'y va Ursatyevskiyda poyezddan tushib qolibdi – lekin hech yerda davolashga qabul qilishmabdi, yashash joyi bo'yicha O'rolga jo'natishibdi. Poyezdda ketishga quvvati yetmas, boz ustiga, chiptaga ham aqcha topilmasdi. Mana endi Toshkentda ikki kun ichida kasalxonaga yotqizishlariga muvaffaq bo'libdi.

Janub tomonlarda nima qilib yuribdi, bu yoqlarga qanday kelib qoldi – so'rab o'tirmadim. Tibbiy qog'ozlarga ko'ra, xastaligi qaytalanuvchi, lekin aft-angoriga razm solsang, allaqachon kuni bitgan. Ancha-muncha kasallarni ko'raverib, unda ham hayotiy kuch-quvvat qolmaganini sezdim. Lablari quruqshagan, gaplari almoiy-jalmoyi, ko'zlari nursiz.

Hatto kepkasi ham og'irlik qilyapti. Bir amallab qo'lini ko'tarib, bosh kiyimini tizzasiga olib qo'ydi. Tag'in o'sha azob bilan qo'lini ko'tarib, kir-chir yengi bilan manglayidagi terni artadi. Sochi to'kilib, tepakalga aylanibdi, chakkalaridagi malla sochlari taralmagan, chang qo'ngan. Uni keksalik emas, kasallik oborib-opkelardi.

Bo'yin terisi xuddi jo'janikidek yupqalashib, laxtak-laxtak osilib ketgan, yutinganda kekirdak olmasi burnining tagida borib-kelardi.

Boshini tutib turishga holi yo'q. O'tirganimiz zamon boshi shilq etib ko'ksiga tushdi.

Shu holatda ko'zini yumib, tosh qotdi. Aftidan, birrovga o'tirganimizni va qabulxonaga borishi kerakligini unutmadi.

Hov, anov yoqda, to'g'rimizda favvoraning kumush suvlari osmoni-falakka ko'tarilmoqda. O'sha yoqqa ikki qiz o'tib ketdi. yelka-yu bellarida nigohlarim sirpandi. Biri to'q sariq, narigisi to'q qizil yubkada. Ikkalasiyam ko'nnglimga o'tirdi.

Hamrohim chuqur xo'rsinib, ko'ksida boshini likillatdi, sarg'ishkulrang kipriklarini andak ko'tarib, ko'z qiri bilan menga qaradi:

– Chekishdan topilmaydimi sizda, o'rtoq?

– Buni miyangizdan chiqarib tashlang, otaxon! – deb baqirib berdim. – Shundog'am bir oyog'imiz go'rda. Oynaga bir qarang. Chekarmish!

(O'zim chekishni bir oy avval tashlagandim, zo'rg'a qutuldim). U pishillashga tushdi. So'ngra yana kipriklari tagidan ko'ppakchasiga mo'ltilladi:

– Baribir ham uch so'm uzating, o'rtoq!

Bersammikin-bermasammikin, deb taraddudlanib qoldim. Har holda men hamon zek<sup>1</sup>, u esa ozod odam edi. U yoqda qancha ishlamay, bir miri ham to'lashmasdi. To'lay boshlashgach esa hali soqchilar-u rahbariyat, hali zonani yoritish-u iskovuch itlarga, hali shildir yovg'onga deb ushlab qolishaverardi.

Mazxarabozcha kamzulimning kichkina ko'krak cho'ntagidan kleyonka karmonimni olib, aqchani salmoqlab ko'rdim. Bir xo'rsinib, cholga uch so'mlik uzatdim.

– Rahmat, – deb xirilladi.

Qo'lini sal ko'tarib, uch so'mlikni oldi, cho'ntagiga joyladi va o'sha zahoti bo'shagan qo'l halpillab tizzaga tushdi. Boshi yanatag'in ko'ksida.

Og'zimizga talqon soldik.

Bu vaqtda oldimizdan bir xotin, keyin ikki talaba qiz o'tdi. Uchalasiyam menga yoqdi.

Shunday bo'lardiki, yillar davomida ofatijonlarning na dilni o'rtar ovozi, na poshnasining to'q-to'qini eshitasan.

– Omadingiz bor ekan, rezolyutsiya<sup>2</sup> qo'ydiribsiz, yo'qsa, bu yerda bir hafta ovorayi sarson bo'lardingiz. Shunaqa. Elga kelgan to'y.

<sup>1</sup> Zek (jargon.) – mahbus.

<sup>2</sup> Rasmiy qog'oz ustiga rahbar tomonidan yozilgan ko'rsatma.



U iyagini ko'ksidan ayirib, menga o'girildi. Ko'zlari yiltillab, ovozi qaltirab, gaplari dona-dona chiqdi:

– Bo'tam! Meni xizmat ko'rsatgan odam bo'lganim uchun ham joylashtirishadi. Men inqilob veteraniman. Sergey Mironich Kirovning<sup>1</sup> shaxsan o'zlari Saritsin<sup>2</sup> yaqinida qo'limni siqib ko'rishgan. Menga alohida nafaqa to'lashlari kerak.

Yanoq va lablari zaif qimirlab, tig' tegmagan yuzlarida mag'rurona tabassum soyasi ko'rindi.

Men uning ust-boshiga yana bir qur nazar soldim.

– Nega to'lashmayapti?

– Hayot shunaqa ekan-da, – deb xo'rsinib oldi. – Endi meni tan olishmayapti. Qaysidir arxivlar yonib ketgan, qaysilaridir yo'qolgan. Guvohlarniyam topolmaysan. Sergey Mironovichniyam o'ldirib yuborishdi... O'zim aybdorman, guvohnomalarni to'plamaganman... Faqat bittasi qolgan...

O'ng panjasini – barmoq bo'g'inlari to'mtoq-to'mtoq shishib qolgan, bir-biriga xalal berardi – cho'ntagiga olib bordi-yu, shu zahoti qisqa jonlanish poyoniga yetdi – qo'li yana shap etib tushib, qotdi-qoldi.

Quyosh allaqachon binolar ortiga berkina boshladi, qabulxonaga (yuz qadamcha qoldi) shoshilish kerak: klinikalarda joy masalasi dushvor.

Cholning yelkasidan tutdim:

– Otaxon! Ko'zingizni oching! Hov, anov eshikni ko'ryapsizmi? Ko'ryapsizmi? Men borib ochib ko'raman. Siz esa yurolsangiz, boring, bo'lmasa, meni kuting. Xaltangizni olvolaman.

U tushungandek bosh irg'adi.

Dag'al pardadevorlar (chamasi, ularning ortida hammom, kiyinish xonasi, sartaroshxona bor edi) bilan to'silgan, zalning bir qismi bo'lgan qabulxonada kunduzi, qachon qarama, kasallar tiqilishgani tiqilishgan, to qabul qilishmaguncha soat sanashardi. Ajabki, ayni damda biron zog' ko'rinmaydi. Yopiq turgan faner darchasini taqilatdim. Qirraburun, lablarini qizilga emas, binafsharangga chaplab olgan yoshgina hamshira ochdi.

<sup>1</sup> *Sergey Mironovich Kirov* (1886–1934) – rossiyalik inqilobchi.

<sup>2</sup> Hozirgi Volgograd shahrining 1925-yilgacha bo'lgan nomi.

– Nima kerak? – Aftidan, josuslar haqida komiks<sup>1</sup> o‘qib o‘tiribdi.

Nigohlari o‘ynoqi.

Unga ikkita rezolyutsiya qo‘yilgan arizani uzatib:

– U arang yuradi. Hozir opkelaman, – dedim.

– Hech kimni olib kela ko‘rmang! – cho‘rt kesib chiyilladi «binafsharang», hatto qog‘ozga ham qaramasdan. – Tartibni bilmaysizmi? Bemorlarni faqat ertalab to‘qqizdan qabul qilamiz!

«Tartib»ni men emas, u bilmas ekan. Darchaga siqqanicha boshimni va yuzimga yopib qo‘ymasligi uchun qo‘limni tiqdim. Labimni qimtib, gorillabashara bo‘ldim-da, vishillagancha, bezorilarning nag‘masiga o‘tdim:

– Menga qara, oyimtilla! Ikki qulog‘ingga quyib ol, men sening yugurdaging emasman.

Hamshira cho‘chidi, shekilli, stulini ichkariroqqa tortib, hovridan tushdi:

– Qabul yo‘q, grajdanin! Ertalab to‘qqizdan.

– Sen oldin hujjatni o‘qib ko‘r! – badxoh ovozda kiftini keltirib maslahat berdim. O‘qidi.

– Nima bo‘pti? Tartib hammaga birday. Ertaga joy bo‘lishi dar gumon. Bugun ertalab ham bo‘lmadi.

Bugun ertalab joy bo‘lmaganini u mamnunlanib aytdi, go‘yo bu bilan meni uzib-uzib olgandi.

– Odam uzoqdan kelgan, tushunyapsizmi? Boradigan joyi yo‘q.

Darchadan o‘zimni olib, lagerchasiga gapirishdan to‘xtagan bo‘lsam ham, uning yuzidan xushchaqchaq shafqatsizlik barq urib turaverdi:

– Bu yerda hamma boshqa joydan kelgan! Shuncha odamni qayoqqa qo‘yamiz? Kutishadi! Ana, borsin, kvartirada tursin!

– O‘zingiz chiqib qarang qanaqa ahvoldaligini.

– Yana nima xohlaydilar?! Bir kami bemorlarni yig‘ib yurishim qoluvdi! Men sizga sanitarka emasman!

Kekkayib qirra burnini jiyirib qo‘ydi. Labi labiga tegmay bidirldi-ya.

---

<sup>1</sup> Komiks (ing comic – kulgili) – grafikali suratlar bilan berilgan hikoyalar.

– Kim uchun o‘tiribsiz bu yerda?! – faner devorga kaftim bilan tarsillatgandim, ohak changi ko‘tarildi. – Yo‘qsa, eshiklarni yopib qo‘ying!

– Sizdan birov so‘ragani yo‘q! Surbet! – portladi oyimtilla, shartta o‘rnidan turib, aylanib o‘tib, dahlizchada paydo bo‘ldi. – Kimsiz o‘zi? O‘rgatmang menga! Bizga «Tez yordam» opkeladi!

Agar bu qalin bo‘yalgan binafsha lablar, nafarmon manikyur bo‘limganda, oyimtilla chakki emasdi. Qirra burni ham o‘ziga yarashib turibdi. Qoshlariga sezilarli darajada qalam yurgizibdi. Dim havodan ko‘ksini nim ochvolgan, pushti qiyiq ro‘moli va komsomol nishoni ko‘rinib turibdi.

– Qanaqasiga? Agar uning o‘zi bu yoqqa kelmay, ko‘chada «tez yordam» ortib opkelsa, qabul qilarmidingiz? Shunaqa qoida bormi?

U kelishmagan jussamga mensimasdan qaradi. Men ham baq-rayib turaverdim. Botinkamdan paytava chiqib turganini butunlay unutibman. Oyimtilla miyig‘ida kulib qo‘ydi-da, yana sovuq tusga kirib, adi-badiga nuqta qo‘ydi:

– Ha, bemor! Shunaqa qoida bor.

Pardadevor ortiga o‘tib ketdi.

Ortimda shitir-shitir eshitildi. O‘girildim. Hamrohim yetib kelibdi. Hammasini eshitib-tushunib turgan ekan. Devorni ushlab, kelgan-ketganlar uchun qo‘yilgan o‘rindiqqa tayanib, uniqqan hamyonni ushlaganacha, o‘ng panjasini sal silkitdi.

– Mana... – zaifgina sado chiqdi undan, – mana, unga ko‘rsating... mana...

Cholni ushlab qolishga ulgurdim – o‘rindiqqa o‘tirmo‘ldim. U nimjon barmoqlari bilan hamyonidan yagona hujjatni chiqarishga chiranar, ammo hech evini qilolmasdi.

Men undan buklangan yerlari yelimgan, eskirgan qog‘ozni olib, ochdim. Harflari bir tepaga chiqib, bir pastga tushib ketgan binafsharang satrlar yozuv mashinkasida terilgandi:

## «BUTUN DUNYO PROLETARLARI, BIRLASHINGIZ!

### Ma'lumotnoma

Berildi ushbu o'rtoq Bobrov N.K.ga shu haqdakim, u 1921-yili haqiqatan ham Jahon Inqilobi nomi ila shavkatli palonchi guberniya-ning Maxsus Topshiriqlar Otryadida bo'lgan va qolgan-qutgan yaramaslarning ancha-munchasini o'z qo'llari bilan chopgan.

Komissar.....»

Imzo.

Xira tortgan binafsharang muhr.

Ko'ksimni silab, sekin so'radim:

– Nima bu – Maxsus Topshiriqdanmi? Qaysindan?

– Hm, – dedi qaboqlarini arang ochib. – Ko'rsating unga.

Men uning qo'lini – kichkina, qoramtir tomirlari bo'rtib-bo'rtib chiqqan, bo'g'inlari to'mtoq-to'mtoq shishgan, hatto karmonidan qog'oz olishga-da noqobil o'ng panjasini ko'rib turardim. O'sha zamon sulukati yodimga tushdi – piyoda askarlarni otda turganча yonboshiga chopib ketaverishardi.

Taajjub... Qilichni bor bo'yicha ko'tarib, kalla, bo'yin, yelka aralash qulochkashlab yonboshiga chopib-uzib ketavergan bu o'ng panja. Hozir esa karmonni ushlab turishga-da majoli yo'q.

Faner darchaga yaqinlashib, yana boshimni suqdim. Ro'yxatchi qiz boshini ko'tarmay komiksini o'qib o'tiribdi. Kitob sahifasida tokchadan qo'lida to'pponcha bilan sakrab tushayotgan qoyilmagom – oyog'i osmondan – chekistga<sup>1</sup> ko'zim tushdi.

Titig'i chiqqan ma'lumotnomani kitob ustiga tashlab, o'girildim-da, eshikka yo'naldim. Tezroq boshimni quyi solib yonboshlashim zarur edi.

– Qog'ozingizni nega tiqishtiryapsiz? Opketing, bemor! – chir-sillab qoldi darchadan oyimqiz.

Veteran o'rindiqqa qapishib qolibdi. Boshi va yelkalari go'yo tanasiga botib ketgan. Nimjon barmoqlari ochiq holda osilib qolibdi. Paltosining tugmalari yechilib, egnidan oqib ketayotganday. Yum-yumaloq, shishib kegan qorni sonlarida g'alati, aqlga to'g'ri kelmaydigan ravishda yotardi.

1960

<sup>1</sup> *Chekist (Cheka)* – favqulodda komissiya xodimi.





## MUNDARIJA

|  |     |
|--|-----|
| Muz bosgan zinapoyalardan ko'tarilgan adib<br>( <i>Risolat HAYDAROVA</i> ) ..... | 3   |
| Ivan Denisovichning bir kuni<br>( <i>Risolat HAYDAROVA tarjimasi</i> ) .....     | 13  |
| Faqirsiz qishloq turmas ( <i>Ibrohim G'AFUROV tarjimasi</i> ) .....              | 141 |
| O'ng panja ( <i>Saidjalol SAIDMURODOV tarjimasi</i> ) .....                      | 187 |

*Adabiy-badiiy nashr*

**ALEKSANDR ISAYEVICH SOLJENITSIN**

**IVAN DENISOVICHNING BIR KUNI**

*Qissa va hikoyalalar*

Rus tilidan **Ibrohim G'AFUROV, Risolat HAYDAROVA**  
va **Saidjalol SAIDMURODOV** tarjimai

Nashr uchun mas'ul **A. Boboniyozov**

To'plab, nashrga tayyorlovchi **Y. Abdullayev**

Muharrir *Y. Abdullayev*

Rassom-dizayner *B. Zufarov*

Texnik muharrirlar *L. Xijova, Y. Stepanova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Musahhih. *M. Ishonxonova*

Kompyuterda tayyorlovchi *B. Dushanova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 30-oktabrda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog'ozi.

«Times New Roman» garniturasida ofset usulda bosildi.

Shartli bosma tabog'i 12,50. Nashr tabog'i 12,31.

Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 21-443.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.


100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.


Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz).

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)





18756,50 сум.





28



**A.I. Soljenitsin**

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7606-3-9



9 789943 760639